

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

***O'ZBEK TILI VA UNI O'QITISH USLUBIYATI
KAFEDRASI***

**O'ZBEK TILI O'QITISH NAZARIYASI VA
METODIKASI**

fanidan ishchi dasturi

Bilim sohasi: 100000-Ta'lim

Ta'lim sohasi: 140000-O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani

Bakalavriat yo'nalishlari: 5111200-O'zbek tili va adabiyoti

JIZZAX -2014

Mazkur o`quv-uslubiy kompleks yangilangan DTS lari (2011-yil) talablari hamda Jizzax davlat pedagogika instituti Ilmiy kengashining 2014-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar: Filologiya fanlari nomzodi, dotsent **T.Almamatov**
Ped.fan.nom. **Q.Yadgarov**

Taqrizchilar: **dots. Fayzullayev B.**
dots.Tursunpo`latov M.

Majmua Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti o`zbek tili va uni o`qitish uslubiyati kafedrası ilmiy-metodik seminarining 2014-yil 29-avgustdagi 1-sonli yig`ilishida muhokama qilingan va ma`qullangan.

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti ilmiy-metodik kengashining 2014-yil avgustdagi 1-sonli yig`ilishi qaroriga asosan tasdiqlangan.

O'zbek tili va uni o'qitish uslubiyati kafedrasining 1-sonli yig'ilishi qaroridan

K O' C H I R M A

Jizzax shahri

2014-yil 29-avgust

K U N T A R T I B I :

3. Har xil masalalar.

3.1. Kafedrada o'qitiladigan fanlardan tuzilgan o'quv-uslubiy majmualarni tasdiqlash.

Eshitildi: - Kafedra mudiri Q. Yadgarov so'zga chiqib, kafedrada tayyorlangan "O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi" ixtisoslik bloki kursi bo'yicha o'quv-uslubiy majmua tayyorlanganini, ushbu majmua bunday ishlarga qo'yiladigan barcha talablar asosida tuzib chiqilganini e'tirof etdi. Fan o'quv va ishchi dasturlari, ma'ruza matnlari, amaliy mashg'ulotlar uchun konspektiv kurs va ishlanmalar, reyting nazorati (ON, YN) savolnomalari va testlar, mustaqil ta'lim bo'yicha ko'rsatma va mavzular, pedagogik texnologiyalar qo'llangan dars ishlanmalari, talabalar bilimini baholashning reyting tizimi mezonlari va ballar taqsimoti kabilar me'yor darajasida bajarilganini ta'kidladi.

Kafedra a'zolaridan prof. X. Jo'rayev, dots. M. Tursunpo'latov, dots. B.Fayzullayev, S. Soyipov, L. Ibragimovalar ham so'zga chiqib, tuzilgan majmuani ijobiy baholashdi hamda ushbu majmuaning chop etilib, o'quv jarayoniga tadbiriq etilishini ma'qulladilar.

Shu bilan birgalikda kafedra mudiri Q. Yadgarov kafedraga tegishli shu va boshqa barcha fanlardan ham majmualarning chop etilishini tezlashtirish zarurligini aytib o'tdi.

Yig'ilish qarori:

1.O'zbek tili o'qitish metodikasi kursidan tayyorlangan o'quv-uslubiy majmua nashrga tavsiya etilsin.

Yig'ilish raisi:

p.f.n. Q. Yadgarov

Kotib:

Z.Qarshiboyeva

ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ СТАНДАРТИ

**Ўзбекистон узлуксиз таълимнинг
Давлат таълим стандартлари**

Олий таълимнинг Давлат таълим стандарти

**5111200 – *Ўзбек тили ва адабиёти* таълим йўналиши бўйича
бакалаврларнинг тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлар
мазмунига қўйиладиган**

ТАЛАБЛАР

Расмий нашр

ГОСУДАРСТВЕННЫЙ СТАНДАРТ УЗБЕКИСТАНА

**Государственные образовательные стандарты
непрерывного образования Узбекистана**

Государственный образовательный стандарт высшего образования

ТРЕБОВАНИЯ

**к необходимому содержанию и уровню
подготовленности бакалавра по направлению
*5111200 – Узбекский язык и литература***

Издание официальное

**Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги
Тошкент**

ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ СТАНДАРТИ

**Ўзбекистон узлуксиз таълимининг
Давлат таълим стандартлари**

Олий таълимнинг Давлат таълим стандарти

**5111200 – *Ўзбек тили ва адабиёти* таълим йўналиши бўйича
бакалаврларнинг тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлар
мазмунига қўйиладиган**

ТАЛАБЛАР

Расмий нашр

**Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги**

Тошкент

СЎЗ БОШИ

1. ИШЛАБ ЧИҚИЛГАН ВА КИРИТИЛГАН:

- Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълимини ривожлантириш маркази;
- Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети.

2. ТАСДИҚЛАНГАН ВА АМАЛГА КИРИТИЛГАН:

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 201_ йил «__» _____ даги ____ - сонли буйруғи асосида.

Ўзбекистон Республикаси ҳудудида мазкур стандартни амалга киритилиши (амал қилишининг тўхтатилиши) ва унга ўзгартиришлар киритилиши тўғрисидаги маълумотлар «Ўзстандарт» агентлиги томонидан нашр этилувчи кўрсаткичларда чоп этилади.

Ўзбекистон Республикаси ҳудудида мазкур стандартни расмий чоп этиш ҳуқуқи Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигига тегишлидир

II

МУНДАРИЖА

		бет
1	Қўлланилиш соҳаси	1
2	Атамалар, таърифлар, қисқартмалар	2
3	Таълим йўналишининг тавсифи	3
4	5111200–Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича бакалаврлар касбий фаолиятининг тавсифи	3
5	Бакалаврнинг тайёргарлик даражасига қўйиладиган талаблар.....	4
6	Таълим дастурининг мазмуни ва компонентлари	14

7	Бакалавриятнинг асосий таълим дастурларини ўзлаштириш бўйича амалга ошириладиган шароитларга белгиланган талаблар.....	23
7.1	Бакалавриятнинг асосий таълим дастурлари ўзлаштирилишига белгиланган умумий талаблар	23
7.2	Таълим дастурини амалга ошириш талаблари	24
7.3	Малакавий амалиётни ташкил этишга қўйиладиган талаблар.....	24
7.4	Ўқув жараёнини педагогик кадрлар билан таъминлашга талаблари	25
7.5	Таълим жараёнини ўқув-методик ва ахборот ресурслари билан таъминлашга талаблар.....	25
7.6	Ўқув жараёнининг моддий-техника базасига қўйилган талаблар	26
8	Бакалавр тайёрлаш сифатини баҳолаш	26
9	Эслатма	27
10	Давлат таълим стандартининг амал қилиш муддати	28
11	Илова	29
12	Библиографик маълумотлар	31

ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ СТАНДАРТИ

**Ўзбекистон узлуксиз таълимининг
Давлат таълим стандартлари
Олий таълимнинг Давлат таълим стандарти
5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича
бакалаврларнинг тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлар
мазмунига қўйиладиган
ТАЛАБЛАР**

**Государственные образовательные стандарты
непрерывного образования Узбекистана
Государственный образовательный стандарт высшего образования
ТРЕБОВАНИЯ
к необходимому содержанию и уровню подготовленности бакалавра по
направлению 5111200 – *Узбекский язык и литература***

**State Educational Standards of Continuous Education of Uzbekistan
State Educational Standards of Higher Education
REQUIREMENTS
Necessary for content and level of Bachelors in 5111200 – *The Uzbek
language and Literature***

**Амал қилиш муддати «__» _____ 201__ йилдан
«__» _____ 201__ йилгача**

I Қўлланиш соҳаси

1.1 Олий таълимнинг мазкур давлат таълим стандарти (ОТ ДТС) **5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти** таълим йўналиши бўйича олий маълумотли бакалаврлар тайёрлашда асосий таълим дастурларининг ўзлаштирилишини амалга оширишда Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги барча олий таълим муассасалари учун мажбурий талаблар мажмуини ифодалайди.

1.2 Мазкур таълим йўналиши бўйича кадрлар тайёрлаш ваколатига эга бўлганда Олий таълим муассасаси унинг асосий таълим дастурини амалга ошириш ҳуқуқига эга деб ҳисобланади.

1.3 ОТ ДТСнинг асосий фойдаланувчилари:

- мазкур таълим йўналиши ва тайёргарлик даражаси бўйича фан, техника ва ижтимоий соҳа ютуқларини ҳисобга олган ҳолда асосий таълим дастурларини сифатли ишлаб чиқиш, самарали амалга ошириш ва янгилашга масъул олий таълим муассасаларининг профессор-ўқитувчи жамоалари;

- таълим йўналишининг асосий таълим дастурини ўзлаштириш бўйича ўқув-тарбия фаолиятини самарали амалга оширувчи барча ходимлар ва талабалар;
- олий таълим муассасаларининг ўз ваколат доирасида битирувчиларнинг тайёргарлик даражасига жавоб берадиган бошқарув ходимлари (ректор, проректорлар, ўқув бўлими ва деканат);
- битирувчиларнинг тайёргарлик даражасининг баҳолашнишини амалга оширувчи Давлат аттестация ва имтиҳон комиссиялари;
- олий таълим муассасасини молиялаштиришни таъминловчи органлар;
- олий таълим тизимини аккредитация ва сифатини назорат қилувчи ваколатли Давлат органлари;
- таълим йўналишини ихтиёрий танлаш ҳуқуқига эга бўлган абитуриентлар ва бошқа манфаатдорлар.

2 Атамалар, таърифлар, қисқартмалар

Мазкур стандартда Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни, Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури ҳамда олий таълим соҳасидаги халқаро ҳужжатларга мос равишда атамалар ва таърифлардан фойдаланилган:

бакалавриятнинг асосий таълим дастурлари (бакалаврият дастури) – талабаларнинг тарбияси ва тайёргарлик даражаси сифатини таъминлашга йўналтирилган ўқув режаси, ўқув курслари, фанлари (модуллари)нинг дастурларини қамраб олган ўқув-услубий мажмуалари ҳамда малакавий амалиётлар дастурлари, ўқув жараёни жадвали ва мос равишдаги таълим технологияларини амалга оширилишини таъминловчи методик материаллар;

Интеграллашган курс – таълим дастуридаги ўқув фанлари мазмун жиҳатдан ўзаро боғланган, лекин ўз мустақил фанига эга бўлган фанлар модули.

касбий фаолият соҳаси – илмий, ижтимоий, иқтисодий соҳаларда, ишлаб чиқаришда намоён бўладиган касбий фаолият объектларининг мажмуаси;

касбий фаолият объекти – касбга йўналтирилган предметлар, воқеликлар, жараёнлар ва тизимлар;

касбий фаолият тури – таълим йўналишига ўзгартишлар киритиш мақсадида касбий фаолият объектига таъсир қилиш тавсифи методлари ва усуллари;

компетентлик - шахснинг муайян таълим йўналиши ёки мутахассислиги бўйича олган билим, малака ва кўникмалари ҳамда шаклланган шахсий хислатларини меҳнат фаолиятида муваффақиятли қўллай олиш қобилияти.

компетенция – билим, малака ва шахсий сифатларини маълум соҳада муваффақиятли фаолият учун қўллай олиш;

модул – таълим ва тарбиянинг муайян мақсади ва натижасига эришиш бўйича ўзаро боғланган ҳамда мантиқий тугалликка эга бўлган ўқув фанлари ва уларнинг таркибий қисмлари.

йўналиш – асосий таълим дастурининг касбий фаолиятнинг муайян тури ва ёки объектига йўналганлиги;

таълим дастури – муайян бакалаврият таълим йўналиши ёки магистратура мутахассислигида мажбурий ва танлаб ўқитиладиган фанлар тизими, ўтказиладиган амалиёт турлари ва уларнинг мазмуни.

таълим йўналиши – битта касбий фаолият доирасидаги турли даражадаги таълим дастурларининг мажмуи;

таълим натижалари – ўзлаштирилган билим, малака ва кўникмалар ҳамда ўзлаштирилган компетенциялар;

ўқув туркуми – асосий таълим дастурининг илмий ва (ёки) касбий фаолиятнинг тегишли соҳасида билим, малакаларни ўзлаштириш ва компетенцияларни шакллантиришни таъминлайдиган фанлар (модуллари) йиғиндиси;

АРМ- ахборот ресурслари маркази;
 ИТИ – илмий -тадқиқот ишлари;
 ОТМ- олий таълим муассасаси;
 ЎММ – ўқув - методик мажмуа.

3 Таълим йўналишининг тавсифи

3.1 Ушбу таълим йўналишини қамраб олувчи олий таълимнинг асосий таълим дастурини ўзлаштирган, якуний давлат аттестациясидан муваффақиятли ўтган шахсга «бакалавр» малакаси (даражаси) ҳамда олий маълумот тўғрисидаги давлат намунасидаги расмий ҳужжат(лар) берилади.

3.2 Асосий таълим дастурининг меъёрий муддати ва мос малака (даража)си 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал Асосий таълим дастурининг муддати ва битирувчиларнинг малакаси

Таълим дастурининг номи	Малака (даража)	Таълим дастурини ўзлаштиришнинг меъёрий муддати
Бакалаврият таълим дастури	Бакалавр	4 йил

4 5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича бакалаврлар касбий фаолиятининг тавсифи

4.1 Бакалаврнинг касбий фаолият соҳаси

5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти – умумий ўрта таълим мактаблари, академик лицей ва касб-ҳунар коллежлари учун ўзбек тили ва адабиёти ўқитувчисини тайёрлаш жараёнида фойдаланиладиган фанлар, педагогик фаолият воситалари, усуллари, методлари йиғиндисидан иборат бўлган таълим йўналишидир.

Бакалаврларнинг касбий фаолияти қуйидагиларни қамраб олади:

- Касбий таълим дидактикаси;
- Касбий таълим педагогикаси ва таълим технологияси;
- Ўқитишнинг дидактик воситалари;
- Таълимнинг электрон воситалари;
- Умумий ўрта таълим;
- Ўрта махсус, касб-ҳунар таълим тизимидаги ўрни ва роли.

4.2 Бакалаврларнинг касбий фаолияти объектлари

5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бакалаврларнинг **касбий фаолияти объектлари** – умумтаълим мактаблари, академик лицейлар, касб-ҳунар коллежлари ва мактабдан ташқари таълим муассасалари, ўқувчилар, ўқув-тарбия жараёни, ўқитишнинг педагогик технологиялари ва методлари, ўзбек тили ва адабиёти, араб графикаси.

4.3 Бакалаврларнинг касбий фаолияти турлари

5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича бакалавр ўз психологик-педагогик, касбий тайёргарлигига мувофиқ қуйидаги касбга оид фаолият турларини юритиши мумкин:

- ўқитувчилик;
- тарбиячилик;
- ўқув-методик;
- илмий-тадқиқот.

Бакалавр тайёрланадиган касбий фаолиятнинг муайян турлари таълим жараёнининг манфаатдор иштирокчилари билан ҳамкорликда олий таълим тизими томонидан аниқланади.

4.4 Бакалаврлар касбий фаолиятининг вазифалари

5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича бакалавр ўз психологик-педагогик, касбий тайёргарлигига мувофиқ қуйидаги касбга оид фаолият турлари билан шуғулланиши мумкин:

- **ўқитувчилик:** академик лицейлар, касб-хунар коллежлари, умумтаълим мактабларида ўзбек тили ва адабиёти, эски ўзбек тили ва ёзуви фани ўқитувчиси;
- **тарбиячилик:** мактабдан ташқари муассасаларда фаолият;
- **ўқув-методик:** ушбу йўналишлар бўйича таълимни амалга оширувчи вазирликлар, унинг тармоқ бошқармалари ва муассасаларида методист ;
- **илмий-тадқиқот:** ўқув жараёни билан боғлиқ жараённи ўрганувчи илмий-тадқиқот ишларини бажариши мумкин.

4.5 Таълимни давом эттириш имкониятлари

Бакалавр касбий тайёргарликдан кейин турдош таълим йўналишларининг магистратурада мутахассисликлари бўйича таълимнинг ваколатли давлат органи томонидан аниқланадиган икки йилдан кам бўлмаган муддатда магистратурада ўқишни давом эттириши мумкин

Педагогик фаолиятни олиб борганда ўз малакасини ҳар уч йилда ошириб туриши керак.

5 Бакалаврнинг тайёргарлик даражасига қўйиладиган талаблар

5.1 5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича битирувчи қуйидаги умумий малакавий компетенцияларга эга бўлиши лозим:

а) умумий малакавий компетенциялар:

- дунёқараш характеридаги билимлар тизимига эга бўлиши, гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар асосларини, жорий давлат сиёсатининг долзарб масалаларини билиши, ижтимоий муаммолар ва жараёнларни мустақил таҳлил қила олиши;
- Ватан тарихини билиши, маънавий, миллий ва умуминсоний қадриятлар масалалари юзасидан ўз фикрини баён қила олиши ва илмий асослай билиши, миллий истиқлол ғоясига асосланган фаол ҳаётий нуқтаи назарга эга бўлиши;
- табиат ва жамиятда кечаётган жараён ҳамда ҳодисалар ҳақида яхлит тасаввурга эга бўлиши, табиат ва жамият ривожланиши ҳақидаги билимларни эгаллаши ҳамда улардан замонавий илмий асосларда ҳаётда ва ўз касб фаолиятида фойдалана билиши;
- инсоннинг бошқа инсонга, жамиятга, атроф-муҳитга муносабатини белгиловчи ҳуқуқий ва маънавий мезонларни билиши, касбий фаолиятида уларни ҳисобга ола билиши;
- соғлом ҳаёт тарзини юритиш зарурияти бўйича илмий тасаввур ва эътиқодга эга бўлиши, ўз-ўзини жисмоний чиниқтириши;
- ахборот йиғиш, сақлаш, қайта ишлаш ва ундан фойдаланиш усуллари эгаллаган бўлиши, ўз касбий фаолиятида асосли мустақил қарорларни қабул қила олиши;
- тегишли бакалаврият йўналиши бўйича рақобатбардош умумкасбий тайёргарликка эга бўлиши;
- янги билимларни мустақил эгаллай билиши, ўз устида ишлаши ва ўз меҳнатини илмий асосда ташкил қила олиши лозим.

б) касбий компетенциялар, жумладан:

Умумкасбий компетенциялар:

- *назарияни амалиётга татбиқ этиш бўйича*: ўзбек тилшунослиги, умумий тилшунослик, ўзбек адабиёти тарихи, назарияси, қардош ва чет эл адабиётига оид билимларни эгаллаш, тил фанлари, адабиётнинг долзарб масалаларини илғай олиш ва ўқувчиларга етказа олиши;

- *метод ва технологияларни ўқув жараёнига татбиқ этиш бўйича*: анъанавий ва ноанъанавий методлар, илғор педагогик технологияларни фан ва мавзуларни ўтиш чоғида танлай олиши, ўз фанида метод ва технологияларни ижодий қўллай олиши, фактларни таҳлил қилиши, умумлаштириш ва шу асосда хулоса чиқара олиши;

- *илмий-методик ишларни амалга ошириш бўйича*: ҳар бир мавзунинг илмий-назарий, илмий-методик, психологик хусусиятларини ёрита олиши, ўқитишнинг илмий асосларини

таҳлил қилиб бориши, методик бирлашмаларда умумий ўрта таълим, ўрта махсус, касб-ҳунар таълими мазмунида фаннинг ўрнини белгилай олиши ва унинг илмий муаммолари бўйича педагогик ўқишларда маърузалар ўқиши, мактаб, академик лицей ва касб-ҳунар коллежларида дифференциал таълимни йўлга қўя олиши, ўқув жараёни билан боғлиқ барча ҳужжатларни юрита олиши;

- *маънавий-маърифий ишлар бўйича*: ҳар бир ўқувчининг руҳий, ахлоқий ҳолатини билиши, яқка тартибда ўқувчилар билан ва гуруҳ билан ишлай олиши, маънавий-маърифий ишларни режалаштира олиши, уни ташкил этиш методикасини эгаллаш, ўқувчилар онгига миллий истиқлол ғоясини сингдириш, диний экстремизмга қарши иммунитетни юзага келтириш метод ва технологияларини билиши;

- *ўқув жараёнини ташкил этиш ва бошқариш бўйича*: дарс типларини билиши ва уларни мақсадга мувофиқ ташкил этиши, ўқув режа ва фан дастури, тематик режани тайёрлай олиши, таълим муассасаси методик бирлашмаси ишини режалаштириш ва раҳбарлик қила олиши, дарс жадвалининг тузилиш тамойилларини билиши, таълим муассасасига раҳбарлик қилишни **билиши керак**.

Касбий маҳорат бўйича ўз билими ва кўникмасини эгаллаган лавозимида мустақил фаолият кўрсатиш ҳамда касбий лаёқат талабларига **жавоб бериши керак**.

5.2 Таълим дастурлари бўйича билим, малака ва кўникмаларга қўйиладиган талаблар

5.2.1 Гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар бўйича талаблар

Гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар блок бўйича талаблар Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги тасдиқлаган «*«Гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар»* блоки бўйича бакалаврлар тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлар мазмунига қўйилган талаблар» асосида белгиланади.

5.2.2 Математика ва табиий-илмий фанлар бўйича талаблар

Математик коммуникатив курс

Бакалавр:

- дунёни билишнинг махсус усули бўлган математика, унинг тушунчалари ва тасаввурларининг яхлитлиги;

- ахборот технологиясининг жамиятни ривожланишидаги ўрни ва аҳамияти;

- янги ахборот технологияларидан таълим соҳасида фойдаланиш формалари **тўғрисида тасаввурга эга бўлиш**;

- математик анализ, аналитик геометрия ва математик статистиканинг асосий тушунчалари ва методлари;

- педагогик дастурлаш воситалари;

- матнларни ва график ахборотларни тайёрлаш, таҳлил қилиш ва ишлов бериш, ахборот технологияларини **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши**;

- объектларни сифат ва миқдор муносабатларини ифодалашда математик белгилардан фойдаланиш;

- педагогик дастурлаш воситаларини ишлаб чиқиш;
- янги ахборот технологиялари воситалари билан ишлаш;
- тармоқ технологиялари (internet, электрон почта ва бошқалар) воситалари билан ишлаш;
- ахборот технологиясининг дастурий воситаларидан фойдаланиб, турли хужжатларни тайёрлаш ва ишлаб чиқиш **кўникмасига эга бўлиши лозим.**

Табиий-илмий курс

Бакалавр:

- коинотнинг яхлит физик объект эканлиги ва унинг эволюцияси;
- табиий фанларнинг фундаментал бирлиги, табиатни билишнинг тугалланмаслиги, унинг янада тараққий этиши;
- табиатда дискретлик ва давомийлик;
- табиатдаги тартиблилик ва тартибсизлик орасидаги нисбат ҳақида, объектлар тузилишининг тартибга солинганлиги, уларнинг тартибсизлик ҳолатига ўтиши ва аксинча ҳолатлар;
- табиатнинг динамик ва статистик қонунлари;
- табиий тизимнинг объектив тавсифи бўлган эҳтимоллик;
- табиатшуносликнинг турли бўлимларидаги ўлчамлар ва ўзига хослик;
- табиатшуносликнинг фундаментал константалари;
- мувофиқлик (симметрия) тамойили ва табиатни асраш қонунлари;
- табиатдаги ҳолатлар ва унинг вақт ўтиши билан ўзгариб туриши;
- табиатдаги объектларнинг индивидуал ва коллектив муносабатлари;
- табиатшуносликда замон;
- материя тузилишининг биологик шакли, хусусияти, тирик системаларни қайта тиклаш ва ривожлантириш тамойиллари;
- биосфера ва унинг эволюцион йўналиши;
- тирик системалар яхлитлиги ва гомеостазии;
- организм ва атроф-муҳитнинг ўзаро таъсири, организмлар ҳамжамоаси, экосистемалар;
- табиатни муҳофаза қилишнинг экологик тамойиллари, табиатдан оқилона фойдаланиш, табиатни асрашга қаратилган технологиялар яратиш истикболи;
- табиатшуносликдаги энг янги кашфиётлар, улардан техник қурилмалар яратишда фойдаланиш истикболлари;
- физик ва биологик моделлаштириш;
- одам биосфераси ва ижтимоий биологияси бирлиги табиати нуқтаи назардан уларнинг касбий фаолиятдаги оқибатлари;
- Марказий Осиё мамлакатларининг географик жойлашиши, табиий-иқтисодий ва аҳоли потенциали;
- ёш физиологияси ва гигиенасининг асосий тамойиллари **тўғрисида тасаввурга эга бўлиши;**
- механика, электр ва магнетизм, тебраниш ва тўлқинлар, квант физикаси, статик физика ва термодинамика, моддаларнинг реакцияга бардошлилиги, экологиянинг асосий тушунчалари, қонунлари ва моделлари;
- физика ва экологияда назарий ва экспериментал тадқиқотлар олиб бориш усуллари;
- Марказий Осиё мамлакатларининг географик тавсифномаси, муаммолари ва ривожланиш истикболлари;
- физик ва биологик ҳодисаларнинг зарарли оқибатларидан атроф-муҳитни, инсонни муҳофаза қилиш усуллари ва методлари;
- ёш физиологияси фанининг асослари ва гигиена талабларини **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши;**
- содда физик, кимёвий ва биологик тизим моделларидан ўқув жараёнида фойдаланиш;

- табиатшунослик фанларининг турли бўлимлари учун характери бўлган катталикларнинг тартиб рақамларини ўлчаш ва баҳолаш;
- атроф-муҳит ва одамни заҳарли моддалардан муҳофаза қилиш;
- гигиена талабларига риоя қилиш **қўникмаларига эга бўлиши лозим.**

5.2.3 Умумқасбий фанлар блоқи бўйича талаблар

Психология ва педагогика курси

Умумий психология

умумий психология

Бакалавр:

- психологиянинг табиий ва ижтимоий фан сифатида талқин қилиниши;
- психологиянинг соҳалари;
- психология ва фалсафанинг ўзаро алоқаси;
- психология ва илмий-техник тараққиёт;
- педагог фаолиятида психологиянинг етакчи аҳамиятга эга эканлиги **тўғрисида тасаввурга эга бўлиши;**
- психика тирик мавжудотнинг объектив борлиқни акс эттириш шакли эканлиги;
- психика ва онг муносабати;
- улуғ мутафаккирларнинг психологик қарашлари;
- психологиянинг ўрганиш методлари;
- фаолият ва мотивлар, фаолиятнинг асосий турлари;
- рефлексия назарияси;
- одам психикасининг пайдо бўлиши;
- одам психикасининг онтогенез тараққиёти;
- юксак психик функцияларининг таркиб топиши;
- мотивация соҳалари;
- иродавий ҳаракатлар ва уни бошқариш;
- индивид, шахс, индивидуаллик;
- шахс фаолияти;
- шахсни экспериментал тадқиқ қилиш методлари;
- мулоқот ва унинг кўп мақомли характери;
- нутқ ва унинг функциялари;
- диққат, унинг физиологик механизмлари, турлари;
- сезги ва идрокнинг физиологик асослари;
- хотира назарияси;
- хаёл ва унинг турлари;
- тафаккур ва ҳиссий билиш;
- темперамент назарияси, типлари;
- характер ва унинг бошқа психологик ҳодисалар билан боғлиқлиги;
- қобилиятнинг сифат ва миқдор характеристикасини **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши;**
- шахс (ўқувчи)нинг психологик хусусиятларини ўрганувчи метод ва технологиялар;
- ўқув жараёнини бошқариш;
- экспериментлар ўтказиш;
- шахс (ўқувчи) психикасининг ўзига хос хусусиятларини кузатиш;
- ўқув жараёнида турли анкета ва бошқа усулларни қўллай олиш;
- психологик маърифий ишларни ташкил этиш **қўникмаларига эга бўлиши лозим.**

ёш ва педагогик психология

Бакалавр:

- умумий психология ва ёш психологияси;
- умумий психология ва педагогик психология;
- физиологик ва психологик ривожланиш жараёни;

- ёш ва педагогик психологиянинг ўқитувчи фаолиятида тутган ўрни тўғрисида **тасаввурга эга бўлиши;**

- иқтидорли болалар ва уларни танлаш;
- ёш психологиясининг пайдо бўлиши;
- ёш психологиясини ўрганиш методлари;
- таълимнинг ёш психологияси тараққиётида тутган ўрни;
- мактабгача ёш даврининг ўзига хос хусусиятлари;
- кичик мактаб ёши болалар психологияси;
- ўсмир ва ўспиринлар психологияси;
- таълим ва ақлий тараққиёт;
- педагогик қобилият ва унинг турлари;
- ўқитувчи шахсига қўйиладиган психологик талабларни **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши;**

- болаларнинг психологиясига хос хусусиятларни ўрганиш бўйича экспериментлар ўтказиш;

- болаларнинг мактабга тайёргарлиги бўйича хулоса бера олиш;
- инсоннинг ривожланиш босқичларидаги психологик ўзгаришларини тадқиқ қилиш;

- педагогик фаолиятда ўқувчиларнинг психологик хусусиятлари, улардаги турли жараёнлар бўйича маслаҳатлар олиб бориш;

- ёш психологияси бўйича олиб борилган эксперимент ва кузатувларни расмийлаштириш **қўникмаларига эга бўлиши лозим.**

Умумий педагогика

Педагогика назарияси ва тарихи

Бакалавр:

- илмий тадқиқот объектлари ва методлари;
- педагогиканинг ижтимоий фан эканлиги;
- педагогика фанининг методологияси;
- педагогиканинг жамиятдаги ўрни;
- таълимни инсонпарварлаштириш ва демократлаштириш, унинг узвийлиги, узлуксизлиги;
- педагогика фанининг асосий ривожланиш босқичлари.
- ўтмиш ва замонавий педагогиканинг асосий йўналишлари;
- илғор педагогик қарашлар;
- жаҳон таълим тизими;
- педагогиканинг мақсадига кўра турлари;
- педагогик жараёндаги интеграциялар **тўғрисида тасаввурга эга бўлиши;**
- Ўзбекистон Республикасининг таълим соҳасидаги сиёсати, кадрлар тайёрлаш миллий модели;
- таълим ва тарбиянинг ўзига хос хусусиятлари, бирлиги, дифференциацияси, ягона педагогик жараён;
- ХХІ аср педагоги образи;
- педагогик антропология;
- таълим назарияси (дидактика)нинг асосий компонентлари: концепциялари, парадигмалари;
- таълим принциплари;
- таълим методлари, технологиялари;
- таълим турлари ва босқичлари;
- таълимни ташхис қилиш;
- тарбия назариясининг моҳияти;
- тарбиянинг мазмуни, принциплари;
- тарбияда муҳит (социум), руҳият(психология);

- тарбия методлари ва технологиялари;
- махсус педагогиканинг ўзига хос хусусиятлари;
- тарбия турлари;
- жамоада, оиладаги тарбия ҳамда ўз-ўзини тарбиялашнинг ўзига хос хусусиятлари;
- Ўзбекистон Республикаси таълим тизими;
- таълимни бошқариш шакллари;
- шахсга таълим ва тарбия бериш ғоясининг пайдо бўлиши;
- таълим ва тарбия тўғрисида Шарқ ва Ғарб мутафаккирларининг қарашлари;
- тарбия, мактаб ва педагогик фикрнинг тараққий этиш тарихи;
- жаҳон педагогик жараёни;
- Ўзбекистон Республикасида педагогика фанининг ривожланишини **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши**;
- таълим ва тарбия жараёнида миллий ғоя ва маънавиятимизнинг бой меросларидан фойдаланиш;
- ўз педагогик фаолиятини режалаштириш;
- таълим муассасаларида ўқитиш ва тарбиялашнинг замонавий метод ва технологияларини қўллаш;
- ўқувчини рағбатлантириш, унинг фаолиятини назорат қилиш, истеъдоди, иқтидорини рўёбга чиқариш бўйича тадбирлар ишлаб чиқиш, айти замонда жазолашнинг замонавий шаклларида фойдаланиш;
- ўқувчилар билимини баҳолаш;
- ота-оналар, жамоа, ўқувчилар билан яқин ва гуруҳ бўлиб ишлаш;
- ўқувчилар гуруҳларини бошқариш **қўникмаларига эга бўлиши лозим.**

педагогик технологиялар

Бакалавр:

- анаънавий ўқитиш методлари ва педагогик технологиялар;
- таълим жараёни ва технологик жараён;
- педагогик фаолият ва ижод;
- таълимда новаторлик;
- педагог шахсининг имкониятлари;
- билиш жараёнини оптималлаштиришда педагогик технологиянинг аҳамияти;
- педагогик технология тушунчаси ва унинг таърифлари;
- педагогик технология ва ахборот технологиялари **тўғрисида тасаввурга эга бўлиши**;
- педагогик технология жараёни, уни лойиҳалаш;
- педагогик технологияни таъминловчи жиҳозлар, воситалар;
- технологик жараёнларнинг такомиллашиб бориш тарихи;
- ўқувчи шахси ва педагогик жараён;
- педагогик технологияларнинг илмий-назарий асослари;
- анаънавий таълим методлари ва технологиялари;
- педагогик жараённи шахсга йўналтирилган педагогик технологиялар: ҳамкорлик педагогикаси ва б.;
- таълим олувчиларнинг фаолиятини жонлантирувчи педагогик технологиялар;
- лойиҳалаштириш асосида ўқув жараёнини бошқариш технологиялари;
- модулли, интерактив, ўйинли ва бошқа технологиялар;
- ривожлантирувчи таълим технологияларини **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши**;
- таълим олувчиларнинг билиш қобилиятларини баҳолай олиш;
- конкрет вазиятни ҳисобга олиб, зарур бўлган технологияларни танлаш;
- технологик жараённи лойиҳалаш;
- замонавий педагогик технологияларни таҳлил қилиш, ўқув жараёнига татбиқ этиш;
- технологик жараённи сифатли ташкил этиш;

- педагогик технология лойиҳалари, технологик карталарни ишлаб чиқиш;
- таълим оловчилар билимини аниқлаш бўйича эксперимент ўтказиш, қайта алоқани таъминлаш **қўникмаларига эга бўлиши лозим.**

педагогик маҳорат

Бакалавр:

- педагог касбининг ўзига хос хусусиятлари;
- педагог шахси, унинг жамиятда тутган ўрни;
- педагог фаолиятининг асосий йўналишлари;
- касбий маҳорат тушунчаси;
- педагог ва таълим соҳасидаги ахборот технологиялар;
- XXI аср педагогига қўйиладиган асосий талаблар **тўғрисида тасаввурга эга бўлиши;**
- педагогик фикр тарихида маҳорат масалалари;
- педагогик қобилият, унинг турлари;
- педагогнинг коммуникатив қобилияти, унинг воситалари;
- педагогнинг мулоқот маданияти ва психологияси;
- педагог ва таълим оловчи ўртасидаги мулоқотнинг ўзига хос хусусиятлари;
- педагогик назокат ва одоб-ахлоқ меъёрлари;
- педагогик техника ва уни шакллантириш усуллари;
- таълим жараёнидаги педагогнинг маҳорати;
- педагог маҳоратини такомиллаштириш шарт-шароитларини **билиши, малака**

ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши;

- танланган метод ва технологияларни жорий қилишда муҳитни, вазиятни баҳолай олиш;
- таълим ва тарбия жараёнида талаб қилинган иродани намоёни қилиш, сабр-тоқат, қатъият, қайфиятни ўзгартира олиш, жавобгарликни ҳис қилиш;
- юз берган нохуш вазиятдан чиқиб кета олиш;
- педагогик жараёнда ҳар қандай низоларнинг олдини олиш;
- ўз хатти-ҳаракатларини бошқара олиш ва бунда гўзалликка эришиш;
- ўз педагогик назокати ва одобини такомиллаштириб бориш;
- назокат билан сўзлаш техникасига риоя қилиш;
- таълим ва тарбия жараёнида санъаткорлик унсурларидан фойдаланиш;
- ўз меҳнатини расмий ва ижодий ташкил эта олиш: вақтдан унумли фойдаланиш;
- ўз маҳоратини тинмай ошириб бориш;
- илғор тажрибаларни ўз фаолиятига сингдириш **қўникмаларига эга бўлиши лозим.**

Ўқитувчи нутқи маданияти

Бакалавр:

- маданият ва унинг инсон ижтимоий ҳаётида тутган ўрни;
- нутқ ва унинг шакллари;
- нутқ техникаси;
- нутқ маданиятининг бошқа тилшунослик фанлари билан алоқаси;
- нутқий фаолият **тўғрисида тасаввурга эга бўлиши;**
- нутқ маданиятининг назарий асослари;
- нутқ маданиятининг коммуникатив белгилари;
- нутқ маданияти ва стилистик нормалари;
- нутқ маданияти ва адабий тил;
- нутқ маданиятининг таълим тараққиётидаги ўрни;
- илмий-техник терминология ва нутқ маданияти;
- нотиклик санъати асослари;
- нутқ маданиятини такомиллаштириш йўллари **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши;**
- ифодаларни тўғри тузиш;

- нутқни мантиқли, аниқ ифодадай олиш;
- соҳа терминларини билиш;
- адабий тилда соф гаплаша олиш;
- таълим жараёни этикетларига риоя қилиш;
- нотиклик санъатини намойиш қила олиш **қўникмаларига эга бўлиши лозим.**

Ўзбек тили ва адабиётини ўқитиш методикаси

ўзбек тили ўқитиш методикаси

Бакалавр:

- ўзбек тилининг таълим тизимида тутган ўрни;
- ўзбек тилини ўқитиш методикасининг педагогика, психология фанлари билан боғлиқлиги;

- ўзбек тилини ўқитиш методлари ва технологиялари тарихи;

- ўзбек тили бўйича яратилган дарсликлар, қўлланмаларнинг хусусиятлари

тўғрисида тасаввурга эга бўлиши;

- ўзбек тилини ўқитиш методикасининг тилшунослик фанлари билан боғлиқлиги;

- ўзбек тилини ўқитиш методлари, технологиялари, уларнинг назарий асослари;

- умумий ўрта таълим ўзбек тили мазмуни;

- ўрта махсус, касб-хунар таълими ўзбек тили мазмуни;

- ўзбек тилини ўқитишда дидактик принциплар;

- ўзбек тилини ўқитишда унинг қисмлари, бобларига хос хусусиятлари;

- ўзбек тили бўйича дарсдан ташқари ишларни **билиши, малака ҳосил қилиши ва**

амалда қўллай олиши;

- ўзбек тилига ўқувчиларда меҳр уйғота олиш;

- ўзбек тилини ўқитишнинг метод ва технологияларини қўллай олиш;

- ўзбек тили бўйича мустақил таҳсил олишга ўқувчиларни йўллаш;

- ўзбек тили бўйича ўқувчилар билимини баҳолай олиш;

- ўзбек тили дарслари, тарбиявий ишлар бўйича талаб қилинган барча ҳужжатларни юритиш;

- ўзбек тили дарсларини режалаштириш **қўникмаларига эга бўлиши лозим.**

ўзбек адабиётини ўқитиш методикаси

Бакалавр:

- ўзбек адабиётининг таълим тизимида тутган ўрни;

- ўзбек адабиётини ўқитиш методикасининг педагогика, психология фанлари билан боғлиқлиги;

- ўзбек адабиётини ўқитиш методлари ва технологиялари тарихи;

- ўзбек адабиёти бўйича яратилган ўқув адабиётларининг хусусиятлари **тўғрисида**

тасаввурга эга бўлиши;

- ўзбек адабиётини ўқитиш методикаси фанининг адабиёт фанлари билан

боғлиқлиги;

- ўзбек адабиётини ўқитиш методлари ва технологиялари, уларнинг назарий

асослари;

- адабиётни ўқитишнинг дидактик принциплари;

- умумий ўрта таълим адабиёт фани мазмуни;

- ўрта махсус, касб-хунар таълими адабиёт фани мазмуни;

- ўзбек адабиёти бўйича дарсдан ташқари ишларни **билиши, малака ҳосил қилиши**

ва амалда қўллай олиши;

- адабиёт ўқитишда замонавий метод ва технологияларни қўллай олиш;

- адабиётга ўқувчида меҳр уйғота олиш;

- ўқув-тарбия жараёнида адабиёт материалларидан фойдалана олиш;

- адабиёт бўйича билимларини баҳолаш;

- адабиётни ўқитиш бўйича талаб қилинган ҳужжатларни тайёрлаш;

- бадиий асарни мустақил таҳлил қилиш, китобхонлар конференциясини ўтказиш;

- адабиёт дарсларини режалаштириш;
- ёзма ишларни текшириш ва баҳолаш;
- ифодали ўқишни ўргатиш **қўникмаларига эга бўлиши лозим.**
- адабиёт назариясига оид қоидаларни бадиий адабиётни таҳлил қилишда қўллаш;
- чет эл, ҳамдўстлик мамлакатлари адабий асарларини таҳлил қила олиш

қўникмасига эга бўлиши лозим.

Тилишунослик курси

Бакалавр:

- тилнинг жамиятда тутган ўрни;
- тилишунослик ва унинг фанлар тизимидаги ўрни;
- ўзбек тилининг давлат тили сифатида ривожланиш омиллари;
- ўзбек тил билими фанининг юзага келиши;
- ўзбек тилининг туркий тиллардан бири эканлиги;
- ўзбек тилининг ўзига хос хусусиятлари ва унинг график системаси **тўғрисида**

тасаввурга эга бўлиш;

- тилнинг структураси ва системаси;
- тил ва ёзувнинг пайдо бўлиши;
- жаҳон тилларининг классификацияси;
- тилишунослик тарихи;
- тилишунослик мактаблари;
- тил ва нутқ, тил ва тафаккур, тил ва ахборот муносабатлари;
- ҳозирги ўзбек тилининг фонетик ва фонологик тизими;
- ўзбек тилининг имло ва талаффуз қонуниятлари;
- ўзбек тилининг луғат таркиби ва сўз семантикаси;
- ўзбек тилидаги турғун иборалари;
- ўзбек тили лексикологияси;
- ўзбек тилидаги сўзларнинг морфемик ва морфологик таҳлили;
- ўзбек тили морфологияси категориялари;
- сўз ясалиш тизими;
- сўз туркумлари ва унинг ички категориялари;
- ўзбек тилидаги сўз бирикмалари синтаксиси;
- ўзбек тилининг содда ва қўшма гап синтаксиси;
- ўзбек тилидаги мураккаб синтактик бутунликлар;
- ўзбек пунктуацияси асослари;
- ўзбек тилининг тарихий илдизлари: қадимги туркий тил, ўзбек тилининг тарихий грамматикаси, ўзбек адабий тили тарихининг тараққиёт давлари;
- ўзбек тилининг диалектал таркиби;
- эски ўзбек ёзуви ва унинг хусусиятлари;
- форс ва араб тилларининг асосий хусусиятлари;
- ўзбек адабий тилининг функционал услублари;
- матннинг коммуникатив бўлаклари;
- матн синтагматикаси;
- матннинг прагматик хусусиятлари;
- матннинг лингвистик таҳлили;
- ўзбек тилининг функционал услубларини **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши;**
- ўзбек тилишунослиги фанлари орасидаги назарий ва амалий билимларни боғлай олиши;
- ўзбек тил структураси ва системасини ажрата олиш;
- ўзбек тилининг ўз ва ўзлашган қатламини фарқлай олиши;
- ўзбек тилидаги матнни фонетик, лексик ва грамматик жиҳатдан таҳлил қилиш;
- ўзбек тилининг жаҳон тиллари классификациясида тутган ўрнини белгилаш;

- ўзбек тилининг услубига хос асосий хусусиятларини фарқлаш;
- тилнинг тараққиёт босқичлари ва жараёнларини фарқлаш;
- шарқ тилларидаги матнларни ўқий олиш, таржима қилиш ва оғзаки баён қилиш;
- ўзбек тили графикаси, орфоэпияси, орфографияси, пунктуацияси қоидаларини ҳаётда қўллаш, уни ўз фаолиятида ижодий ривожлантира билиш **қўникмаларига эга бўлиши лозим.**

Адабиётшунослик курси

Бакалавр:

- адабиётнинг филологик фан эканлиги;
- ўзбек адабиётининг тараққий этиш омиллари;
- ўзбек адабиёти жаҳон адабиётининг бир қисми эканлиги;
- адабиётда миллий ва умуминсоний қадриятларнинг акс этиши;
- адабиёт ва санъат муносабатлари тўғрисида
 - ифодали ўқишнинг таълим тизимида аҳамияти;
 - ифодали ўқиш ва адабий жанрлар;
 - ифодали ўқиш ва шеърӣ санъатлар **тўғрисида тасаввурга эга бўлиши;**
- адабиётшуносликнинг таркибий қисмлари;
- адабиёт назариясининг асослари;
- ўзбек адабиёти ва уни даврлаштириш;
- ўзбек адабиёти жанрлари тараққиёти;
- ўзбек классик адабиёти ва уларнинг намояндалари асарлари таҳлили;
- замонавий ўзбек адабиёти, унинг тематик ва жанрлар йўналиши, уларнинг намояндалари асарларининг таҳлили;
- ўзбек адабиёти жанрларининг тараққиёти;
- ҳозирги адабиёт вакилларининг ижоди;
- ўзбек болалар адабиётининг ўзига хос хусусиятлари;
- ўзбек халқ оғзаки ижоди намуналари;
- чет эл адабиёти тарихи, жаҳон адабиётида таниқли бўлган адиблар ижоди;
- мустақил ҳамдўстликка кирган мамлакатлар адабиётининг хусусиятлари ва уларнинг таниқли адиблари ижоди;
- ўзбек адабий танқидчилигининг пайдо бўлиши ва тараққиёти;
- XX аср ўзбек танқидчилик тарихи;
- миллий истиқлол даври танқидчилиги;
- ўзбек адабий танқидчилиги намояндалари;
- ҳозирги адабий жараённинг адабий-назарий қонунларини;
- ифодали ўқишнинг предмет ива вазифаси;
- интонация (оҳанг) компонентлари;
- ритм, темп, риторика, тушунчалари;
- шеърӣ асарлар ва уни ифодали ўқиш;
- шеър санъатлари ва уларга риоя қилган ҳолда ўқиш;
- насрий ва гарматик жанрларнинг хусусиятлари ва уларни ифодали ўқиш;
- аруз ва бармоқ вазнидаги шеърларни ифодали ўқишни **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши;**
- ўзбек адабиёти намуналарини ғоявий-эстетик жиҳатдан таҳлил қилиш;
- бадий адабиётнинг турлари ва жанрларини фарқлаш;
- ҳар бир адабиёт намояндасининг асарларига давр нуқтаи назардан ёндошиб баҳолай олиш;
- ўзбек адабиётини миллий истиқлол ғояси асосида таҳлил қилиш;
- бадий асарни муҳокама қила олиш;
- ифодали ўқишни баҳолай олиш;
- жанрлар бўйича ифодали ўқиш намуналарини кўрсата олиш **қўникмаларига эга бўлиши лозим;**

5.2.4 Ихтисослик фанлари блоки бўйича талаблар

Бакалавр:

- ихтисосликка мос техника соҳасининг мос техника соҳасининг асосий илмий-техникавий муаммолари ва ривожининг истиқболини ҳамда уларнинг турдош соҳалар билан ўзаро алоқасини тушуниши;

- ихтисосликнинг муайян соҳаси билан боғлиқ бўлган асосий объектларни, ҳодиса ва жараёнларни билиши, уларни илмий-тадқиқот қилиш усулларида фойдалана билиши;

- ўрганилаётган техникавий объектларга қўйиладиган техникавий-иқтисодий талабларни таърифлаб беришни удралаши, уларни амалга оширишнинг мавжуд илмий-техникавий воситаларини *билиши керак*.

Бакалавр ихтисослигига қўйиладиган муайян талаблар кадрлар буюртмачиларининг талаблари ва бакалаврлар тайёрлашнинг ушбу йўналиши бўйича фан, техника ва технологияларнинг замонавий ютуқлари ҳисобга олинган ҳолда олий таълим муассасаси томонидан белгиланади.

5.2.5 Битирув малакавий ишларига қўйиладиган талаблар

Битирув малакавий ишида бакалавр тугалланган касбий вазифаларни ҳал қилади ва бунда барча блок фанлари бўйича олинган билимлардан фойдаланилади.

Бу ишда бакалавр:

- ўрганилаётган масаланинг ҳолати ва тарихини таҳлил қилади;

- илмий-назарий, илмий-методик масалани аниқлаб олади, унинг ечилишидаги бир неча вариантларни кўзда тутди ва улардан энг муҳим вариантини танлайди;

- хулосани шакллантиради ва ҳал қилинган масала натижалари бўйича тавсиялар беради ва тегишли фан соҳасида қўлланиши имкониятларини белгилайди.

5.2.6 Малакавий амалиёт бўйича талаблар

педагогик амалиёт

Бакалавр:

- умумий ўрта таълим ва ўрта махсус таълимдаги ўзбек тили ва адабиёти таълими мазмуни, давлат таълим стандартлари, фан дастурлари бўйича иш юритиш;

- ўзбек тили ва адабиёти фанларининг синфлар ва курслар бўйича ўқув режаларида жойлаштирилиш;

- синф-дарс тизимига риоя қилган ҳолда ўзбек тили ва адабиёти фанлари бўйича план-конспект, календар-план асосида дарс ўтиш;

- анъанавий ва замонавий метод ҳамда технологияларни дарс жараёнида қўллаш;

- ўзбек тили ва адабиёти дарсларини ўтиш чоғида тарбиявий ишларни олиб боришни *билиши ва улардан фойдалана олиши лозим*.

ўқув амалиёти.

Бакалавр:

- ўзбек шеваларининг ўзига хос хусусиятларини ҳис қила олиш;

- шева вакиллари билан илмий-амалий мулоқот ўрната олиш;

- шева фактларини таҳлил қила олиш;

- ўзбек фольклори намуналарини ёзиб ола билиш;

- ёзиб олинган халқ оғзаки ижоди намуналарини мавжуд материалларга қиёслаш олиш;

- ўзбек шевалари ва фольклорини ёзиб олиш методларини қўллашни *билиши ва улардан фойдалана олиши лозим*.

6 Таълим дастурининг мазмуни ва компонентлари

6.1 5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича бакалаврларни тайёрлаш таълим дастури таълимнинг кундузги шакли бўйича 4 йил ўқишга мўлжалланган бўлиб, қуйидаги вақт тақсимотига эга:

Назарий ва амалий таълим	136 ҳафта
Малакавий амалиётлар	15 ҳафта
Битирув малакавий иши	4 ҳафта
Жорий ва давлат аттестациялари	17 ҳафта
Таътиллер	32 ҳафта
Жами	204 ҳафта

6.2 Талаба ҳафталик ўқув юкласининг максимал ҳажми 54 соат, шундан аудиториядаги ўқув юкласи – 30 соатгача, қолган соатлар ҳажми мустақил таълим учун ажратилади.

6.3 Жорий, оралиқ ва якуний аттестацияларни ҳисобга олган ҳолда таълим дастурининг умумий ҳажми 4 йиллик ўқув даври учун ҳафталик ўқув юкламалардан келиб чиққан ҳолда белгиланади.

6.4 Таълим дастурини ўзлаштиришда бир қатор масалалар ёки интеграллаштирилган курслар муаммолари бўйича талабаларнинг мустақил таълими кўзда тутилади.

6.5 5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича таълим дастурининг зарурий мазмуни

6.5.1 Гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар

Гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанларнинг зарурий мазмуни «Гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар» блоки бўйича бакалаврлар тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлар мазмунига қўйилган талаблар» асосида белгиланади.

6.5.2 Математик ва табиий-илмий фанлар

Математик коммуникатив курс

6.5.2.1 Олий математика асослари:

асосий алгебраик тузилмалар, вектор фазо ва чизикли акслантириш, аналитик геометрия, кўп ўлчовли евклид геометрияси, топология элементлари, мантикий ҳисоблашлар, алгоритмлар назарияси, комбинаторика, дифференциал ва интеграл ҳисоблаш, дифференциал тенгламалар, эҳтимолликлар назариясининг математик асослари, тасодифий ҳодисалар моделлари, гипотезаларни текшириш, энг катта ўхшашлик принципи, эксперимент натижаларини қайта ишлашнинг статистик методлари.

6.5.2.2 Информатика ва ахборот технологиялари:

ахборотларни йиғиш жараёни, узатиш, қайта ишлаш ва тўплаш ҳақида умумий тавсифнома; ахборотларни тарқатиш жараёнида техник ва дастурлаш воситалари.

Технология тушунчаси. Ахборот технологиялари, уларнинг кўринишлари ва классификацияси. Янги ахборот технологиялари. Янги ахборот технологиялари воситалари. Шахснинг ўқишида, тарбияланишида ва ривожланишида янги ахборот технологияларидан фойдаланиш. Педагогик дастурий воситалар. Матн ва график ахборотларни тайёрлаш, таҳлил қилиш ва қайта ишлаш технологияси. Мультимедиа технологияси. Тармоқ технологиялари. Internet технологияси. Масофадан ўқитиш.

Табиий-илмий курс

6.5.2.3 Марказий Осиё географияси:

«Марказий Осиё» атамаси моҳияти, Марказий Осиёнинг чегаралари, ўлчамлари, географик ўрни, қўшни мамлакатлар билан тарихий географик яқинлиги, табиий-демографик потенциали; ҳозирги вақтдаги сиёсий-иқтисодий ҳолати, Ўзбекистон, Қозоғистон, Қирғизистон, Тожикистон, Туркменистон республикалари – Марказий Осиёнинг муҳим сиёсий-иқтисодий географик субъектлари сифатида, Марказий Осиё республикаларининг географик характеристикаси, ривожланиш муаммо ва истиқболлари, ташқи иқтисодий алоқалари ва иқтисодий районлари.

6.5.2.4 Ҳозирги замон табиий фанлар концепцияси:

Моддий дунё ва уни ўрганиш методологияси. Дунёнинг умумий илмий манзараси. Дунёнинг физик, кимёвий ва биологик манзараси, замонавий дунёқарашнинг таркиби, микро ва макро дунё, улардаги эволюцион ва революцион ўзгаришлар. Табиий циклар. Биосфера ва ноосфера. Антропоген омилар ва уларнинг жонли ва жонсиз табиатга таъсири. Ўзаро яқин фанларнинг табиатни ўрганишдаги роли ва аҳамияти (физикавий, кимёвий физика, геологик кимё ва б.).

Ер ва коинот. Геологик жараёнлар ва уларнинг жонли табиат вакилларига таъсири. Модда ва энергиялар ўзаро алмашинувининг умумий қонуниятлари. Организмларнинг ташқи муҳит билан диалектик боғлиқлиги. Реал дунёнинг моддий бирлиги. Инсон табиатнинг, дунё эволюциясининг энг олий маҳсули сифатида. Умуминсоний, табиий-илмий муаммолар ва уларни ҳал қилиш йўллари, реал воқелик, имкониятлар ва прогноз.

6.5.2.5 Ёш физиологияси ва гигиена:

организмнинг ёш хусусиятлари ва органлар ҳамда тизимларнинг турли вазифалари. Организм-яхлит бир тизим. Одамнинг ўсиш ва ривожланиши. Организмнинг атроф-муҳит билан алоқадорлиги. Ирсий касалликларнинг генезиси ва уларни профилактика қилиш масалалари. Ёш организмнинг ўсиши ва ривожланишининг ўзига хослиги. Ички секреция безларининг фаолияти. Гармонлар муҳим биостимулятор ва регулятор сифатида. Тўқима, орган ва организмлар вазифаларининг гуморал бошқаруви, организмлар ҳаёт фаолиятида нерв тизимининг аҳамияти. Ҳар томонлама тараққий этган шахсни тарбиялашда соғлом турмуш тарзининг аҳамияти. Болалар соғлиғини ҳимоя қилишда оиланинг ўрни. Соғлом организмни таъминлашда овқатланиш кун режими ва бошқа омиларнинг аҳамияти. Инсон организмнинг жисмоний ва руҳий соғлом бўлишида гигиенанинг аҳамияти. Шахсий гигиенага қўйиладиган талаблар ва гигиена меъёрлари.

6.5.2.6 Экология ва табиатни муҳофаза қилиш:

одам ва биосфера: биосферанинг тузилмаси, экосистемалар, организм ва муҳитнинг ўзаро муносабатлари, одамнинг соғломлиги ва экология. Атроф-муҳитнинг глобал муаммолари.

табиатдан фойдаланиш: табиий ресурслардан оқилона фойдаланишнинг экологик тамойиллари ва табиатни муҳофаза қилиш, табиатдан оқилона фойдаланишнинг иқтисодий асослари. Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш техника ва технологиялари. Экологик ҳуқуқ асослари ва касбий масъулият. Атроф-муҳит соҳасида халқаро алоқалар.

6.5.3 Умумкасбий фанлар бўйича

Педагогика ва психология курси

6.5.3.1 Умумий психология:

умумий психология: умумий психологиянинг объекти, вазифалари. Психология табиий ва ижтимоий фан сифатида. Психика ҳақида тушунча, психиканинг ориентировка қилувчанлик ва бошқарувчанлик вазифаси. Бош миёна ва психика. Психика ва онг. Психология ва фалсафа. Шарқ мутафаккирларининг психологик қарашлари. Психика ва онгни таҳлил қилиш принциплари. Ҳозирги замон психологиясининг тузилмаси ва унинг принциплари. Психологиянинг соҳалари. Психологиянинг методлари ва унинг таҳлили. Фаолиятнинг психологик таҳлили. Мотивлар ва фаолият. Психиканинг тараққиёти. Мотивация ва эмоция психологияси. Ирода психологияси. Шахс психологияси. Шахс, индивид, индивидуаллик тушунчалари. Фрустрация ва шахснинг истиқбол режалари.

Конформизм. Дунёқараш ва эътиқод. Мулоқот психологияси ва нутқ. Диққат ва унинг турлари. Сизги ва идрок. Хотира ва хаёл. Тафаккур. Муаммоли вазият ва уни ҳал қилиш. Темперамент, унинг ўзига хос хусусиятлари.

Ёш ва педагогик психология: ёш ва педагогик психологиянинг предмети, унинг ривожланиш тарихи, Шарқ мутафаккирларининг қарашлари. Ёш психологиясидаги мактаблар. Ёш психологиясини ўрганиш методлари. Таълим мазмуни ва психик тараққиёт. Ёшнинг умумий характеристикаси. Ёш тараққиётини даврлаштириш. Мактабгача ёш даври характеристикаси. Кичик мактаб ёши даври психологияси. Ўсмир психологияси, ўспирин психологияси. Таълимни ва билимларни ўзлаштиришни бошқариш психологияси. Таълим ва ақлий тараққиёт. Тарбия методлари ва формалари. Бўлғуси ўқитувчи шахси сифатлари. Педагогик қобилият: назария ва амалиёт.

6.5.3.2 Умумий педагогика

	ҲАММАСИ:	9288																

Давлат аттестацияси: 1. Гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлардан бири; 2. Чет тили; 3. Битирув малакавий иши;

Ўқув ишлари проректори:
бошлиғи: доц. Ф. Хаитов.

проф. Н.О. Алимов. Ўқув бўлими

Факультет декани:

доц. Ш. Хайдаров

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

«Ro'yxatga olindi»

№ BD– 5 111200 – 3.03

2011-yil “ ”



Vazirlikning 2011_yil “ 17 ”
dagi “ 467 ”-sonli buyrug'i
bilan tasdiqlangan

Loguev

**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH
NAZARIYASI VA METODIKASI**

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar

Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika

Ta'lim yo‘nalishi: 5 111200 – O‘zbek tili va adabiyoti

TOSHKENT – 2011

Fanning o‘quv dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb–hunar ta’limi o‘quv–uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2011__ -yil «__» _____dagi «__» -son majlis bayoni bilan ma’qullangan.

Fanning o‘quv dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Boqijon To‘xliyev – Nizomiy nomidagi TDPU “O‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi” kafedrası professori, filologiya fanlari doktori,

Roza Niyozmetova – Nizomiy nomidagi TDPU “O‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi” kafedrası mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor,

Oytoji Oxunjonova – Nizomiy nomidagi TDPU “O‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi” kafedrası katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari nomzodi,

Davlatyor Jumashev – “O‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi” kafedrası katta o‘qituvchisi,

Komiljon Dosanov – “O‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi” kafedrası katta o‘qituvchisi.

Taqrizchilar:

Zaydulloxon Burxonov – “O‘zbek tili va uni o‘qitish metodikasi” kafedrası mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshmurod Bo‘riyev – O‘zDJTU qoshidagi Uchtepa akademik litseyining “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası o‘qituvchisi.

Fanning o‘quv dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy-uslubiy kengashida tavsiya qilingan (2011-yil “_ “_____«__» -sonli bayonnoma)

Kirish

Ushbu dasturda «O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish nazariyasi va metodikasi» fani bo‘yicha ta’lim bosqichlarida olib boriladigan dars turlari, uni o‘qitishning turli zamonaviy metod va usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.

O‘quv fanining maqsad va vazifalari

«O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish nazariyasi va metodikasi» fanini o‘qitish maqsadi quyidagicha belgilanadi:

1. O‘zbek tili o‘qitish nazariyasi va metodikasi fanini o‘qitishdan maqsad – talabalarda o‘qitishning eng qulay va zamonaviy metodlaridan ta’limning turli bosqichlarida qo‘llay olish bo‘yicha bilim; talabalarni ona tili va adabiyoti o‘qituvchisining kasbiy faoliyati haqidagi dastlabki bilimlar bilan qurollantirish; bu haqida ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir.

2. «O‘zbek adabiyoti o‘qitish nazariyasi va metodikasi» fanini o‘qitishdan maqsad – bo‘ljak o‘qituvchilarga badiiy adabiyotni o‘qib–o‘rganishning zamonaviy shakl va usullari haqidagi nazariy qarashlar hamda ularni amaliyotga tatbiq qilishning pedagogik hamda metodik imkoniyatlarini ko‘rsatishdan iborat.

1. Fanning vazifasi – talabalarga o‘zbek tili o‘qitish nazariyasi va metodikasining ilg‘or yutuqlarini, amalda ilmiy va badiiy matnni tahlil qilish, darsning ilmiy–nazariy asoslarini o‘rganish; ona tili va adabiyotiga oid dars hamda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etishning nazariy–metodik asoslarini o‘rganish; ularda dastlabki kasbiy– pedagogik hamda metodik ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, kitobxonlik madaniyatini kamol toptirishga o‘rgatishdan iborat.

2. Fanning vazifasi – talabalarga o‘zbek adabiyoti o‘qitish nazariyasi va metodikasining ilg‘or yutuqlarini, amalda badiiy asarni tahlil qilish, darsning ilmiy-nazariy asoslarini; adabiyotga oid dars hamda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etishning nazariy-metodik asoslarini; adabiy asarlarni o‘qitish orqali o‘quvchilarning badiiy – estetik didi, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, kitobxonlik madaniyatini kamol toptirishga o‘rgatishdan iborat.

Fan bo‘yicha talabalarining bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

«O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish nazariyasi va metodikasi» fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

– mazkur o‘quv predmetining nazariy asoslarini bilishi; badiiy asarni lingvistik tahlil qilish va baholash mezonlarini bilishi; ona tili va adabiyotini o‘qitishda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq malakalarini o‘stirish; dars jarayoniga

qo‘shimcha adabiyotlarni, yangi axborot hamda turli texnologiyalarni jalb qila bilishi kerak;

– talaba o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish nazariyasi va metodikasi bo‘yicha maktab, akademik litsey, kasb–hunar kollejlari ta’limining mohiyati va printsiplarini o‘zlashtirishi; o‘quv qurollarining mavjudligiga qarab usullar tanlay olishi; ona tili va adabiyoti darslarida milliy mafkura va mustaqillik g‘oyasini targ‘ib qila olishi ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;

– talaba ta’limning turli bosqichlarida mazkur fan yuzasidan namunali dars o‘tish, turli tadbirlarni o‘tkaza olish, zamon talabidagi darslarni tashkil qila olish malakalariga ega bo‘lishlari lozim.

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma–ketligi

«O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish nazariyasi va metodikasi» asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, 6–semestrda o‘qitiladi. Dasturni amalga oshirish o‘quv rejasida rejalashtirilgan falsafa, mantiq, etika, estetika, pedagogika, psixologiya, adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, hozirgi o‘zbek adabiy tili, umumiy tilshunoslik, tilshunoslikka kirish, shevashunoslik kabi fanlardan etarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi.

Fanning ta’limdagi o‘rni

«O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish nazariyasi va metodikasi» fani o‘zbek tili va adabiyoti mutaxasssiliigi bo‘yicha yetuk kadrlar tayyorlash, adabiyotshunoslik, umumiy tilshunoslik yo‘nalishidagi fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish ta’lim tizimida til va adabiyot o‘qitishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fanni o‘qitishda zamonaviy va axborot pedagogik texnologiyalar

«O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish nazariyasi va metodikasi» fanini puxta o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion–pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma, elektron materiallar, virtual stendlar hamda jadvallardan foydalaniladi. Ma’ruza, amaliy va laboratoriya darslarida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

(«O'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasi»)

O'zbekistonda o'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasining tarixi. O'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasi fan sifatida

O'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasining tilshunoslik hamda pedagogika–psixologiya tizimidagi fanlar bilan aloqasi. Olim va shoirlarning o'z davri maktab–madrasalardagi ta'lim–tarbiya, ilmiy, badiiy asarlarni o'qish va o'rganish haqidagi fikrlari.

O'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasi fan sifatida shakllanishi, rivojlanishi va hozirgi ahvoli. «O'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasi» fanining ob'ekti, predmeti, maqsadi, vazifalari, uning pedagogik fan sifatidagi ilmiy–tadqiqot metodlari (til hodisalarini tahlil qilish, o'quvchilar faoliyatini kuzatish, ilg'or yangi pedagogik tajribalarni o'rganish, anketa savollari, og'zaki javoblar, yozma ishlarni tahlil qilish, pedagogik eksperiment va h.)

«O'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasi»ning boshqa fanlar (falsafa, tilshunoslik siklidagi fanlar, pedagogika, psixologiya, adabiyot, mantiq va b.) bilan aloqasi

Ma'lumki, ta'lim jarayonining umumiy va xususiy tomonlari mavjud. Ta'limning umumiy tomonini umumiy didaktika, xususiy tomonini xususiy didaktika o'rganadi. Umumiy didaktika o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro ta'sirini o'rganadi va u barcha o'quv fanlari uchun aloqadordir. «O'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasi» umumiy didaktika bo'yicha o'rganilganlarni oydinlashtiradi, ya'ni umumiy didaktikadan o'rganilgan ta'lim maqsadi, qonuniyatlarni, prinsiplari, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllarining o'zbek tilini o'qitish jarayonida voqealanishini aniqlaydi. «O'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasi» fani didaktikaga tayanib ish ko'radi. O'zbek tili ta'limida pedagogika va psixologiya bilan chambarchas bog'langan. Bu aloqadorlik avvalo o'quvchining yoshi va shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq. O'zbek tili ta'limida tarbiyaning ob'ekti va sub'ekti.

O'zbek tili o'qitish prinsip va metodlari.

Ta'limdagi an'anaviy va noan'anaviy usullar

O'zbek tili o'qitish prinsip va metodlari. O'zbek tilini o'qitishda bir tomondan umumdidaktik prinsiplar, ikkinchi tomondan shu fanni o'qitishning o'ziga xos prinsiplarini hisobga olishga to'qri keladi. O'zbek tilini o'qitishda ta'lim, tarbiya va rivojlanishning uyqunligi prinsipi. O'zbek tilini o'qitishda

ilmiylik va tushunarlilik prinsipi. Nazariyani amaliyot bilan boqlash prinsipi. O'zbek tilini o'qitishda onglilik, faollik va mustaqillik prinsiplari. O'zbek tilini o'qitishda ko'rgazmalilik prinsipi. O'zbek tilini o'qitish orqali o'quvchilar tafakkurining o'sishiga erishish prinsipi. O'zbek tili kursi bo'limlari orasidagi boqlanish va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqani ta'minlash prinsipi. O'quvchilarni til qodisalarini ajratishga o'rgatish prinsipi. O'zbek tilini o'qitishning metodlari haqida umumiy tushuncha. O'zbek tili darslarining samaradorligi o'qituvchining o'qitish metodlarini mukammal bilishi, metodni tanlay olishi va ularning har birini o'z o'rnida qo'llay olishi. O'qitishning yangi usullari. Bu usullarning bir–biridan farqi. Noan'anaviy o'qitishning afzallik tomonlari.

O'zbek tili o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar

Ta'lim jarayonida o'qituvchi–o'quvchi munosabatlari. O'zbek tili o'qituvchisi nazariy jihatdan etuk bo'lishi lozim. Ta'lim jarayonida o'qituvchi ma'lum maqsad sari o'quvchini ergashtira olishi, o'z tajribalarini o'rtoqlasha olishi maqsadga muvofiq. Darslarda o'quvchi faqat tinglovchi emas, balki faol ishlovchiga aylansagina, o'rganilayotgan mavzuni tushunishi va o'zlashtirishi osonlashadi. Buning uchun o'qituvchi–o'quvchi orasida «qizil ip» tortilgan bo'lishi kerak. Bu esa yangi pedagogik texnologiyani qo'llashda namoyon bo'ladi. O'zbek tili mashg'ulotlarida yoshlarni erkin va mustaqil tafakkur egasi, ijodiy izlanuvchan, milliy g'oya va ajdodlarimiz an'analarini e'zozlaydigan, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashda ona tili o'qituvchisining mas'uliyati katta.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb–hunar kollejlari o'zbek tili o'qitish kursining tarkibi va mazmuni

O'zbek tili dasturi, darsliklar, o'quv qo'llanmalari tarkibi va mazmuni. Umumiy o'rta ta'lim maktablari dasturi, darslik va qo'llanmalar haqida tushuncha berish. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari dasturi va darslik mazmuni bilan tanishish. Darslik mundarijasi mazmuni. Umumiy o'rta ta'lim maktablari "Ona tili"ni o'quv fani sifatida o'qitishning ijtimoiy aqamiyati shundaki, jamiyatimiz, xalqimiz, millatimiz ravnaqining kelajagi, uning gullab-yashnashi bugun maktab partasida o'tirgan yoshlarning mustaqil turmushga, nutqiy faoliyatga, yuksak madaniyat bilan so'zlay olishga qay darajada tayyorlanganligiga boqliq. Chunki so'z qudrati insoniyat tarixida hamma vaqt yuksak qudratga ega bo'lgan.

Akademik litseylarning o'quv rejalariga muvofiq aniq va tabiiy fanlar yo'nalishida ona tili fanining miqdoriy ko'rsatkichlari quyidagicha: «Davlat tilida ish yuritish» (40 soat), «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (176 soat), «Nutq madaniyati» (32 soat).

Ijtimoiy – gumanitar va xorijiy tillar yo'nalishida «Davlat tilida ish yuritish» (40 soat), «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (216 soat), «Nutq madaniyati» (32 soat) predmetlari ko'zda tutilgan. Ularga tegishli miqdordagi soatlar ajratilgan. Kasb - hunar kollejlari ona tili darslari uchun 40 soat ajratilgan.

Dastur akademik litseylarning har bir bosqichi uchun alohida talablar tizimini ko'zda tutadi. Unda ona tilining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishning hajmi, mazmuni va izchilligi ko'rsatilgan.

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» dasturida amaliyot va nazariyaning uzviy aloqadorligini hisobga olgan holda xorijiy tajribalarga asoslanib, N–nazariya hamda A–amaliyot rukni ostida tegishli materiallar berildi.

O'zbek tilidan izchil kursni o'rganish

Fonetika va leksikologiyani o'rganishda o'quvchilarning so'z boyligini oshirish imkoniyatlari. Orfoepiya va imloni o'rganish usullari. O'zbek tili darslarida uzviylik va uzluksizlikka rioya qilish. Mavzular ketma–ketligini ta'minlash. Mashqlarni murakkablashtirish. Fonetikani o'rganish jarayonida so'z boyligini oshirish, tovush orttirilishi, tushishi va almashishi, moslashishi kabi fonetik hodisalar ustida ishlash usullari. Adabiy talaffuz me'yorlari. Imlo qoidalarini singdirish usullari.

Leksikologiya va leksikografiya bo'limini o'rganishda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish usullari. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari ustida ishlash usullari. Ularning lug'at zahirasi yangi so'zlar bilan boyitish. Lug'atlar bilan ishlash malakalarini hosil qilish yo'llari. Ona tili mashg'ulotlari nutq san'atini egallash va undan samarali foydalanish bilim ko'nikma va malakalarini tarbiyalaydi. Shu jarayonda nutqiy madaniyat ham shakllanadi.

Talabalar «Morfologiya» bo'limini o'rganish jarayonida tilning adabiy me'yorlari, so'zning shu me'yorlar doirasida o'zgarishi va yasalishi (grammatik xususiyatlari); so'zni nutqda to'g'ri va o'rinli ishlatish prinsiplari bilan tanishadilar.

So'z turkumlari mavzusini o'rganishda so'zning tarkibi, yasaliş jarayoni bilan tanishuv orqali o'quvchilar so'zning lug'aviy va grammatik xususiyatlarini kuzatish, farqlash, o'zaro qiyoslash, ularni nutq vaziyatiga mos ravishda to'g'ri tanlash va to'g'ri qo'llash malakalarini egallaydilar, lug'at xazinasini boyitadilar. Hozirgi o'zbek orfografiyasidagi qoidalarning ko'pchiligi morfologik prinsiplarga asoslanganini hisobga olgan holda morfologik hodisalarni o'rganishda imlo masalasiga alohida ahamiyat berish lozimligini o'quvchilar ongiga yetkazish lozim bo'ladi.

Grammatikani o'qitish nazariyasi va metodikasi

Morfologiyani o'rganishda so'zlarning grammatik va lug'aviy ma'nolari, ma'no guruhlari, so'z tarkibi ustida ishlash nutqiy taraqqiyot omili. Mustaqil va yordamchi so'zlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari. Sintaksisni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.

Soʻz birikmalari, gap va uning turlarini oʻzaro qiyoslash. Sintaksisni morfologiya asosida oʻqitishning afzalliklari. Qoʻshma gapni oʻrganish metod va usullari. Koʻchirma va oʻzlashtirma gaplar ustida ishlash usullari. Punktatsiya oʻqitish nazariyasi va metodikasi. Punktatsiyaning til sathlari orasida tutgan oʻrni va ahamiyati.

Grammatika til haqidagi fanning bir qismi, u morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiya boʻlimida soʻz tarkibi va soʻz turkumlari, sintaksis boʻlimida soʻz birikmasi va gap turlari oʻrganiladi.

Grammatika atamasi grekcha «grammatike» soʻzidan olinib, «oʻqish va yozish haqidagi bilim» degan maʼnoni bildiradi. Grammatik bilimlar oʻquvchilar soʻz boyligini oshirishga, kommunikativ savodxonlik darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Nutq uslublari ustida ishlash nazariyasi va metodikasi

Har bir nutq uslubining oʻziga xos xususiyatlari. Ish qogʻozlari ustida ishlashning metod va usullari. Oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqini oʻstirish yoʻllari. Matn ustida ishlash malakasini shakllantirish usullari. Ogʻzaki nutq odatdagi tovushli soʻzlashuv nutqi boʻlib, bu nutq koʻproq ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. Unda murakkab grammatik qurilmalardan foydalanilmaydi. Oʻquvchi ogʻzaki nutqda koʻproq sodda gaplarni qoʻllaydi: u oʻz suhbatdoshiga nimanidir koʻrsatishi, mantiqiy urgʻudan foydalanib, maʼlum bir soʻzni alohida taʼkidlashi, nimanidir mimika, qoʻl, koʻz, bosh harakati bilan anglatishi mumkin. Ogʻzaki nutqda fikrni ixcham ifodalash maqsadida toʻliqsiz gaplardan foydalaniladi. Nutqning bu turi bir yoki bir necha kishi tomonidan amalga oshiriladi va monolog, dialog, polilog shaklda namoyon boʻladi.

Yozma nutq esa harf va soʻzlarning maʼlum qonuniyat asosida oʻzaro birikuvi, tinish belgilari har xil ajratishlar: abzaslar, paragraflar va gaplarni grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon qilish orqali voqealanadi. Yozma nutq ham ogʻzaki nutq singari monolog, dialog, polilogik shakllarga ega.

Monologik nutq bir kishining boshqalarga qaratilgan nutqi boʻlib, u himoya qilish, xabar berish, oʻqilganni qayta soʻzlab berish, oʻzi savol berib, oʻzi javob berish shaklida namoyon boʻladi.

Dialogik nutq ikki kishi oʻrtasida amalga oshiriladi. Polilogik nutq esa koʻp kishining nutqidir. Nutqning bu koʻrinishlari oʻziga xos xususiyatlarga ega. Avvalo, bu nutq turlari keng jummalarni talab etmaydi. Shuning uchun dialogik va polilogik nutq tarkibida toʻliqsiz gaplar juda koʻp boʻladi. Bunday nutq tarkibida soʻroq va undov gaplar ham uchraydi. Gaplar oʻzining qisqaligi bilan ajralib turadi. Ogʻzaki dialogik va polilogik nutqda soʻz bilan ifodalash qiyin boʻlgan bir qator vositalar: mimika, imo-ishoralar, ohang ham ishga solinadi. Fikrni berishda oʻquvchilarda bu vositalarni tarbiyalash ham ona tili oʻqitishning muhim vazifalaridan biridir.

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni
(«O'zbek adabiyoti o'qitish nazariyasi va metodikasi»)
«O'zbek adabiyoti o'qitish nazariyasi va metodikasi» fan sifatida.
Adabiyot o'qitishning metodlari

«O'zbek adabiyoti o'qitish nazariyasi va metodikasi» fan sifatida. Mutaxassislar metodika fani haqida. Ta'lim bosqichlarida adabiyotni o'quv fani sifatida o'rganish xususiyatlari. Metod va usul tushunchalarining o'zaro munosabati.

Metodika tarixida ta'lim metodlari haqidagi muammo. Ayrim ta'lim metodlarining tavsifi. O'zbek adabiyoti o'qitish nazariyasi va metodikasining adabiyotshunoslik turkumidagi fanlar bilan aloqasi. O'zbek adabiyoti o'qitish nazariyasi va metodikasining tilshunoslik turkumidagi fanlar bilan aloqasi. Adabiyot o'qitish metodikasining ijtimoiy–gumanitar turkumdagi fanlar bilan aloqasi. Adabiyot o'qitish metodikasining barcha fanlar bilan aloqasi. Predmetlararo aloqalarning ta'limiy hamda tarbiyaviy ahamiyati. “Adabiyoti o'qitish nazariyasi va metodikasi”ning asosiy vazifalari.

Metodika fanining shakllanishi va taraqqiyoti

O'zbek adabiyoti o'qitish nazariyasi va metodikasi fanining shakllanishi, rivojlanish tarixi. Eng qadimgi davrlarda adabiyot o'qitish nazariyasi va metodikasi. Adabiyot o'qitish nazariyasi va metodikasi tarixida jadidchilik davri. 1930–1990-yillarda adabiyot o'qitish metodikasi fanining o'ziga xos xususiyatlari. XVI asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha o'tgan davrda, ayniqsa, XIX ning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Turkistonda pedagogic, metodik fikrni o'ziga xos tarzda rivojlanib borishi.

Turkiy xalqlar orasida adabiyot o'qitish an'analari juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Adabiyot o'qitish nazariyasi va metodikasi tarixidagi asosiy bosqichlar. Mustaqillik davrida adabiyot o'qitish nazariyasi va metodikasi fanining rivojlanish xususiyatlari.

Adabiyot dasturi, darsliklar va o'quv qo'llanmalari. Adabiyot o'qituvchisi

Dastur davlat hujjati sifatida. Dasturning tarkibi va mazmuni. Darslikka qo'yiladigan talablar. Ta'limning turli bosqichlaridagi adabiyot darsliklarining o'ziga xos xususiyatlari. O'quv qo'llanmalari haqida ma'lumot. Adabiyot o'qituvchisi va unga qo'yiladigan talablar. Dastur o'qituvchining ish faoliyatidagi eng asosiy manba.

Adabiy ta'limni to'la amalga oshirishda darsliklarning ahamiyati. Darslik va o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratilishi.

Adabiy asarni tahlil qilish adabiyot o'qitishning asosi sifatida.

Badiiy asar matnini o'rganish. Badiiy asarni tur va janr xususiyatlariga ko'ra o'rganish. Barcha tahlillar uchun qo'yiladigan talablar – ilmiylikdir. Yana bir talab tarbiyaviy maqsadlarni ko'zda tutish. Tahlil birdaniga yaxlit tarzda amalga oshmaydi. Mavzu va yo'nalishlarning tanlab olinishi tabiiy.

Matnga ko'ra tahlil yetakchi o'rin tutishi. Matn ustida ishlashning tarkibiy qismlaridan biri asar lug'ati bilan aloqadorligi. Kirish mashg'ulotlarning shakl va mazmuni xilma-xil bo'lishi.

Adabiy asarni tahlil qilishning turlari. Bunday asosiy tamoyillar.

Tahlilda tanlov tamoyili. Adabiy asar tahlilida kirish va yakunlovchi mashg'ulotlarning o'ri.

Adabiy tahlilning o'ziga xos xususiyatlari. Tahlilda asarning janriy xususiyatlarini hisobga olish. Epik asarlarni o'rganish. Epik asarlarning o'ziga xos xususiyatlari. Epik asarlardagi tahlil turlari. Epik turga mansub bo'lgan asarlarning matni ustidagi ish adabiy ta'limning o'zak masalalaridan biri. Epik asarlarni tahlil qilishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish. Asarning obrazlar tizimini tahlil qilishda o'ziga xoslik. Epik asar tahlilida badiiy ma'noni ilg'ay olish va mantiqiy xullosaga kela bilishni shakllantirish. Qahramonlar tizimini o'rganish usullari. Asar syujeti va kompozitsiyasini o'rganish.

Dramatik asarlar tahlili

Dramatik asarlarni tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Dramatik asar tahlilida kompozitsiya, syujet, badiiy tasvirning o'ziga xosligi. Dramatik asarlarni o'rganishda asar tiliga e'tibor berish.

Ta'limning turli bosqichlarida dramatik asarlarni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari.

Dramatik asarlarni sahnaga moslab yozilishi. Dramatik asarlar kompozitsion tuzilishi jihatidan boshqa janrlardagi asarlardan farq qilishi.

Lirik asarlarni o'rganish

Lirik asarlarni janr xususiyatlariga ko'ra o'rganish. Lirik asarlarni tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Lirik asarlarni o'rganishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar. Lirik asarlarni ta'lim bosqichlari (umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari)da o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari. Lirikaning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat. Bu borada "Adabiyotshunoslik terminlar lug'ati, adabiyotshunoslikka kirish, adabiyot nazariyasiga oid darisliklardagi ta'riflar bilan tanishish. She'riy asarlarni tahlil

qilishda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish. Lirik asarlarni o'rganishda ifodali o'qishning ahamiyati.

Adabiy–nazariy tushunchalarni o'rganish

Adabiy ta'limda adabiyot tarixining o'rnini va ahamiyati. Adabiy merosni o'rganishning o'ziga xos jihatlari.

Adabiy – nazariy tushunchalarni shakllantirishdagi asosiy talablar.

Adabiy – nazariy tushunchalarni o'rganishda adabiy – tanqidiy qarashlardan foydalanish.

Adabiy – nazariy tushunchalarni o'rganishda klassik adabiyot, zamonaviy adabiyot o'rnini va tahlili.

Dastur asosida ta'lim bosqichlarida qiyosiy tahlil. Adabiy ta'limda adabiy–nazariy tushunchalarning o'rnini va ahamiyati. Ta'lim bosqichlarida adabiy–nazariy tushunchalarni o'zlashtirishdagi o'ziga xosliklar.

Badiiy asar tilini o'rganish. Badiiy asar tili haqida. Badiiy asar tilini tahlil qilishning asosiy xususiyatlari. Asar janri va tili.

Badiiy asar tilini tahlil qilishda uzviylik va uzluksizlik asosiy tamoyil bo'lishi kerak.

Badiiy asar tilini tahlil qilishning xilma-xil shakl va ko'rinishlari haqida.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini oshirish yo'llari.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirish ta'limning turli bosqichlarida o'rganiladigan adabiyot fani zimmasida.

Adabiyot darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish imkoniyatlari. Insho nutq o'stirish omili sifatida. Savol va topshiriqlar ustida ishlash. Adabiyotdan ijodiy va mustaqil ishlar, ularning turlari. Badiiy asarni yod olish nutq o'stirish omili sifatida. Ko'rgazmalilik haqida tushuncha. Adabiy ta'limda xarita–sxemalarning o'rnini. San'at asarlari ko'rgazmali vosita sifatida. O'qituvchi nutqi – ko'rgazmali qurol.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (O'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasi)

Amaliy mashg'ulotda talabalar darsning turli shakllari va o'qitish usullarini o'rganadilar. Amaliy mashg'ulotlarda taxminiy tavsiya etiladigan mavzular:

Dastur, darslik va o'quv qo'llanmalarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning tuzilishi, uzviylik va uzluksizligi, tarkibi va tahlili

Umumiy o'rta ta'lim maktab, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlari dastur, darslik va o'quv qo'llanmalarining bir-biridan farqi, ularning tuzilishi qoida va mashqlarning sharti, uzviyligi va uzluksizligi, tarkibi va tahlili.

Ta'lim bosqichlarida ona tili bo'yicha dars ishlanmalarini tayyorlash metodikasi

Umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili fanining o'ziga xos xususiyatlari. Akademik litsey ona tili fanining o'ziga xos xususiyatlari. Kasb-hunar kollejlari ona tili fanining o'ziga xos xususiyatlari va dars ishlanma namunalarini tayyorlash.

Fonetika, leksikologiya, so'z yasalishi va morfemika bo'limlarini o'qitish metodikasi. Morfologiyani o'qitish metodikasi

Fonetika, leksikologiya, so'z yasalishi va morfemika bo'limlari yuzasidan dars ishlanmalarini tayyorlash metodlari bilan tanishtirish.

Yordamchi so'z, alohida olingan so'zlar turkumini o'qitish metod va usullari

Yordamchi so'z, alohida olingan so'zlar turkumini o'qitish metod va usullari haqida talabalarga ma'lumot berish.

So'z turkumlarini o'rgatish metodikasi. Sintaktik tahlil va uning turlari. Ko'rgazmali qurol va ularga qo'yiladigan didaktik talablar

So'z turkumlarini o'rgatish metodikasi. Sintaktik tahlil va uning turlari. Ko'rgazmali qurol va ularga qo'yiladigan didaktik talablar bilan tanishtirish va namunalar berish.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (Adabiyot o'qitish nazariyasi va metodikasi)

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor–o'qituvchilari tomonidan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Talabalar darslarni, til sathlari bo'yicha alohida mashg'ulotlarni tashkil qilishda foydalaniladigan didaktik materiallarni tayyorlash, ularni rejalashtirish hamda bevosita amaliyotda qo'llash bo'yicha ish bajaradilar. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlarda «Adabiyot o'qitish metodikasi» o'quv qo'llanmasi, metodist olimlarning monografiya, qo'llanma, shuningdek, maqolalarini konspektlashtirish, ular asosida dars ishlanmalarini yaratish, shuningdek, metodik jurnallarning yangiliklarini annotatsiya sifatida etkazish yo'llari bilan ham tanishadilar.

Amaliy mashg'ulotlarda ta'limning turli bosqichlarida tashkil etiladigan dars turlari uchun ko'rgazmali jadval va tarqatma materiallarning eskizlarini tayyorlash bilan birga quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Asarni obrazlar tizimi orqali o'rganish. Obrazlarga singdirilgan ma'no va mazmun. Obrazlar tasnifi.

(A.Qodiriyning «O'tkan kunlar», Cho'lponning «Kecha va kunduz», Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» asarlari misolida asarni obrazlar tizimiga ko'ra tahlil qilishni o'rganish. Bunda: talabalarning badiiy asarni obrazlar tizimiga ko'ra tahlil qilishga oid bilimlarini mustahkamlash, ularning shu yo'nalishdagi ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Talabalar bilishi kerak:

- badiiy asar mohiyati;
- badiiy asarning tahlilida nazariy ma'lumotlardan foydalanish;
- badiiy matnga tayangan holda asardagi qahramonlarni tavsiflash va ularga mualliflarning munosabati;
- epic, lirik, dramatic turlardagi asarlarda namoyon bo'ladigan qahramonlarni bir-biridan farqlay olishni;
- o'quvchilarga zaruriy ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni o'rgatish va h.

2. Matn ustida ishlash yo'llari. Matn mazmunini o'zlashtirishga oid qiyinchiliklar, ularni bartaraf qilish yo'llari. Bunda lug'atlardan, tabdil usulidan foydalanish. Badiiy asar matnini adaptatsiya qilish yo'llari. Maqsad: talabalarni badiiy asar matni ustida ishlashga oid ish usullari bilan tanishtirish, ularning shu sohadagi ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

3. Epik asarlarni o'rganish usullari. Bunda syujet, kompozitsiya va uning elementlarini tahlil qilish metodikasi. (A. Qahhor hikoyalari, P. Qodirov romanlari misolida). Yirik metodist olimlarning epic asarlarni nasriy asarlardan iborat, deb qarashga moyilliklariga munosabat bildirish. Ularni dalillar bilan asoslash.

4. Dramatik asarlarni o'rganish usullari. Voqea va personajlar. Personajlar nutqi. Dramatik asarlarda muallif nuqtai nazarining namoyon bo'lish shakllari. Dramatik asarlarda qahramon nutqidagi o'ziga xosliklar (M. Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» tragediyasi misolida). Mashg'ulot jarayonida:- dramatic asarlarni o'rganish bilan epic asarlarni o'rganish orasida mavjud farqlar;

- dramatik asarlar ustidagi ish turlari nimalardan iborat bo'lishi mumkinligi;
- dramatik asarlarni o'qishning qanday turlari mavjud;

4. Lirik asarlarni o'rganish usullari. Lirik asarlar tahlili. Mumtoz va hozirgi zamon shoirlarining lirik asarlari misolida o'quvchilarni lirik asarlar tahliliga yonaltira

bilish. Talabalarning lirik asarlar tabiati haqidagi bilim va tasavvurlarini o'qitish jarayoniga aloqador holda boyitish.

Lirik asarlarni ifodaliy o'qishga oid amaliy ish turlaridan foydalanish.

5. Badiiy asar tilini tahlil qilish yo'llari. Badiiy asar tili va yozuvchi mahoratini o'rganish yo'llari. Badiiy asar tilini tahlil qilishning asosiy xususiyatlarini bilish. Badiiy asar tilini tahlil qilishda uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga ahamiyat berish.

Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar (O'zbek tili va adabiyot o'qitish nazariyasi va metodikasi)

Laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar dars o'tishning turli usullari, dastur va darsliklar tahlili bilan tanishadilar, olingan bilimlar bo'yicha amaliy ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

Laboratoriya mashg'ulotlarida tavsiya etiladigan mavzular:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili darsliklari tahlili.
2. Akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Davlat tilida ish yuritish", "O'zbek tili" darsliklari tahlili.
3. KHKlari "Ona tili va adabiyoti", "Davlat tilida ish yuritish", darsliklari tahlili.
4. Didaktik tarqatmalar tayyorlash usullari.
5. Dars ishlanmalarini tayyorlash bo'yicha bir soatlik dars o'tish.
6. Fonetika va leksikologiya bo'limi mavzulari yuzasidan bahs–munozara uyushtirish va bir soatlik dars namunasi.
7. Umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklarining morfologiya bo'limi yuzasidan bir soatlik dars o'tish va tahlil qilish metodikasi.
8. Umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litsey darsliklarining sintaksis bo'limi yuzasidan bir soatlik dars o'tish va tahlil qilish metodikasi.
9. Nutq uslublari va davlat tilida ish yuritish bo'limlari yuzasidan dars ishlanma, ko'rgazma qurollarini tayyorlash metodikasi.
10. O'tilgan darslarni didaktik nuqtai nazardan tahlil qilish.
11. "Til va adabiyot ta'limi", "Boshlang'ich ta'lim" jurnallari, "Ma'rifat" gazetasida e'lon qilingan metodik maqolalar tahlili.

Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar (Adabiyot o'qitish nazariyasi va metodikasi)

Laboratoriya mashg'ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Amaliy topshiriqlar: umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litseylarning adabiyot dasturlarini qiyoslash, ularning o'xshash va farqli tomonlarini belgilash.

2. Hozirgi dasturlarda adabiy ta'lim rivojining o'ziga xos xususiyatlarining aks etishi. Maktab, akademik litsey va kasb–hunar kollejlarning «Adabiyot» dasturi mazmuni va tarkibi. Dasturdagi adabiyot namunalari tahlili, ular ustida ishlash usullari.
3. Noan'anaviy dars turlari, ularni tashkil etishning shakl va usullari. Zamonaviy dars va unga qo'yiladigan talablar. Darsning tarkibiy qismlari, turlari. Ularni amaliy jihatdan tashkil etishning shakl va usullari.
4. Zamonaviy epik asarlar tahlili. Yirik epik asarlarni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari.
5. Epizodlar ustida ishlash metodikasi.
6. Kichik epik asarlar tahlili.
7. Mumtoz g'azallar tahlili. Tahlil qilishda sharhlash, nasriy bayondan foydalanish.
8. Ruboiy tahlili. Bunda shakl va mazmun mutanosibligi. Ruboiy vaznlarini o'rganish xususiyatlari.
9. Mumtoz asarni o'rganishda lug'at bilan ishlashning o'ziga xosligi.
10. Reja tuzish. Inshoga material to'plash, yozish. Adabiyot darslarida insho yozishga tayyorlanish va xatolar ustida ishlash. Inshoni baholash, tahlil qilish yo'llari.
11. Adabiyot xonasi va uni zihozlash. Adabiy ta'limda ko'rgazmalilik va unga qo'yiladigan talablar.

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar (O'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasi)

Kurs ishining maqsadi talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olingan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar, bevosita ta'lim jarayonidagi real sharoitlarga mos echimlar qabul qilish va zamonaviy texnika, texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishdir. Kurs ishi mavzulari bevosita o'zbek tili fanini o'qitish jarayonlari bilan bog'liq holda aniq bir mavzu yuzasidan amalga oshiriladi. Har bir talabaga alohida mavzu beriladi. Kurs ishi ob'ekti sifatida maktab, akademik litsey, kasb–hunar kollejlari ona tili darslari mavzulari olinadi. Ma'lum bir mavzu yuzasidan talaba nazariy tushuncha va ko'nikmaga ega bo'lgani holda mavzuni mustaqil ravishda metodik jihatdan ishlashi lozim. Unda talaba olingan bilimlarini amalda qo'llashini misollar asosida yoritib beradi.

Kurs ishining taxminiy mavzulari:

O'zbek tili darslarida o'quvchilar so'z boyligini oshirish usullari.

Kasb–hunar kolleji va akademik litseylarda davlat tilida ish yuritishga oid hujjatlar bilan ishlash usullari.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy fikrlashini o'stirishda yasovchi qo'shimchalarning o'rni. Misolla bilan izohlang.

Kasb–hunar kollejlarda (sohalar bo'yicha) yozma nutqni o'stirish usullari.

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar (Adabiyot o'qitish nazariyasi va metodikasi)

Kurs ishi mavzulari bevosita adabiyot fanini o'qitish jarayonlari bilan bog'liq holda aniq bir mavzu yuzasidan amalga oshiriladi. Kurs ishining mavzulari talabalarning umumiy sonidan 20–30 % ko'proq hajmda oldindan tayyorlanadi. Har bir talabaga alohida mavzu beriladi. Kurs ishiga ob'ekt sifatida maktab, akademik litsey, kasb–hunar kollejlarining adabiyot darslari mavzulari olinadi. Ma'lum bir mavzu yuzasidan talaba nazariy tushuncha va ko'nikmaga ega bo'lgani holda mavzuni mustaqil ravishda metodik jihatdan ishlashi lozim. Unda talaba olingan bilimlarini amalda qo'llashini misollar asosida yoritib beradi.

Kurs ishining taxminiy mavzulari:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari adabiyot darslarida asar qahramonlariga qiyosiy tavsif berishni o'rgatish.
2. Alohida olingan bir asar tahlili.
3. Alohida olingan lirik asarlar tahlili.
4. Alohida olingan bir g'azal tahlili.
5. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adib hayotini o'rganish.
6. Akademik litseylarda adib hayotini o'rganish.
7. Kasb–hunar kollejlarda adib hayotini o'rganish.
8. 5–sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirish.
9. Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o'rganish.
10. 6–sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirish.
11. 7–sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirish.
12. 8–sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirish.
13. 9–sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirish.
14. Akademik litsey adabiyot darslarida og'zaki va yozma nutqni o'stirish.
15. Kasb–hunar kollejlari o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirish.
16. Kasb–hunar kollejlari adabiyot darslarida qadimiy obidalarni o'rganish.
17. «Kecha va kunduz» romanining badiiy til xususiyatlari.
18. Abdulla Qahhor hikoyalarining kompozitsion xususiyatlarini o'rganish.
19. Ijodiy insho va unga qo'yiladigan talablar.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni **(O'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasi)**

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda o'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasi fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishi tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha til o'qitish metodikasi fani bo'lim yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning ilmiy–tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini tahlil qilish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. O'zbek tilidan darslik va o'quv qo'llanmalarining boblari va mavzularini o'rganish.
- Bunday tashkiliy ish shakli, odatda, o'zbek tili metodikasini chuqur o'rganayotgan talabalar uchun tavsiya etiladi, chunki bu talabalar darslik va o'qituvchi kitobini mustaqil o'zlashtirishi lozim bo'ladi. Bu ish natijalari seminar, referat hamda individual berilgan vazifalar bo'yicha tekshiriladi.
2. O'zbek tili darslarida tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish.
- Bunda o'qituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim bo'ladi. Tarqatma materiallar hajmi har bir ma'ruza uchun 5–8 sahifa bo'lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.
3. O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Bu usul ma'ruza mashg'ulotlari hamda amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'llanishi mumkin.
4. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash. Bu maxsus va ilmiy adabiyot (monografiya, maqolalar), referatlar, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlarini bajarish chog'ida amalga oshiriladi. Mustaqil tahsilning bu shakli barcha kurs talabalariga tavsiya etiladi. Uning natijalari ham reyting nazoratida aks etadi.
5. O'zbek tilining nazariy qoidalarini mustahkamlash bo'yicha manbalardan misollar topish, ularni tahlil qilish, mashq va amaliy ishlar bajarish. Bu ish reyting tizimida baholanadi.
6. O'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasi fani bo'yicha adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, qo'shimcha adabiyotlar ustida ishlash hamda ularni

o'rganish. Bu ish ham semestr davomida amalga oshiriladi va reyting tizimida baholanadi.

7. Talabalarining ilmiy–tadqiqot ishlarini bajarishi bilan bog'liq holda “O'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasi” fanining muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish. Mustaqil ishning bu shakli semestr davomida talabalarga tavsiya etiladi.

8. Faol o'qitish metodidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

Talabalar tomonidan ta'lim, fan va texnologiyalarning dolzarb muammolari bo'yicha tayyorlangan faol o'qitish metodlari (o'yin–mashq texnologiyalar, munozara, seminar va b.) qo'llangan dars mashg'ulotlarini o'tkazish.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni

(Adabiyot o'qitish nazariyasi va metodikasi)

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda adabiyot o'qitish nazariyasi va metodikasi fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishi tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalarining alohida boblari va mavzularini qisqacha konspektlashtirish;
- tegishli mavzularga tarqatma materiallar tayyorlash;
- badiiy asar tahliliga oid qo'shimcha savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- alohida olingan mavzu bo'yicha dars ishlanmasi hamda dars fragmentini tuzish;
- adabiyot o'qitish nazariyasi va metodikasiga oid yangi adabiyotlarning obzorini tuzish;
- ilmiy–metodik jurnallarning yangi sonidan adabiy ta'limga oid maqolalarning annotatsiyasini yozish;
- yangi metodik adabiyotlarga taqrizlar yozish.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Darslik va o'quv qo'llanmalarining alohida boblari va mavzularini qisqacha konspektlashtirish. Bunday tashkiliy ish shakli, odatda, adabiyot o'qitish metodikasini chuqur o'rganayotgan talabalar uchun tavsiya etiladi, chunki bu talabalar darslik va o'qituvchi kitobini mustaqil o'zlashtirishi lozim bo'ladi. Bunday ish natijalari seminar, referat hamda individual berilgan vazifalar bo'yicha tekshiriladi.

2. Tegishli mavzularga tarqatma materiallar tayyorlash.

Bunda o'qituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim bo'ladi. Tarqatma materiallar hajmi har bir ma'ruza uchun 5–8 sahifa

bo'lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining ma'lum bosqichlarida tekshiriladi.

3. Badiiy asar tahliliga oid qo'shimcha savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish. Bu usul ma'ruza mashg'ulotlari hamda amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'llanishi mumkin. Jumladan, alohida olingan badiiy asar tahlilida bu usul talabalarning mustaqil hamda ijodiy fikrlashlari uchun omil bo'ladi.

4. Alohida olingan mavzu bo'yicha dars ishlanmasi hamda dars fragmentini tuzish. Bu maxsus va ilmiy adabiyot (monografiya, maqolalar), referatlar, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlarini bajarish chog'ida amalga oshiriladi. Mustaqil tahsilning bu shakli barcha talabalarga tavsiya etiladi. Uning natijalari ham reyting nazoratida aks etadi.

5. Adabiyot o'qitish nazariyasi va metodikasiga oid yangi adabiyotlarning obzorini tuzish.

Bu ish talabalarning fandagi yangiliklar bilan muntazam ravishda tanishib borishlari uchun real asos bo'ladi. Uni bajarish jarayonida talabalar yangi bilimlar hamda o'qitishning zamonaviy texnologiyalari bilan tanishadilar. Ayni paytda metodik fikrni ilmiy jihatdan ifodalash ko'nikma va malakalariga ega bo'lib boradilar.

6. Ilmiy-metodik jurnallarning yangi sonlaridagi adabiy ta'limga oid maqolalarning annotatsiyasini yozish.

Bu ish ham semestr davomida amalga oshiriladi va reyting tizimida baholanadi. Bunda talabalar har bir yangi maqolaning o'ziga xos xususiyatlarini ilg'ash hamda ularni ixcham tarzda ifodalash ko'nikma va malakalarini o'zlashtiradilar.

7. Yangi metodik adabiyotlarga taqrizlar yozish.

Mustaqil ishning bu shakli semestr davomida talabalarga tavsiya etiladi. Bo'lg'usi o'qituvchilarning yangi metodik hamda pedagogik fikrga nisbatan faol munosabati shu jarayonda ochiqroq namoyon bo'ladi. Taqrizni turli shakllarda tashkil etishning amaliy jihatlari bilan tanishadilar. Ularning shu sohadagi ko'nikma va malakalari yanada rivojlanadi.

Malakaviy amaliyot

Malakaviy amaliyotni tashkil etishga oid amaliy konferensiya tashkil etish. Malakaviy amaliyotning maqsad va vazifalari, tashkil etish yo'llari, olib borish uslubi haqida suhbatlashish. Talabalar biriktirilgan akademik litseylar yoki kasb-hunar kollejlariida pedagogik amaliyotni boshlash oldidan umumiy maqsad va vazifalar bayoni. O'quv yurti hayoti, pedagogik jamoa faoliyati, ta'lim muassasasini boshqarishning zamonaviy talablariga oid direktor suhbatini tashkil etish va o'tkazish. O'quv yurtining o'quv-tarbiyaviy ishlari holati bilan tanishuv,

o'quv ishlari bo'yicha mudir suhbatini tashkil etish. Maktabda joriy yilda o'tkazish rejalashtirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar bilan tanishish. Fan o'qituvchilarining yillik va choraklik o'quv rejalari bilan tanishish. Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi bilan tanishish. Ona tili va adabiyot fanlari metod kengashi bilan tanishish; o'qituvchilarning ish yuritish hujjatlari, sinf jurnalini yuritish bilan tanishish. Amaliyotchi talabalar bilan fan o'qituvchilarining darslarini kuzatish. "Amaliyotchi burchagi"ni tashkil etish. Darslarni kuzatish va tahlil qilish. Metodist o'qituvchi va fan o'qituvchilarining ochiq darslarini o'tkazish, darslarni kuzatish, tahlil qilish va baholash. «Zamonaviy dars qanday bo'lmog'i kerak», «Ta'limdagi an'anaviy va noan'anaviy usullar» kabi mavzularda suhbatlar o'tkazish. Biror mavzuning rejasi va bir soatlik dars ishlanmasini tuzish.

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanishi nazarda tutilgan:

- o'zbek tili va adabiyotini o'qitish nazariyasi va metodikasi fanini o'qitishda zamonaviy (xususan interfaol) metodlar;
- pedagogik va axborot-kommunikatsiya (mediata'lim, amaliy dastur paketlari, prezentatsion (ko'rgazmali taqdim qilish), elektron-didaktik) texnologiyalarni qo'llash nazarda tutiladi;
- o'zbek tili va adabiyotini o'qitish nazariyasi va metodikasi kursida turli plakatlardan, tarqatma materiallardan, kompyuterdan, har xil jadvallardan va boshqa ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: "O'zbekiston". 2011.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat". 2008.
3. Mirtojiev M., Mahmudov N. «Til va madaniyat» – T.: 1992.
4. To'xliiev B., Shamsieva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi.– T.: 2010.
5. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – T: «Universitet». 2001.
6. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: «O'qituvchi». 1992
7. To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: 2010.
8. Akademik litseylarning aniq fanlar yo'nalishidagi tarmoq ta'lim standarti va chuqurlashtirilgan fanlar o'quv dasturlari... Ona tili va adabiyoti /Mualliflar: A.Nurmonov, N.Mahmudov, A. Sobirov, N.Qosimova, Sh. Yusupova. – T.: O'qituvchi, 2005.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. «Ona tili» darsligi 5-9-sinflar uchun, – T.: 2011.
2. “Adabiyot” darsligi 5-9-sinflar uchun, – T.: 2011.
3. Matchonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – T.: «O‘qituvchi». 1996.
4. To‘xliiev B. Adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T.: «O‘qituvchi». 2005.
5. Mirqosimova M. O‘quvchilarni adabiy-estetik tahlilga o‘rgatish. – T.: 1994.
6. Yoldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V. Adabiyot. Umumta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Toshkent, Sharq, 2005.
7. Qurinov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent, A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 2004.
8. G‘ulomov A., Ne‘matov H. Ona tili ta’limining mazmuni. – T.: «O‘qituvchi». 1995.
9. Ne‘matov O‘., Bozorov O. Til va nutq. – T.: «O‘qituvchi». 1993.
10. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish printsiplari va metodlari. – T.: «O‘qituvchi». 1992.
11. G‘ulomov A. Ona tili darslarida aktivlik printsiptini amalga oshirishning nazariy asoslari. – T.: «Fan». 1989.
12. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: «O‘qituvchi». 1996.
13. Yo‘ldoshev Q. O‘qituvchi kitobi. Metodik qo‘llanma, 7-sinf «O‘zbek adabiyoti» darslik majmuasi uchun. – T.: «O‘qituvchi». 1997.
14. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylarning 1-2-3-bosqich talabalari uchun darslik. T.: Xalq merosi, 2010.
15. Ona tili va adabiyoti (Kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: “Sharq”, 2010.
16. **Badiiy asarning lingvistik tahlili.** [http: G`G`pedagog.uzG`booksG`1826Metodiceskoe%20posobie%20po%20LAXTU%20noviy%20variant.rar](http://G`G`pedagog.uzG`booksG`1826Metodiceskoe%20posobie%20po%20LAXTU%20noviy%20variant.rar)
17. **To‘xliiev B. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi.** [http: G`G`pedagog.uzG`booksG`1826etodiceskoe%20posobie%20po%20LAXTU%20noviy%20variant.rar](http://G`G`pedagog.uzG`booksG`1826etodiceskoe%20posobie%20po%20LAXTU%20noviy%20variant.rar)
18. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
19. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
20. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
21. [www. edu. uz](http://www.edu.uz)
22. **tdpu-INTRANET. Ped**
23. [www. nutq. intal. uz](http://www.nutq.intal.uz)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIMI VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

“Ro'yxatga olindi”
№ 343.5141100-3.5
“28” avgust 2013 y.

“ Tasdiqlandi”
Jizzax DPI prorektori
Prof.N.Alimov _____
“ _____ ” _____ 2013 y

O'ZBEK TILI O'QITISH METODIKASI
fanidan ishchi dasturi

Bilim sohasi: 100000-Ta'lim
Ta'lim sohasi: 140000-O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani

Bakalavriat yo'nalishlari: 5111200-O'zbek tili va adabiyoti

JIZZAX -2013

Tuzuvchilar: Filologiya fanlari nomzodi, dotsent **T.Almamatov**
Ped.fan.nom. **Q.Yadgarov**

Taqrizchilar: O'zbek tili va uni o'qitish uslubiyati kafedrasi dotsentlari
B.Fayzullayev, M.Tursunpo'latov.

Dastur Jizzax Davlat pedagogika instituti Ilmiy Kengashining 2013 yil 28
avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan.

SO'Z BOSHI

O'zbek tili o'qitish metodikasi o'quv fanining asosiy maqsadi va vazifalari. Ishchi dastur oldiga qo'yilgan asosiy maqsad umumiy o'rta maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarining bo'lajak o'qituvchilarini til o'qitishning eng qulay metod va usullaridan ta'limning hamma bosqichlarida qo'lashning nazariy asoslari bilan tanishtirish hamda ona tili o'qituvchisining kasbiy faoliyati haqidagi dastlabki bilimlar bilan qurollantirishdir.

Bu o'quv fanining asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- talabalarni adabiy til me'yorlaridan to'g'ri foydalanadigan, adabiy nutq me'yorlarini egallagan yetuk ona tili o'qituvchisi qilib yetkazish;
- o'zbek tili o'qitishning ilg'or yutuqlarini, darsning ilmiy – nazariy asoslarini o'rgatish;
- ona tiliga oid dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning nazariy – metodik asoslarini egallatish;
- ularda dastlabki kasbiy – pedagogik hamda metodik ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- ularda o'quvchilarni orfografik va punktuatsion xatosiz yozishga, adabiy til va nutq normalariga rioya qilgan holda talaffuz etish va yozishga o'rgatishning samaraliy usullarini shakllantirishdan iborat.

Talabalarining bilim, malaka va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar: o'zbek tilining asosiy grammatik kategoriyalarini, uning rivojlanish tarixining asoslarini amaliy jarayonlarga tatbiq eta oladigan darajada bilishi; tasdiqlangan hamda tajriba sifatida qo'llanadigan dastur, darslik va o'quv qullanmalari mazmunini tahlil qila olishi, o'rganilayotgan material mazmuniga tegishli vaqt va sharoit talabiga ko'ra o'zgartirishlar kirita olishi, ona tili mashg'ulotlarida zaruriy didaktik materiallarni tanlay va tayyorlay olishi; ilmiy, metodik adabiyotlardan dars hamda darsdan tashqari mashg'ulotlar uchun zaruriy ma'lumotlarni ola bilish. O'zbek tili o'qituvchisining o'quv-tarbiyaviy ishlarini DTS, o'quv dasturlari hamda tegishli

asosiy pedagogik prinsiplar va qonuniyatlar asosida rejalashtirish; O'zbek tili bo'yicha o'rta umumta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari ta'limining mohiyati hamda prinsiplarini o'zlashtirish; til bo'limlarini o'qitishning ilmiy-didaktik hamda pedagogik asoslarini bilish; o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqlarini o'stirishning shakl va usullarini nazariy jihatdan o'rganib, ularni amaliyotga tatbiq qila olish; o'quvchilar bilimini nazorat qilish hamda baholash me'yorlarini bilish; turli tipdagi ta'limning turli bosqichlari (umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari) dagi pedagogik amaliyotda o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning asosiy shakllarini tatbiq eta olish; o'zbek tilini o'rganishning metod va usullarini amaliyotga qo'llay olish, konkret vaziyatlarda ularning o'zaro yaxlitligining eng maqbul shakllarini tanlay bilish; o'zbek tili bo'yicha darslarda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar faoliyati va ularning muloqotlarini samarali tarzda boshqara olish; o'z ustida muntazam ishlash, metodik adabiyotlar, metodika fani yutuqlari hamda tilchi o'qituvchilarning ilg'or ish tajribalaridan foydalana olish.

Mazkur o'quv fanini o'rganish uchun zarur bo'lgan o'quv fanlarining ro'yxati: pedagogika, psixologiya, tilshunoslik, hozirgi o'zbek adabiy tili, qiyosiy grammatika, umumiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik, adabiyot o'qitish metodikasi va boshqalar.

O'ZBEK TILI O'QITISH METODIKASI REYTING BALLARI

Ma'ruza – 16 s
Amaliy – 10 s
Laboratoriya – 22 s
Mustaqil ta'lim – 42 s

O.N (Ma'ruzadan) maksimal ball 30,0 ball (17 ball mustaqil ta'lim uchun)

86-100 – 26,0 – 30,0
71-85 – 22,5 – 25,5
56-70 – 16,8 – 21,0
0-55 – 0-16,5

J.N. (amaliy va laboratoriya mashg'ulotidan) 40,0 ball (17 ball mustaqil ta'lim uchun)

86-100 – 34,4 – 40,0
71-85 – 28,4 – 34,0
56-70 – 22,4 – 28,0
0-55 – 0-22,0

YaB – 30,0

86-100 – 26,0 – 30,0
71-85 – 21,0 – 25,0
56-70 – 17,0 – 21,0
0-55 – 0-16,0

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mavzulari

T/r	Boblar bo'yicha ma'ruzalar nomi va mazmuni	Jami audit soati	Ma'ruza soati	Amaliy mashg'ulot	Laboratoriya mashg'ulotlari	JB, OB, YaB	Mustaqil ta'lim soatlari	O'tadigan vaqti
1.	O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining baxsi, maqsadi va vazifalari		2					
2.	Ona tili o'qitishning umumdidaktik tamoyillari		2					
3.	Ona tili o'qitish metodlari		2					
4.	Fonetika o'qitish metodikasi		2					
5.	Leksikologiya o'qitish metodikasi		2					
6.	Morfologiya o'qitish metodikasi		2					
7.	Sintaksis o'qitish metodikasi		2					
8.	Orfografiya va punktuasiya o'qitish metodikasi		2					
	Jami:		16					
1.	Dastur va o'zbek tili darsliklari haqida talabalar ma'ruzalari yuzasidan ma'ruza.			2				
2.	Ona tili dasturining tuzilishi, prinsiplari haqida suhbat munozara			2				
3.	Ona tilidan o'quv materiallarini rejalashtirish.			2				
4.	Yangi mavzuni tushuntirish va o'tganlarni mustahkamlash dars tiplari.			2				
5.	"Ma'rifat" gazetasi va "Til va adabiyot ta'limi" jurnalida e'lon qilingan ona tili o'qitishga mo'ljallangan maqolalar tahlili.			2				
	Jami:			10				

1.	Tovush va harfni farqlash, bo'g'in va bo'g'in ko'chirish qoidalarini o'rgatish va tahlil qilish hamda leksikologiya va frazeologiyaga oid mashqlar uchun tanlangan gaplar va materiallar tanlash.							
2.	Mustaqil so'z turkumlari bo'yicha reja konspekt tuzish va tahlil qilish hamda so'z birikmasi, gap va uning turlari, undalma va kirish so'z uchun matn tanlash hamda muhokama qilish.							
3.	Sodda gap, qo'shma gap sintaksisi, ko'chirma gap bo'yicha sxema va qo'shimcha materiallar tayyorlash.							
4.	Orfografik mashqlar, diktant turlari uchun matn tanlash va uni o'tkazish hamda bayon va insho yozish uchun matnlar tanlash, uni o'tkazish va tahlil qilish.							
5.	Fonetika, orfografiya, grafika bo'limi yuzasidan, munozara uyushtirish. Umumiy o'rta ta'lim maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollej darsliklaridagi til bo'limi yuzasidan baxs-munozara							
	Jami:							
			16	10	22			

O'ZBEK TILI METODIKASI FANINING PREDMETI

Ta'lim sohasidagi islohotlar. Ona tili o'qitish metodikasi predmeti fan sifatida: uning maqsad-vazifalari. Ona tili o'qitish metodikasi fanining integrativ mohiyati.

Ona tili o'qitish metodikasi fanining boshqa predmetlar (pedagogika, umumiy va yosh psixologiyasi, lingvistika (tilshunoslik), adabiyotshunoslik, falsafa, didaktika) bilan aloqasi. Ta'limning turli bosqichlarida ona tili o'qitish mazmuni. Ta'lim bosqichlarida ona tili o'qitishning metod va usullari. Ona tilidan dastur va darsliklar. Tilshunoslikning alohida qism va bo'limlarini o'qitish metodikasi. Fonetika va imloni o'qitish talaffuz me'yorlarini o'rgatish. Leksikani o'rganish xususiyatlari. Morfologiya, sintaksis va punktuasiyani o'rganish metodikasi. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish yo'llari, matn bilan ishlash malakalarini hosil qilish o'quvchi va o'qituvchi hamkorligi.

Amaliy mashg'ulotlari

Ona tilidan o'quv-metodik adabiyotlar majmuasi ustida ishlash. Dastur darslik va o'quv qo'llanmalarining o'ziga xos xususiyatlari ularning tuzilishi, tarkibi va tahlili.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlaridagi ona tili faniga oid dasturlarning xususiyatlari:

Ona tili darslarini rejalashtirish. Rejalashtirishda dastur materiallarini ajratilgan soatlarni mavzu guruhlariga ajratish, ularni o'quv yiliga, choraklarga, oy va haftalarga bo'lish prinsiplari. Alohida olingan dars rejasi. Darsning maqsad va vazifasini shakllantirish. Didaktik hamda lisoniy materiallarni saralash.

Ona tilidan dars tizimi. Ona tilining fonetika, leksika, frazeologiya, morfemika, sintaksis bo'limlaridan biriga aloqador bo'lgan aniq dars mazmuni va tarkibini tahlil qilish. Ona tili fani o'qituvchilari darslarini kuzatish va tahlil qilish.

Laboratoriya mashg'ulotlari

«Leksika haqida ma'lumot» mavzusiga 1 soatlik dars rejasi tuzish. Fonetika, orfografiya, grafika bo'limi yuzasidan suhbat, munozara uyushtirish. Darslikdagi morfologiya bo'limini berilgan nazariy ma'lumotlar va amaliy mashg'ulotlar yuzasidan bahs-munozara. Sintaksis bo'limidan «uyushiq bo'laklar» mavzusi yuzasidan 1 soatlik dars rejasi tuzish. Gap va uning tuzilishi turlarini o'tish jarayonida matn ustida ishlash. o'zga gap. Ko'chirma gapda tinish belgilarining qo'llanilishi. Nutq uslublari yuzasidan ko'rgazmalar tayyorlash.

Pedagogik amaliyot

Pedagogik amaliyotni tashkil etishga oid amaliy konferensiya tashkil etish. Pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari, tashkil etish yo'llari, olib borish usullari haqida suhbatlashish.

Talabalar biriktirilgan akademik litseylar yoki kasb-hunar kollejlarda pedagogik amaliyotni boshlash oldidan umumiy maqsad va vazifalar bayoni.

O'quv yurti hayoti, pedagogik jamoa faoliyati, ta'lim muassasasini boshqarishning zamonaviy talablariga oid direktor suhbatini tashkil etish va o'tkazish.

O'quv yurtining o'quv tarbiyaviy ishlari holati bilan tanishuv, o'quv ishlari bo'yicha mudir suhbatini tashkil etish.

Maktabda joriy yilda o'tkazish rejalashtirilgan ma'naviy ma'rifiy ishlar bilan tanishish.

Fan o'qituvchilarining yillik va choraklik o'quv rejalari bilan tanishish.

Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi bilan tanishtirish.

Ona tili adabiyot fanlari metod kengashi bilan tanishish; o'qituvchilarning ish yuritish hujjatlari, sinf jurnalini yuritish bilan tanishtirish Amaliyotchi talabalar bilan fan o'qituvchilarining darslarini kuzatish. Amaliyotchi burchagini tashkil etish.

Darslarni kuzatish va tahlil qilish. Metodist o'qituvchi va fan o'qituvchilarining ochiq darslarini o'tkazish, darslarni kuzatish, tahlil qilish va baholash.

«Zamonaviy dars qanday bo'lmog'i kerak», «Ta'limdagi an'anaviy va noan'anaviy usullar» mavzularida suhbat o'tkazish.

Darsning reja va konspektini tuzish.

Mustaqil ish

Darslik va o'quv qo'llanmalarining (ularning to'la ta'minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash.

O'zbek tili o'qitish metodikasi fanidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish. Badiiy asarlarni estetik-g'oyaviy jihatdan tahlil qilish, klassik asarlar matni ustida ishlash, adabiy jarayonni kuzatib borish. Malakaviy amaliyotni o'tish chog'ida yangi texnika, jihozlar, keng ko'lamli ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.

DARSLIK VA O'QUV QO'LLANMALAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». T.: 1998.
2. Yo.G'ulomov va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi, «O'qituvchi» nashr. Toshkent 1975 y.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. «Barkamol avlod - o'zbekiston taraqqiyotining poydevori». T.: 1998. 20-29 bet.
4. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi, Toshkent 2010 yil.
5. B.To'xliyev va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi (amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun) qo'llanma T.: 2012.
6. T.Almamatov va boshqalar. O'zbek tilini o'qitishda innavatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Qo'llanma. T.: 2013.
7. Mahmudov N. va boshqalar «Ona tili» darsligi 5-sinf uchun, T.: 2007.
8. Mahmudov N. va boshqalar «Ona tili» darsligi 6-sinf uchun, T.: 2007.
9. Mahmudov N. va boshqalar «Ona tili» darsligi 7-sinf uchun, T.: 2007.
10. Mahmudov N. va boshqalar «Ona tili» darsligi 8-sinf uchun, T.: 2010.
11. Mahmudov N. va boshqalar «Ona tili» darsligi 9-sinf uchun, T.: 2010.
12. Mukarramov M. va boshqalar «Imlo qoidolari yuzasidan mashqlar to'plami» T.: 1996.
13. Muhiddin A.O'. O'quv jarayonida nutq faolligi. T.:»O'qituvchi», 1998.
14. Mirtojiyev M., Mahmudov N. «Til va madaniyat» T.: 1992.
15. Ne'matov H. Bozorov O. Til va nutq. T.: «O'qituvchi». 1993.
16. Ne'matov H. va boshqalar «Ijodiy matn ustida ishlash» T.: 1997.
17. Quronov M. va boshqalar Til ta'limida milliy istiqlol g'oyasi. T.: 2003.
18. G'ulomov A.Q. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. T.: «O'qituvchi». 1992.
19. G'ulomov A.Q. Ona tili darslarida aktivlik prinsipini amalga oshirishning nazariy asoslari. T.: «Fan». 1989.
20. G'ulomov A. Ne'matov O'. Ona tili ta'limining mazmuni. T.: «O'qituvchi». 1995.
21. G'ulomov A. Qodirov M., Ona tili o'qitish metodikasi. T: «Universitet». 2001. 221-bet.
22. O'qituvchi kitobi (5-9-sinflar uchun). T.: 2007-2010 yillar.
23. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. Qo'llanma. T.: 2000.
24. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, AL va KHK o'quv dasturlari va darsliklari.

**«O'ZBEK TILI O'QITISH METODIKASI» FANIDAN MA'RUZA
MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI**

1-mavzu.	O'zbek tili o'qitish metodikasi” fanining bahsi, maqsad va vazifalari.
-----------------	---

Ta'lim berish texnologiyasi


Mashg'ulot vaqti 80 daqiqa	Talabalar soni 50-55 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish - axborotli ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Ona tili o'qitish metodikasi – fan sifatida. 2. Ona tili o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari. 3. Ona tili o'qitish metodikasining tekshirish metodlari. 4. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun ona tili dasturlari.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey kasb-hunar kollejlari ona tili o'qitishning tarkibi va mazmuni bo'yicha umumiy tushuncha berish, dastur va darsliklar mazmuni bilan yaqindan tanishtirish.	
Pedagogik vazifalar: • o'quv dasturlarining maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzular to'g'risida tushuncha berish; • dastur haqida ma'lumot berish; • dastur turlari bilan tanishtirish.	O'quv faoliyati natijalari: • dasturlarning maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularni sharhlab beradi; • stil so'zining ma'nolarini aytib beradi; • dastur turlarini sanab o'tadi.
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor, tarqatmalar.
Ta'lim berish sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

1.2. ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O'quv fanini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar	Tinglaydilar

	ro'yxatini tuzib chiqish.	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1 O'quv fanining nomini aytadi. Mavzular va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi. (1 ilova). 1.2. Birinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonini bilan tanishtiriladi (2 ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar Tinglaydilar Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining o'rganish obyekti. 2.3. Dastur va uning vazifasi. 2.4. Dasturlarning ta'lim bosqichlaridagi ahamiyati. 2.5. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi: 2.6. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili o'qitish kursining tarkibi va mazmunini tushuntirib bering. 2. Akademik litseylarda ona tili o'qitish kursining tarkibi va mazmuni qanday? 3. Kasb-hunar kollejlariida ona tili o'qitish kursining mazmuni haqida gapiring.	Tinglaydilar, yozadilar. Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2 Mustaqil ishlash uchun	Savollar beradilar Vazifani yozib oladilar.

	“Umumta’lim, AL va KHK dasturlari haqida” mavzusini taqdim etadi. Klaster	
--	---	--



Adabiyotlar ro‘yxati

1. Yo.G’ulomov, I.Rasulov, H.Rustamov, B.Mirzaahmedov, O’zbek tili o’qitish metodikasi. Toshkent 1975 yil.
 2. G’.Abdurahmonov. Punktuasiya o’qitish metodikasi, Toshkent 1968 yil.
 3. B.To’xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. o’zbek tili o’qitish metodikasi. Toshkent 2010 yil.
 4. A.G’ulomov. Ona tili o’qitish prinsiplari va metodlari. Toshkent 1992 yil.
 5. A.G’ulomov, H.Ne’matov. Ona tili ta’limi mazmuni. Toshkent 1992 yil.
 6. A.G.Muhiddinov. O’quv jarayonida nutq faoliyati, Toshkent 1995 yil.
 7. N.Mahmudov. til va ma’naviyat, “Til va adabiyot ta’limi” jurnali 1997 yil 3-son.
 8. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, “Til va adabiyot ta’limi” jurnali 1997 yil 5-6-sonlar.
 9. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Ma’rifat” gazetasi 1998 yil, 1-aprel.
 10. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standartlari va o’quv dasturi, Ona tili (5-9-sinflar). Toshkent, 2010 yil. «Ўқитувчи», 1995.
- Тўхлиев Б. ва б.** «Ўзбек тили ўқитиш методикаси». «Янги аср авлоди». Т. 2006.

Har bir ma’ruza va amaliy mashg’ulot uchun 0,5 dan 2 ballgacha qo’yiladi. Reyting bo’yicha natijalar bahosi: 2,0 ball – “a’lo”, 1,5 ball – “yaxshi”, 1,0 ball – “qoniqarli”, 0,5 ball – “qoniqarsiz”

1. “O’zbek tili o’qitish metodikasi” pedagogika fanlari sirasiga kirib, uni ona tili predmetini o’qitishning nazariyasi deyish mumkin. “O’zbek tili o’qitish metodikasi” fani pedagogika oliy o’quv yurtlari filologiya fakultetining yetakchi mutaxassislik fanlaridan biri hisoblanadi. U fan sifatida shu kursning maqsadi,

mazmuni, vositalari, metodlari, tashkiliy formalarini o'rganadi. Ona tilining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi xususiyatlarini asoslaydi.

O'rta maktab o'quv dasturidagi fanlar orasida ona tili salmoqli o'rin egallaydi. Bu boradagi dastlabki vazifalar ona tili o'qituvchilarini metodika asoslari bilan tanishtirish va metodik adabiyotlar bilan ta'minlash edi. (Metod – grekcha *metodos* – aynan “biron narsaga borish yo'li” demakdir. Umumiy ma'noda maqsadga erishish usuli, muayyan tartibga solingan faoliyat demakdir).

Ona tili o'qitish metodikasi fan sifatida pedagogika bilim yurtlari va oliy o'quv yurtlarida 1930 yillardan boshlab o'qitila boshlagan. Ammo bu fanga oid darslik va qo'llanmalar 1940 yillarda yuzaga kela boshlagan.

(Bungacha ham bizning o'z o'qitish metodikamiz mavjud bo'lgan. U orqali ilm – fan ravnaqiga munosib bo'lgan. U orqali ilm – fan ravnaqiga munosib hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz yetishib chiqqan: Al – Xorazmiy: - “sezgi orqali bilish bu qisman bilim bo'lsa, mantiqiy bilish haqiqatdir”, A.Beruniy, A.ibn Sino, M.Koshg'ariy, zamaxshariy, At-Termiziy, Marg'inoniy, Yu.Xos Hojib, Navoiy va boshqalar). Bularidan, zamonaviy metodikaga asoslangan, S.A.Fessaloniskiyning “Ona tili metodikasi” (1940) kitobi o'zbek tili o'qitish metodikasi tarixida nazariy va amaliy jihatdan alohida o'rinda turadi.

Qo'llanmada darsning reja va konspektidan namunalar, turli xil sxemalar, tablisalar berilgan. Unda grammatika orfografiya metodikasi bilan bog'langan holda berilgan. Nutq o'stirish metodikasiga alohida e'tibor qaratiladi. Uning “Lug'at ishidagi priyomlar”, “Obrazli nutqni o'stirish”, “Yozma nutq”, “Insho” haqidagi metodik maslahatlari hozirgi paytda ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q.

1950 yilda M.Shams, F.Kamol (1952), H.Rustamov (1960), N.Abdurahmonov (1969), Ya.G'ulomov, I.Rasulov, H.Rustamovlar (1975), O.Roziqov (1976), M.Omilxonova va boshqalar (1978, 1982), A.G'ulomov (1980), B.To'xliyev, M.Shasiyeva, T.Ziyodovalar (2006, 2010)ning ona tili o'qitish metodikasining turli jabhalari bo'yicha o'quv – qo'llanmasi, metodik qo'llanmalari bosilib chiqdi.

Xullas, 1960 yillardan keyin metodika sohasida ilmiy tadqiqot ishlarining ko'лами yanada kengaydi. O'qituvchilarning talab va ehtiyojlari hisobga olinib “Sovet maktabi” (hozirgi “Til va adabiyot ta'limi”) jurnali, “O'qituvchilar gazetasi” (hozirgi “Ma'rifat”) chop etila boshlandi. Bu nashrlar o'qituvchilar uchun ko'plab nazariy va metodik maslahatlar bermoqda.

2. Ona tili o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari.

O'zbek tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi – o'quvchilarda til imkoniyatlaridan mustaqil holatda to'g'ri hamda o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy istiqlol g'oyasi hamda sharqona tarbiyani berishdan iborat. Shu asnda, ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. O'zbek tili o'qitish metodikasi, bir tomondan, pedagogikaga oid fanlar turkumiga kirsam, ikkinchi tomondan, mustaqil fan sifatida o'z tekshirish obyektiga ega bo'lib, ona

tilini o'rgatish vositalari, shart – sharoitlari hamda til o'zlashtirish qonuniyatlari haqida baxs yuritadi.

Ona tili o'qitish metodikasining asosiy vazifasi – o'zbek tili mutaxassisligi bo'yicha talabalarni adabiy til me'yorlaridan to'g'ri foydalanadigan, adabiy nutq me'yorlarini egallagan yetuk ona tili o'qituvchisi qilib yetkazishdan iborat. Buning uchun maktab o'quvchilarini orfografik va punktuasion xatolarsiz yozishga, adabiy til va nutq normalariga rioya qilgan holda talaffuz etish va yozishga, buni amalga oshirish uchun xilma – xil mashqlarni bajarishga, grammatik tahlil o'tkazishga, ko'chirib yozish, diktant, bayon, insho kabi yozma ishlar uchun matn tanlashga o'rgatish zarur. Shuningdek, maktab o'qituvchisi6

1. Ona tili predmetining hajmi, mundarijasi, maqsadi, o'ziga xos xususiyatlari, kursning bo'limlari, ular orasidagi bog'lanish, nihoyat, materialning sinflar bo'yicha taqsimotini aniqlash;

2. O'qituvchi va o'quvchining vaqtini, kuchini tejash. O'qitishning samaradorligini oshirish maqsadida eng qulay, eng foydali metod va usullarni tavsiya qilish;

3. Ona tili dasturida belgilangan bilimlar tizimini o'quvchilarning o'zlashtirishlari uchun zarur shart – sharoitlar yaratishni hal qilish;

4. Nimani o'rgatish? Qancha o'rgatish? Nima uchun va qanday usullar bilan o'rgatish? Nima uchun turli bo'lim o'rganishda turli metodlardan foydalanish kerak? kabi so'roqlarga javob berish kerak.

Shunday qilib, ona tili o'qitish metodikasi o'qituvchining pedagogik dunyoqarashini va ona tili o'qitishga munosabatini shakllantiradi, o'z kasbiga hurmat bilan qarashni tarbiyalaydi.

3. Ona tili o'qitish metodikasining tekshirish metodlari:

A) Kuzatish metodi. Bunda o'quvchilar darslarda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda va uyda ona tilidan bajargan ishlari asosida ma'lum maqsadda kuzatiladi, ularning faoliyatlari hisobga olinadi va tahlil qilinadi;

B) Tajribani o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish pedagogika fanlarini rivojlantirishning bosh omillaridan biridir. Ilg'or o'qituvchilarning faoliyatini, o'qitish usullarini tahlil qilish, bir tomondan, metodika fani berayotgan nazariy xulosalarining to'g'riligini tekshirishda ishonchli mezon bo'lsa, ikkinchi tomondan, metodika fanini yangiliklar bilan shaxsiy suhbat metodi;

V) O'quvchilar bilan shaxsiy suhbat metodi;

G) anketa metodi. Bu metod yordamida bir vaqtning o'zida bir necha o'quvchiga savol berib, ularning ayni bir hodisaga turlicha munosabati aniqlab olinadi;

D) Ekspertiment metodi. Bu metod yordamida metodist – olimlar o'zlari yozgan qo'llanmalardagi tavsiya va metodlarning qay darajada samaradorligini sinfdan tajriba qilib ko'radilar;

Ye) metodik merosni o'rganish metodi. O'zbek tili o'qitish metodikasi nisbatan yangi fan. Tilning ijtimoiy ahamiyati haqida boy pedagogik meros qolgan bo'lsa-da, uni o'qitish metodikasi bilan bog'liq bo'lgan masalalar, asosan, keyingi davr bilan bog'liq. Shuning uchun ham bu metod ijobiy samaralar beradi.

4. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va ona tilining yangi dasturlari.

Mamalakatimizda “ta’lim to’g’risida”gi Qonunning qabul qilinishi ta’lim tizimida keskin burilish yuzaga keltirdi. An’anaviy ta’limdan keskin farq qiladigan kommunikativ modelga asoslangan yangi ta’lim mazmuni yaratildi. An’anaviy ta’limdagi dars jarayonining passiv tinglovchisi bo’lgan o’quvchi o’rniga o’quvchini dars jarayonining aktiv ishtirokchisiga aylantiradigan ta’lim tizimi shakllandi. Ona tilidan yangi ta’lim mazmuni asosida yaratilgan dastur dastur, darslik va metodik qo’llanmalar bir necha yil sinovdan o’tkazilib yangi tipdagi dastur va darsliklar avlodi yaratildi. Bu jarayonni tartibga solish va boshqarib borish maqsadida “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda Vazirlar mahkamasining 1998 yil 5 yanvarda “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to’g’risida”, 5-sonli va “O’zbekiston Respublikasida umumiy o’rta ta’limni tashkil etish to’g’risida” 1998 yil 13 maydagi 203 – sonli Qarorlari asosida 1999 yilda davlat ta’lim standartlari yaratildi va u shu yil 16 avgustda tasdiqlandi.

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning 7 – moddasida “davlat ta’lim standartlari umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb – hunar va oliy ta’lim mazmuniga va sifatiga qo’yiladigan talabalarni belgilaydi” – deyilgan. Bu talablar hamma fanlarga, xususan, ona tili ta’limiga ham qo’yiladigan talablarni belgilaydi.

Darhaqiqat, ona tili “mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko’nikmalarini rivojlantiradi”. Shuning uchun ham ona tili va uni o’qitish ta’lim tizimidagi hal qiluvchi momentlardan hisoblanadi.

Ta’limdan asosiy maqsad, bolalarga bilim berish emas ularni bilim olishga o’rgatish, bilim olish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Boladagi bunday ko’nikmani takomillashtirish ona tilini o’qitish bilan bevosita bog’liqdir. Bunda ona tilining rivojlantiruvchi xususiyati namoyon bo’ladi. Ona tili o’qitish o’qituvchi va o’quvchi hamkorligidagi faoliyat bo’lib, shu jarayonda shaxs taraqqiyoti hamda tarbiyasi ham amalga oshadi. Ona tili nutq odobi, o’zligini anglash, o’zgalar fikrini nutq sharoitiga mos og’zaki va yozma ravishda to’g’ri, ravon, aniq, tushunarli ifodalash malakalarini singdiradi. Demak, hayotda hyech bo’lmasa, fikrni, his – tuyg’uli ichki kechinmalarni to’g’ri, aniq ifodlash uchun ona tilini, uning qonun - qoidalarini bilish zarurligi hammaga ayon. Shuning uchun ham: 1) ona tili maktab ta’limida yetkachi fan; 2) boshqa fanlarni tez va oson o’zlashtirish vositasi; 3) o’quvchilar fikrlash qobiliyatini o’stirish quroli hamdir.

Ta’lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar mahkamasining 2004 yil 21 mayda “2004 – 2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to’g’risida”gi Farmoni e’lon qilindi. Umummilliy dastur besh yo’nalishni o’z ichiga oladi:

- 1) umumta’lim maktablarining moddiy holatini yaxshilash;
- 2) o’quv – laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darslik va o’quv – metodik materiallar bilan ta’minlash;
- 3) ta’lim tizimida qo’llanayotgan o’quv standartlari, o’quv dasturi va darsliklarini takomillashtirish;
- 4) umumta’lim maktablari, birinchi navbatda qishloq maktablarini malakali mutaxassislar bilan ta’minlash;

5) maktablarda sportni rivojlantirish. Ta'lim tizimiga qilinayotgan e'tibor va qo'yilayotgan talablar asosida yangilagan yagona o'quv dasturi yuzaga keldi. Dastur ikki qismdan iborat:

1. Muqaddima, 2. Izchil kurs.

Dasturning "Muqaddima" qismida dasturdagi o'zgarishlar, ona tili o'qitishning maqsad va vazifalari bayon qilinadi. "Izchil kurs"da ona tilini o'qitish uchun ajratilgan soatlarning mavzular bo'yicha taqsimoti beriladi.

Mustahkamlash uchun topshiriqlar.

1. Ona tili o'qitish metodikasi hozirgi zamon fani sifatida qachon shakllangan va daslabki zamonaviy qo'llanma qaysi biri?

2. Ona tili o'qitish metodikasining maqsad va vazifalarini izohlang.

3. Ona tili o'qitish metodikasining tekshirish metodlari va ularning faoliyat ko'rsatish sohasi.

4. Kuzatish metodi bilan tajribani o'rganish, tahlil qilish metodlarining farqi nimada?

5. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va ona tili o'qitish metodikasining aloqadorligi nimada?

6. Ona tili o'qitishning ta'lim tizimidagi ahamiyati nimalardan iborat?

2- mavzu	Ona tili o'qitishning umumdidaktik tomoyillari (prinsiplari)
-------------	---

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti 2s.	Talabalar soni 50-55 gacha
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashg'ulot.
Ma'ruza rejasi	1. Umumdidaktik tamoyillar haqida. 2. Ta'lim – tarbiya va rivojlanishning uyg'unligi tamoyili. 3. Ilmiylik va tushunarlilik tamoyili. 4. Tizimlilik va izchillik tamoyili. 5. Nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qilish. 6. O'qitishda ko'rsatmalilik tamoyili.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: o'quv fani bo'yicha umumiy tushuncha berish, publisistik uslubning yozma va og'zaki ko'rinishlari, publisistik uslubning asosiy vazifasi, janrlari. Publisistik uslubning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari haqidagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish.	
Pedagogik vazifalar: • Publisistik uslubning ko'rinishlari haqida ko'nikma hosil qilish; • Publisistik uslubning asosiy vazifasi, janrlari haqidagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish; • Publisistik uslubning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari haqidagi bilimlarini rivojlantirish;	O'quv faoliyati natijalari: • Publisistik uslubning og'zaki hamda yozma ko'rinishlarini tushuntirib beradilar; • Publisistik uslubning asosiy vazifasi, janrlarini sanab o'tadilar va har biriga ta'rif beradilar; Publisistik uslubning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini tushuntiradilar;
Ta'lim berish usullari	Munozara, suhbat, tezkor-so'rov
Ta'lim berish shakllari	Komandada ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

1.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi (1 ilova).	Savollarga javob beradilar.

	Komandalar ishi uchun yozma tarzda savollarni tayyorlaydi. Komandalar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi.	Savollarga javob beradilar.
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.1 Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatligini dolzarbliligini asoslaydi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi (2 ilova). 1.3. Ish guruhlarida o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi (3 ilova).	Savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Talabalarni 6 ta kichik guruhlariga bo'ladi va guruhlarida hamkorlikda ishlash usuli, qoidalari bilan tanishtiradi. 2.2. Har bir guruhga savollar beriladi va ularga javob berish talab etiladi. 2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. 2.4. Guruh sardorlari berilgan savollarga komandaning javoblarini bayon qiladi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa, guruh sardorini to'xtatib, ya'na qo'shimcha savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi. 2.5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlariga bo'linadilar. Topshiriq bo'yicha ishlaydilar. Guruh sardorlarini tayinlaydilar va hamkorlikda ishlaydilar. Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar.

3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi. 3.2 Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qibchiqishni tavsiya etadi.	Tinglaydilar. Vazifani yozib oladilar.
---------------------------------------	--	---

Tayanch so'zlar: ta'lim, ta'lim jarayoni, fonetik, morfologik, lison-ul arab, ta'lim metodlari, ilg'or pedagogik texnologiyalar, isloh qilish.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Yo.G'ulomov Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. Toshkent, 1992 yil.
2. Yo.G'ulomov va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 1975 yil.
3. B.To'xliyev va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodiksi. Toshkent, 2006 yil.
4. B.To'xliyev va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodiksi. «Yangi asr avlodi». T. 2006.

Maktabda o'tiladigan hamma predmetlar uchun umumiy bo'lgan didaktik tamoyillar: bolaga tarbiya, ma'lumot berish va rivojlantirish; ilmiylik va tushunarliklik; tizimlilik va izchillik, nazariya va amaliyotning aloqadorligi; onglilik va faollik; mustaqillik; o'qitishning o'quvchilar saviyasiga mos kelishi; ko'rgazmalilik va individual munosabatda bo'lish kabilardir.

Ta'limning bu prinsiplari maktablar oldiga qo'yilgan talablardan kelib chiqadi. Uni muvaffaqiyatli qo'llash shaxsni har tomonlama kamol toptirishda ahamiyati katta. O'qitishda prinsiplarga amal qilish dars samaradorligini ta'minladi, ko'zlangan maqsadga erishishga zamin bo'ladi.

Prinsip (tamoyil) – lat. qoida, asos ma'nolarini anglatadi.

2. Ta'lim – tarbiya va rivojlanishning uyg'unligi tamoyili: ta'lim va tarbiya mosligi umumiy ta'lim maktablarining asosi sanaladi. Bu orqali o'quvchilar ma'naviy, g'oyaviy rivojlanishining tamoyillari belgilanadi. Chunonchi fonetika o'rganilganda talaffuz me'yorlarini o'zlashtirish, qofiyadosh so'zlar hosil qilish, she'riyatga qiziqtirish, badiiy tarbiya berish imkoniyatlarini yaratsa, tovushdosh, ohangdosh, qofiyadosh so'zlar topish badiiy ijodga o'rgatish usullaridan biri sanaladi.

Leksikologiyada ma'no nozikligi, so'z go'zalligi kengroq his qilinadi. Unda o'z va ko'chma ma'noli, ma'nodosh, uyadosh, shakldosh, qarama – qarshi ma'noli, paronim so'zlar ustida nazariy va amaliy ish olib boradilar. Bu orqali ona tili va uning qudratiga muhabbat hissi tarbiyalanadi.

Mavzu uchun tanladigan matnlar o'rnatilayotgan til hodisalariga muvofiq kelishi bilan bir qatorda tarbiyaviy ahamiyati ham bo'lishi kerak. "Gapning uyushiq bo'laklari" mavzusini o'tishda quyidagi matndan foydalanish mumkin.

"Ustoz otangdan ulug'", degan hikmatda olam – olam ma'no bor. Ustoz – bebaho, ulug', g'amxo'r, mehribon bir inson. Xalq o'rtasida murabbiy - ustozlar, umuman, ko'pni ko'rib ko'pni bilgan bilimda, mehnatda, aql – zakovatda el orasida tanilgan, qaysi sohada bo'lmasin o'z tajribasi, bilimini boshqalarga, xususan, yoshlarga bergan kishilar ayrica e'zozlangan. Cheksiz hurmatga ustozlar o'z bilimdonliklari, bag'ri kengliklari, donoliliklari, sahovatlarini tufayli erishdilar".

Yoki "Ko'chirma gap" mavzusida quyidagi matnni tavsiya qilsa bo'ladi. Naql qilishlaricha bir ota – ona farzand ko'rishib, Ibn Sino oldiga borishibdi. "Bolamizning tarbiyasi haqida bizga maslahat bersangiz, toki katta bo'lgach, el – yurtga foydasi tegadigan kishi bilib yetishsin", - deyishibdi. "Qachon tug'ildi", deb so'rabdi. Ulug' alloma. "Erta bilan tug'ildi?" – deb javob beribdi onasi. "Hozir vaqt qancha?" – yana savol beribdi Ibn Sino "Peshin kirdi". Ibn Sino ularga shunday javob qilgan ekan: "Ey bo'talarim, kechikibsizlar. Bola tarbiyasini ona qornidagi homilalik paytidan boshlash kerak edi ..."

Biror mavzu o'tilayotganda kundalik voqyealarni hayot bilan bog'lash, tushunchalarni kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish kabi psixik xususiyatlarning rivojlanishi mustaqil faoliyat ko'rsatishga o'rgatadi. Demak, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi tamoyillar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

3. Ilmiylik va tushunarlilik tamoyili. Ona tili ta'limining yengillangan mazmuni davlat va jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlari, fan va texnikaning taraqqiyot darajasiga doimo muvofiqlashtirib beriladi. Maktabda ona tilidan hozirgi tilshunoslikda qat'iy hal qiligan, ilmiy asoslangan ma'lumotlargina berialdi. (-larcha – ravish yasovchi, -lar-cha-otning nokategorial shakli. Hozircha ravish yasovchi deb qaralaveradi yoki –la so'z yasovchi affiks til birligi deb qaraladi. Uni turli so'zlardan so'z yasaganligi uchun nutq hodisasi degan qarashlar bor). Bu esa o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan og'zaki va yozma nutqda bimalol foydalanish uchun zarur bo'lgan bilimlarnigina berishni talab qiladi. O'qituvchi til hodisalarini o'zaro aloqa va taraqqiyot nuqtai nazaridan izohlaydi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da talab qilinganidek, yoshlarda ijodiylik, bir matnni turli usulda bayon eta olish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Shu bilan birga ularni Vatanga sadoqat, yuksak axloq, ma'naviyat va ma'rifatli, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashga imkon yaratadi.

O'qitishning ilmiylik tamoyili o'qituvchining hamisha ziyraklik bilan fan yutuqlarini kuzatib borishini talab qiladi. (bilan, - ga yordamchilarining vazifasining kengayotganligi).

O'qitishning tushunarli bo'lishi, asosan, o'qituvchiga bog'liq. Sinfda teng yoshdagi bolalar o'tirsa ham ularning materialni qabul qilishi bir xil bo'lmaydi.

Shuning uchun o'qituvchi qiyin o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan individual ishlashi kerak. Shu bilan birga har bir darsda o'quvchilarning yoshini, sinfning darsga tayyorgarligini hisobga olish zarur. Har qanday masalalarni sinfga kiritish kerak emas. Masalan yomg'ir (yog'mir), quloq (qo'l+och), pichoq (pich+och) so'zlarini hozirgi til nuqtai nazaridan tub so'zlar deb qaramoq lozim. Materialning oson va tushunarli bo'lishi o'qituvchining nutq madaniyati va materialni bilishiga bog'liq.

Ilmiylik va tushunarliklik bir – birini to'ldiradigan tamoyillardir. Har bir tushuncha va atamalar ma'nosini ochib berish, har bir mashg'ulotda mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgata borish zarur. Fikrni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, aniq ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish kuzatuvchanlik va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishni talab qiladi.

4. Tizimlilik va izchillik. Ona tili o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchilarni tilga oid bilimlar yig'indisi bilan qurollantirib qolmay, ulardagi bilim, ko'nikma va malakalar tizimini shakllantirishdan iboratdir.

Ta'limda tizimlilik bilan izchillik uzviy bog'lanadi. O'quv ishlarida puxta o'ylab tuzilgan rejasiz ko'ngildagidek natijaga erishib bo'lmaydi. Fan asoslari izchil o'rganilmas ekan, o'rganilgan, o'rganilayotgan va o'rganiladigan bilimlar mantiqiy bog'lanmas ekan, oldingi bilimlarni hisobga olish, nutqiy tayyorgarlikka tayanish ham bo'lmaydi. Tizimlilik va izchillik tamoyili o'zbek tili o'qitishda alohida o'rn tutadi. Bu tamoyil ona tili bilimlarini tartib bilan o'rganishdan tashqari, o'zlashtirish jarayonini ham yengillashtiradi. Shuning uchun ham dastur va darsliklar tuzishda ushbu tamoyilga qat'iy amal qilinadi.

Maktabda ona tilini fonetika va grafika, leksika, so'z yasashi, morfologiya, sintaksis va punktuasiya tartibida o'qitish tizimlilik va izchillik tamoyiliga mos tushadi. O'quvchilar fonetika va grafika haqida ma'lumot olgach, leksikani o'rganishadi. So'z haqida ma'lumot olgach, so'z yasashi, so'z qurilishi haqida ma'lumot oladi. Bu so'z turkumlari haqida bilim olishga asos bo'ladi. Shu tariqa boshqa grammatik kategoriyalar davom ettiriladi. Bularning hamasi ta'limdagi izchillikdir.

Tizimlilik va izchillik tamoyiliga kundalik darsda ham amal qilinadi. Bunda o'tigan mavzu yangi mavzu bilan bog'lab tushuntiriladi. Bu hol o'quvchilarning anglash faoliyatini yaxshilaydi, o'tilgan materialni ham esga olish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham har bir mavzuni boshlashdan oldin o'tgan mavzu so'raladi. Natijada, yangi mavzu bilan o'tgan mavzu orasida bog'lanish yuzaga keladi.

Bu tamoyilni amalda tatbiq qilish ta'lim mazmunini takomillashtirishda o'quv-biluv ishlarida faollikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

5. Nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qilish.

Tilning ijtimoiy hayotdagi o'rnini beqiyosdir. Chunki til bo'lmasa jamiyat ham, ijtimoiy hayot ham bo'lmaydi. Maktab jamiyatning kelgusi a'zolarini tarbiyalab yetishtiradi. Jamiyat a'zolarining nutqiy savodxonligini oshirish bugungi kun talabidan kelib chiqadi. Maktabni bitirgan o'quvchi ijtimoiy hayotdan o'rin oladi. Shuning uchun ona tili ta'limining yangilangan mazmuni ta'lim jarayoni tuzilishining maqsadi, vazifasi, bayon etish usullarini belgilab berishi hozirgi

kuning dolzarb masalaridan biridir. Bilimlarning puxtaligi va ongli o'zlashtirilganligi amaliy ko'nikmalarni hosil qiladi.

O'quvchilarning grammatika orfografiya va punktuasiyaga oid nazariy bilimlari bilan amaliy tayyorgarligi orasida farq bo'lishi mumkin. Tilning qonun – qoidalarini bilgani holda unga amal qilmagan o'z fikrini ona tilida mustaqil ravon, go'zal va lo'nda ifodalay olmagan o'quvchi (mutaxassis)ning amaliyotdan tayyorgarligi past (sust) hisoblanadi. Moki, fansuz yozuvchisi R.Rollan ta'kidlaganidek; “Gap – iloji boricha ko'proq bilim to'plashda emas, - gap shundaki, bu bilim ko'pmi yoki ozmi, tanho seniki bo'lishi, u qoning bilan yo'g'rilishi, sening erkin va mustaqil harakatingning mevasi bo'lishi zarur”. Ijodiy fikrlash fikrni og'zaki va yozma shaklda ravon, chiroyli, adabiy til me'yorlarida ifodalash vositasidir. Shuning uchun ham nutq madaniyatini rivojlantirish ona tili o'qitishning bosh maqsadi, deb qaralishi kerak.

Shu nuqtai nazardan fikrni turli sharoitlarda bayon eta olish, bir ma'noni turli ko'rinishlarda to'g'ri ifodalay olish, zaruriy ish qog'ozlarini yoza olish malakalarini shakllantirish lozim. Badiiy, ilmiy, ijtimoiy adabiyotlar haqida fikr yuritish, shaxsiy munosabatlarni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri ifodalash madaniyatini, boshqalar bilan muloqotda ona tilining go'zal va rang – barangligini namoyish qilish kabi amaliy ko'nikmalarni hosil qilish lozim. Shuningdek, mantiqiy tafakkurni o'stirish o'qituvchining muntazam vazifasiga ayanmog'i lozim. Buni amalga oshirish uchun:

- gramatik qonun – qoidalar asosida og'zaki va yozma nutqni tartibga solish;
- til hodisalarini kuzatish, taqqoslash va umumlashtirish asosida xulosa chiqarishga o'rgatish;
- imloviy, punktasion va uslubiy malakalarni hosil qilish maqsadida matn tuzishga o'rgatish.
- til materiallarini yiriklashtirish, tejalgan vaqt hisobidan amaliy ishlarni ko'paytirish;
- ijodiy fikrlashni talab qiladigan noan'anaviy o'quv topshiriqlaridan, o'quv qo'llanmalaridan unumli foydalanish kerak bo'ladi.

“O'lka materiallarini o'rganamiz”, “So'z mukaga sayohat”, “Bu kim, bu nima?” kabi ruknlar bilan devoriy gazetalar chiqarib, unga maqollar yozish mumkin. Bunday ishlarni to'g'ri qo'llash orqali nazariy bilimlarni o'zlashtirish va amaliy darslarning samaradorligini oshirish mumkin.

6. O'qitishda ko'rgazmalilik tamoyili. Ona tili predmetining tabiati ko'rgazmalilikni ko'proq talab qiladi. Tildagi mavhumlik, umumlashtirish, uning mohiyatini anglash va ongli o'zlashtirish ko'rgazmali vositalar yordamida jonli va qiziqarli, bo'ladi. “Siz bolaga qandaydir 5 ta noma'lum so'zni o'rgating, u bu so'zlarni bilib olguncha uzoq vaqt ketadi va behuda bosh qotiradi. Lekin suratlar vositasida o'rgatilgan 20 ta so'zni o'quvchi hash – pash deguncha o'rganib oladi”, - deb yozadi K.D.Ushinskiy (Tanlangan assarlar 1954, 429 - bet). Fransuz ma'rifatparvari J.J.Russoning: “Bir soatlik ish bir kunlik tushuntiruvdan ko'ra ko'proq narsa beradi, chunki men bolani ustaxonada mashg'ul qilar ekanman, uning qo'llari aqli uchun ishlaydi: u o'zini bor-yo'g'i hunarmand hisoblagani holda faylasufga aylanadi”, - degan so'zlari yuqoridagi fikrga hamohangdir.

Ko'rgazmali vositalar tabiiy yoki aniq buyumlardan hamda rasm, jadval, sxema, kartina kabi tasvir vositalardan, texnik (diafilm, kinofilm, teleeshitirish) vositalardan iborat bo'lishi mumkin. Shuningdek, rasmlari va grammatik topshiriqli tarqatmalardan barcha shakldagi darslarda, darsning barcha boshqichlarda foydalanish mumkin. Ko'rsatmalilikdan me'yorda foydalanilgani maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ona tili o'qitishda umumdidaktik tamoyillar dars samaradorligini oshirishni ta'minlaydi.

Mustahkamlash uchun topshiriqlar.

1. Umumdidaktik tamoyillar deganda nimani tushunasiz?
2. Ta'lim – tarbiya va rivojlanish uyg'unligini qanday tushunasiz?
3. Ilmiylik prinsipini qo'llashda o'qituvchi qanday faoliyat ko'rsatmog'i kerak?

3 mavzu	Ona tili o'qitish metodlari.
---------	------------------------------

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti 2 soat	Talabalar soni 50-55 gacha
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan ma'ruza.
Ma'ruza rejasi	1. Metod va uni tanlash haqida tushuncha. 2. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar. 3. O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: o'quv fani bo'yicha umumiy tushuncha berish, publisistik uslubning yozma va og'zaki ko'rinishlari, publisistik uslubning asosiy vazifasi, janrlari. Publisistik uslubning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari haqidagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish.	
Pedagogik vazifalar: • O'qitish metodining turlari haqida ko'nikma hosil qilish; • O'qitish metodi va YaPTning asosiy vazifasi haqidagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish; • O'qitish metodi va YaPTning o'ziga xos xususiyatlari. Mavzu haqidagi bilimlarini rivojlantirish;	O'quv faoliyati natijalari: • O'qitish metodining og'zaki hamda yozma turlarini tushuntirib beradilar; • O'qitish metodi va YaPTning asosiy turlarini sanab o'tadilar va har biriga ta'rif beradilar; • O'qitish metodi va YaPTning farqini tushuntiradilar;
Ta'lim berish usullari	Munozara, suhbat, tezkor-so'rov
Ta'lim berish shakllari	Komandada ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

1.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi (1 ilova). Komandalar ishi uchun yozma tarzda savollarni tayyorlaydi. Komandalar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab	Savollarga javob beradilar. Savollarga javob beradilar. Savollarga javob beradilar.

	chiqadi.	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.1 Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatligini asoslaydi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi (2 ilova). 1.3. Ish guruhlarida o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi (3 ilova).	Savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Talabalarni 6 ta kichik guruhlariga bo'ladi va guruhlarida hamkorlikda ishlash usuli, qoidalari bilan tanishtiradi. 2.2. Har bir guruhga savollar beriladi va ularga javob berish talab etiladi. 2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. 2.4. Guruh sardorlari berilgan savollarga komandaning javoblarini bayon qiladi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa, guruh sardorini to'xtatib, ya'na qo'shimcha savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi. 2.5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlariga bo'linadilar. Topshiriq bo'yicha ishlaydilar. Guruh sardorlarini tayinlaydilar va hamkorlikda ishlaydilar. Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi. 3.2 Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar	Tinglaydilar. Vazifani yozib oladilar.

	faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qibchiqishni tavsiya etadi.	
--	--	--

Adabiyotlar:

1. Yo.G'ulomov va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi, Toshkent 1975 y.
2. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. o'zbek tili o'qitish metodikasi, Toshkent 2010 yil.
3. O'zbek tilining izohli lug'at, 2-tom, toshkent, 2006, 582 – bet.
4. Slovar inostrannyx slov. M. 1995 g.
5. A.G'ulomov. ona tili o'qitish jarayonida aktivlik prinsipini amalga oshirishning nazariy asoslari. Toshkent 1989 yil.
6. P.Odilov, R.Ismatullayev. darslarda muammoli ta'lim, S.M.jurnali 1990, 7- son.
7. A.G'ulomov, H.Ne'matov. ona tili ta'limi mazmuni, T. 1995 yil.
8. Uzviylashtirilgan DTS va o'quv dasturi, Ona tili (5-9-sinflar) T.2010 y.

1. Metod – ayni. “baror narsaga borish yo’li” demakdir. Umumiy ma’noda maqsadga erishish usuli, muayyan tartibga solingan faoliyat demakdir. Didaktik ma’noda hamma fanlar uchun umumiy bo’lgan o’qitish usullari hamda vositalarini o’z ichiga oladi. Ayrim fanlarni o’qitish bilan aloqador masalalarni xususiy metodika o’rganadi. Ona tili o’qitish metodikasining umumiy yo’lini didaktika belgilab beradi.

Ona tili o’qituvchisi o’quvchilarga bilim berishda o’z mehnatining samarali va yengil bo’lishi uchun turli xil ish usullarini qo’llaydi, o’quvchilarning bilim va ko’nikmalarini amalda qo’llay olishlari uchun ularga mos keladigan mashqlar tanlaydi. Mana shular butun holicha o’qitish metodlari sanaladi. Ona tili o’qituvchisi mutaxassis sifatida lingvistikani mukammal bilishi kerak.

Ma’lumki, dars jarayonida ko’plab metodlardan foydalaniladi. Ana shu metodlarni tanlashda quyidagi faktorlarga asoslanadi:

A) o’quvchi bilimni qaysi manbadan (o’qituvchidan, jonli tildan yoki kitobdan) oladilar;

B) o’quvchilarni mashg’ulotlarga jalb qilish jarayoni (moyillik, qiziqish va boshqarish);

V) o’quvchilarning mustaqil ishlash shakllari (yozma va og’zaki) va o’rni (sinfda yoki uyda).

Metod tanlashda nazariy ma’lumot va unga mos keladigan mashqlar, sinfning tayyorgarligi, o’quvchilarning yoshi va temaning hajmi hisobga olinadi. Shuning uchun ham mashqlar gramatik tahlil, ko’rgazmali qurollar, suhbat kabi metodlar deyarlik har bir darsda qo’llanlar mumkn.

Metod tanlashda ona tili kursining o’ziga xos xususiyatlariga ahamiyat beriladi: nutq o’stirish darslarida notanish so’zlarning ma’nosini izohlash, inshoga tayyorlanish, o’quvchilarni lug’at yoki adabiyotlar bilan ishlashga o’rgatish

stilistik xatolarni tuzatish kabilardan foydalanilsa, gramatika darslarida suhbat, bayon ta'rif va qoidalar ustida ishlash kabi usullardan foydalaniladi.

2. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar. Metodika tarixidan shu narsa ma'lumki, hamma fanlar uchun umumiy bo'lgan metodlar va alohida fanlar uchun xarakterli metodlar mavjud. Ona tili o'qitish metodikasi tarixida ham xilma-xil metodlar qo'llanilgan bo'lib, ularning eng maqsadga muvofiqlari o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga olgan metoddir. Shundan kelib chiqib amalda qo'llanayotgan metodlarni ikkiga ajratamiz:

1. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.

2. O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.

O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodikani uchga ajratamiz.

1. Bilimlarni tayyor holda bayon qilish usuli.

2. Bilimlarni suhbat vositasida bayon qilish usuli.

3. bilimlarni muammoli bayon qilish usuli.

A) Bilimlarni tayyor holda bayon qilish usuli.

Bu metod ona tili darslarda juda ko'p qo'llanadi. Bayon yordamida murakkabroq, o'quvchilarga oldindan noma'lum mavzular izohlanadi. Gramatik ta'rifning mohiyatini tushuntirishda, qo'shimcha ma'lumot berishda, savollarga javob berishda bu usuldan foydalanamiz. Bu usulning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Ijobiy tomonlaridan biri vaqtni tejaydi. Salbiy tomoni o'quvchining fikrlash faoliyati ma'lum darajada chegaralanadi. Ko'pincha o'quvchi passiv tinglovchiga aylanib qolishi mumkin. Bunday negativ holatlarning oldini olish uchun o'qituvchi quyidagiga amal qilgani ma'qul.

1. O'qituvchi nutq madaniyatiga e'tiborni kuchaytirish. O'qituvchining nutqi mantiqiy talablarga javob berishi kerak. Sodda, mazmunli, ifodali, izchil nutq o'quvchilarning bilimga nisbatan qiziqishini orttiradi.

2. Bilimlarni tayyor holda berish ishlantirish va asoslash usullarini keng qo'llashti taqozo qiladi. Ishantirish va asoslash o'rganilayotgan materialga katta qiziqish uyg'otadi. U o'quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanadi.

3. O'quv materialni qat'iy bir reja asosida bayon qilish ham uni tinglash va o'zlashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

Bilimlarni tayyor holda bayon qilishda o'quvchilar diqqatini materialning asosiy tomoniga jalb qilish: o'rganilgan, o'rganilayotgan va o'rganiladigan til materiallari orasidagi aloqani yuzaga keltirish o'quvchilarning faoliyatini aktivlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

B) Bilimlarni suhbat yo'li bilan bayon qilish usuli.

Suhbat ona tili darslarida keng taralgan usul bo'lib, u o'quvchilar aktivligini oshirishda katta imkoniyatlarga ega. Bu usuldan darsning hamma bosqichlarida: yangi bilim berishda, bilimlarni takrorlash va mustahkamlashdi, bilimlarni tekshirish va baholashda foydalansa bo'ladi.

O'rganiladigan material o'quvchilarga oldingi sinfdan qisman ma'lum bo'lsa yoki o'quv material oldingi tema bilan bevosita bog'lansa darsda suhbat metodini qo'llash mumkin.

Suhbatda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida berilgan faktlarni kuzatadilar, o'zaro qiyoslaydilar va muhokama qiladilar, so'ngra umumlashgan xulosa chiqaradilar. Bu usul o'quvchilar nutqini o'stirishda muhim omillardan biridir.

Suhbat usuli puxta o'ylab tuzilgan savol va topshiriqlar asosida o'tkaziladi. Darslikda berilgan savol va topshiriqlar ham bu usulni muvaffaqiyatli qo'llashga yordam beradi.

Suhbat uch xil bo'ladi:

A) axborot xarakteridagi suhbat, b) evristik suhbat, v) o'tilgan temani mustahkamlash xarakteridagi suhbat.

Axborot xarakteridagi suhbat. Yangi material o'tilayotganda o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan faktlarni nazarda tutib, ular suhbatga jalb qilinadi. O'quvchilar o'tilayotgan qoidaga mos misollar topadilar, noma'lum o'rinlarni so'rab oladilar. Bunday suhbat qiyosiy usulda o'rganilayotgan mavzularda qo'l keladi. Masalan, sifat o'tilayotganda o'quvchidan sifatdoshning gramatik belgisini so'rash mumkin: yaxshi bola – o'qigan bola misollari orqali sifat va sifatdoshning umumiy belgilari aniqlanib ularni farqlash maqsadida o'rta savol tashlaydi. Yoki Qaysi so'z turkumi zamon anglatadi? O'quvchilar fe'l haqidagi bilimlariga asoslanib savolga javob qaytardilar. O'quvchining diktant, bayon va insholarda yo'l qo'ygan orfagrafik punktuatsion va stilistik xatolarini tahlil qilishda ham bu usuldan foydalansa bo'ladi.

Evristik (gramatik heurisko – topmoq. O'rta qo'yilgan masalani o'quvchining o'zlari muhokama yo'li bilan yechishlari nazarda tutiladi) suhbatda o'quvchining mustaqil fikrlash imkoniyatlari ancha kengayadi. Oldindan tayyorlangan savollar o'quvchining fikrlashga majbur qiladi. Bunda o'qituvchi o'quvchiga oldindan ma'lum bo'lmagan yangi o'quv materiali yuzasidan savollar beradi. O'quvchilar mavjud bilimlari asosida javob izlaydilar. Bunday suhbat so'z yasash usullari, ot yasovchi qo'shimchalar, fe'l nisbatlari, so'z birikmasi, ajratilgan bo'laklar kabi mavzular bo'yicha o'tkazilishi mumkin. Demak, evristik suhbatda muammoli ta'lim elementlari mavjud bo'ladi. Masalan: Nutq tovushlari va ularning hosil bo'lishi temasi o'tiladiganda quyidagi savollar bilan murojaat qilishi mumkin: 1. Siz nutq tovushlari deganda nimani tushunasiz? 2. nutq tovushlari qanday hosil bo'ladi? 3. rasmga qarab tovushlarning tashqariga chiqish yo'lini aniqlang? 4. Nutq tovushlarni hosil qilishda qanday nutq organlari aktiv ishtirok etadi. Bu savollarning javobida o'qituvchi ham ishtirok etadi.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash xarakteridagi suhbat.

Suhbatning bu turidan o'tganlarni takrorlash, 5-6 kun oldin o'tilgan qoidalarni o'quvchilarga eslatish maqsadida foydalaniladi. Bunda maxsus savollar orqali o'quvchilarga murojaat qilinadi. Savollar aniq, qisqa, qo'shaloq bo'lmagan holda atroflicha o'ylab tuzilmog'i kerak. Unga o'quvchi mantiqiy va izchil javob bermog'i lozim. Ba'zi savollar alternativ bo'lishi mumkin: Bulbul sayraydi gulda gapining sintaksis tahlillarda gulda so'ziga o'quvchi ikkilansa, o'qituvchi to'ldirdilarmi? Holmi? deb qo'shimcha savol berishi mumkin. Suhbatga barcha o'quvchilar jalb qilinmog'i kerak.

Suhbat, ayniqsa, yangi temani boshlash oldidan oldingi temani o'quvchilardan so'rashda didaktik vosita hisoblanadi. O'tilgan temaga to'liq javob

olinmasa, hatto, yangi tema o'tilmasligi mumkin. Suhbat uchun vaqt mavzuning hajmiga o'quvchilarning tayyorgarligi va qiziqishiga qarab ajratadi. V-VII sinflarda 15-20 m., VIII-IX sinflarda 20-25 m., qaytarish darslarida 30 minutgacha.

V) bilimlarni muammoli bayon qilish. Bu usulda o'qituvchi til materiallarini tayyor holda bayon etmaydi, balki kuzatish, taqqoslash, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, umumlashtirish kabi logik – lingvistik vositalardan foydalanib, o'quvchilar oldiga ma'lum bir muammo qo'yadi. "Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi – qo'yadi, yaxshi esa uni topishga o'rgatadi" (V.O.Disterng). O'quvchilar mavjud bilim va ko'nikmalar asosida muammoni yechadilar.

Ona tili darslarida shunday muammoli vaziyat hosil qilish mumkin. "nutq tovushlari va ularning hosil bo'lishi" mavzusida berildigan topshiriqlar:

1. Har biringiz nutq tovushlarini hosil qilib ko'ring. Ularni hosil qilishda qaysi nutq organlari ishtirok etadi?

2. Nutq tovushlarini aytishda qaysi nutq organlaringiz aktiv ishtirok qiladi?

Unli va undosh tovushlarini o'tishda. 1. Unli va undosh tovushlarni alohida aytib ko'rlaring. Ularning talaffuzi qanday farq sezyati?

2. 6 ta unli ishtirokida bir bo'g'inlar so'zlar yozing. Ulardagi unli larni almashtirib ko'ring. Qanday o'zgarish sezyapsiz?

3. O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar ham 3 ga ajratiladi.

1. Reproduktiv metodlar.

2. Qisman izlanuvchanlik metodlari.

3. Izlanuvchanlikka asoslangan metodlar.

A) Reproduktiv metodlar. Bu usulda o'quvchilar tayyor material bilan ishlaydi. Topshiriqlarni bajarishda o'quvchi namunaga qarab ish ko'radi. Til materiallarini qayta xotirlash, tayyor so'z, so'z birikmasi, gap va matnlar bilan ishlash o'quvchilardan reproduktiv faoliyatni talab qiladi.

Ona tili darslarida bajariladigan ish formalari, jumladan, ko'chirib yozish, izohli yozuv, saylanma diktant, fonetik, orfografik, leksik morfologik, sintaktik tahlillar, ularning sxemasini chizish, matnga tinish belgilari qo'yish, she'rni nasriy yo'l bilan bayon qilish; namunaga qarab so'z, so'z birikmasi, gap va matnlar tuzish, shevada berilgan so'zlarni adabiy til normalar asosida yozish kabi topshiriqlardan reproduktiv xarakatdagi topshiriqlardir. O'quvchilarning orfografik va punktasion savodxonligini oshirish, ularning yozma va og'zaki nutqini o'stirishda reproduktiv topshiriqlarning roli juda katta. Chunki o'quvchi imlosi murakkab so'zlarni bir marta ko'rish, eshitish yoki yozish bilan o'zlashtira olmaydilar, ular uzluksiz takror asosida o'rganiladi.

B) Qisman izlanuvchanlik metodlari. Bu usul o'quvchining interpretasion (shahlash, talqin qilish, izohlash, tushuntirib berish) faolligini oshirishga qaratilgan. Qisman izlanuvchanlik metodi tarkibida qayta xotirlash asosiy o'rinni egallaydi. Chunki ona tilidan egallangan bilimlarga asoslanmay turib bir til vositasini boshqasi bilan almashtira olmaydi. Bu albatta, ijodiy faoliyat bilan bog'liq.

Bu metodda quyidagi ish usullari qo'llanadi:

A) nuqtalar o'rniga zaruriy harflar qo'shimchalar so'zlar qo'yish;

- B) ma'lum bir so'zni boshqasi bilan almashtirish;
- V) gapga ma'lum o'zgartishlar kiritish orqali ma'no o'zgarishini tushuntirish;
- G) ma'lum uslubga muvofiq matn tanlash;
- D) tayanch so'zlar yordamida matn tuzish kabilar.

V). Izlanishga asoslangan metodlar. Bu usul izlash, yangilik topish uchun harakat qilish, yangilik izlash, qidirish, ajratish degan ma'nolarni anglatadi. O'quvchi dars jarayonida ona tili fanidan ma'lum bir yangilik izlamaydi yo'l bilan o'rganadi, xolos. Bu usul o'quvchidan o'rganilgan qonun-qoidalarini tamoman yangi vaziyatda qo'llashni talab qiladi. O'quvchining ma'lum gramatik qoida talabiga muvofiq so'z, so'z birikmasi, gap va matn tanlashi; erkin diktant, insho; o'qilgan badiiy asarga taqriz yozish; badiiy asar tilini mustaqil o'rganish; gazeta va jurnallarga maqola yozish, referat tayyorlash kabi ish usullarida tadqiqotchilik faoliyati namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, izlashga asoslangan usullardan foydalanish, birinchidan, o'quvchilarning til materiallariga qiziqishini oshiradi, ikkinchidan, til materiallarini mustaqil tahlil qilishga o'rgatish orqali mustaqillikni shakllantiradi, uchinchidan, ona tili o'qitishning amaliy yo'nalishini kuchaytiradi.

Mustahkamlash uchun topshiriqlar.

1. Metod tanlashda hal qiluvchi faktorlar nimalar?
2. Nima uchun ona tili o'qitish metodlarini o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq va o'quvchi faoliyati bilan metodlarga ajratiladi?
3. Evristik suhbat bilan muammoli ta'limning umumiy va xususiy tomonlari nimada?
4. Reproduktiv metodlarning qanday ahamiyati bor?

4-mavzu	Fonetika o'qitish metodikasi.
Ta'lim berish texnologiyasi	
Mashg'ulot vaqti 2s.	Talabalar soni 50-55 gacha
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashg'ulot.
Ma'ruza rejasi	1. Fonetika o'qitishning maqsad va vazifalari. 2. Nutq tovushlarini o'qitishning metod va usullari. 3. Tovush va harfni farqlash hamda alfovitdan foydalanish yo'llarini o'rgatish. 4. Bo'g'in va bg'in ko'chirish, urg'uning nutqdagi rolini o'rgatish usullari.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: o'quv fani bo'yicha umumiy tushuncha berish, publisistik uslubning yozma va og'zaki ko'rinishlari, publisistik uslubning asosiy vazifasi, janrlari. Publisistik uslubning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari haqidagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish.	
Pedagogik vazifalar: - o'zbek tili ta'limida an'anaviy va noan'anaviy usullar ko'rinishlari haqida ko'nikma hosil qilish; - an'anaviy va noan'anaviy usulning asosiy vazifasi haqidagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish; - an'anaviy va noan'anaviy usullar haqidagi bilimlarini rivojlantirish;	O'quv faoliyati natijalari: • an'anaviy va noan'anaviy usullar ko'rinishlarini tushuntirib beradilar; • an'anaviy va noan'anaviy usulning asosiy vazifasini sanab o'tadilar va har biriga ta'rif beradilar; • ta'limda an'anaviy va noan'anaviy usullar xususiyatlarini tushuntiradilar;
Ta'lim berish usullari	Munozara, suhbat, tezkor-so'rov
Ta'lim berish shakllari	Komandada ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob


1.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi (1 ilova). Komandalar ishi uchun yozma tarzda savollarni tayyorlaydi.	

	Komandalar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi.	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.1 Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatligi dolzarbliligini asoslaydi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi (2). 1.3. Ish guruhlarida o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi (3 ilova).	Savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Talabalarni 6 ta kichik guruhlariga bo'ladi va guruhlarida hamkorlikda ishlash usuli, qoidalari bilan tanishtiradi. 2.2. Har bir guruhga savollar beriladi va ularga javob berish talab etiladi. 2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. 2.4. Guruh sardorlari berilgan savollarga komandaning javoblarini bayon qiladi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa, guruh sardorini to'xtatib, ya'na qo'shimcha savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi. 2.5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umimlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlariga bo'linadilar. Topshiriq bo'yicha ishlaydilar. Guruh sardorlarini tayinlaydilar va hamkorlikda ishlaydilar. Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi. 3.2. Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar	Tinglaydilar. Vazifani yozib oladilar.

	faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qibchiqishni tavsiya etadi.	
--	--	--

Tayanch so'zlar: an'anaviy usul, noan'anaviy usul, dars shakllari, bumerang, aqliy hujum, ongli-verbal-kognitiv ta'lim, MYaBT (matn yaratishning bosqichli tizimi).



Adabiyotlar ro'yxati

1. Yo.G'ulomov va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi, Toshkent 1975 y.
 2. M.Omilxonova. 5-sinfda fonetika va imloni o'tish. Toshkent 1972 y.
 3. K.Qosimova. 4-sinfda ona tili arslari. Toshkent 1976 yil.
 4. A.G'ulomov, H.Ne'matov. ona tili ta'limi mazmuni, toshkent 1995 y.
 5. M.Omilxonova va boshqalar. 5 va 6 – sinfda ona tili darslari, Toshkent 1978 yil.
 6. Ona tili konsepsiyasi, TAT jurnali 1994 y 1-son.
 7. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadova. o'zbek tili o'qitish metodikasi, O'quv qo'llanmasi, Toshkent 2006 yil.
 8. Sh.Yusupova. o'qituvchi kitobi. Akademik lisey o'qituvchilari uchun. Toshkent 2003 yil.
 9. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi, Ona tili (5-9-sinflar). Toshkent 2010 yil.
- авлоди». Т. 2006.

Fonetika tilshunoslikning eng muhim sohalaridan bo'lib, uni o'rganish til haqidagi fanlar orasida murakkablaridan sanaladi. Uning tekshirish obyekti muayyan tilning tovush tizimidir.

Til haqidagi fanlarning har bir bo'limi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularni o'rganishda umummetodik prinsiplardan tashqari, shu bo'limlarning xususiyatlaridan kelib chiqadigan xususiy metodik prinsiplarni ham e'tiborga olish kerak. Fonetika o'qitish metodikasi quyidagi xususiy metodik prinsiplarga ega:

- o'quvchilarning o'z nutq ohangiga tayanish;
- tovushni morfema tarkibida ko'rib chiqish;
- tovush va harfni qiyoslash.

Birinci prinsip tovushlarni ongli his qilishga va ularning xususiyatlarini to'g'ri aniqlashga o'rgatadi. O'quvchilar talaffuzidagi ayrim o'ziga xoslik tomonlari aniqlanadi va shunga asoslangan holda ish olib boriladi.

Tovushni morfema tarkibida ko'rib chiqish pozisiya (holatiga: qanday holatda urg'ulimi, urg'usizmi, unlilar bilan yonma-yon turibdimi yoki boshqa holatdami?)siga ko'ra tovush o'zgarishini tushunishga imkoniyat tug'diradi.

O'quvchilarning tovush va harfni qiyoslashi ularni qorishtirib yuborishdan ogohlantiradi, shu bilan birga orfografik yani egallashga jiddiy ta'sir qiladi.

Maktabda "fonetika" bo'limini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda amaliy malakalar – savodxonlikni, to'g'ri so'zlashni shakllantirish va takomillashtirishdan iboratdir.

Nutq tovushlarining kishilik hayotida tutgan o'rnini, nutq tovushlarining boshqa tovushlardan farqini, nutq tovushlarining paydo bo'lish yo'llarini, nutq tovushlari hosil qiladigan organlarning vazifalarini, tovush va harf munosabatini, bo'g'in va rg'uni o'quvchilarga o'rgatish fonetika bo'limini o'qitishning vazifasi sanaladi.

Fonetika haqidagi dastlabki ma'lumot boshlang'ich sinflarda beriladi. Uni sistemali o'qitish 5-sinfdan boshlanib, o'rta maktab dasturida bu bo'lim uchun 70 soat vaqt ajratilgan. Bu butun 5-sinfda o'tiladigan materialning o'z qismini tashkil qiladi.

O'zbek tili ko'p dialektli til hisoblanadi. Shuning uchun ham adabiy tildagi unli va undosh fonemalar o'zbek dialektlarida farqli talaffuz qilinadi. Masalan, Jizzax shevasidagi adabiy "o" fonemasi oblastning boshqa shevalaridan farqli qo'llanadi. Jizzaxda bo'ldi (tgadi di'li) – bo'ldi (ikki qismga ajratdi, bo'ldi) so'zlaridagi (bo'lar asli omonimiz) "o" fonemalari bir xil talaffuz qilinadi. G'allaorol, Forish shevalarida ikki fonema (qattiq va yumshoq qisqa) sifatida talaffuz qilinadi. Bu holatni "e", "a" fonemalarida ham ko'ramiz: kimmi, immaleb(p), bele ... Bunga o'xshash talaffuzida farqi katta bo'lgan misollarni boshqa shevalardan ham ko'plab keltirish mumkin.

Xullas, o'quvchilar nutqida uchraydigan bunday har xilliklar fonetikani o'qitish jarayonida barham topa boridi.

Agar o'quvchilar nutq tovushlarini yaxshi bilsa, so'zlarning talaffuzi va imlosi haqida mustahkam malaka hosil qilishadi. Fonetikani yaxshi o'zlashtirmagan o'quvchi orfografik va morfologiyadan ham yaxshi bilimga ega bo'la olmaydi. Fonetika yuzasidan malakalar ko'proq mashq qilish orqali amalga oshiriladi.

Fonetikaning orfografiyaga aloqador qismida tovushlarning talaffuzi bilan imlosi orasidagi farqqa o'quvchilarning diqqatini ko'proq tortish kerak. Masalan, qirqta – qikta, bo'g'in – bo'g'im, qand – qant va boshqalar. Bu holat yozuvga ham ta'sir qiladi. bunday nuqsonlarni bartaraf qilish uchun talaffuz bilan yozuvchi mashq qildirish kerak bo'ladi. Fonetika o'qitishda, asosan, mashq qilish va fonetik tahlildan foydalaniladi.

Nutqning tovush tomoni bilan bog'liq amaliy ishlar o'rta maktab ta'limining hamma bosqichlarida davom ettiriladi.

2. Nutq tovushlarini o'qitishning metod va usullari. Biz avvalo ishni o'quvchilarga fonetika termini haqida ma'lumot berishdan boshlaymiz.

Fonetika (gramatik phonetikos – tovushga oid phone - tovush) – tilshunoslikning nutq tovushlarini o'rganadigan bo'limi. Fonetika har qanday jismning tebranishidan hosil bo'ladigan tovushni emas, faqat, nutq tovushlarini tekshiradi. Bu bo'lim nutq tovushlari, tovushlarning yozuvdagi ifodasi – harf,

alfavit, unlilar imlosi, urg'u, undoshlar imlosi, bo'g'in, nutq tovushlarining so'z ma'nosiga ta'siri kabi materiallarni qamrab oladi.

“Fonetika” bo'limi takrorlashdan boshlanib, bu mashg'ulotni samarali o'tkazish maqsadida biror matn tanlanib, u so'zlarga ajratiladi. So'zlardagi tovushlar va harflar miqdori aniqlanadi. Unlilar va undoshlar belgilanib, so'zlarni bo'g'inlarga, satrdan ko'chiriladigan qismlarga ajratish topshirig'ini bajarish maqsadga muvofiqdir.

Takrorlashning mantiqiy davomi sifatida nutq apparati va nutq tovushlari haqida ma'lumot beriladi. Nutq tovushlarining paydo bo'lishi haqida gapiriladi. So'zlardagi tovushlarning talaffuzi qiyoslanadi, unlilar va undoshlarning xususiyatlari aniqlanadi, unda ishtirok etuvchi nutq a'zolari belgilanadi: “u” fonemasida lablar oldinga cho'zilib chiqadi.

Nutq tovushlari o'pkadan chiqadigan havoning zarbidan paydo bo'ladi. Nutq tovushlarining bir-biridan burro-burro talaffuzi orqali farq qilishidan tashqari ma'no farqlash xususiyatlariga ega. Masalan, birgina tovush orqali farqlanadigan bir necha so'z doskaga yoziladi yoki ko'rgazmali qurolida ko'rsatiladi: bosh-qosh, mosh-tosh, ko'p-ko'l, tol-tom, to'p-top, bel-bo'l so'zlarining ma'nolarini boshqa – boshqa qiladigan vositalar – b, q; m, t; p, l; l, m; o', o; ye, o' tovushlari ekanligi tushuntiriladi. Mana shunday yo'l bilan nutq tovushlarining so'z ma'nosini o'zgartirishi (farqlashi) mumkinligi haqidagi tushuncha o'quvchilarda hosil qilinadi.

Shundan keyin o'qituvchi nutq tovushlarini paydo bo'lishiga ko'ra ikkiga ajralishini aytadi: unli tovushlar va undosh tovushlar.

O'qituvchi, avvalo, unli tovushlarni tushuntirishni boshlaydi. Buning uchun bo'g'iz va o'n paychalari chizilgan rasmdan foydalaniladi. O'pkadan chiqayotgan havoning bo'g'io' bo'shlig'idagi un paychalarini tebratib, og'iz bo'shlig'ida tovushlarning unli tovush ekanligi tushuntiriladi. Uni tovushlarning asosida un(ovoz) yotadi. Undosh tovushlarning og'iz bo'shlig'ida to'siqlarga uchrab o'tadigan havo yordamida hosil bo'lishi unli tovushlarga qiyos qilib ko'rsatiladi.

Unli tovushlar talaffuz qilinganda og'iz undoshlarga nisbatan kengroq bo'ladi. Shundan keyin unli tovushlardan bir nechta talaffuz qilinib o'quvchilar diqqati jalb qilinadi. Demak, ovozning manbai bo'g'iz bo'shlig'i, shovqinning manbai og'iz bo'shlig'i ekanligi alohida ta'kidlanadi. Shundan so'ng shovqin yo'li bilan hosil bo'ladigan tovushlarning undosh tovushlar ekanligi tushuntiriladi.

O'quvchilarga unli va undosh tovushlar haqida ma'lumot berilgach, faqatgina ovozdan hosil bo'lgan tovushlar (a, i ...)ni, ovoz va shovqindan iborat bo'lgan tovushlar (b, v ...)ni hamda faqat shovqindan iborat bo'lgan tovushlar (p, f, sh ...)ni tushuntiradi.

Bu o'rganilganlar asosida bir nechta topshiriq bajartiriladi. Topshiriq bajarish jarayonida unli va undoshlarning paydo bo'lishdagi farqi izohlanadi.

Fonetikani o'rganishda eng muhim masalalardan biri imlodir. Har bir tovushni imlo bilan birgalikda o'rganish zarur. Unlilar imlosi o'tilayotganda matndan a, i, u, o' harflari ishtirok etgan so'zlarni ajratish, ularning talaffuz xususiyatlarini sharqlash topshiriladi. Shuningdek, u-o', i-u, a-y, a-o va hakoza juftlar bilan farqlanuvchi so'zlar topish va izohlash: ur-o'r, urush-urish, jam-jim,

ot-ata, i, u unlilarining o'ta qisqa va aniq talaffuzi ustida ishlash: bir, bilim, tilak; uch, tun, qush, uchun, ulug', usul kabilar o-a harflari bilan farqlanuvchi so'zlar: ota-ata, ona-ana.

I-e: ish-esh, bil-bel, pish-pesh, tish-tesh, il-el.

I-u: bil-bul, tish-tush, qish-qush, tin-tun.

Fonetikaning murakkab tomonlaridan yana biri undosh tovushlar talaffuzi va imlosidir. Ma'lumki, takomillashtirilgan dastur asosida yaratilgan darslikda undosh tovushlar tasnifi berilgan. Undoshlar tasnifini o'rganish o'quvchilarning talaffuz va imlosini yaxshilashga katta yordam beradi. O'quvchilarga qaysi undosh fonemaning qayerda va qanday biror undosh fonemaning talaffuziga ikkilanganda bu undosh qanqa fonema demasdan balki qayerda (yoki qanday?) hosil bo'ladi degan savolni berishiga erishish lozim. Shundagina o'quvchilarning talaffuzi va imlosi kafolatlangan bo'ladi. Demak o'quvchilar undosh fonemalarning paydo bo'lishi o'rnini tshg'ri aniqlay oladigan bo'lishadi: b,p – lab undoshlari, q,-,g'-chuqur til orqa undoshlari, h-bo'g'iz unda.

Undosh fonemalarning paydo bo'lish o'rni aniqlangach, ularning paydo bo'lish va tarkibi usuliga va takrkibi ham diqqat qaratiladi. Undosh tovushlar faqatgina shovqindan iborat bo'lmasdan biroz ovoz ham ishtirok etadi. Lekin bu ishtirok etish hamma undoshlarda ham bir xil emas. Ana shu xususiyatlariga ko'ra ikkiga: jangli va jarangsiz undoshlarga ajratamiz. (Portlovchi, sirg'aluvchi, portlovchi – sirg'auvchilar; shvqinli va sonarlar; jarngli va jarangsiz undoshlar haqida qisqacha to'xtaladi. Jarangli va jangsizlarni farqlash yo'llari haqida eslatiladi).

O'quvchilarning undosh tovushlarning talaffkzi va imlosini puxta o'zlashtirishlari uchun quyidagicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

- so'zlarni b-n, d-t, g-k, g'-q, f-n,ch-j bilan farqlanuvchi juftlarga ajrating: bob-bop, adib-adip, band-pand, barq-parq... tosh-dosh, tor-dor, til-dil, tarz-darz, tam-dam... eg-ek, kal-gal, kul-gul, ko'l-go'l, ko'r-go'r... boq-bog', toq-tog', yoq-yog', oq-og', tiq-tig'... foyda-poyda, fol-pol, tuf-to'p, sof-son... choy-joy, chiz-jiz, chilla-jilla, chala-jala ...

- jarangli va jarangsiz undoshlarni farqlash ularga izoh berish, ularning talaffuzi va imlosi ustida ishlash. O'quvchilarni talaffuz orqali jarngli va jarngsizni ajrata olish darajasiga yetkazish zarur. Chunki oyrim orfografik qoidalar ularning imlosi bilan bog'langan.

O'quvchilarga jangli undoshlarning jarangsiz juftlari haqida ham ko'nikma hosil qilish kerak. Buning orfografiya va orfoepiya uchun ahamiyati katta. Aksariyat hollarda jarangli undoshlar o'zlarining jarangsiz juftlari bilan yoki aksincha almashadi: maktab – maktap, zavod – zavot, barg-bark; tovush – dovush, qishloq-qishlog'i; tib-tip, bob-bop, bod-bot...

- x va h undoshlarining talaffuzini solishtirish, bu tovushlar bilan farqlanuvchi so'zlarning talaffuzi va imlosini qiyoslash: xol-hol, shox-shoh, mox-moh, xush-hush, xo'p-ho'p...

- f tovushli keng iste'mol so'zlarning imlosi va talaffuzi ustida ishlash hamda lug'atini tuzish: faqat, fido, fig'on, fasl ...

- q, k undoshlarining jaranglilashuvchi va jaranglilashmaydigan holatlarining lug'atini tuzish. K, q bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, bek, yo'q kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda k, q tovushlari janglilashib talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: tilak-tilaging, yurak-yuragim, kubok – kubog'i, bek-begi; qoshiq-qoshig'i, yo'q-yo'g'i ...

Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashgan so'zlarga ko'pgina bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda bu undoshlar jaranglilashmaydi: ishtirok(a) – ishtiroki, ocherk (r) – ocherki, erk (a) – erki, huquq (a) – huquqim, ravnaq (a)-ravnaqi, yo'q-yo'qi, haq (a)-haqi, farq (a)-farqi ...

Fonetikani o'rganishda o'quvchilarning so'z boyligini oshirish muhim masalalardan biridir. Nutq tovushlarining ijtimoiy vazifasi haqida gapirganda "tovushdosh so'zlar" tushunchasiga to'xtaladi. Tovushdosh so'zlar bir-biridan bitta tovush bilan farqlanuvchi to'rt xil ma'nolarga ega bo'lgan so'zlardir. O'quvchilar tovushdosh so'zlar tanlab ma'nolarini izohlaydilar.

Ot-ol-osh-oq-og'-ong-on-ov-oz-or-os-och-oy ...

Ot-it-et-o't-ut.

Bir-biz-bich-bit-bil-bij-biq-biy ...

Bir-bur-ber-bor-bo'r-bor.

Bir-pir-sir-dir-tir-zir-chir-shir-g'ir-qir ...

O'quvchilar tomonidan tanlangan tovushdosh so'zlar sirasi o'qituvchi tomonidan to'ldirilishi va tushunilishi qiyin so'zlarning ma'nosi izohlanadi.

3. Tovush bilan harfni farqlash va alfavitdan foydalanish metodlari. Yuqorida ta'kidlanganidek, 5-sinfidagi fonetika darslarining asosiy vazifalaridan biri tovush bilan harf munosabatini belgilashdir. Tovush va harf haqida beriladigan bilim o'qituvchi bayoni bilan boshlanadi. Bunda o'qituvchi tovush bilan harf o'rtasidagi munosabatni tovushning og'zaki, harfning yozma nutq uchun vosita ekanligini tushuntirishi zarur. Tovushlarning nutqdagi o'rnini talaffuziga diqqatni qaratish kerak.

O'quvchilarda uchraydigan ko'pchilik orfografik xatolar tovush bilan harfni farqlamasligidan kelib chiqadi. Nutq tovushlarining yozuvdagi ifodasi harf sanaladi. Harf bilan tovush fasidagi munosabat turlicha bo'ladi:

- harfning aksariyati ma'lum tovush ifodasidir;
- har xil tovush bir belgi bilan beriladi: jo'ra –jurnal;
- ba'zi tovushlar bir necha harf bilan beriladi; qg, sh, ch;
- harf yoziladi, o'qiladi, lekin talaffuz qilinmaydi, ya'ni ko'z bilan ko'riladi.

Tovush esa talaffuz qilinadi va eshitiladi.

Tovush (fonema) – til birliklarining tovush qobag'i bo'lib ularni o'zaro farqlash xususiyatiga ega bo'lgan birlik: bor, ber, bo'l so'zlarining tovush qobig'i bo'lib, ularni farqashda o, ye, o' fonemalari xizmat qiladi. fona – fonemalarning so'zforma tarkibida qatnashayotgan ko'rinishi. Allafon – fonemalarni ro'yobcha chiqaruvchi barcha tovushlar. Fonemaning belgilari;

- mustaqil qo'llanish bilan cheklanmaydi;
- f. Ikki xil vazifani bajaradi;
- a) morfemani farqlaydi;

- b) turli ko'rnishlarni umumlashtiradi;
 - fonema tilda. U umumlashgan maketni ko'rsatadi;
- Allafonning belgilari:
- fonetik ko'rinish;
 - mustaqil emas;
 - ma'no farqlamaydi, faqat eshitishda farq qiladi.
 - allafon nutqdadir.

Demak, til xatolari fonemada, nutq xatolari allafonda: sof-son-tilda, tovush-dovush-nutqda. Tovush va harf o'rtasidagi munosabatning bu sanalgan belgilari o'quvchilarning to'g'ri yozishi, to'g'ri talaffuzi, ifodali o'qishi bilan bog'liq. O'quvchilarning savodli yozishi orfografik qoidalarini o'zlashtirish bilan birga talaffuz qoidalarini bilish bilan bog'liq. Bu o'z-o'zidan tovush va harf munosabatini keltirib chiqaradi. Bu turli mashqlarda mustahkamlaydi.

Yuqorida sanalgan tovush bilan harfning o'zaro munosabati to'g'ri kelmaydigan holatlarga misollar keltiradi: ongli, menga so'zlarida tovush va harf munosabatlari to'g'ri kelmaydi. Bu so'zlardagi – ng birikuvlari birinchi so'zda bir tovushni ifodalasa, ikkinchisida ikkita mustaqil fonemalardir. Shuningdek, tovush va harf munosabatlarining sh, ch harfiy birikmalarida ham to'g'ri kemasligi eslatiladi. Sh birikuvida ular alohida tovushlarni ifodalasa orasiga tutuq (') belgisi quyilishi (Is'hoq, as'hob) aytilib mashq qildiriladi. Bulardan tashqari g'isht, go'sht, daraxt, baland, Samarqand so'zlarining yozilishi bilan talaffuzi o'rtasidagi farq ham tushuntiriladi. Yuqoridagi so'zlarda t, d harflari aytilmasada yoziladi. O'quvchilarga ularning talaffuzini mashq qildirish kerak.

“Alfavit”ni o'rganish lug'at bilan ishlash asosida olib boriladi. Bunda so'zlarni alfavit tartibida joylashtirish, so'zni lug'atdan tez topish mashqlari badjartiriladi. Bunda quyidagi ishlarni bajartirish mumkin:

- sinf o'quvchilarining yoki shaharlarning ro'yxatini alfavit tartibida yozish topshiriladi. Bunda faqat birinchi harflar asosida emas, keyingi harflar ham e'tiborga olinishi ta'kidlanadi;

- “imlo lug'ati”dan so'z topish buyurilishi mumkin. So'z o'qituvchi tomonidan aytiladi yoki doskaga yozib qo'yiladi;

- biror she'riy parchadan bir nechta so'zlarni alfavit tartibida yozish buyurilishi mumkin.

4. Bo'g'in va bo'g'in ko'chirish, urug'ning nutqdagi rolini o'rgatish usullari.

Bo'g'in haqidagi dastlabki ma'lumot boshlang'ich sinflarda beriladi. 5-sinfda bu mavzu kengaytirilgan holda takrorlanadi. Agarda o'quvchi so'zlarni bo'g'inlarga to'g'ri ajrata olsa, so'zlarni satrdan satrga ko'chirishda xatoga yo'l qo'ymaydi. O'quvchilarga har bir bo'g'inda bittadan unli harf bo'lishi kerakligi uqtiriladi. Darsning keyingi bosqichlarida o'quvchilar bo'g'in tuzilishi, bo'g'in kechirish mashqlarini bajarib bilimlarini mustahkamlaydilar. Bo'g'in ko'chirish mashqlarida o'qituvchi o'quvchilar diqqatini ko'proq harfiy birikmalar (ng, sh, ch) qatnashgan so'zlarga qaratadi. Bu o'rinda ng, sh, ch harfiy birikmalari bir tovushni ifodalasa ularni ajratish mumkin emasligi tushuntiriladi. Buning uchun ko'ngil, singil, tongda, so'ngra, hasharot, hasham, bashorat, kuchala, kichik kabi

so'zlar bo'g'inlarga ajratilib mashq qildiriladi. Shu bilan birga ng, sh birikuvlarining ikki tovushini ifodalagan holatlari ham ta'kidlanadi. Bunday paytlarda bu birikuvdagi harflar ajratilgan holda bo'g'in hosil qilishi tushuntiriladi: Menga, osmonga, Is'hoq (is'hoq), as'hob (as'hob), mas'hub(a.-hamsuhbat, birga yuruvchi), mus'haf (a.kitob, risolalar to'plami; Qur'on), fus'hat (a.kenglik, ochiqlik) kabi. Ammo n va g' fonemalarining ketma-ket kelishi "ng"ga o'xshashda ularning alohida –alohida ajratilishi o'quvchilarga aytilsa maqsadga muvofiq bo'ladi: qo'n-giz, to'n-g'iz, qo'n-gi-roq, van-g'il-la-moq va boshqalar.

O'zlashgan so'zlarda so'z oxirida qator kelgan unlilarni satrdan ko'chirish qoidasini ham eslatish zarur bo'ladi.

Shuningdek, bo'g'in ko'chirish haqida fikr yuritilganda lug'atimizda mavjud bo'lgan so'zlarning hammasiga bir xil qoida amal qilmasligi o'qtiriladi. O'zbek tilidagi bo'g'in ajratish qoidasidan farqli o'laroq baynalmilal so'zlarda o'ziga xos tomonlar borligi aytiladi. Chunonchi, baynalmilal so'zlarda quyidagicha bo'g'inga ajratiladi:

1) undosh tovush intervokal holatda bo'lsa bo'g'in undosh bilan boshlanadi: a-gent, a-kade-mik, a-kat-si-ya, di-vi-zi-ya;

2) intervokal holatda ikki undosh qator kelsa ham bo'g'in undosh bilan boshlanadi, ya'ni har ikkala undosh ham keyingi bo'g'inda bo'ladi: a-gres-si-ya, a-tle-ti-ka, ba-kte-ri-ya, vi-ri-na, ve-ksel va boshqalar;

3) ikki unli orasida uch undosh qator kelsa ham hamma undoshlar o'ng tomonda bo'ladi: ga-strit, ga-stro-nom, ga-stro, a-stro-fizi-ka, a-ktri-sa va boshqalar;

4) intervokal holatdagi qator undoshlarning birinchi harfi m, n, r, l, v, y harflaridan biri bo'lsa, ular oldingi bo'g'inda qoladi, keyingi – ikkinchi undosh bo'g'inboshi sanaladi: av-gust, gal-stuk, ger-ba-riy, boy-kot, am-ni-sti-ya, an-to-ga-nizm kabi;

5) pasayuvchi intonasiya bilan aytiladigan juft undoshlar o'rtasidan bo'g'in ajratiladi: ak-kord, ab-bat, as-sam-ble-ya, byul-le-ten kabi;

6) baynalmilal so'zlarda o'zakni saqlagan holda bo'g'in ajratish qoidasi ham mavjud: sport-smen.

Bo'g'in va uni ajratish haqida yetarli bilim va ko'nikma hosil qilingach, bo'g'inlarning urg'uli va urg'usiz bo'lishi haqida ma'lumot beriladi. Chunki "urg'u" muhim va murakkab mavzulardan hisoblanadi. Shuning uchun o'quvchilarga, avvalo, so'zning urg'uli bo'g'inini topish va keyinchalik shu urg'u asosida to'g'ri o'qish mashq qildiriladi. O'quvchilarga urg'uni bo'g'inga ko'ra emas, balki uli tovushlarga nisbatan izlansa tezroq topishi uqtirilgani ma'qul. Urg'u olgan tovush kuchli, ohangdor va cho'ziq bo'ladi.

O'zbek tilida urg'u kzipincha so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Lekin ba'zi so'zlarning boshqa bo'g'inlari ham urg'u olishi mumkin. O'quvchilarga bu tushuncha berilgach, u haqdagi ko'nikmani mashq ishlatish, takrorlash orqali hosil qilinadi. Urg'u haqidagi, urg'uni topish haqidagi mashqlarni yuqori sinflarda ham davom ettirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Urg'u haqidagi mashqlar, avvalo, urg'u oxirgi bo'g'inlarga tushadigan so'zlar ustida bo'lsa, keyinchalik so'zning har qanday bo'g'iniga tushadigan

so'zlar yuzasidan bo'lgani ma'qul: bola, bolalar, maktab; ammo, lekin, hamma, barcha, fizika, telefon kabi.

So'zga qo'shimchalar qo'shilishi bilan urg'u keyingi bo'g'inlarga, o'zbek tilida, ko'cha boradi. Ammo ayrim qo'shimchalar urg'u olmaydi: -cha (o'xshatish ma'nosida: yigitcha ishlaydi), -day(dek), kesimlik affikslari –dir, -man, -san, -miz, -siz; bo'lishsizlik –ma, shuningdek, affiks yuklamalar – ku, -yu, -da, -mi, -chi kabilar. Bular haqida ham ko'nikma hosil qilish kerak.

Urg'u olmaydigan bo'g'indagi unli tovushlarning kuchsizlanishi, xususan, o fonemasining kuchsizlanib a, i tarzida talaffuz qilinishi haqida alohida to'xtalish kerak bo'ladi: direktir, traktir, pamidor ...

Shuni ham aytish kerakki, urg'u so'zning talaffuzi, imlosi va ma'nosiga ham kuchli ta'sir qiladigan vositadir: olma-olma, qatlama (fe'l) – qatlama, hozir (payt ravishi) –hozir (tayyorlansin), yig'itcha (rav.) –yigitcha (kich.oti), o'quvchimiz (kes.af.)-o'quvchimiz; fizik(ot) –fizik(sif.) xillik (ot) –xillik (sif.), praktik (ot) – praktik (sif), texnik (ot) –texnik (sif.), energetik (sif.) va boshqalar.

Fonetika darslarida unli va undosh tovushlarni cho'zib yoki qisqa aytish orqali ma'no o'zgarishini mashq qildirish ham yaxshi natija beradi: kaaatta bino, kiichkina bola, qarri chol-ma'noni kuchaytirmoqda, yo'o'q, kelaar, boraar – ishonchsizlik, oyijoonim, boring-yalinish, erkalash yo'o'q-qat'iylik ma'nolari ifodalanishi bevosita talaffuz bilan bog'liq.

Mustahkamlash uchun topshiriqlar.

1. Fonetika o'qitishning xususiy metodik prinsiplarini izohlang.
2. Nutq tovushlari ma'no anglatmaydi, balki ma'no farqlaydi tushunchalarini o'quvchilarga qanday izohlash mumkin?
3. Fonetikaning imlo bilan aloqasini qanday tushuntirish mumkin.
4. Alfavitni o'rgatishning ahamiyatini izohlang.
5. Harfiy birikmalarni o'tish qiyos metodidan qanday foydalanish mumkin?

5-mavzu.	Leksikologiya o'qitish metodikasi
-----------------	--

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti 80 daqiqa	Talabalar soni 50-55 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish - axborotli ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Leksikologiya va frazeologiya o'qitishning maqsad va vazifalari. 2. So'z va uning lug'aviy ma'nosi, bir ma'noli so'zlarni o'tish metodikasi. 3. Iboralarni o'tish metodikasi.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey kasb-hunar kollejlari ona tili o'qitishning tarkibi va mazmuni bo'yicha umumiy tushuncha berish, dastur va darsliklar mazmuni bilan yaqindan tanishtirish.	
Pedagogik vazifalar: • o'zbek tili o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar to'g'risida tushuncha berish; • dastur haqida ma'lumot berish; • dastur turlari bilan tanishtirish.	O'quv faoliyati natijalari: • dasturlarning maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularni sharhlab beradi; • so'zning ma'nolarini aytib beradi; • dastur turlarini sanab o'tadi.
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor, tarqatmalar.
Ta'lim berish sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

1.2. ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O'quv fanini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqish.	Tinglaydilar Tinglaydilar Tinglaydilar Tinglaydilar
1. Mavzuga kirish	1.1 O'quv fanining nomini aytadi. Mavzular va adabiyotlar	Tinglaydilar

(15 daqiqa)	ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi. (1 ilova). 1.2. Birinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonini bilan tanishtiriladi (2 ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining o'rganish obyekti. 2.3. Dastur va uning vazifasi. 2.4. Dasturlarning ta'lim bosqichlaridagi ahamiyati. 2.5. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi: 2.6. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili o'qitish kursining tarkibi va mazmunini tushuntirib bering. 2. Akademik litseylarda ona tili o'qitish kursining tarkibi va mazmuni qanday? 3. Kasb-hunar kollejlariida ona tili o'qitish kursining mazmuni haqida gapiring.	Tinglaydilar, yozadilar. Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2 Mustaqil ishlash uchun "Umumta'lim, AL va KHK dasturlari haqida" mavzusini	Savollar beradilar Vazifani yozib oladilar.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Yo.G'ulomov va boshqalar. o'zbek tili o'qitish metodikasi, Toshkent, 1975 y.
2. N.Abdurahmonov. O'zbek tili o'qitish metodikasi, Samarqand, 1969 y.
3. M.Omilxonova va boshq. 5va6–sinflarda ona tili darslari. T. 1978 y.
4. Umumiy ta'lim maktablarida ona tili o'qitishni takomillashtirish. Toshkent, 1987 y.
5. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili va adabiyot, o'zbek tili. 1999 y. 1-maxsus son.
6. M.Asqarov, K.Qosimova. Ona tili darsligi 5-sinf uchun. Toshkent, 1993 y.
7. N.Mahmudov va boshqalar. Ona tili darsligi 5-sinf uchun 2007 y.
8. T.Qudratov, T.Nafasov. Lingvistik tahlil. toshkent 1981 y.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. toshkent, 2007 y.
10. A.Hojiyev. lingvistik terminlarning izohli lug'ati. Toshkent, 1985 y.
11. H.Ne'matov, R.Rasulov. O'zbek tili istem leksikologiyasi asoslari. T. 1995.
12. B.To'xliyev, M.Shasiyeva, T.Ziyadova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. T. 2006-2010 .
13. A.G'ulomov, H.Ne'matov. Ona tili ta'limi mazmuni, Toshkent, 1995 y.
14. A.G'ulomov, Y.Abdullayev, Z.Ma'rufov, I.Omilxonova. Ona tili. 6-7-sinflar uchun darslik. Toshkent, 1993 y.
15. M.T.Baranov va bosh. Metodika prenodovaniya russkogo yazyka. M. 1990 g.
16. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili, Toshkent, 2010 y.
- B.To'xliyev. va boshqalar «O'zbek tili o'qitish metodikasi». «Yangi sar avlod». T. 2006.

Ma'lumki, fikr so'zlar vositasida ifodalanadi. Shuning uchun ham so'z tilning qurilish materialidir, uni bilmay turib tilni bilish mumkin emas. Nutqimizda ishlatiladigan so'zlarning jami tilimizning lug'at boyligini, ya'ni leksikasini tashkil qiladi. Leksika atamasi – grekcha lexicos so'zidan olingan bo'lib so'z degan ma'noni bildiradi. Tilning lug'at tarkibini o'rganuvchi soha leksikologiya deyiladi. Tilshunoslikning leksikologiya bo'limini o'rganishda quyidagi prinsiplar qo'llaniladi:

- leksik – gramatik prinsip (soʻzning leksik va gramatik maʼnolarini qiyoslash);

- kontekst (matan) li prinsip (soʻzni matnda sintagmatik aloqa vositasi sifatida qarash);

- leksik – sintaktik prinsip (soʻz va soʻz birikmalarini qiyoslash).

Oʻqitish jarayonida amal qilinadigan bu prinsiplar oʻquvchilarning soʻz va fazeologik birikmalar mohiyatini tushunishni taʼminlaydi.

Soʻz maʼnolarni aniqlashda matnning roli katta. Kontekst soʻzlarni boshqa maʼnolardan tozalaydi (Gsotebnya). Soʻzlarni matnda qarash zaruriyati u yoki bu soʻz maʼnosini aniqlash imkoniyatini beradi. Leksikologiyani oʻqitish jarayonida oʻquvchilarning diqqati soʻz maʼnolarining ana shu xususiyatlariga ham doimo qaratilishi zarur.

Maktab grammatikasida leksikologiya koʻrsi asosiy oʻrinni egallaydi. V sinfda bu kurs uchun 48 soat ajratilgan, u butun materialning qariyb ¼ qismini tashkil qiladi.

Maktabda leksikologiya oʻqitishning asosiy maqsadi soʻz va tushunchalarning oʻzaro munosabati, soʻzlarning maʼno tiplari, soʻz maʼnolarining ifodalanish yoʻllarini oʻrgatishdir.

Soʻz maʼnolarining taraqqiyoti, koʻp maʼnolilikning hosil boʻlishi, lugʻat tarkibining grammatik qurilish bilan bogʻliqligi, soʻzning oʻzgarish sabablari, iboralar va ularning shakllanishini oʻrganish leksikologiya oʻqitishning asosiy vazifasi sanaladi. Bu boʻlimda oʻquvchilar soʻz va uning lugʻaviy maʼnosi, soʻzning oʻz va koʻchma maʼnosi, maʼnodosh soʻzlar, uyadosh soʻzlar, uyadosh soʻzlar, qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar, shakldosh soʻzlar, paronimlar, tarixiy, eskirgan va yangi soʻzlar, kasb-hunarga oid soʻzlar, atamalar, olinma soʻzlar, ibora va tasviriy ifodalarni, oʻzbek tilining soʻz boyligi, oʻzbek tili(ning) lugʻatining boyish minbalari, lugʻatlarning turlarini oʻrganadilar.

2. Soʻz va uning lugʻaviy maʼnosi, bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlarni oʻtish metodikasi.

Oʻqituvchi V sinfda leksikologiyaga bagʻishlangan birinchi darsda doskaga leksikologiya terminini urgʻu belgisi bilan yozib qoʻyadi. Bu yozilgan soʻzning imlosi va talaffuziga oʻquvchilarning diqqatini tortadi hamda 2-3 oʻquvchiga oʻqitadi. Shundan soʻng bu kursning yangi boʻlim ekanligi, u yunoncha (grekcha) boʻlib, ikki qismdan soʻz va ilm, taʼlimotdan iboratligi taʼkidlanadi. Bu uning lugʻaviy maʼnosi ekanligi tushuntiriladi.

Har bir mustaqil soʻzning lugʻaviy maʼnosi boʻladi: parta, qalam soʻzlari anglatgan maʼnolari (bajargan vazifalari)ga koʻra oʻquv qurolining nomini bildiradi; oʻqi, kelmoq soʻzlari ish harakatini; oq, zangori soʻzlari belgini anglatadi va boshqalar.

Demak, har bir soʻzning predmet, belgi, harakat maʼnolarini anglatishi uning leksik maʼnosi, yaʼni lugʻaviy maʼnosi hisoblanadi.

Oʻqituvchi oʻquvchilarga soʻzning lugʻaviy maʼnolari haqida tushuncha bergach, soʻzlarning hammasi bir xil, yaʼni bir maʼnoli yoki bir necha maʼnoli emasligini uqtiradi. Soʻzlarni shu xususiyatiga koʻra ikkiga- bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlarga ajratilishini aytadi. Buning uchun biror soʻzning (koʻz, bosh)

turli ma'nolari ifodalangan gaplar yozilgan jadvaldan foydalanib, har bir gapdagi ma'nosi tushuntiriladi.

1. Ko'zingizni ehtiyot qiling!
2. Uzukning ko'zi qimmat baho toshdan edi.
3. Derazaning ko'ziga oyna qo'ydirdik.
4. Eski buloqning ko'zi ochildi.
5. Bu taxtaning ko'zi ko'p ekan.
6. Ahmad aka – ishning ko'zini biladigan odam.

Bu misollarda ko'z so'zining 6ta ma'nosi ifodalanganligi aytiladi. Demak, ko'z so'zini ko'p ma'noli so'z deymiz. Ayrim so'zlarning bir ma'no anglatishi eslatiladi. So'zlarning bu xususiyatlari izoxli lug'atlarda maxsus raqam bilan berilishi ta'kidlanadi. Ko'p ma'noli so'zlar nechta ma'no anglatishidan qat'iy nazar bir so'z sanaladi.

(So'zning ma'nosi tushuntirilayotganda har bir so'zning bir ma'noga ega bo'lishi aytiladi. Masalan, odam, bola, farzand, o'g'il, qiz so'zlari umuman insonga xos so'zlar bo'lsa-da, ular bir-biridan farqli boshqa-boshqa ma'nolarni anglatmoqda. Shuning uchun ham ulaning har birini alohida so'z deymiz. Ko'p ma'noli so'zlar bir necha ma'no anglatga-da, ular bir so'z sanaladi, chunki, birinchidan, bir shaklga ega, ikkinchidan, bosh - asosiy ma'nodan boshqa ma'nolari yuzaga kelgan). Birgina ma'no anglatadigan so'zlarni bir ma'noli so'zlar deb atalishi aytilib, unga tayyorlangan jadvaldan foydalaniladi: alfavit, urg'u, fonetika, leksika, do'koncha, do'ppido'z, juvozxona, zirak, bozorlashmoq, radius...

O'qituvchi V sinf o'quvchilariga leksikologiya bo'limini o'ta boshlaganidanoq lug'atlar bilan ishlashni mashq qildira borishi kerak. "Imlo lug'ati", "O'zbek tilining izohli lug'ati" kabi lug'atlardan foydalanish yo'llarini tushuntirish bilan birga, bularning o'quvchilar uchun doimiy yo'ldosh ekanligini o'qtirish zarur. Masalan, ko'p ma'noli so'zlarning lug'atlarda berilishi tushuntirilsa, o'quvchi lug'atdan osongina ko'p ma'noli so'zga misol topadi.

Shundan keyin so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari haqida ma'lumot berilib, uning ko'p ma'noli so'zlarga aloqasi ya'ni ko'chma ma'nolar asosida ko'p ma'noli so'zlarning paydo bo'lishi tushuntiriladi va mashq-topshiriqlar bajarib mustahkamlanadi. Bunda asosiy e'tibor ko'chma ma'noni aniqlashga qaratiladi. Ko'chma ma'nolar nutqning ta'sirchanligini oshiradi, nutqni bezaydi. So'zning ko'chma ma'nosi, qanday ma'noda qo'llanilganligi matnda aniqlanadi. Ular (o'z va ko'chma)ning uyadoshlarini topish - o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, so'z boyligini oshirish, so'z ma'nolarini to'g'ri sharhlash imkoniyatini yaratadi. Masalan, "Hovlimizda bir necha xil gul bor. Ularni otam o'tqazgan" matni bilan "Bu hovlida bir gul bor. Uning ismi Oqila..." matnlari taqqoslanib, ajratilgan gul so'zlarining uyadoshlari topiladi: birinchi matnda daraxt, ko'chat, buta; ikkinchi matnda farzand, qiz so'zlari ekanligi aniqlanadi. Yoki "Har qanday nina po'latdan yasaladi," "Vazifani Po'lat birinchi bo'lib bajardi," "Alisherning irodasi po'latdan" matnlari taqqoslanib, ajratilgan so'zlarning uyadoshlari topiladi: 1. Metall, platina, temir... 2. Inson, odam, farzand, o'g'il ... 3. Qattiq, chidamli kabi. So'zlarning ko'chma ma'nolari ham izohli lug'atda beriladi, izohlanadi.

Shuni ham aytish kerakki, ko'p ma'noli so'zlar bilan omonim so'zlarni muqoyasa qilib o'rganish yaxshi natija beradi. Chunki bu so'zlarni ayrim o'quvchilar ko'pchilik hollarda farqlay olmaydilar yoki farqlashga qiynaladilar. Shuning uchun o'qituvchi 5-sinfdayoq ular (omonimlar bilan ko'p ma'noli so'zlar) orasidagi farqli xususiyatlarni tushuntirib berish kerak.

Ko'p ma'noli so'zlar bilan omonim so'zlarni muqoyasa qilib o'rganish yaxshi natija beradi. Ko'p ma'noli so'zlar nechta ma'no anglatishidan qat'iy nazar bir so'z sanaladi. Uning har bir ma'nosi gap ichida ma'lum bo'ladi. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bosh so'zining 20dan ortiq ma'nosi berilgan. Shunday bo'lsa-da u bir so'z sanaladi. Chunki bu so'zning hamma ma'nolari bosh so'zining asl ma'nosi bilan ozmi-ko'pmi bog'langan, uning ma'no aloqalari uzilmagan bo'ladi.

Omonim so'zlarda esa boshqacha: ular alohida ma'noli mustaqil so'zlardir. Ular faqatgina shaklan o'xshashdir: ot-hayvon, ot – ism, ot-fe'l.

5-sinfda omonimlar, sinonimlar, antonimlar mavzulari yangi materialni bayon qilish tipidagi dars sifatida o'tiladi. Bu mavzularni o'tishda zaruriy ko'rgazmalar tayyorlanib, shular asosida dars olib boriladi. Bunda asosiy yordamchi vosita bo'lib, darslik xizmat qiladi. Bulardan sinonimlar o'tilayotganda sinonimiya qatorini hosil qiluvchi so'zlarning ma'no nozikliklarini atroflicha tushuntirish zarur: yuz, aft, bashara, chehra, siymo va boshqalarning stilistik va semantik farqini jonli misollarda tushuntirmoq kerak.

Yangi dasturda "Uyadosh so'zlar" mavzusi berilgan. Bu tushuncha alohida diqqat bilan tushuntirishi kerak bo'ladi. bu mavzu deduktiv metod asosida o'tiladi. Syadosh so'zlar bir mavzuga oid so'zlar sirasidir: yilqi – ot – biya – baytal – saman – to'riq – qorabayir – jiyron – qashqa – yo'rg'a va boshqalar. Uyadosh so'zlarni o'rganish so'zlarning ma'no nozikliklarini farqlash, qaysi o'rinda qanday qo'llash malakalarini shakllantiradi. Uyadosh so'zlarni o'rganish jarayonida umumiy ma'noli (yilqi, daraxt, qoramol, idish, gul, uy) va xususiy ma'noli (ot-biya-saman-yo'rg'a-to'riq-qorabayir; tol-terak-qayrag'och-o'rik-gilos; sigir-ho'kiz-buqa-g'unojin-tana-buzoq; rayhon-chinnigul-karnaygul-gultoji-xo'roz-lola-bo'tako'z; kulba-xona-zal-yotoqxona) so'zlar, ularning ishlatilishi o'rinlari ustida mashq qilish zarur. Bu mavzuni uyadosh so'zlardan foydalanib tabiat tasviriga oid matn yaratish bilan yakunlash mumkin.

5-sinfda diqqatni tortadigan mavzulardan yana biri paronimlardir. O'qituvchi, avvalo paronimlarga tayyorlangan ko'rgazmali vositani doskaga osib qo'yib, til faktlarini kuzatish metodi bilan ish boshlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarga ko'rgazmani o'qib ma'nolariga e'tibor berishni topshiradi.

banka – bank	yoriq – yorug'
sop – sof	jayron – jiyron
ariq – orif	zirak – ziyrak
beton – bidon	orden – order
yod – yot	paqir – faqir

O'quvchilardan so'zlar ma'nolarini farqini so'rab, misollar bilan tushuntirish talab qilinadi. O'rni bilan yordam ham berib boradi: Adham ketmonga sop yo'ndi. – Oltinning sof og'irligi.

Shundan keyin paronimlar haqida umumlashtiruvchi nazariy xulosa chiqariladi. demak, yozilishi har xil talaffuzi bir – biriga yaqin bo'ladi. Paronimlar oqibatida kelib chiqadi. Paronimlardan so'z o'yinida, qofiyadosh so'zlar tanlashda ham foydalaniladi. Badiiy asarlarda personajlar saviyasini ko'rsatish, kundalik hayotda ba'zi kulgi tug'dirish maqsadida ishlatiladi. Paronimlar haqida ko'nikma va malaka hosil qilish uchun qator mustahkamlovchi topshiriqlar beriladi.

Leksikologiyaning muhim masalalaridan biri umumxalq ko'p ishlatadigan va kam ishlatadigan so'zlardir. Bu mavzuda asosiy e'tibor umumxalq kam ishlatadigan so'zlarga qaratilib, ularning ma'nosi ustida ishlash va ular ishtirokida matn tuzish yaxshi natija beradi.

Hamma kishilar tomonidan ishlatiladigan so'zlar umumxalq ko'p ishlatadigan so'zlar sanaladi. Bulardan tashqari nutqimizda kam qo'llanadigan so'zlar ham mavjud. Bunday so'zlarni tarixiy so'zlar, fanlarga oid so'zlar, kasb – hunarga oid so'zlar, shevaga oid so'zlar, olinma so'zlar, eskirgan va yangi paydo bo'lgan so'zlarga ajratish mumkin. Vaqt o'tishi bilan bunday so'zlarning ma'lum qismi umumxalqda ko'p qo'llaniladigan so'zlar sirasiga o'tadi. bulardan eskirgan so'zlar va ularning turlari yuzasidan mashq qilish yaxshi natija beradi.

3. Iboralarni o'tish metodikasi.

Lesikologiyaga oid materiallar iboralarni o'tish bilan yakunlanadi. Bu paytga kelib, o'quvchilar so'zning o'z va ko'chma ma'nolari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Iboralar ko'chgan ma'noda qo'llanadigan so'zlar birikmasi ekanligini osongina tushunadilar.

O'quvchilarga darslikda berilgan nazariy material tushuntirilgach, oq ko'ngil, suv quyganday, kapalagi uchdi kabi misollarning ma'nosi tahlil qilinadi. Ibora haqida ma'lumot berilganda, asosan, uning amaliy ahamiyati nazarda tutilib, gapga teng keladigan (dili siyoh bo'ldi, ishi pachava bo'ldi) iboralar emas, balki gap bo'lagiga teng keladigan iboralargina o'rganiladi. Bu, bir tomondan, iborani anglashni osonlashtiradi, ikkinchi tomondan, sintaksisda gap bo'laklarining ibora bilan ifodalanishi mumkin ekanligiga puxta zamin hozirlaydi.

Iboralar o'tilganda iboraning ma'nosi bir mustaqil so'zga teng kelishi; uning tarkibida birdan ortiq mustaqil so'zning bo'lishi; iboralardan o'rinli foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshirish haqida tushuncha beriladi. O'quvchilar nutqini o'stirishda iboraning ahamiyati katta. Ammo iboralar uchun misollar berishda bolalar ko'chma ma'nosini osongina fahmlab oladigan, ularning yoshiga mos misollar tanlab olish kerak. Aks holda o'quvchilar iboraning ma'nosini anglab ololmaydilar, ibora ularning nutqida aktivlashmaydi. Masalan, "ko'zim uchdi" iborasining ma'nosiga e'tibor beraylik:

- Oyi, nega qovog'ingizni silayapsiz.

- Ko'zim uchdi.

- Iya, joyida turibdi – ku.

Quyidagi misolda "chiziqdan chiqmaslik" iborasining ma'nosini bola tushunmagan.

- Katta chizgan chiziqdan chiqmagin, o'g'lim G'ani.

- Voy, gapingiz qiziq-a, O'sha chiziqlar qani?

O'quvchilar darslikdagi kuzatish uchun berilgan mashqlar bilan tanishib chiqadilar. Mashqlar va ko'rgazmali vositalar yordamida nazariy material mustahkamlanadi. O'qituvchi o'quvchilarga: "Bugun qaysi mavzuni o'tdik?" Ibora nima? Ibora qanday komponentlardan tuziladi? (Birdan ortiq mustaqil so'zlardan tuziladi) kabi savollar bilan murojaat qiladi. kartochkalar bilan ishlashda kartoshkalarda berilgan iboralarni qatnashtirib gaplar tuzishadi.

"Tasviriy ifoda" mavzusi darslikda berilgan topshiriqni kuzatib tahlil qilishdan boshlanadi.

Fazogirlar – samo lochinlari.

Makkajo'xori – dala malikasi.

Qushlar – qanotli do'stlar.

Narsa – buyumlarning nomini aniq atamay, uni tasvirlash yo'li bilan anglatadigan so'zlar birikmasi tasviriy ifoda sanaladi. Tasviriy ifodalar iboralar kabi nutqning ta'sirchanligini oshiradi.

Dars mashqlar vositasida mustahkamlangach, til fanining iboralarni o'rgatadigan bo'lishi frazeologiya deb atalishi aytilib, doskaga frazeologiya termini urg'u qo'yilgan holda yozib qo'yiladi. Uning talaffuzi va imlosi bo'yicha mashq o'tkaziladi.

Leksik – frazeologik mashqlar o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga yordam beradi. leksika va frazeologiyani o'rganishda lug'atlar bilan ishlash zarur. Buning uchun quyidagicha mashqlar bajaritirish mumkin:

- ko'p ma'noli so'zlarni aniqlang (dialektologik, frazeologik mumkin).
- berilgan so'zlarning sinonim (aktiv frazeologik)larini toping;
- izohli lug'atdan dialektal so'zlarni toping;
- biror matn asosida lug'at – maqola tuzing;
- gaplardagi leksik xatolarni aniqlang.

Bunday topshiriqlarni bajarish o'quvchilarning leksik va frazeologik bilimlarining shakllanishiga yordam beradi.

Mustahkamlash uchun topshiriqlar.

1. Leksikologiya va frazeologiyaning maqsad va vazifalari hamda uni o'qitishning prinsiplarini qanday tushunasiz?
2. Ko'p ma'noli so'zlar bilan omonim so'zlarni qiyosiy o'rganish deyilganda nimani tushunasiz?
3. Ko'p ma'noli so'zlarning paydo bo'lishini tushuntirish yo'llari.
4. Uyadosh so'zlarni o'quvchilarga qanday tushuntirish mumkin.
5. Ibora komponentlarining o'zaro aloqasini qanday tushuntirish mumkin?
6. Ibora bilan tasviriy ifodani qiyosiy izohlang!

6-mavzu.	Morfologiya o'qitish metodikasi
-----------------	--

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti 80 daqiqa	Talabalar soni 50-55 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish - axborotli ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Morfologiya o'qitishning maqsad va vazifalari. 2. Mustaqil so'z turkumlarini o'tish. 3. Yordamchi so'z turkumlarini o'tish. 4. Alohida ajratilgan so'zlarni o'tish.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey kasb-hunar kollejlari ona tili o'qitishning tarkibi va mazmuni bo'yicha umumiy tushuncha berish, dastur va darsliklar mazmuni bilan yaqindan tanishtirish.	
Pedagogik vazifalar: • o'quv dasturlarining maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzular to'g'risida tushuncha berish; • dastur haqida ma'lumot berish; • dastur turlari bilan tanishtirish.	O'quv faoliyati natijalari: • dasturlarning maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularni sharhlab beradi; • stil so'zining ma'nolarini aytib beradi; • dastur turlarini sanab o'tadi.
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor, tarqatmalar.
Ta'lim berish sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

1.2. ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O'quv fanini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqish.	
1. Mavzuga	1.1 O'quv fanining nomini	Tinglaydilar

kirish (15 daqiqa)	aytadi. Mavzular va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi. (1 ilova). 1.2. Birinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonini bilan tanishtiriladi (2 ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining o'rganish obyekti. 2.3. Dastur va uning vazifasi. 2.4. Dasturlarning ta'lim bosqichlaridagi ahamiyati. 2.5. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi: 2.6. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili o'qitish kursining tarkibi va mazmunini tushuntirib bering. 2. Akademik litseylarda ona tili o'qitish kursining tarkibi va mazmuni qanday? 3. Kasb-hunar kollejlariida ona tili o'qitish kursining mazmuni haqida gapiring.	Tinglaydilar, yozadilar. Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2 Mustaqil ishlash uchun "Umumta'lim, AL va KHK dasturlari haqida" mavzusini	Savollar beradilar Vazifani yozib oladilar.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Yo.G'ulomov va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi, Toshkent, 1975y.
 2. N.Abdurahmonov. O'zbek tili o'qitish metodikasi, samarqand, 1969y.
 3. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi, Toshkent 2010 y.
 4. M.Omilxonova va boshqalar. 7- va 8-sinflarda ona tili darslari. Toshkent, 1982 yil.
 5. M.Omilxonova va boshqalar. 5 – va 6-sinfda ona tili darslari, Toshkent 1978 y.
 6. A.Bobomurodova. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin – topshiriqlardan foydalanish kandidatlik dissertasiya avtoreferati, Toshkent 1997 y.
 7. A.G'ulomov, H.Ne'matov. Ona tili ta'limi mazmuni, 1995 y.
 8. M.T.Baranov va boshqalar. Metodika prepodavalniya ruskogo yazıka. M 1990
 9. Yu.K.Babanskiy. Hozirgi zamonaviy umumta'lim maktablarida o'qitish metodikasi. Toshkent 1990 y.
 10. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili, Toshkent 2010 y.
- Rahmatullayev Sh. va boshqalar. «O'zbek tili imlo lug'ati». — T.: «O'qituvchi», 1995.
- To'xliyev B va boshqalar «O'zbek tili o'qitish metodikasi». T. 2006.

1,5 ball – “yaxshi”

1,0 ball – “qoniqarli”

0,5 ball – “qoniqarsiz”

Tayanch so'zlar: ta'lim dasturlari, DTS, akademik litsey, ta'lim mazmuni, kognitiv ta'lim.

Maktab ona tili kursi fonetika, leksikologiya, so'z tuzilishi, gap qurilishi, orfogarfiya, punktasiya, stilistika haqidagi qonun – qoidalarni o'rgatishdan iborat.

O'quvchilarning fikrlash qobiliyatining shakllanishi va o'sishida, ayniqsa, grammatikang ahamiyati katta. “Grammatika hamma va har qanday bilimga o'tiladigan bir ostona ...” (A.M.Teshkovskiy) bo'lsa, uni o'rganish juda katta ahamiyat kasb qiladi.

Grammatika – (yun harf, o'qish va yozish san'ati) morfologiya va sintaksisdan iborat bo'lib, o'quvchining so'z boyligini oshirishga, kommunikativ savodxonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Morfologiya-(gr. morphe- forma, logos-ta'limot) so'zlarning shakli va turkumlarga ajralishini o'rganadi.

O'rta maktabda morfologiya o'qitishning asosiy maqsadi nutqimizda qo'llaniladigan so'zlarning anglatgan ma'nolari, morfologik belgilari, sintaktik funksiyasiga ko'ra turkumlarga ajratish prinsiplarini o'rgatishdir.

Demak, nutqimizda qo'llaniladigan so'zlar, ularning tarkibi, anglatgan ma'nolari, morfologik belgilari va gapda bajargan vazifalariga ko'ra gruppalanadi.

O'quvchilarga har bir so'z turkumiga xos bo'lgan grammatik kategoriyalarni, so'z turkumlarining yasallishini, so'z shakllarini, so'z shakllarining funksional qo'llanilishini, so'z shakllarining so'z birikmasi va gap qurilishidagi rolini, morfologiyaning orfografiya bilan bevosita aloqadorligini, morfologik shakllangan so'zlarning stilistik vazifalarini tushuntirish morfologiyao'qitishning asosiy vazifalari sanaladi. Bunday umumiy ma'lumot berilgandan keyin har bir so'z turkumiga alohida to'xtalib, uning xarakterli belgilari haqida bahs yuritiladi.

2. Mustaqil so'z turkumlarini o'tish metodikasi. Mustaqil so'z turkumlarni tushuntirishdan oldin so'zlarni qanday prinsiplarga ko'ra guruhlariga ajratish kerak degan muammoga to'xtalib: semantik, morfologik, va sintakik prinsiplarga mos keladigan misollar keltirish kerak: oy – ot; oy yuzli jonon-sif; oy borib, omon keling ravish. Shundan so'ng so'zlarning 3 ta katta guruhga ajratishi, mustaqil so'zlardan biri ot turkumi haqida to'xtaldi. O'quvchilar ot temasini qancha puxta o'zlashtirishga imkoniyat yaratiladi. Chunki ot grammatik mohiyatiga ko'ra boshqa turkumlar bilan aloqadordir.

Otlarning predmet ma'nosini anglatishi tushunchasiga kengroq to'xtash kerak. Bu o'rinda predmet so'zi keng ma'no qo'llanilib borliqdagi hamma narsalardan tashqari, o'ylangan, fikr qilingan mavhum tushunchalarni ham anglatadi: havo, koinot, xayol kabi so'zlar predmet tasavvuri bilan bog'liq. Otlar konkret predmetlarni: daftar, kitob, daraxt ... Umumiylikni bildiruvchi predmetlarni: inson, qish, yoz, dala... Tabiat hodisa va turli voqyealarni: shamol, inqilob, toshqin. Harakat nomlarini: urush, uzum, terim. Belgi-holat nomlarini: go'zallik, yaxshilik, o'y, tuyg'u.

Shundan keyin otlarning morfologik belgilari: son, egalik va kelishik qo'shimchalari bilan turlanishi o'rganiladi. "Ot" haqidagi ma'lumot fonetika, orfografiya, orfoepiya bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun ham ot va uning grammatik kategoriyalari o'tilayotganda fonetika va so'z tarkibiga oid ba'zi temalar takrorlanishi kerak: qo'shimchalar qo'shilgandagi o'zak va affikslardagi o'zgarishlar: bek-begi, tayoq-tayog'i, chopiq-chopiqqa kabi o'rinlarda qo'llanadi. Egalik qo'shimchalarini tushuntirishda (qorin-qorni) o'zak va qo'shimchalar haqidagi ma'lumotni eslatish kerak. Bunday so'zlarning asosi (o'zak)ni to'g'ri topolmasa, qo'shimchasini ham aniqlamaydi.

"Ot"turkumiga doir umumiy ma'lumot berilgach, otlarning birlikda va ko'plikda qo'llanishi, otlarda egalik qo'shimchalari, otlarning turlanishi, atoqli va turdoshlar, turdosh otning semantik guruhlari, otlarning yasallishi kabilar alohida-alohida bir necha darsdan o'tkaziladi.

Atoqli otlar o'tilganda, ularning imlosiga diqqatni qaratmoq kerak. Sodda tub atoqli otlarning yozilishida murakkablik yo'q: ular bosh harf bilan yoziladi.

Yasama atoqli otlar imlosida o'quvchilarni o'ylantiradigan o'rinlari mavjud: atoqli ot tarkibidagi mustaqil so'zlarning (affiksoid) qo'shimcha o'rnida qo'llanishi: Mirzacho'l, Arnasoy, G'allaorol kabi joy nomlaridagi; kishi nomlaridagi Abdu, qul, boy, to'ra, berdi, poshsha, shoh, xo'ja kabi komponentlar imlosi haqida to'xtash lozim. Qo'shma atoqli otlarning ajratib yozilishi qo'shtirnoqqa olinishi haqida ma'lumot berish kerak.

Shundan keyin turdosh otlarning atoqli otlarga aylanishi ustida maxsus mashq o'tkazish foydali bo'ladi: To'lqin-to'lqin, uchqun-Uchqun... Atoqli otlar haqida ma'lumot berilgach, turdosh otlar va ularning semantik guruhlariga to'xtaladi. Bunda atoqli otlar bilan turdosh otlar qiyoslanib, ularning o'ziga xosligiga to'xtalinadi. Turdosh otlar quyidagi guruhlariga ajratiladi: 1)shaxsni anglatuvchi otlar, 2)hayvonotni anglatuvchi otlar, 3)o'simlik va daraxtlarni anglatuvchi otlar, 4)narsa va buyum anglatuvchi otlar, 5)modda-ma'dan, xom-ashyo anglatuvchi otlar, 6)o'rin-joy, makon anglatuvchi otlar (o'ng,chap,orqa,atrof), 7)payt anglatuvchi otlar, 8)mavhum otlar.

So'z va uning anglatgan ma'nosi inson faoliyatida keng qamrovli rol o'ynaydi. Bu guruhlardagi otlar anglatgan ma'nolariga ko'ra yana mayda guruhlariga ajratiladi. Masalan, shaxs otlarini: yoshiga ko'ra, qarindoshligiga ko'ra, kasb-koriga ko'ra, istiqomat joyiga ko'ra kichik guruhlariga ajratish mumkin. Shaxs otlarining bunday mayda guruhlariga ajratilishi, birinchidan, o'quvchi leksikasida mavjud bo'lgan so'zlar nozikliklariga ko'ra differensiasiya qilinadi, ikkinchidan, qarindoshlik aloqalarini mustahkamlash uchun yordam beradi. Turdosh otlar tarkibiga kiruvchi boshqa har bir guruh ma'no xususiyatlaridan kelib chiqib yanada kichik guruhlariga ajratiladi. Bu o'z o'rnida fanlararo integrasiyani ham o'rnatadi.

O'rta maktab grammatikasida har bir so'z turkumining yasalishi shu turkum doirasida o'tiladi. Shuning uchun ham otlarning yasalishi haqidagi ma'lumotlar atoqli otlarda ham, turdosh otlarda ham ularga bag'ishlangan darslarda o'rganiladi. Bunda o'qituvchi turli jadval, sxemalar chizilgan ko'rgazmalar vositasidan foydalaniladi. Davlat dasturiga ko'ra, otlar uchun 55 soat, fe'llar uchun 52 soat, sifatlarga 16 soat, songa 15 soat, olmoshga 13 soat, ravish uchun 8 soat vaqt ajratilgan.

3. Yordamchi so'z turkumlarini o'tish. Yordamchi so'zlar 7-sinfda o'tiladi. Bu so'zlarni o'tishda o'qituvchi quyidagi maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi:

1)o'quvchilarning grammatikadan olayotgan bilimlarini yanada boyitib, har bir yordamchi so'zning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish;

2)yordamchi so'zlarning mustaqil so'zlardan va o'zaro bir-biridan farqini o'rgatish;

3)o'quvchining yordamchi so'zlarni o'z nutqida to'g'ri qo'llay olishlarini o'rgatish;

4)yordamchi so'zlarning, ayniqsa, yuklamaning yozilishini o'rgatish.

Buning uchun dastlab o'qituvchi leksik ma'noga ega bo'lgan mustaqil so'zlarning biror so'roqqa javob bo'lishini, gapda gap bo'lagi bo'lib kelishini tushuntiradi. Bu so'zlarga qiyos qilib bir guruh so'zlar yoziladi: bilan, uchun, va ... Bu so'zlarning yakka holda lug'aviy ma'no anglatmasligi, biror so'roqqa javob

bo'lmasligi, gap bo'lagi bo'lib kela olmasligini tushuntiradi. Ularning mustaqil so'zlar va ayrim gaplar orasidagi munosabatni anglatishiga, so'z va gaplar mazmuniga qo'shimcha ma'no qo'shishi aytiladi.

O'quvchilarga mustaqil so'zlar bilan yordamchi so'zlarning farqini tushuntirishda mustaqil va yordamchi so'zlar ishtirok etgan gap olinib, mustaqil va yordamchi so'zlarning ma'nolari taqqoslanadi, yordamchi so'zlarning qanday so'zlardan keyin kelib ularning boshqa so'zlar bilan aloqasi tushuntiriladi. Chunki gap va gap bo'laklari haqida o'quvchilar boshlang'ich sinfda dastlabki ma'lumotga ega bo'lgan bo'ladi. Shuning uchun ham yordamchi so'zlarni sintaksisga bog'lab o'rganish maqsadga muvofiqdir. Ularning ma'nosi va vazifasi gap ichida aniqlanadi. Masalan, bog'lovchilar gap bo'laklari yoki gaplarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qilsa, yuklamalar anglatgan qo'shimcha ma'no ham gap ichida aniqlanadi. Shundan keyin yordamchi so'zlarni xususiyatlariga ko'ra ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalarga ajratish aytiladi.

"Ko'makchi"larga 9 soat, bog'lovchilarga 8 soat, yuklamalarga 8 soat ajratilgan. "Ko'makchi" mavzusi o'tilayotganda uning gap tuzishdagi roli, sof ko'makchilar va ko'makchi vazifasidagi so'zlar haqida ma'lumot berish bilan birga ot, otlarning kelishiklar bilan turlanishi, olmosh, ravish, fe'l haqidagi materiallar esga tushirilib mustahkamlanadi.

"Ko'makchi" mavzusida ularning otning kelishik qo'shimchalari bilan munosabatiga to'xtalib, ayrim o'rinlarda mos kelmasligi, ko'makchining ma'noni kngaytirishi aytiladi: Ukam uchun daftar oldim. Onasi bilan birga ishlaydi. Bir hafta keyin keldi.

"Ko'makchi" mavzusini o'tishda asosiy e'tiborni sof ko'makchilar bilan ko'makchi vazifasidagi so'zlarni farqlashga qaratish zarur. Bunday asosiy e'tibor ko'makchi vazifasidagi so'zlarga qaratilib, qiyosiy misollardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi: Akram keyin boradi. Darsdan keyin guruh majlisi bo'ladi. Ko'makchilar o'zlari birikib kelgan (o'zidan oldingi so'z) so'z bilan bir so'roqqa javob bo'ladi: birinchi misolda qachon? so'rog'iga keyin so'zi, ikkinchi misolda darsdan keyin so'zi javob bo'lmoqda. Birinchi keyin- ravish, ikkinchisi ko'makchidir. Bunga o'xshash misollar yozilgan kartochkalar bilan darsni mustahkamlash yoki o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash mumkin.

Har qanday darsni o'tishda, xususan, yangi materialni bayon qilish darslarida o'quvchining mustaqilligini oshirish katta natija beradi. O'qituvchi nazariy materialni bayon qilgach, o'quvchilarga misol toptirishi yoki birgalikda topishi darsni zerikarli qilmaydi va o'quvchilarning o'tilayotgan mavzu yuzasidan bilim hamda ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Bu metodni yordamchi so'zlarga, xususan, yuklamaning yozilishiga ham qo'llasa yaxshi natija beradi.

4. Alohida ajratilgan so'zlarni o'tish.

Nutqimizda shunday so'zlar ishlatiladiki, ularda mustaqil so'zlarga xos xususiyat ham, yordamchi so'zlarga xos xususiyat ham yo'q. Xuddi yordamchi so'zlar kabi gap bo'lagi bo'lib kela olmaydi, lekin yordamchi so'zlar doirasiga ham kirmaydigan maxsus guruh so'zlardir. Ularni o'ziga xos xususiyatlari va gapdagi vazifasiga ko'ra uchga ajratamiz:

1. Modal so'zlar.

2. Undov so'zlar.

3. Taqlid so'zlar.

Modal so'zlar mavzusi o'tilayotganda qisqacha nazariy ma'lumot beriladi. Buning uchun bir necha misol yozilgan ko'rgazmali quroldan foydalaniladi: Biz, albatta, shaxmatda yengamiz. Haqiqatan, o'sha kuni shanbalik bo'lgan edi. Ehtimol bu uning kelajagidir. Qishki sessiyaga, chamasi, bir haftalar qoldi. Modal so'zlar so'zlovchining anglatilayotgan fikrga munosabatini bildiradi. Misollarga nazar solsak, modal so'zlar gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirmaydi, biror gap bo'lagi bo'lib kelmaydi. So'zlovchining anglatgan fikrga munosabati aniq (albatta, haqiqatan) yoki noaniq (ehtimol, chamasi) bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra ularni: a) fikrning aniqligini ifodalovchi, b) fikrning noaniqligini ifodalovchi modal so'zlarga ajratiladi. Bu fikr yuqoridagi misollar vositasida asoslanadi. Mavzuni mustahkamlash maqsadida berilgan matndagi modal so'zlar aniqlanadi.

Undovlar mavzusi o'tilayotganda nazariy materialni bayon qilish uchun undovlar va ularning turlarini ko'rsatuvchi bir necha misol yozilgan jadvaldan foydalaniladi. O'qituvchi misollarning intonasiya va tinish belgilariga e'tibor berib tushuntiradi: E, qani endi men ham a'lochi bo'lsam ! Undov so'zlarning his-hayajon va haydash-chaqirish (buyruq-xitob) undovlaridan iborat bo'lishini tushuntirganda tinish belgilariga alohida e'tibor berish kerak. His-hayajon undovlari boshqa bo'laklardan vergul bilan ajratiladi. Agarda undalma bilan birga kelsa, vergul undalmadan keyin qo'yiladi. Masalan, Hoy kapalak, kapalak, qanotlaring ipakdek.(Z.D) Shundan so'ng o'quvchilar undov so'zlarning stilistik roli, undov so'zlar bilan kelgan gapning intonasiyasi, gapni ifodali o'qish bo'yicha turli mashqlarni bajaradilar :

A)biror badiiy matndagi undov so'zlarni topib izohlash;

B)undov so'zlar ishtirokida gap tuzish;

V)undov so'zlarning boshqa so'z turkumlariga ko'chishiga misol topish;

G)undov so'zli gaplarning tinish belgilarini izohlash va boshqalar.

“Taqlid so'zlar” mavzusi shu tema uchun mos bo'lgan matnni o'qish bilan boshlanadi. Shundan keyin tovushga taqlid va holatga taqlid so'zlariga tayyorlangan ko'rgazmali vosita bilan nazariy material tushuntiriladi.

Taqlid so'zlarning ikki turi – tovushga va holatga taqlidning xarakterli tomonlari izohlanadi. Shu bilan birga taqlid so'zlarning ham undov so'zlarning biri ekanligi ta'kidlanadi. Mavzuni mustahkamlash uchun og'zaki va yozma mashqlar bajariladi. Modal, undov va taqlid so'zlar yuzasidan kontrol ish olinib bu bahsga yakun yasaladi.

Mavzu bo'yicha mustahkamlash uchun topshiriqlar.

1. So'zlarni turkumlarga qanday belgilariga ko'ra ajratiladi?
2. O'quvchilarga mustaqil so'zlar bilan yordamchi so'zlarning o'ziga xos xarakterli tomonlari qanday tushuntiriladi?
3. “Ot” mavzusi o'tilayotganda predmet va predmetlik tushunchalarini qanday izohlaysiz?
4. Turdosh otlarni semantik guruhlariga ajratishning ahamiyatini izohlang.
5. Otlarning yasaliishi va imlosi haqida izoh bering.
6. Yordamchi so'zlarni o'tish usullarini izohlang.

7- mavzu	Sintaksis o'qitish metodikasi.
----------	--------------------------------

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti 2 s	Talabalar soni 50-55 gacha
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha yangi bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash
Ma'ruza rejasi	1. Sintaksis o'qitishning maqsad va vazifalari. 2. So'z birikmasini o'qitish metodikasi. 3. Sodda gapni o'qitish metodikasi. 4. Qo'shma gapni o'qitish metodikasi.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: o'quv fani bo'yicha umumiy tushuncha berish, publisistik uslubning yozma va og'zaki ko'rinishlari, publisistik uslubning asosiy vazifasi, janrlari. Publisistik uslubning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari haqidagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish.	
Pedagogik vazifalar: • Publisistik uslubning ko'rinishlari haqida ko'nikma hosil qilish; • Publisistik uslubning asosiy vazifasi, janrlari haqidagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish; • Publisistik uslubning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari haqidagi bilimlarini rivojlantirish;	O'quv faoliyati natijalari: • Publisistik uslubning og'zaki hamda yozma ko'rinishlarini tushuntirib beradilar; • Publisistik uslubning asosiy vazifasi, janrlarini sanab o'tadilar va har biriga ta'rif beradilar; • Publisistik uslubning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini tushuntiradilar;
Ta'lim berish usullari	Munozara, suhbat, tezkor-so'rov
Ta'lim berish shakllari	Komandada ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

1.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi (1	

	ilova). Komandalar ishi uchun yozma tarzda savollarni tayyorlaydi. Komandalar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi.	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.1 Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatligi dolzarbliligini asoslaydi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi (2 ilova). 1.3. Ish guruhlarida o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi (3 ilova).	Savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Talabalarni 6 ta kichik guruhlariga bo'ladi va guruhlarida hamkorlikda ishlash usuli, qoidalari bilan tanishtiradi. 2.2. Har bir guruhga savollar beriladi va ularga javob berish talab etiladi. 2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. 2.4. Guruh sardorlari berilgan savollarga komandaning javoblarini bayon qiladi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa, guruh sardorini to'xtatib, ya'na qo'shimcha savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi. 2.5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlariga bo'linadilar. Topshiriq bo'yicha ishlaydilar. Guruh sardorlarini tayinlaydilar va hamkorlikda ishlaydilar. Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar.

3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi. 3.2 Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qibchiqishni tavsiya etadi.	Tinglaydilar. Vazifani yozib oladilar.
---------------------------------------	--	--

Tayanch so'zlar: izchil kurs, orfoepiya, so'z boyligi, imlo.


Adabiyotlar ro'yxati

- 1.Yo.G'ulomov va bosh. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent. 1975y.
- 2.G'.Abdurahmonov. sintaksis o'qitish metodikasi. Toshkent. 1960y.
- 3.B.To'xliyev va bosh. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent. 2010.
- 4.M.Olimxonov va bosh. 7 va 8-sinflarda ona tili darslari. T. 1982.
- 5.A.Ahmedov. o'zbek tilida sintaktik qayta bo'linish jarayoni. O'TA. 1984.
- 6.T.Qudratov, T.Nafasov. Lingvistik tahlil. Toshkent. 1981.
- 7.Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi, ona tili. Toshkent. 2010 yil.

Sintaksis o'qitishning asosiy maqsadi uni morfologiya bilan qiyoslab o'rganish, shuningdek, so'z turkumlari bilan gap bo'laklari orasidagi farqli va bog'lanishli tomonlarini tushuntirishdan iborat. O'quvchilarga nutqning intonasion tomonini o'rgatish, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini, tafakkurini o'stirish, takomillashtirish bu kursning asosiy vazifasi sanaladi.

O'quvchilar sintaksisni o'rganish orqali o'z nutqlarida uchraydigan nuqsonlarni biladilar va uni bartaraf qilishga harakat qiladilar. Sodda va qo'shma gaplarni tahlil qilish jarayonida tinish belgilarini qo'yishni o'rganadilar. Agarda o'quvchi biror badiiy asarni o'qiyotganda unda uchraydigan darak, so'roq va buyruq gaplarni o'z ohangida o'qiy bilsalargina muallif maqsadini, uning ichki hissiyotlarini to'g'ri anglaydi, aks holda asarning badiiyligiga putur yetadi.

Kishilar o'z fikrlarini obyektiv dunyoda ko'rgan va bilganlari asosida tartibga soladi. Obyektiv olamda esa alohida olingan narsa yo'q. Ular bir-biri bilan aloqada. Nutq o'zaro bog'langan narsa va hodisalarni ifodalash formasi. Bunda ikki shaxs so'zlovchi va tinglovchi qatnashadi:



Predmet bilan predmet, harakat bilan predmet, predmet bilan uning belgisi va boshqalar orasidagi aloqa tasodifiy emas. Demak, gap bo'laklari orasidagi sintaktik va logik bog'lanishlar ham qonuniy grammatik hodisalardir. Gap bo'laklarini tasnif qilishda grammatik forma asosiy rol o'ynaydi. Masalan, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabi bo'laklar bir-biridan grammatik belgilariga ko'ra farqlanadi. Lekin ularning asosida shaxs tafakkuri bilan bog'liq bo'lgan hodisa yotadi. Demak, ma'nodan tashqarida shakl bo'lishi mumkin emas. Dialektikaning muhim qoidalaridan bo'lgan ma'no va shakl birligi gap bo'laklari talqinida yaqqol ko'rinadi: kitob o'qidi, shahar bordik.

O'quvchilar sodda va qo'shma gaplarni o'rgana borib, real borliq va taraqqiyotning dialektik qonunlarini ham o'rganadilar. Bu, albatta, o'quvchilar fikrining mantiqan izchil, to'g'ri va asosli bo'lishini ham o'stiradi.

2. So'z birikmasini o'qitish metodikasi.

So'z birikmasi haqidagi dastlabki ma'lumot boshlang'ich sinflarda amaliy ish sifatida beriladi. V-sinfda maxsus mavzu sifat o'rganilib, quyidagi ma'lumot beriladi:

1. So'z birikmasi tobe va hokim so'zdan tuziladi.
2. So'z birikmasida so'roq hokim so'zdan tobe so'zga beriladi.
3. So'z birikmasi so'zga nisbatan predmet, belgi, ish-harakat aniq ifodalanadi.
4. So'z birikmasining turi hokim so'zga nisbatan belgilanadi: otli, fe'lli birikma.

VIII sintaksisni o'rganish "so'z birikmasi"dan boshlanib, 5-sinfda o'tganlar takrorlanib yangi material ham beriladi. Demak, o'qituvchi biror sinfda ona tilining bo'limlarini o'tayotganda quyi sinflarda shu mavzu yuzasidan o'tganlarini hisobga olishi kerak. 7-sinfda dars mustaqil so'zlarning bir-biri bilan o'zaro bog'lanishini tushuntirishdan boshlanadi. Gap tarkibidagi mustaqil so'zlar o'zaro tenglashish va tobelanish asosida birikadi. Tenglashish asosida birikish so'z birikmasi sanalmaydi. O'zaro tobelanish asosida qo'shilgan so'zlar so'z birikmasi sanaladi. Ega bilan kesimning bir-biri bilan bog'lanishi ham so'z birikmasi sanalmaydi. Demak, so'z birikmasidagi so'zdan biri hokim, ikkinchisi esa tobe so'z sanaladi. Hokim so'zdan tobe so'zga savol beriladi.

O'quvchilarda so'z birikmasi haqida bilim va ko'nikma hosil qilish uchun ko'proq mustaqil mashq bajartirish kerak. Chunki hokim va tobe so'zni to'g'ri topolmagan o'quvchi so'zlarning o'zaro bog'lanishini ham anglab ololmaydi.

Shunday qilib, hokim va tobe soʻz haqida malaka hosil qilingach, soʻz birikmasining taʼrifi beriladi. Soʻz birikmasi va soʻz, soʻz birikmasi va gap orasidagi farq tushuntiriladi. Bu ham, albatta, soʻz birikmasi haqidagi bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Keyingi darslarda tobe soʻzning hokim soʻzga bogʻlanish usullari haqida maʼlumot beriladi. Moslashuvning qaratqich kelishigi bilan kelishi, qaratqichning belgisiz ham qoʻllanishi, boshqaruvda tobe soʻz shaklining oʻzgarishi, koʻmakchilar bilan ham kelishi, bitishuvda tobe soʻz shaklining oʻzgarmasligi haqida atroflicha misollar bilan tushuntiriladi.

Bitishuvga alohida eʼtibor qaratish kerak boʻladi. Chunki, bitishuvdagi soʻz shaklining oʻzgarishsiz qoʻllanishi ega bilan kesim munosabatiga ham oʻxshab ketadi. Bitishuvdagi tobelik soʻz birikmasidagi soʻzning maʼnosi va tartibidan maʼlum boʻladi. Tobe soʻzning har doim hokim soʻzdan oldin kelishi uqtiriladi. Oʻqituvchi shunday xulosa chiqaradi: sifat, sifatdosh, son, koʻrsatish olmoshlari – sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida kelganda ot bilan hyech qanday qoʻshimchasiz maʼno orqali aloqaga kiraveradi. Ularning oʻrni almashtirilsa, grammatik tuzilishi ham oʻzgarib ega-kesim munosabatini hosil qiladi: chiroyli qiz – qiz chiroyli. Hokim va tobe soʻz orasidagi munosabatning turlari boʻyicha oʻtganlarni mustahkamlash maqsadida berilgan gaplarning sxemasini chizish topshiriladi.

Akamning koʻylaklarini kechqurun dazmolladim.

3. Sodda gapni oʻqitish metodikasi.

Gap haqida maʼlumot oʻquvchilarga boshlangʻich sinflarda berilgan boʻladi. 8-sinfda gap haqida nisbatan kengroq maʼlumot beriladi. Bunda gapning aloqa va aralashuv quroli ekanligi, uning nisbiy tugal fikr ifodalashi, grammatik shakllanganligi, tugallangan ohang bilan aytilishi oʻquvchilar ongiga singdirilishi kerak. Buning oʻqituvchi tomonidan gap aloqa-aralashuvning eng kichik birligi ekanligi aniq misollarda tushuntiriladi. Gapning nisbiy tugallangan fikr ifodalashini gap bilan soʻz birikmasi taqqoslangan koʻrgazmali quroladan foydalanib tushuntirish mumkin:

Tugallangan fikr	Soʻz birikmalari
<i>Yozgi taʼtilni koʻngilli oʻtkazdik. Maktabimizning qizlari quvnoq.</i>	<i>Yozgi taʼtil, koʻngilli oʻtkazdik. Maktabimizning qizlari, quvnoq qizlari</i>

Mana shunday qiyosiy tahlildan keyin oʻquvchilarga gapning maʼno va grammatik jihatdan tugallangan nutq parchasi ekanligi tushuntiriladi.

Gapning biror narsa-predmet va hodisani ifodalashidan tashqari soʻzlovchining aytilayotgan fikrga munosabatining ifodalanishini ham uqtirishi kerak. Bu oʻrinda intonasiyaning rolini tushuntirish zarur boʻladi. Bu haqda qator mustahkamlash mashqlari oʻtkazilishi kerak. Shundan keyin maqsadiga koʻra gap turlari haqida toʻxtalib, darak gap, soʻroq gap, buyruq gap haqida maʼlumot beriladi. Bu gapning mazmuniga, tuzilishiga, ohangiga koʻra farqlari tushuntiriladi. Chunki, soʻzda maʼno bor, gapda fikr bor, fikrda emosionallik bor: Paxta terimi

boshlandi. Paxta terimi boshlandi! Zalda qancha odam bor? Zalda qancha odam bor?!

Gapning maqsadiga ko'ra turlarini mustahkamlash maqsadida maxsus tanlangan gaplarni ohangni, ayrim gap bo'laklarini o'zgartirish orqali bir gapni boshqa gapga aylantirish mashqlarini ham uyushtirish kerak: Talabalar dialektologik amaliyotga ertaga jo'naydilar. Talabalar-dialektologik amaliyotga qachon jo'naydilar? Logik urg'u olgan bo'lakning so'roq olmoshi bilan almashtirilishi.

Gap va uning mazmuniga turlari haqida umumiy ma'lumot berilgach, gapning tuzilishiga ko'ra turlari haqida ma'lumot beriladi. Gaplarning tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma gaplarga ajratilishi misollarni qiyoslagan holda tushuntiriladi.

Sodda gaplar

*Havo bulut bo'ldi. Yomg'ir yog'di.
O'qituvchi keldi.
Yig'ilish boshlandi.*

Qo'shma gaplar

*Havo bulut bo'ldi va yomg'ir yog'di.
O'qituvchi kelgach, yig'ilish boshlandi.*

Ma'lumki, sintaksis o'qitishning asosiy qismini sodda gap sintaksisi tashkil qiladi. Sodda gaplarni o'tishda, avvalo, egali va egasiz gaplar haqida ma'lumot beriladi. Bunda, avvalo, gap bo'laklari haqida ma'lumot berilib, gap tarkibida ma'lum bir so'roqqa javob bo'lib, ma'lum sintaktik vazifada keluvchi so'z yoki so'zlar birikmasi gap bo'laklari bo'lishi aytiladi. Gap bo'laklarini yaxshi o'zlashtirish uchun so'z turkumlarini yaxshi bilish zarur. Shuning uchun so'z turkumlari bilan gap bo'laklari orasidagi bog'lanishni tushuntirish shart.

Egali gaplarning grammatik asosini ega va kesim tashkil qilishi aytiladi. Shuning uchun ham gapning bosh bo'laklari deb yuritiladi. Faqat bosh bo'laklardan iborat bo'lgan gaplar yig'iq, bosh va ikkinchi darajali bo'laklardan iborat bo'lgan gaplarning yoyiq gap deb atalishini 5-sinfda o'tganligi eslatilib, misollar keltirish bilan mustahkamlanadi.

Gapning bosh bo'laklaridan ega haqida ma'lumot berilganda ega va uning ifodalanishi aks ettirilgan ko'rgazmali vositadan foydalaniladi. Misollarning ma'nosi tushuntirilgach, ega haqida nazariy ma'lumot beriladi. O'quvchilar eganing ot va olmosh bilan ifodalanishini osongina tushunishadi. Ammo boshqa so'zlar bilan ifodalanishini tushuntirishda ba'zi so'z turkumlarining ot turkumi o'rnida qo'llanishini eslatish yaxshi natija beradi. O'quvchilarga birikmali ega haqida ham tushuncha berish kerak: Kattalarga tik gapirish bizning axloqimizda yo'q.

Kesim mavzusi o'tilayotganda kesimning gapning markazi ekanligini misollar asosida atroflicha tushuntirish kerak. Shuningdek, kesimning bir so'z bilan hamda birdan ortiq so'z bilan ifodalanishi haqida to'xtalish zarur. Bunda o'quvchining diqqati ko'proq murakkab kesim (nima uchun qo'shma kesim emas) atamasiga qaratilmog'i kerak. Masalan, Karim – o'qituvchi. (sodda kesim) Karim o'qituvchi bo'ldi. U majlis bo'lishini e'lon qildi. E'lon qildi – qo'shma fe'l-u, murakkab kesim.

Gapning uyushiq bo'laklari mavzusi bilimlarni mustahkamlash dars tipi asosida olib boriladi.

Sodda gaplarni o'tishda "gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirmaydigan so'zlar" alohida o'rin tutadi. Bu mavzuni bayon qilishda o'quvchi diqqatini mustaqil va yordamchi so'zlar haqidagi ayrim ma'lumotlarga qaratiladi: mustaqil so'zlarga gap bo'lagi bo'lib keladi, yordamchi so'zlar gap bo'lagi bo'la olmaydi. Lekin shunday mustaqil so'zlar borki, ular biror gap bo'lagi, ya'ni biror sintaktik vazifa bajarmaydi: 1)Bugun menga qarashib yuborasan-da, Otabek. 2)Otabek bugun menga qarashib yuborasan. Birinchi gapdagi Otabek bilan ikkinchi gapdagi Otabek qiyoslansa, birinchi gapdagisi gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirayotgani yo'q, sintaktik vazifa bajarmayapti.

Shundan keyin gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirmaydigan bo'laklarning mavjudligi, shulardan biri undalma ekanligi haqida ma'lumot beriladi. Shu asosda boshqa bo'laklarga ham tavsif beriladi.

4.Qo'shma gaplarni o'qitish metodikasi.

Qo'shma gap haqidagi umumiy ma'lumot suhbat metodi asosida boshlanadi. Chunki, qo'shma gap atamasi o'quvchilarga quyi sinflardan ma'lum bo'ladi. 9-sinfda qo'shma gap oldingi materiallarga nisbatan chuqurroq, kengroq beriladi. Qo'shma gaplarning mazmunini to'liq tushuntirish uchun sodda gaplar bilan qo'shma gaplar qiyoslanadi, ya'ni til faktlarini kuzatish va tahlil qilish metodi asosida sodda gaplar va shu sodda gaplardan hosil qilingan qo'shma gaplar berilgan ko'rgazmali vosita tahlil qilinadi:

1.Tiniq osmonda yulduzlar charaqlar edi. Oy ko'rinmaydi.	Tiniq osmonda yulduzlar charaqlar, ammo oy ko'rinmasdi.
2.Bu yil hosil mo'l bo'ldi. Yerga ko'p kuch sarf qildik.	Bu yil hosil mo'l bo'ldi, chunki yerga ko'p kuch sarf qildik.

O'quvchilarga misollar atroflicha tushuntirilib, tahlil qilingach, ularning o'zlarining ham shunga o'xshash gap tuzishlari vazifa qilib topshiriladi. Shuni ham aytish kerakki, o'quvchilarga yangi material haqida bilim berganda ham, mustaqil bajarish uchun topshiriq berganda ham ularni zeriktirmaslik kerak. Yangi material bayonida o'qituvchi axboroti 5-6-sinflarda 4-5 minut, 7-9-sinflarda 5-10 minutdan oshmasligi kerak. Agarda bayon qilinadigan material yuqorida ko'rsatilganlardan ko'proq vaqtni talab qilsa, unda materialni qismlarga ajratish kerak, toki har bir qism bayoni 5-7-10 minutdan oshmasligi lozim. Shuningdek, mustahkamlash uchun beriladigan topshiriqlar ham zeriktiradigan darajada uzoq bo'lmasligi zarur. Yuqorida berilgan misollarning turli xildagi qo'shma gaplar ekanligi tushuntirilib, qo'shma gaplarning turlari aytiladi:

- 1.Teng bog'lovchili qo'shma gaplar.
- 2.Ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplar.
- 3.Yuklamali qo'shma gaplar.
- 4.Nisbiy so'zli qo'shma gaplar.
- 5.Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar.

Bu qo'shma gaplarning har biriga alohida-alohida to'xtaladi. Xarakterlovchi belgilarga diqqat qaratiladi. Eng asosiysi qo'shma gap qismlari orasidagi munosabatlarning ularni biriktiruvchi vositalarga mos kelishini o'quvchining ongli tushunishidir. Masalan, teng bog'lovchili qo'shma gaplarning qismlari teng huquqli bo'ladi, ularni alohida ham qo'llash mumkin, shuning uchun ham teng bog'lovchilar yordamida birikadi.

Qo'shma gaplarni o'tishda bog'lovchilar hamda yuklamalar haqida o'quvchining bilganlarini esga tushirish mashqlarini o'tkazish kerak bo'ladi. Chunki, teng bog'lovchilar va yuklamalar ham ergashtiruvchi bog'lovchilar ham qo'shma gap komponentlarini biriktirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, qo'shma gap komponentlarini ergashtiruvchi bog'lovchi vazifasida keladigan -mi, -chi, -da affiks yuklamalari uchun, sari, bilan kabi ko'makchilar ayrim fe'l shakllari ham biriktirish uchun xizmat qilishini aytish lozim.

O'quvchilarga qo'shma gap komponentlarining o'zaro munosabatini ko'rsatuvchi sxemani ham tushuntirish kerak.

Mavzu bo'yicha mustahkamlash uchun topshiriqlar.

1. So'z turkumlari bilan gap bo'laklari orasidagi farqli va bog'lanishli tomonlarini izohlang.
2. Sintaksis bo'limining o'quvchilar nutqi bilan bog'liq tomonlarini izohlang.
3. O'quvchi nutqi (fikri)ning o'sishida sintaksis bo'limining ahamiyati.
4. So'z birikmasining tavsifini ayting.
5. So'z birikmasining asosiy xususiyati nima?
6. Sodda gaplar bilan so'z birikmasini qiyosiy o'rganishning ahamiyatini izohlang.
7. "So'zda ma'no bor, gapda fikr bor, fikrda emosionallik bor" tushunchasini izohlang.
8. Kesimning tarkibi va ifodalanishini izohlang.

8-mavzu.	Orfografiya va punktuatsia o'qitish metodikasi	
Ta'lim berish texnologiyasi		
Mashg'ulot vaqti 80 daqiqa	Talabalar soni 50-55 gacha	
Mashg'ulot shakli	Kirish - axborotli ma'ruza	
Ma'ruza rejasi	1. Orfografiya o'qitishning maqsad va vazifalari. 2. Orfografik mashqlarning turlari va ularni o'tkazish usullari. 3. Orfografik xatolarni tuzatish va tahlil qilish	
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey kasb-hunar kollejlari ona tili o'qitishning tarkibi va mazmuni bo'yicha umumiy tushuncha berish, dastur va darsliklar mazmuni bilan yaqindan tanishtirish.		
Pedagogik vazifalar: - o'quv dasturlarining maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzular to'g'risida tushuncha berish; - dastur haqida ma'lumot berish; - dastur turlari bilan tanishtirish.		O'quv faoliyati natijalari: - dasturlarning maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularni sharhlab beradi; - dastur haqida ma'lumot oladi; - dastur turlarini sanab o'tadi.
Ta'lim berish usullari		Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari		Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari		O'quv qo'llanma, proyektor, tarqatmalar.
Ta'lim berish sharoiti		O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash		Og'zaki nazorat: savol-javob

1.2. ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O'quv fanini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqish.	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1 O'quv fanining nomini aytadi. Mavzular va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga	Tinglaydilar

	qisqacha ta’rif beradi. (1 ilova). 1.2. Birinchi mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va o’quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.3. Talabalar o’quv faoliyatini baholash mezonini bilan tanishtiriladi (2 ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo’yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. O’zbek tili o’qitish metodikasi fanining o’rganish obyekti. 2.3. Dastur va uning vazifasi. 2.4. Dasturlarning ta’lim bosqichlaridagi ahamiyati. 2.5. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi: 2.6. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida ona tili o’qitish kursining tarkibi va mazmunini tushuntirib bering. 2. Akademik litseylarda ona tili o’qitish kursining tarkibi va mazmuni qanday? 3. Kasb-hunar kollejlariida ona tili o’qitish kursining mazmuni haqida gapiring.	Tinglaydilar, yozadilar. Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo’yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2 Mustaqil ishlash uchun “Umumta’lim, AL va KHK dasturlari haqida” mavzusini taqdim etadi. Klaster	Savollar beradilar Vazifani yozib oladilar.

Adabiyotlar ro'yxati

- 1.Yo. G'ulomov va boshqalar. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent.1975.
- 2.B. To'xliyev va boshqalar. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent.2010.
- 3.M. Omilxonova va boshqalar. 5 va 6-sinfda ona tili darslari. Toshkent.1978.
4. M. Omilxonova va boshqalar. 7 va 8-sinfda ona tili darslari. Toshkent. 1982.
5. M. Mirtojiev. "Hozirgi o'zbek tili" Toshkent. 1992.
6. O'zbek tilining imlo lug'ati. Toshkent. 1975.
7. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Ona tili. Toshkent. 2010.

Tayanch so'zlar: leksikologiya, semantika, o'z ma'no, ko'chma ma'no, ma'no torayishi, ma'noning kengayishi.

Orfografiya o'qitish metodikasi o'zbek tili o'qitish metodikasining bo'limi bo'lib, orfografik ko'nikma va mahoratning shakllanish jarayonini o'zida aks ettiradi, fikrning yozuvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham bir xil anglashilishini ta'minlaydi.

O'quvchini orfografiyaga o'rgatishning *asosiy maqsadi* – orfografik savodxonlikni shakllantirishdir. Ya'ni harfiy va harfiy bo'lmagan vositalar yordamida mavjud orfografik qoidalar asosida so'zlarni yozishdir. Orfografik savodxonlikning ikki darajasi mavjud:

- a) Mutloq orfografik savodxonlik,
- b) Nisbiy orfografik savodxonlik.

Mutloq orfografik savodxonlik deyilganda, amaldagi orfografik qoidalarining hammasini biladigan, o'zbek tilida mavjud bo'lgan hamma so'zlarni xatosiz yoza oladigan kishi nazarda tutiladi.

Nisbiy orfografik savodxonlik – maktabda o'rganilgan orfografik qoidalariga mos holda so'zlarni yoza olish malakasi. Maktabda mutloq orfografik savodxonlik talab qilinmaydi, birinchidan, o'quvchilar hamma orfografik qoidalarining bir qismini o'rganadi, ikkinchidan, amalda unga erishib bo'lmaydi, chunki tildagi juda ko'p so'zlarni amaldagi orfografik qoidalar boshqarmaydi : xalqaro, pedagogika, qaro ko'zum, tatbiq, tadqiq, tadqiqot va boshqalar. Shuning uchun ham maktabda nisbiy orfografik savodxonlikni egallash maqsad qilib qo'yiladi.

O'quvchini to'g'ri yozishga o'rgatishda lug'at ustida ishlash, uning nutqini o'stirish bilan uzviy ravishda bog'liq. Orfoepik normalarni egallash ham

savodxonlikni oshirishning asosiy omillaridan biridir. Orfografik malakani egallashda ko'ruv, eshituv hamda mantiqiy fikrlash ham muhim o'rin egallaydi.

Yozuv bilan o'qishning tafovutini anglash, o'qishda so'zlarning imlosiga e'tibor berish malakalarini shakllantirish, o'quvchilarni to'g'ri yozishga o'rgatish orfografiya darslarining asosiy vazifasidir. Buning uchun orfografik mashg'ulotlardan unumli foydalanish, har bir sinfda imlo bo'yicha beriladigan bilimlarni belgilab olish zarur. Har bir sinfda xatoga yo'l qo'yish mumkin bo'lgan so'zlar hajmi belgilanadi, ya'ni orfografik minimum aniqlanadi. Imlosini orfografik qoida bilan tushuntirib bo'lmaydigan, faqatgina imlo lug'atidan foydalanib yod olinadigan so'zlar orfografik minimumga kiritiladi. Bunday so'zlar quyi sinflarda ko'proq bo'lsa, yuqori sinflarda nisbatan kamroq bo'ladi. Taxminan, 5-sinfda 180 ta, 6-sinfda 170 ta, 7-sinfda 150 ta, 8-sinfda 140 ta, 9-sinfda 140 atrofida so'z bo'lishi mumkin.

Orfografik minimumdan foydalanish o'quvchini imlosi qiyin so'zlarni to'g'ri yozishga o'rgatadi. O'quv yili davomida o'qituvchi o'quvchilarga so'zlarni qanday yozish kerakligini tushuntirib boradi. Natijada orfografik lug'at boyligi ortadi. Orfografik mashg'ulotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi :

- so'z va qo'shimchani yozilishini kuzatish, qiyoslash va analiz qilish;
- orfografik qoidalarini o'zlashtirish;
- bu qoidalarini yozuvda tatbiq qilish bo'yicha mashqlar olib borish.

Orfografik qoidalar o'zbek tilining fonetik va grafik qurilishi bilan bog'liq bo'lib, I-VII sinflarda grafika o'qitish bilan bog'lab olib borilsa, VIII-IX sinflarda yozma ishlarga bog'lab ayrim imlo qoidalarini takrorlab boriladi. Ma'lumki, orfografiya deb nomlanadigan dars yoki mavzu yo'q... Biz orfografik bilimlarni grafika darslarida berib boramiz. Grafikaning ko'pgina qoidalari orfoepiya bilan, ya'ni aytilishi bilan yozilishi to'g'ri kelmaydigan so'zlar, qo'shimchalar imlosi bilan uzviy bog'liq. Umuman orfografiyani grafikasiz o'qitib bo'lmaydi. So'z tarkibini tahlil qilish orqali so'zning asos va qo'shimchalarini topib, so'ng shu so'zning yozilishini bilib olamiz: angla ← ang-la, yasha ← yosh-a...

O'quvchilar ta'limning dastlabki paytlaridanoq to'g'ri yozishga odatlanib boradi. Bu malaka shakllanishi uchun har bir so'z imlosiga bee'tibor qaramasdan uzluksiz nazorat qilish va doimo tahlil orqali xatolar tuzatilishi lozim. Hatto shunday holatlar bo'ladi: o'quvchining biror xatosi tahlil qilinayotganda kitob yoki gazetadagi yozilishini aytib o'z nuqtai nazarini asoslashga harakat qiladi. Bunday holatlarda ishonchli manba haqida ma'lumot berish kerak.

2. Orfografik mashqlarning turi va ularni o'tkazish usullari.

O'quvchilarni to'g'ri yozishga o'rgatish uchun, ya'ni orfografik malakani shakllantirish uchun o'tkaziladigan mashqlarni ikki guruhga ajratamiz:

- a) maxsus orfografik mashqlar;
- b) maxsus bo'lmagan orfografik mashqlar.

I. Maxsus orfografik mashqlarga ko'chirib yozish va diktant (ijodiy va erkin diktantdan boshqa) kiradi.

Ko'chirib yozish. Bunda o'quvchilar doskadan, turli ko'rgazmali qurollardan, kitobdan ko'chiradi va so'zlarning imlosini yodida saqlab qoladi. Ko'chirib yozishning ikki turi mavjud:

- 1) matnni o'zgartirmasdan ko'chirib yozish;
- 2) matnni o'zgartirib ko'chirib yozish.

Matnni o'zgartirmasdan ko'chirib yozish boshlang'ich sinflarda olib boriladi. 5-9 sinflarda matnni o'zgartirib ko'chirib yozish grafik-orfografik tahlillar bilan qo'shib bajartiriladi. Masalan, "Alfavit" mavzusi o'tilgach, so'zlarni alfavit tartibida ko'chirib yozish, darslikdan qo'shimcha topshiriqlar bilan ko'chirib yozish va boshqalar.

Diktant va uning turlari. O'quvchining yozma va og'zaki nutqini o'stirishda diktantning ahamiyati katta. Diktantning *izohli yozuv*, *ta'kidiy va izohli diktant*, *nazorat diktantlari*da matn o'zgartirilmay yozilsa, *saylanma diktant*, *erkin diktant*, *ijodiy diktant*da matn ma'lum o'zgartishlar bilan yoziladi.

Izohli yozuv. O'qituvchi izohlanayotgan so'z yoki gapni adabiy til talaffuz normasiga muvofiq tushuntiradi, o'quvchilar uni yozib oladilar. Keyin o'quvchilar o'qituvchining ko'rsatmasi bilan ma'lum so'zni izohlaydilar. Masalan, chopqir, topqir, uchqir va boshqalar. Bu so'zlar o'quvchilar tomonidan izohlanadi. Agarda mazkur orfogrammalar o'quvchilar tomonidan noto'g'ri izohlansa yoki o'quvchi izohlay olmasa, unda o'qituvchi o'sha orfogrammani takrorlaydi. Izoh yozish uchun 5-8 minut ajratadi.

Ta'kidiy diktant. Bu diktant o'quvchining orfografik qoidalarni ongli o'zlashtirishda ahamiyatlidir. Ta'kidiy diktantlari da matnni diktovka qilishdan oldin ta'kidlanishi lozim bo'lgan orfogrammaning qoidasi izohlanadi. Shundan keyin o'quvchilar yozadilar. Imlosi mustahkamlanayotgan orfogrammani belgilab tagiga chizadilar. Bir o'quvchi doskaga chiqib yozadi, qolganlari o'sha asosda o'z yozganlarini tekshirib ko'radilar. Ta'kidiy diktant 5-6 sinfda *haftada bir marta*, 7 sinfda *uch haftada ikki marta*, 8-9 sinfda *ikki haftada bir marta* o'tkazgan ma'qul. Bunda butun dars ajratilmaydi: darsning 20-25 minuti kifoya qiladi.

Izohli diktant. Bu diktantda qoida matn yozib bo'lgandan keyin eslatiladi. Matn aytib turib yozdiriladi. O'qituvchi o'quvchining diqqatini mustahkamlanayotgan orfogramma qoidasiga qaratadi. Qoida umumlashtirilgach, o'quvchilar yozganlarini tekshiradilar. Masalan, Olimpiadada G'allaorol va Jizzax tumanlarining o'quvchilari g'olib chiqdilar. G'allaorol va Jizzax so'zlari atoqli ot, joylarga atalib qo'yilgan nom. Shuning uchun ham bosh harf bilan yoziladi. Qolgan gaplarni ham o'quvchilar tekshirib chiqadilar. Diktantning bu turi yangi materialni mustahkamlash, o'tganlarni takrorlash darslarida o'tkaziladi.

Saylanma diktant. Bu diktantda o'quvchilar mustahkamlangan orfografik qoidaga mos so'zlarnigina ajratib yozadilar. Masalan, o'qituvchi qo'shma va juft otlarning yozilishiga doir matn tanlaydi. Qo'shma va juft otlarning yozilishi haqidagi qoidani tushuntiradi. Keyin matn o'qib berilib, o'quvchining tushunganliklari tekshirib ko'riladi. So'ngra matn o'qib turiladi va o'quvchilar undan qo'shma va juft otlarnigina ajratib yozadilar. Saylanma diktant ayrim so'zlar orfografiyasini mustahkamlash uchun qo'llanilib 10-15 minut ajratiladi.

Lug'at diktant. O'quvchining nutq madaniyatini o'stirishda diktantning bu turining ahamiyati katta. Lug'at diktant uchun ayrim so'zlar beriladi: qo'sh undoshlar imlosi, atoqli otlar imlosi, juft sifatlar imlosi va boshqalar. Diktantning

bu turi uchun 7-10 minut vaqt ajratiladi. Bu diktantda o'quvchining to'g'ri yozish malakalari bilan birga fikrlash qobiliyatlari ortadi.

Nazorat diktant. Diktantning bu turi katta mavzular o'tilgandan keyin hamda chorak oxirida o'tkazilib, grafik va orfografik qoidalar xilma-xil mashqlar vositasida mustahkamlanadi. Nazorat diktant o'tilgan qoidaning qanchalik o'zlashtirilganligini tekshirish maqsadida o'tkaziladi. Qo'yilgan xatolar chuqur tahlil qilinadi. Nazorat diktant matnida so'zlar miqdori quyidagicha bo'lgani ma'qul :

Sinflar	V	VI	VII	VIII	IX
O'quv yili boshida	90	100	110	120	130
O'quv yili oxirida	100	110	120	130	140

Yordamchi so'zlar ham alohida so'z sanaladi. Nazorat diktantda matn tushunarli qilib o'qiladi. Bog'li matn bo'lsa, uning mazmunini biror o'quvchiga so'zlatish ham mumkin. Matn gapma-gap o'qib turiladi. Agar gap uzun bo'lsa sintagma bo'lib aytib turish kerak. Bunda gap avval to'liq o'qib berilib, so'ngra qismlari 2-3 marta qaytariladi. Lekin o'quvchini bir o'qishdayoq yozishga odatlantirish zarur. Bordi-yu o'quvchilardan ayrimlari qolib ketsa, unga tanbeh berib o'tirmasdan bir-ikki so'zni tashlab davom ettirgani ma'qul. O'qituvchi iloji boricha o'quvchilarning orqada qolmasligiga erishishi kerak. Diktant yozib bo'lingach, o'qituvchi matnni yana bir marta o'qiydi, yozganlarini ko'rib chiqishi uchun 3-4 minut vaqt beriladi. Bunda o'quvchi matnga ongli munosabatda bo'lib, xatolarini topishga harakat qiladi. Shundan keyin tezda yig'ishtirib olinishi kerak. Diktantni to'g'ri o'tkazishda aytib turishning ham ahamiyati kattadir. 5-sinf o'quvchisi bir minutda 3-5 so'z, 6-sinf 4-5 so'zni, 7-sinf 5-6 so'z, 8-9 sinf 7-8 so'z yoza olishi kerak. Matn o'rtacha ovozda o'qilishi lozim. Diktant o'tkazilayotganda parta ustida biror qo'llanma bo'lmasligi lozim. Ammo o'quvchilar qaysi qoida bo'yicha diktant o'tkazilishi kerakligini bilishi zarur.

II. Maxsus bo'lmagan orfografik mashqlar.

Punktuasion va kommunikativ malakalarni hosil qilish jarayonida ham orfografik bilim va ko'nikma hosil bo'ladi. Bu bilim va ko'nikmalarni hosil qiluvchi vositalar sifatida erkin va ijodiy diktantni, bayon inshoni kiritish mumkin. Bunday mashqlarning orfografik vazifasi o'quvchilarga odatiy bo'lmagan holatlarda orfografik qoidani qo'llashni o'rgatish. Bunday paytlarda o'quvchining diqqati imloga emas, balki o'z fikrini bayon qilishga qaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari bolalar ma'lum matnni bayon qilishda nisbatan erkin so'z tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday mashqlarga ijodiy va erkin diktant, bayon va insho kiradi.

Erkin diktant. Diktantning bu turida o'quvchi matnning umumiy mazmunini saqlagan holda ayrim so'z va so'z birikmalarini boshqalari bilan almashtira oladi. Bu jihatdan erkin diktant bayonga o'xshaydi. Matn abzaslarga bo'lib o'qiladi. Har bir abzas o'quvchilar tomonidan erkin qayta yoziladi. Bu diktandagi orfografik mashq o'rganilayotgan orfogrammaga bevosita aloqador bo'lmay, o'tilgan orfogrammalarga aloqador bo'ladi.

Ijodiy diktant. Bunday diktant bir necha ko'rinishga ega: **a) o'tilgan orfogrammalar yordamida gap tuzish:** yasama otning yozilishini mustahkamlash maqsadida doskaga bir nechta so'z yoziladi: elak, taroq, saylov, bo'yoq, qirg'ich so'zlarini yozib izohlanadi va gap tuzishadi. **b) berilgan matnni kengaytirish.** Bunda otlar, sifatlar yoki boshqa so'z turkumlari ishtirok etgan gaplar uning belgi-holatini ko'rsatuvchi so'z bilan kengaytiriladi: Biz paxta terdik. Biz oppoq paxtalarni terdik... Ushbu diktant o'quvchining nutqiy madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Bayon. Yozma ishning asosiy turlaridan bo'lib, nutq o'stirishning muhim vositasidir. Unda biror matnning mazmuni o'quvchi tomonidan "o'z so'zi" bilan bayon qilinadi. O'quvchilar o'zlarining tafakkur kuchi va nutq boyliklariga tayangan holda nutq malakalarini namoyish qiladilar. Bayonning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati katta. Bayon uchun matn tanlashda o'quvchining yosh xususiyatlari, bilim darajalari hisobga olinadi, ayniqsa, matnning tarbiyaviy jihatdan davr ruhiga mos kelishiga e'tibor beriladi. O'rta maktablarda bayonning quyidagi turlari o'tkaziladi:

1. ***Matnga yaqinlashtirib bayon yozish.*** Bunday bayonda muallif qo'llagan so'z va iboralardan keng foydalaniladi.
2. ***Qo'shimcha topshiriqli bayon yozish.*** Bu bayon ona tili darslarida o'tkazilib, biror grammatik kategoriya yuzasidan qo'shimcha topshiriq beriladi: moslashuv, bitishuv, ritorik so'roq gaplar kabi qo'shimcha topshiriqli bayon o'tkazilishi mumkin.
3. ***Saylanma bayon.*** Bunda o'quvchiga matn to'liq yozilmasdan matnning xohlagan qismini yozish huquqi beriladi.
4. ***Ijodiy bayon.*** Bunda o'quvchi matn mazmuniga o'z munosabatini bildirishi: ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga, dialogni o'z gapiga aylantirib yozishi mumkin.
5. ***Ixcham bayon.*** Ixcham hajmli matn yuzasidan o'tkaziladigan yozma ish turiga ixcham bayon deyiladi. Bunga dars jarayonining (5-9 sinflarda) 8-20 minut ajratiladi.

Insho. Mavjud materiallar asosida tuzilgan reja bo'yicha mustaqil ravishda matn tuzish mashqlari insho sanaladi. Bunday mashqlar bevosita orfografik malakani shakllantirish uchun qo'llanilmaydi. Insho orfografiyasida o'zlashtirilgan qoidaning o'quvchilar tomonidan qay darajada mustaqil qo'llay olishlari muhim rol o'ynaydi. Insho ona tili va adabiyot darslarida o'tkaziladi. Ona tili darslaridagi insho uchun ko'proq shaxsiy kuzatishlar, taassurotlar mavzu qilib olinadi. Maktablarda ko'proq ekskursiya, kino va sayohatdagi kuzatishlar asosida insho yoziladi.

3.Orfografik xatolarni tuzatish va tahlil qilish. O'quvchilar savodxonlik darajasini o'rganish, uning orfografik va punktuation xatolarini tuzatish, hisobga olish va baholash, xatolarni tugatish usullari orfoepiya o'qitishda asosiy o'rinda turadi. O'quvchilar savodxonligini oshirishda, orfografik xatolarni bartaraf qilishda "Imlo lug'ati" ning ham ahamiyati muhimdir. Undan foydalanishni o'rgatish katta ahamiyatga ega. O'quvchi qaysi so'z imlosida qiynalib qolsa, undan bimalol foydalanadigan bo'lishi kerak. Shu bilan birgalikda lug'at daftar yuritish ham

foydalidir. Maktabda o'tkaziladigan barcha yozma ishlar o'quvchi savodxonligini aniqlash vositasidir. O'quvchining to'g'ri yozish malakasi haqida tasavvur nazorat diktant, bayon va insho orqali hosil bo'ladi.

O'quvchidan olingan har bir yozma ishning, albatta, xatolari tuzatilishi kerak, aks holda o'quvchi xatolarga befarq qaraydigan bo'lib qoladi. Xatolarni tuzatishda o'quvchining o'zlarini ham jalb qilish mumkin. Nazorat xarakteridagi yozma ishlar o'qituvchi tomonidan tekshiriladi. Uyga berilgan topshiriqlar quyidagicha tekshirilishi mumkin:

- parta ustiga qo'yilgan daftarlarni tekshirib chiqish;
- biror o'quvchini doskaga chiqarib, uning yozganini tekshirish;
- har bir gapni navbat bilan o'qitish, yozilishini so'zlatish.

Ko'chirib yozilgan mashqlar, grammatik tahlillar ham shu usulda tekshirilishi mumkin. Lekin bu o'quvchilar daftarlarni to'liq tuzatish imkonini bermaydi. O'qituvchini har bir darsda 4-5 o'quvchining daftari uyga olib ketib tekshirishi kerak. O'qituvchilar o'quvchining xatolarini tuzatishda turli usullarni qo'llaydi. Xatolarni tuzatishning ko'proq mustaqil ishlashga jalb qiladigan yo'llari ham mavjud: xato yozilgan harflarning tagiga chizish, xato yozilgan bo'g'in yoki so'zning tagiga chizish, xato yozilgan so'zning qatoridagi hoshiyaga belgi qo'yish va boshqalar. Bunda xato o'qituvchi tomonidan tuzatilmaydi.

Ba'zan diktantdagi xatolar ro'yxati yozib olinib, faqat xatoning miqdori aytilib, ularni tuzatish o'quvchilarning o'zlariga topshiriladi. Buning ahamiyati juda katta. Chunki o'qituvchini xatoni qanchalik aniq ko'rsatsa, uni tuzatish shuncha oson bo'ladi. Aksincha, o'qituvchining ko'rsatmasi qanchalik umumiy bo'lsa, o'quvchi shuncha ko'proq mustaqil ishlaydi. Xato tuzatishning bu usuli qo'llanganda o'quvchi darslik, qo'llanmalardan foydalanishi mumkin.

Orfografik xatolarni hisobga olmasdan o'quvchining savodxonligini aniqlash mumkin emas. Xatolarning bir necha xillari mavjud: qo'pol xatolar, qo'pol bo'lmagan xatolar, o'tilgan qoidaga oid xatolar, o'tilmagan qoidaga oid xatolar.

Qo'pol xatolar: o'tilgan qoidalarda yoki o'zlashish darajasi tekshirilayotgan qoidalarda, o'quvchilar uchun tanish bo'lgan so'zlarda qilingan xatolar sanaladi. O'quvchiga tanish bo'lmagan so'zlarda qilingan xatolar, satrdan ko'chirishdagi xatolar, bir so'zni ikki xil yozish, ba'zi tasodifiy xatolar qo'pol bo'lmagan xatolar sanaladi. Bir so'zni bir necha o'rinda bir xil xato bilan yozilishi bir xato sanaladi. Uyga berilgan mashqlar ham nazorat ishi darajasida baholanadi. Agarda ko'chirib yozib kelish buyurilgan bo'lsa, unda o'quvchi xato qilsa, bir xatoga ham qoniqarsiz baho qo'yish mumkin. Agarda matnni o'zgartirib yozish topshirilgan bo'lsa, 2-3 xatoga ham ikki baho qo'yish mumkin. Agarda topshiriq to'g'ri bajarilsa-yu, lekin u boshqacha yo'nalishda bajarilgan, mavzudan chetga chiqilgan bo'lsa, o'quvchi topshiriqni tushunmagan, bunday ish ham baholanmaydi.

Orfografik xatolarning vujudga kelish sabablari. Orfografik xatolar umumiy xarakterdagi sabablarga ko'ra, o'qituvchining o'qitish metodi va o'quvchining individual xususiyatlariga bog'liq bo'lishi mumkin. Umumiy xarakterdagi sabablar:

- yagona orfografik rejimning joriy qilinmaganligi;
- sinf o'quvchilarining savodxonlik darajasining har xilligi;

-o'quvchining turli fanlar bo'yicha ortiqcha topshiriq bilan bandligi;
-orfografik sistema bilan bog'liq sabablar.

Xatoga o'qituvchi va o'quvchining o'zlarining sabab bo'lishi.

-orfografiya o'qitishda yagona sistema va izchillikning bo'lmasligi;
-orfografiya o'qitish metod va usullarini to'g'ri tanlay olmaslik;
-o'qituvchining ba'zi imlo xatolarga yo'l qo'yishi;
-tanlangan mashqning o'quvchi saviyasiga to'g'ri kelmasligi;
-qoidani aniq, sodda, ixcham qilib tushuntirmaslik, bunda o'qituvchining ikkilanishi;
-xatolar ustida ishlashda muayyan sistemaning yo'qligi;
-o'qituvchining darsga puxta tayyorlanmasligi.

Xatolarning yuzaga kelishiga o'quvchilarning o'zlari sabab bo'lishi:

-o'quvchi ba'zi so'zlarning ma'nosini tushunmaydi;
-biror orfografik qoidani bilmaslik yoki to'la tatbiq qilolmaslik;
-adabiy til bilan sheva o'rtasidagi o'xshash-noo'xshash hollarini bilmaslik;
-yozilayotgan matnga diqqatni to'la qaratmaslik.

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan orfografik xatolarning oldini olish uchun xato yozilgan, xato yozilishi mumkin bo'lgan so'zlarni to'g'rilab maxsus doskaga yozib qo'yiladi. Tematik plakatlardan foydalaniladi.

Tematik plakatlar :

1. Jarangli undoshlarning yozilishi: javob, ozod, isnod...
2. P-F undoshlarining yozilishi: paydo – foyda ...
3. U-O' unlilarining yozilishi: unga – o'ngga ...
4. Qo'shma otlarning yozilishi: oshqovoq – temir yo'l...

Xatoning oldini olish uchun talaffuzni buzmaslik kerak: bo'g'inlab, harfma-harf talaffuz qilinmaydi.

Diktant tahlili. Diktant tahlili orfografiya o'qitish sistemasida muhim o'rin tutadi. Diktant tekshirib bo'lingach, xatolar tasniflanadi: tipik xato, tipik bo'lmagan xato, ayrim o'quvchilarga xos xatolar. Eng yaxshi, o'rtacha va ko'p xatoga yo'l qo'ygan diktantlar ajratilib, ularning har biri alohida tahlil qilinadi. Tahlil paytida tipik xatolarga alohida e'tibor beriladi, uning vujudga kelish sabablari izohlanadi.

Xatolar ustida ishlash. Orfografiya o'qitishda xatolar ustida ishlashning ahamiyati katta. Bunda o'quvchilarning o'zlari ham ishlaydi. Xatolar qaysi qoidada bo'lsa, unga mos so'zlar topish usulidan foydalaniladi. Ayrim o'qituvchilar xato yozilgan so'zlarni bir necha marta yozish usulini qo'llaydi. Bu usul yozilishi orfografik qoida bilan izohlanmaydigan so'zlarga nisbatan qo'llansa ma'qul bo'ladi. Ayrim o'qituvchilar o'quvchiga daftarni almashtirib tekshirtiradi. Bu usul yaxshi effekt beradi-yu, faqat o'quvchilarga ehtiyot bo'lishi kerak. Ular to'g'rini xato qilib tuzatib qo'ymasinlar. Ba'zan shunday hollar bo'ladi, o'quvchi o'zida so'zni xato yozib, o'rtog'inikini to'g'rilashda xato qilmaydi.

Eng asosiysi xato yozilgan so'z bilan to'g'ri yozilgan so'zni farqlay olish malakasini hosil qilishdir. O'quvchilar daftar tekshirganlarida o'qituvchi parta oralab yurib, ayrim maslahatlar berib boradi.

Ko'p xato qilgan o'quvchilar bilan ishlash individual xarakterga ega. Eng asosiysi, o'quvchi ko'p xato qildim deb ruhan tushkunlikka tushmasligi kerak.

Bunday vaqtda o'qituvchi dalda berib uning, albatta, yozuv malakasini egallay olishiga ishonch hosil qildirishi lozim. Bunda, avvalo qoidani o'zlashtirishdan boshlash zarur. Ma'lum qoidani mustahkam o'zlashtirganligiga ishonch hosil qilgach, boshqasiga o'tiladi. Ana shunda orfografik qoidani puxta o'zlashtirgan o'quvchilar darajasiga yetadi. Bu haqda o'quvchining o'ziga ham sezdira boriladi.

Maktabda dialektal xatolar va ularning oldini olish ham muhim ishlardan sanaladi. O'quvchilarni adabiy talaffuz normalariga o'rgatish dialektal xatolarni tuzatishning asosiy yo'lidir. Dialektal xatolar yuzasidan maxsus mashqlar o'tkaziladi: dialektda qaysi orfogrammada xatoga yo'l qo'yilsa, u so'zning orfografik qoidasi mustahkamlanib, to'g'rilangan holda doskaga yozdiriladi.

Mavzu bo'yicha mustahkamlash uchun topshiriqlar.

- 1.Maktabda nisbiy orfografik savodxonlikning sababini izohlang.
- 2.Orfografik minimum nima va unga taxminan qanchalar so'z kiradi?
- 3.Maxsus orfografik mashqlar haqida izoh bering.
- 4.Ijodiy va erkin diktantni nima sababdan maxsus orfografik mashqqa kiritmaymiz?
- 5.Maxsus orfografik mashq bilan maxsus bo'lmagan orfografik mashqlarning nomlanishini va maqsadini izohlang.
- 6.Nima sababdan nazorat diktantni oxirgi marta o'qigandan keyin tezda yig'ib olish tavsiya qilinadi?
- 7.Maxsus bo'lmagan orfografik mashqlarning asosiy maqsadi nima?
- 8.Qo'pol orfografik xatolar va qo'pol bo'lmagan orfografik xatolarni izohlang.

**«O'ZBEK TILI O'QITISH METODIKASI» FANIDAN AMALIY
MASHG'ULOTLARNING TA'LIM TEXNOLOGIYASI**

1-mavzu.	Ona tili o'qitishning umumdidaktik tomoyillari (prinsiplari)
-----------------	---

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti 80 daqiqa	Talabalar soni 20-25 gacha
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot
Mavzu rejasi	1. Umumdidaktik tamoyillar haqida. 2. Ta'lim – tarbiya va rivojlanishning uyg'unligi tamoyili. 3. Ilmiylik va tushunarliklik tamoyili. 4. Tizimlilik va izchillik tamoyili. 5. Nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qilish. 6. O'qitishda ko'rsatmalilik tamoyili.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey kasb-hunar kollejlari ona tili o'qitishning tarkibi va mazmuni bo'yicha umumiy tushuncha berish, dastur va darsliklar mazmuni bilan yaqindan tanishtirish.	
Pedagogik vazifalar: • o'quv dasturlarining maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzular to'g'risida tushuncha berish; • dastur haqida ma'lumot berish; • dastur turlari bilan tanishtirish.	O'quv faoliyati natijalari: • dasturlarning maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularni sharhlab beradi; • stil so'zining ma'nolarini aytib beradi; • dastur turlarini sanab o'tadi.
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor, tarqatmalar.
Ta'lim berish sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

1.2. ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O'quv fanini o'rganishda	

	foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqish.	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1 O'quv fanining nomini aytadi. Mavzular va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi. (1 ilova). 1.2. Birinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonini bilan tanishtiriladi (2 ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar Tinglaydilar Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining o'rganish obyekti. 2.3. Dastur va uning vazifasi. 2.4. Dasturlarning ta'lim bosqichlaridagi ahamiyati. 2.5. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi: 2.6. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili o'qitish kursining tarkibi va mazmunini tushuntirib bering. 2. Akademik litseylarda ona tili o'qitish kursining tarkibi va mazmuni qanday? 3. Kasb-hunar kollejlariida ona tili o'qitish kursining mazmuni haqida gapiring.	Tinglaydilar, yozadilar. Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.	Savollar beradilar

	3.2 Mustaqil ishlash uchun “Umumta’lim, AL va KHK dasturlari haqida” mavzusini taqdim etadi. Klaster	Vazifani yozib oladilar.
--	---	--------------------------

Maktabda o’tiladigan hamma predmetlar uchun umumiy bo’lgan didaktik tamoyillar: bolaga tarbiya, ma’lumot berish va rivojlantirish; ilmiylik va tushunarliklik; tizimlilik va izchillik, nazariya va amaliyotning aloqadorligi; ongliklik va faollik; mustaqillik; o’qitishning o’quvchilar saviyasiga mos kelishi; ko’rgazmalilik va individual munosabatda bo’lish kabilardir.

Ta’limning bu prinsiplari maktablar oldiga qo’yilgan talablardan kelib chiqadi. Uni muvaffaqiyatli qo’llash shaxsni har tomonlama kamol toptirishda ahamiyati katta. O’qitishda prinsiplarga amal qilish dars samaradorligini ta’minladi, ko’zlangan maqsadga erishishga zamin bo’ladi.

Prinsip (tamoyil) – lat. qoida, asos ma’nolarini anglatadi.

2. Ta’lim – tarbiya va rivojlanishning uyg’unligi tamoyili: ta’lim va tarbiya mosligi umumiy ta’lim maktablarining asosi sanaladi. Bu orqali o’quvchilar ma’naviy, g’oyaviy rivojlanishining tamoyillari belgilanadi. Chunonchi fonetika o’rganilganda talaffuz me’yorlarini o’zlashtirish, qofiyadosh so’zlar hosil qilish, she’riyatga qiziqtirish, badiiy tarbiya berish imkoniyatlarini yaratasa, tovushdosh, ohangdosh, qofiyadosh so’zlar topish badiiy ijodga o’rgatish usullaridan biri sanaladi.

Leksikologiyada ma’no nozikligi, so’z go’zalligi kengroq his qilinadi. Unda o’z va ko’chma ma’noli, ma’nodosh, uyadosh, shakldosh, qarama – qarshi ma’noli, paronim so’zlar ustida nazariy va amaliy ish olib boradilar. Bu orqali ona tili va uning qudratiga muhabbat hissi tarbiyalanadi.

Amaliy uchun tanladigan matnlar o’rnatilayotgan til hodisalariga muvofiq kelishi bilan bir qatorda tarbiyaviy ahamiyati ham bo’lishi kerak. “Gapning uyushiq bo’laklari” amaliysini o’tishda quyidagi matndan foydalanish mumkin.

“Ustoz otangdan ulug’”, degan hikmatda olam – olam ma’no bor. Ustoz – bebaho, ulug’, g’amxo’r, mehribon bir inson. Xalq o’rtasida murabbiy - ustozlar, umuman, ko’pni ko’rib ko’pni bilgan bilimda, mehnatda, aql – zakovatda el orasida tanilgan, qaysi sohada bo’lmasin o’z tajribasi, bilimni boshqalarga, xususan, yoshlarga bergan kishilar ayricha e’zozlangan. Cheksiz hurmatga ustozlar o’z bilimdonliklari, bag’ri kengliklari, donoliliklari, sahovatlari tufayli erishdilar”.

Yoki “Ko’chirma gap” amaliysida quyidagi matnni tavsiya qilsa bo’ladi. Naql qilishlaricha bir ota – ona farzand ko’rishib, Ibn Sino oldiga borishibdi. “Bolamizning tarbiyasi haqida bizga maslahat bersangiz, toki katta bo’lgach, el – yurtga foydasi tegadigan kishi bilib yetishsin”, - deyishibdi. “Qachon tug’ildi”, deb so’rabdi. Ulug’ alloma. “Erta bilan tug’ildi?” – deb javob beribdi onasi. “Hozir vaqt qancha?” – yana savol beribdi Ibn Sino “Peshin kirdi”. Ibn Sino ularga shunday javob qilgan ekan: “Ey bo’talarim, kechikibsizlar. Bola tarbiyasini ona qornidagi homilalik paytidan boshlash kerak edi ...”

Biror amaliy o'tilayotganda kundalik voqyealarni hayot bilan bog'lash, tushunchalarni kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish kabi psixik xususiyatlarning rivojlanishi mustaqil faoliyat ko'rsatishga o'rgatadi. Demak, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi tamoyillar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

3. Ilmiylik va tushunarlilik tamoyili. Ona tili ta'limining yengillangan mazmuni davlat va jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlari, fan va texnikaning taraqqiyot darajasiga doimo muvofiqlashtirib beriladi. Maktabda ona tilidan hozirgi tilshunoslikda qat'iy hal qiligan, ilmiy asoslangan ma'lumotlarga berialdi. (-larcha – ravish yasovchi, -lar-cha-otning nokategorial shakli. Hozircha ravish yasovchi deb qaralaveradi yoki –la so'z yasovchi affiks til birligi deb qaraladi. Uni turli so'zlardan so'z yasaganligi uchun nutq hodisasi degan qarashlar bor). Bu esa o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan og'zaki va yozma nutqda bema'lol foydalanish uchun zarur bo'lgan bilimlarnigina berishni talab qiladi. O'qituvchi til hodisalarini o'zaro aloqa va taraqqiyot nuqtai nazaridan izohlaydi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da talab qilinganidek, yoshlarda ijodiylik, bir matnni turli usulda bayon eta olish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Shu bilan birga ularni Vatanga sadoqat, yuksak axloq, ma'naviyat va ma'rifatli, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashga imkon yaratadi.

O'qitishning ilmiylik tamoyili o'qituvchining hamisha ziyraklik bilan fan yutuqlarini kuzatib borishini talab qiladi. (bilan, - ga yordamchilarining vazifasining kengayotganligi).

O'qitishning tushunarli bo'lishi, asosan, o'qituvchiga bog'liq. Sinfda teng yoshdagi bolalar o'tirsa ham ularning materialni qabul qilishi bir xil bo'lmaydi. Shuning uchun o'qituvchi qiyin o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan individual ishlashi kerak. Shu bilan birga har bir darsda o'quvchilarning yoshini, sinfning darsga tayyorgarligini hisobga olish zarur. Har qanday masalalarni sinfga kiritish kerak emas. Masalan yomg'ir (yog'mir), quloch (qo'l+och), pichoq (pich+och) so'zlarini hozirgi til nuqtai nazaridan tub so'zlar deb qaramoq lozim. Materialning oson va tushunarli bo'lishi o'qituvchining nutq madaniyati va materialni bilishiga bog'liq.

Ilmiylik va tushunarlilik bir – birini to'ldiradigan tamoyillardir. Har bir tushuncha va atamalar ma'nosini ochib berish, har bir mashg'ulotda mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgata borish zarur. Fikrni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, aniq ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish kuzatuvchanlik va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishni talab qiladi.

2-mavzu.	Ona tilidan o'quv ishlarini tashkil etish formalari va ona tili darslarini rejalashtirish.
----------	---

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti 80 daqiqa	Talabalar soni 20-25 gacha
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot
Mavzu rejasi	1. Ona tilidan bilim, ko'nikma va malaka berish formalari. 2. Ona tili darslarining tiplari va tuzilishi. 3. Uy vazifalari va ularni tekshirish.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey kasb-hunar kollejlari va ona tili o'qitishning tarkibi va mazmuni bo'yicha umumiy tushuncha berish, dastur va darsliklar mazmuni bilan yaqindan tanishtirish.	
Pedagogik vazifalar: • o'quv dasturlarining maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzular to'g'risida tushuncha berish; • dastur haqida ma'lumot berish; • dastur turlari bilan tanishtirish.	O'quv faoliyati natijalari: • dasturlarning maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularni sharhlab beradi; • stil so'zining ma'nolarini aytib beradi; • dastur turlarini sanab o'tadi.
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor, tarqatmalar.
Ta'lim berish sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

1.2. ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O'quv fanini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqish.	
1. Mavzuga	1.1 O'quv fanining nomini	Tinglaydilar

kirish (15 daqiqa)	aytadi. Mavzular va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi. (1 ilova). 1.2. Birinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonini bilan tanishtiriladi (2 ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining o'rganish obyekti. 2.3. Dastur va uning vazifasi. 2.4. Dasturlarning ta'lim bosqichlaridagi ahamiyati. 2.5. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi: 2.6. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili o'qitish kursining tarkibi va mazmunini tushuntirib bering. 2. Akademik litseylarda ona tili o'qitish kursining tarkibi va mazmuni qanday? 3. Kasb-hunar kollejlariida ona tili o'qitish kursining mazmuni haqida gapiring.	Tinglaydilar, yozadilar. Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2 Mustaqil ishlash uchun "Umumta'lim, AL va KHK dasturlari haqida" mavzusini	Savollar beradilar Vazifani yozib oladilar.

	taqdim etadi. Klaster	
--	-----------------------	--

Ma'lumki, o'quvchilarga ona tilidan bilim va ko'nikma, asosan, dars jarayonida beriladi. Bundan tashqari, sinfdan tashqari ishlarda, o'quvchilar bilan individual mashg'ulotlar o'tkazishda, turli xil ekskursiyalarda, va nihoyat, o'zi mustaqil o'qib ham ona tilidan bilim va malakalar egallaydi. Bularning ichida eng samarali va unumli formasi dars hisoblanadi. Darsda o'qituvchi bir vaqtning o'zida bir nechta o'quvchi bilan ishlaydi va ma'lum bir amaliy yuzasidan o'quvchilarga ma'lumot beradi.

Maktab, darslik, o'qituvchi tushunchalar bir butunlikni tashkil qiladi. Yaxshi dars ham tasavvur qilinadi. Yaxshi o'qituvchining darsi yomon bo'lmaydi. Darsning eng katta ta'lim – tarbiyaviy ahamiyati shundaki, o'quvchi har bir darsda nimadir yangilik o'rganadi.

Dars o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining ko'zgusi sanaladi. Darsda samaradorlikka erishish uchun, birinchidan, material g'oyaviy jihatdan yuqori saviyada o'tilishi, ikinchidan, o'quvchilarni uyushtirish uchun puxta tayyorlash kerak. Shuning uchun ham har bir darsga qator didaktik talablar qo'yiladi:

- A) o'qituvchining rahbarligi;
- B) o'quvchilarga yangi bilim berish va uni amaliyot bilan bog'lab, darsning tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.
- V) o'quv ishlarini o'quvchilarning yoshi va o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra tashkil etish;
- G) har bir darsda o'quvchiga nimanidir o'rgatish: to'g'ri yozish, to'g'ri o'qish, to'g'ri so'zlash malakalarini takomillashtirish, har qanday darsning saviyasi o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash mahoratiga bog'liq.

2. Ona tili darslarining tiplari va tuzilishi. Dars – ijodiy jarayon. Darslarda o'quvchilarning ijodiy faoliyati qancha taraqqiy ettirilsa, ular o'z oldilariga qo'yilgan aqliy vazifalarni shuncha qiynalmasdan bajaradilar.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan o'zining tashqi va ichki xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. O'quvchilarning doimiy gruppasi, qat'iy rejim, dars jadvali va mashg'ulotlarni ma'lum xonalarda o'tkazish darsning tashqi xususiyati bo'lsa, darsning maqsadi, o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlari, ta'lim materialini his qilish, tushunish kabilar ichki xususiyatlariga kiradi.

Keyingi paytlarda dars va uning tashkiliy tuzilishda katta o'zgarishlar yuz berdi. Darslarni uchta katta tipga ajratish mumkin:

- A) ona tilidan yangi bilim berish darslari;
- B) o'tganlarni mustahkamlash darslari;
- V) bilim va malakalarni tekshirish darslari.

Darslarning bu tarzda tiplarga ajratishi ham shartlidir.

Darsning tuzilishiga yangi bilimlarni izohlash, uy vazifalarni tekshirish, o'tilganlarni mustahkamlash, qaytarish, darsni tashkil etish va xulosalash kiradi.

Dars tuzilishining tartibi darsning xususiyatiga qarab o'zgarib turishi mumkin. Masalan, yangi bilimlarni izohlash darslarida ham o'quvchilardan so'rash

mumkin. Uy vazifasini har kuni bir xil tartibda so'rash ham sxematizmga olib keladi.

Darslarni rang-barang qilib o'tish ko'pincha ilg'or o'qituvchilar tajribasida uchraydi. Darslarni turli xil variantlarda olib borish ona tili o'qitish sistemasining yutug'idir.

O'rta maktabda o'tiladigan fanlarni gumanitar, tabiiy va aniq fanlarga ajratiladi. Ana shu fanlar orasidagi o'zaro aloqadorlik ta'lim logikasini tashkil qiladi. Alohida bir fan – o'zbek tilining ta'lim logikasini uning bo'limlari orasidagi aloqadorlik tashkil qiladi.

A) Yangi materialni izohlash darsi.

Har bir darsning tuzilishi materialning mazmuni, sinfning umumiy saviyasi, pedagogik sistema kabi faktlar bilan belgilanadi. Yangi bilim berishning kulminasiyasi o'quvchiga notanish yangi narsani ochishdir. Bu o'qituvchiga katta mas'uliyat yuklaydi.

A) o'quvchiga yangi material tushunarli bo'lsin;

B) o'quvchida shu materialga qiziqish uyg'onsin.

Bunda eng muhimi yangi bilimni o'quvchilarga tanish bilimlar bilan bog'lab olib borishdir. "maktabdagi hamma mashg'ulotlarni qurishda har bir yangi – navbatdagi temani ilgari o'tilgan material asosida o'tkazishga harakat qilmoq kerak. Har bir yangi materialda oldingi temalar o'z ifodasini topgan bo'lishi zarur", - deydi Ya.A.Komenskiy.

Tajribali o'qituvchi yangi materialni shoshmay o'tadi. U o'quvchilarning bilimlariga oz – ozdan yangi bilim qo'sha boradi. Bu o'rinda o'quvchilarning saviyasiga e'tibor berish katta ahamiyatga ega. Bunda dars tuzilishi ham katta ahamiyatlidir. Yangi bilim berish darsining tuzilishi:

1. Darsning tashkiliy qismi, uyga vazifani so'rash 5-7-minut.

2. Yangi amaliy bayoni – 15 minutgacha.

3. Grammatik qoida va xulosalar ustida ishlash, ularni o'quvchilarga takrorlatish 3 – 5 minut.

4. Materialni mustahkamlash-13-15-minut.

5. Uyga vazifa berish-3-5-minut.

Bu yangi bilim berish darsining taxminiy rejasi.

B) O'tganlarni mustahkamlash darslari. Bilimlarni puxta o'zlashtirish muntazam mashq qilishni talab qiladi. Til faktlarini kuzatishga analiz qilishga, qiyoslashga, ma'lum bir xulosaga o'quvchilar, faqat, mashq qilish orqali keladilar. Ayniqsa, orfografiya va punktuasiya qoidalari amaliy mashqlar vositasida o'rganiladi. Shuning uchun ham ona tilidan tez – tez mustahkamlash va qaytarish darslari o'tkazilib turiladi. Bunda 3-4 soatlik, ba'zan bir soatlik material ustida ham mashq qilinadi. Katta temalar, chorak oxiri va o'quv yili oxirida umumlashgan qaytarish darslari uyushtiriladi. Masalan, 5-sinfda "Otlarda egalik qo'shimchalari" temasini o'tishdan oldin "Otlarning turlanishi"ni o'quvchilardan so'raydi. Ammo kutilgan natija chiqmadi deylik: ko'pchilik o'quvchilarning bilim saviyasi past. Bunday sharoitda yangi amaliyni boshlamasdan otlarning turlanishi ustida mustahkamlash darsi uyushtirilmog'i zarur.

Buni didaktika prinsiplari ham taqozo qiladi.

Mustahkamlash darslari katta ta'lim – tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'quvchilar o'z oldilariga qo'yilgan maqsad uchun jiddiy ishlaydi, irodasi mustahkamlaydi, qobiliyati o'sadi. O'qituvchi sinfda ijodiy vaziyat yaratadi. O'quvchilar tashabbusiga rahbarlik qiladi, qunt bilan ishlash orqali muvaffaqiyatga erishish mumkinligiga ishontiradi. Bu davrda o'qituvchi sinfda aylanib yurib, ayrim o'quvchilarga individual yordam berishi mumkin. Mustahkamlash darslarida mashqlardan ko'proq foydalaniladi. Ba'zan o'tilgan dars savol – javob bilan ham mustahkamlanishi mumkin. Bu ishlarning hammasiga 20-25 minut vaqt ajratiladi. Qolgan vaqtda uyga vazifa so'raladi, uyga vazifa beriladi, og'zaki savol – javob bo'ladi.

Mustahkamlash darslarining samaradorligini o'qituvchining uni rang-barang tashkil qilishi va o'quvchilarning aktivligi ta'minlaydi.

V) Bilim va malakalarni tekshirish darslari. Ma'lumki, o'tilgan materialni hamma o'quvchi birday o'zlashtiravermaydi. O'quvchilarning mustaqil ishlarini va qiziqishlarini tekshirish orqali o'qituvchi o'z ish usulining holatini aniqlab oladi. O'quvchilarning bilimlari past bo'lsa, shunga qarab, aktiv bo'lsa shunga qarab o'z ish metodini o'zgartiradi.

Bilimlarni tekshirish darslari o'quvchilarda mas'uliyatni his etishni tarbiyalaydi, til faktlariga qiziqish ortadi, ayniqsa, yozuv malakalari yaxshilanadi. Tilda o'xshash faktlar juda ko'p: suzish – suzush, buzuq – buzish. Bunday o'rinlarni o'quvchi mulohaza qilmaydi. Yozma ishdan keyin o'qituvchi ana shunday holatlarni boshqa faktlarga solishtiradi: uzum – uzish, namoyon – namoyanda. Bunday bilim va ko'nikma o'quvchilar xotirasida o'rnashib qoladi. Kontrol ishlar xatosi maxsus darslarda tahlil qilinib, o'quvchilar ishtirokida tuzatiladi. Bulardan tashqari darsning yangi zamonaviy tiplari ham ta'lim tizimida qo'llanilmoqda. Chunonchi, musobaqa darslari, bahs – munozara darslari va boshqalar. Bunday yangi pedagogik texnologiyaga asoslangan dars turlari darsning samaradorligini oshiribgina qolmasdan, ta'limning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

3. Uy vazifalari va ularni tekshirish. Uy vazifalari ona tili darslarining tarkibiy qismi sanaladi. O'quvchilarning ona tilidan bilim va ko'nikmalarini oshirishda, imlo qoidalarini mustahkam o'zlashtirishda uyga vazifaning muhim ahamiyati bor. Uyga vazifa sinfda o'tkazilgan mashg'ulotlarning davomi vazifasini o'taydi. Uyga vazifa qilib hamma turdagi mashqlar – ko'chirib yozishdan inshogacha berilishi mumkin.

Uyga vazifaning hajmi va murakkabligi o'quvchining kuchiga mos bo'lish kerak. Aks holda o'quvchining vati zoya ketadi va bora-bora yalqovlanib uy vazifani bajarmaydigan bo'lib qoladi.

Ona tili o'qituvchisi sinf rahbari va ota-onalar bilan kelishib, uy vazifasining hajmi va boshqa masalalarda yagona rejimga kelishib olishlari lozim. Uyga vazifa faqat o'tilgan temalar yuzasidan berilib “oddiydan murakkabga” prinsipiga amal qilinadi.

Uyga vazifaning to'g'ri bajarilishi o'quvchilarning nazariy bilimlarni qay darajada o'zlashtirishiga bog'liq. Uy vazifani bajarishda o'quvchilarni quyidagilarga odatlantirish kerak:

- A) avvalo sinfda o'tilgan qoidani eslash;
- B) keyin darslikdan o'sha paragrafni o'qib chiqish;
- V) berilgan mashqni bir-ikki marta sinchiklab o'qish;
- G) mashq shartiga moslab og'zaki bajarish;
- D) shundan keyin topshiriqni yozma bajarish.

Uyga vazifa tekshirilib vaqti – vaqti bilan daftarlar yig'ishtirib olinadi.
Bo'shroq o'quvchilarning daftarlari doimo tekshiriladi.

Ona tili darslarida ko'proq frontal savollardan foydalaniladi. Savol butun sinfga beriladi, javobga mo'ljaldagi o'quvchi chaqiriladi.

O'qituvchi o'quvchi bilimini baholashda uning nutqi, diqqati, fikrlashi, shaxsiy xususiyati, mustaqilligiga e'tibor beradi.

3-mavzu.	Ona tili o'qitish metodlari.
-----------------	-------------------------------------

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti 80 daqiqa	Talabalar soni 20-25 gacha
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot
Mavzu rejasi	1. Metod va uni tanlash haqida tushuncha. 2. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar. 3. O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey kasb-hunar kollejlari ona tili o'qitishning tarkibi va mazmuni bo'yicha umumiy tushuncha berish, dastur va darsliklar mazmuni bilan yaqindan tanishtirish.	
Pedagogik vazifalar: • o'quv dasturlarining maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzular to'g'risida tushuncha berish; • dastur haqida ma'lumot berish; • dastur turlari bilan tanishtirish.	O'quv faoliyati natijalari: • dasturlarning maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularni sharhlab beradi; • stil so'zining ma'nolarini aytib beradi; • dastur turlarini sanab o'tadi.
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor, tarqatmalar.
Ta'lim berish sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

1.2. ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O'quv fanini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqish.	
1. Mavzuga	1.1 O'quv fanining nomini	Tinglaydilar

Metod – ayni. “baror narsaga borish yo’li” demakdir. Umumiy ma’noda maqsadga erishish usuli, muayyan tartibga solingan faoliyat demakdir. Didaktik ma’noda hamma fanlar uchun umumiy bo’lgan o’qitish usullari hamda vositalarini o’z ichiga oladi. Ayrim fanlarni o’qitish bilan aloqador masalalarni xususiy metodika o’rganadi. Ona tili o’qitish metodikasining umumiy yo’lini didaktika belgilab beradi.

Ona tili o’qituvchisi o’quvchilarga bilim berishda o’z mehnatining samarali va yengil bo’lishi uchun turli xil ish usullarini qo’llaydi, o’quvchilarning bilim va ko’nikmalarini amalda qo’llay olishlari uchun ularga mos keladigan mashqlar tanlaydi. Mana shular butun holicha o’qitish metodlari sanaladi. Ona tili o’qituvchisi mutaxassis sifatida lingvistikani mukammal bilishi kerak.

Ma’lumki, dars jarayonida ko’plab metodlardan foydalaniladi. Ana shu metodlarni tanlashda quyidagi faktorlarga asoslanadi:

A) o’quvchi bilimni qaysi manbadan (o’qituvchidan, jonli tildan yoki kitobdan) oladilar;

B) o’quvchilarni mashg’ulotlarga jalb qilish jarayoni (moyillik, qiziqish va boshqarish);

V) o’quvchilarning mustaqil ishlash shakllari (yozma va og’zaki) va o’rni (sinfda yoki uyda).

Metod tanlashda nazariy ma’lumot va unga mos keladigan mashqlar, sinfning tayyorgarligi, o’quvchilarning yoshi va temaning hajmi hisobga olinadi. Shuning uchun ham mashqlar gramatik tahlil, ko’rgazmali qurollar, suhbat kabi metodlar deyarlik har bir darsda qo’llanlar mumkn.

Metod tanlashda ona tili kursining o’ziga xos xususiyatlariga ahamiyat beriladi: nutq o’stirish darslarida notanish so’zlarning ma’nosini izohlash, inshoga tayyorlanish, o’quvchilarni lug’at yoki adabiyotlar bilan ishlashga o’rgatish stilistik xatolarni tuzatish kabilardan foydalanilsa, gramatika darslarida suhbat, bayon ta’rif va qoidalar ustida ishlash kabi usullardan foydalaniladi.

2. O’qituvchi faoliyati bilan bog’liq metodlar. Metodika tarixidan shu narsa ma’lumki, hamma fanlar uchun umumiy bo’lgan metodlar va alohida fanlar uchun xarakterli metodlar mavjud. Ona tili o’qitish metodikasi tarixida ham xilma-xil metodlar qo’llanilgan bo’lib, ularning eng maqsadga muvofiqlari o’qituvchi va o’quvchi faoliyatini o’z ichiga olgan metoddir. Shundan kelib chiqib amalda qo’llanayotgan metodlarni ikkiga ajratamiz:

1. O’qituvchi faoliyati bilan bog’liq metodlar.

2. O’quvchi faoliyati bilan bog’liq metodlar.

O’qituvchi faoliyati bilan bog’liq metodikani uchga ajratamiz.

1. Bilimlarni tayyor holda bayon qilish usuli.

2. Bilimlarni suhbat vositasida bayon qilish usuli.

3. bilimlarni muammoli bayon qilish usuli.

A) Bilimlarni tayyor holda bayon qilish usuli.

Bu metod ona tili darslarda juda ko'p qo'llanadi. Bayon yordamida murakkabroq, o'quvchilarga oldindan noma'lum amaliylar izohlanadi. Gramatik ta'rifning mohiyatini tushuntirishda, qo'shimcha ma'lumot berishda, savollarga javob berishda bu usuldan foydalanamiz. Bu usulning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Ijobiy tomonlaridan biri vaqtni tejaydi. Salbiy tomoni o'quvchining fikrlash faoliyati ma'lum darajada chegaralanadi. Ko'pincha o'quvchi passiv tinglovchiga aylanib qolishi mumkin. Bunday negativ holatlarning oldini olish uchun o'qituvchi quyidagiga amal qilgani ma'qul.

1. O'qituvchi nutq madaniyatiga e'tiborni kuchaytirish. O'qituvchining nutqi mantiqiy talablarga javob berishi kerak. Sodda, mazmunli, ifodali, izchil nutq o'quvchilarning bilimga nisbatan qiziqishini orttiradi.

2. Bilimlarni tayyor holida berish ishtirak va asoslash usullarini keng qo'llashti taqozo qiladi. Ishontirish va asoslash o'rganilayotgan materialga katta qiziqish uyg'otadi. U o'quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanadi.

3. O'quv materialni qat'iy bir reja asosida bayon qilish ham uni tinglash va o'zlashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

Bilimlarni tayyor holida bayon qilishda o'quvchilar diqqatini materialning asosiy tomoniga jalb qilish: o'rganilgan, o'rganilayotgan va o'rganiladigan til materiallari orasidagi aloqani yuzaga keltirish o'quvchilarning faoliyatini aktivlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

B) Bilimlarni suhbat yo'li bilan bayon qilish usuli.

Suhbat ona tili darslarida keng taralgan usul bo'lib, u o'quvchilar aktivligini oshirishda katta imkoniyatlarga ega. Bu usuldan darsning hamma bosqichlarida: yangi bilim berishda, bilimlarni takrorlash va mustahkamlashda, bilimlarni tekshirish va baholashda foydalansa bo'ladi.

O'rganiladigan material o'quvchilarga oldingi sinfdan qisman ma'lum bo'lsa yoki o'quv material oldingi tema bilan bevosita bog'lansa darsda suhbat metodini qo'llash mumkin.

Suhbatda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida berilgan faktlarni kuzatadilar, o'zaro qiyoslaydilar va muhokama qiladilar, so'ngra umumlashgan xulosa chiqaradilar. Bu usul o'quvchilar nutqini o'stirishda muhim omillardan biridir.

Suhbat usuli puxta o'ylab tuzilgan savol va topshiriqlar asosida o'tkaziladi. Darslikda berilgan savol va topshiriqlar ham bu usulni muvaffaqiyatli qo'llashga yordam beradi.

Suhbat uch xil bo'ladi:

A) axborot xarakteridagi suhbat, b) evristik suhbat, v) o'tilgan temani mustahkamlash xarakteridagi suhbat.

Axborot xarakteridagi suhbat. Yangi material o'tilayotganda o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan faktlarni nazarda tutib, ular suhbatga jalb qilinadi. O'quvchilar o'tilayotgan qoidaga mos misollar topadilar, noma'lum o'rinlarni so'rab oladilar. Bunday suhbat qiyosiy usulda o'rganilayotgan amaliylarda qo'l keladi. Masalan, sifat o'tilayotganda o'quvchidan sifatdoshning gramatik belgisini so'rash mumkin: yaxshi bola – o'qigan bola misollari orqali sifat va sifatdoshning umumiy belgilari aniqlanib ularni farqlash maqsadida o'rtaga savol tashlaydi. Yoki Qaysi so'z turkumi zamon anglatadi? O'quvchilar fe'l haqidagi bilimlariga

asoslanib savolga javob qaytardilar. O'quvchining diktant, bayon va insholarda yo'l qo'ygan orfagrafik punktuatsion va stilistik xatolarini tahlil qilishda ham bu usuldan foydalansa bo'ladi.

Evristik (gramatik heurisko – topmoq. O'rta qo'yilgan masalani o'quvchining o'zlari muhokama yo'li bilan yechishlari nazarda tutiladi) suhbatda o'quvchining mustaqil fikrlash imkoniyatlari ancha kengayadi. Oldindan tayyorlangan savollar o'quvchining fikrlashga majbur qiladi. Bunda o'qituvchi o'quvchiga oldindan ma'lum bo'lmagan yangi o'quv materiali yuzasidan savollar beradi. O'quvchilar mavjud bilimlari asosida javob izlaydilar. Bunday suhbat so'z yasash usullari, ot yasovchi qo'shimchalar, fe'l nisbatlari, so'z birikmasi, ajratilgan bo'laklar kabi amaliylar bo'yicha o'tkazilishi mumkin. Demak, evristik suhbatda muammoli ta'lim elementlari mavjud bo'ladi. Masalan: Nutq tovushlari va ularning hosil bo'lishi temasi o'tiladiganda quyidagi savollar bilan murojaat qilishi mumkin: 1. Siz nutq tovushlari deganda nimani tushunasiz? 2. nutq tovushlari qanday hosil bo'ladi? 3. rasmga qarab tovushlarning tshaqariga chiqish yo'lini aniqlang? 4. Nutq tovushlarni hosil qilishda qanday nutq organlari aktiv ishtirok etadi. Bu savollarning javobida o'qituvchi ham ishtirok etadi.

O'tilgan amaliyni mustahkamlash xarakteridagi suhbat.

Suhbatning bu turidan o'tganlarni takrorlash, 5-6 kun oldin o'tilgan qoidalarni o'quvchilarga eslatish maqsadida foydalaniladi. Bunda maxsus savollar orqali o'quvchilarga murojaat qilinadi. Savollar aniq, qisqa, qo'shaloq bo'lmagan holda atroflicha o'ylab tuzilmog'i kerak. Unga o'quvchi mantiqiy va izchil javob bermog'i lozim. Ba'zi savollar alterna bo'lishi mumkin: Bulbul sayraydi gulda gapining sintaksis tahlillarda gulda so'ziga o'quvchi ikkilansa, o'qituvchi to'ldirdilarmi? Holmi? deb qo'shimcha savol berishi mumkin. Suhbatga barcha o'quvchilar jalb qilinmog'i kerak.

Suhbat, ayniqsa, yangi temani boshlash oldidan oldingi temani o'quvchilardan so'rashda didaktik vosita hisoblanadi. O'tilgan temaga to'liq javob olinmasa, hatto, yangi tema o'tilmasligi mumkin. Suhbat uchun vaqt amaliyning hajmiga o'quvchilarning tayyorgarligi va qiziqishiga qarab ajratadi. V-VII sinflarda 15-20 m., VIII-IX sinflarda 20-25 m., qaytarish darslarida 30 minutgacha.

V) bilimlarni muammoli bayon qilish. Bu usulda o'qituvchi til materiallarini tayyor holda bayon etmaydi, balki kuzatish, taqqoslash, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, umumlashtirish kabi logik – lingvistik vositalardan foydalanib, o'quvchilar oldiga ma'lum bir muammo qo'yadi. "Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi – qo'yadi, yaxshi esa uni topishga o'rgatadi" (V.O.Disterng). O'quvchilar mavjud bilim va ko'nikmalar asosida muammoni yechadilar.

Ona tili darslarida shunday muammoli vaziyat hosil qilish mumkin. "nutq tovushlari va ularning hosil bo'lishi" amaliysida berildigan topshiriqlar:

1. Har biringiz nutq tovushlarini hosil qilib ko'ring. Ularni hosil qilishda qaysi nutq organlari ishtirok etadi?

2. Nutq tovushlarini aytishda qaysi nutq organlaringiz aktiv ishtirok qiladi?

Unli va undosh tovushlarini o'tishda. 1. Unli va undosh tovushlarni alohida aytib ko'rlaring. Ularning talaffuzi qanday farq sezyati?

2. 6 ta unli ishtirokida bir bo'g'inlar so'zlar yozing. Ulardagi unlilarni almashtirib ko'ring. Qanday o'zgarish sezyapsiz?

3. O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar ham 3 ga ajratiladi.

4-mavzu.	Fonetika o'qitish metodikasi.
-----------------	--------------------------------------

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti 80 daqiqa	Talabalar soni 20-25 gacha
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot
Mavzu rejasi	1. Fonetika o'qitishning maqsad va vazifalari. 2. Nutq tovushlarini o'qitishning metod va usullari. 3. Tovush va harfni farqlash hamda alfovitdan foydalanish yo'llarini o'rgatish. 4. Bo'g'in va bg'in ko'chirish, urg'uning nutqdagi rolini o'rgatish usullari.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey kasb-hunar kollejlarida ona tili o'qitishning tarkibi va mazmuni bo'yicha umumiy tushuncha berish, dastur va darsliklar mazmuni bilan yaqindan tanishtirish.	
Pedagogik vazifalar: • o'quv dasturlarining maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzular to'g'risida tushuncha berish; • dastur haqida ma'lumot berish; • dastur turlari bilan tanishtirish.	O'quv faoliyati natijalari: • dasturlarning maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularni sharhlab beradi; • stil so'zining ma'nolarini aytib beradi; • dastur turlarini sanab o'tadi.
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor, tarqatmalar.
Ta'lim berish sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

1.2. ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O'quv fanini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqish.	

1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1 O'quv fanining nomini aytadi. Mavzular va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi. (1 ilova). 1.2. Birinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonini bilan tanishtiriladi (2 ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar Tinglaydilar Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining o'rganish obyekti. 2.3. Dastur va uning vazifasi. 2.4. Dasturlarning ta'lim bosqichlaridagi ahamiyati. 2.5. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi: 2.6. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili o'qitish kursining tarkibi va mazmunini tushuntirib bering. 2. Akademik litseylarda ona tili o'qitish kursining tarkibi va mazmuni qanday? 3. Kasb-hunar kollejlarda ona tili o'qitish kursining mazmuni haqida gapiring.	Tinglaydilar, yozadilar. Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2 Mustaqil ishlash uchun "Umumta'lim, AL va KHK	Savollar beradilar Vazifani yozib oladilar.

	dasturlari haqida” mavzusini taqdim etadi. Klaster	
--	--	--

Fonetika tilshunoslikning eng muhim sohalaridan bo'lib, uni o'rganish til haqidagi fanlar orasida murakkablaridan sanaladi. Uning tekshirish obyekti muayyan tilning tovush tizimidir.

Til haqidagi fanlarning har bir bo'limi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularni o'rganishda umummetodik prinsiplardan tashqari, shu bo'limlarning xususiyatlaridan kelib chiqadigan xususiy metodik prinsiplarni ham e'tiborga olish kerak. Fonetika o'qitish metodikasi quyidagi xususiy metodik prinsiplarga ega:

- o'quvchilarning o'z nutq ohangiga tayanish;
- tovushni morfema tarkibida ko'rib chiqish;
- tovush va harfni qiyoslash.

Birinchi prinsip tovushlarni ongli his qilishga va ularning xususiyatlarini to'g'ri aniqlashga o'rgatadi. O'quvchilar talaffuzidagi ayrim o'ziga xoslik tomonlari aniqlanadi va shunga asoslangan holda ish olib boriladi.

Tovushni morfema tarkibida ko'rib chiqish pozisiya (holatiga: qanday holatda urg'ulimi, urg'usizmi, unlilar bilan yonma-yon turibdimi yoki boshqa holatdami?)siga ko'ra tovush o'zgarishini tushunishga imkoniyat tug'diradi.

O'quvchilarning tovush va harfni qiyoslashi ularni qorishtirib yuborishdan ogohlantiradi, shu bilan birga orfografik yani egallashga jiddiy ta'sir qiladi.

Maktabda “fonetika” bo'limini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda amaliy malakalar – savodxonlikni, to'g'ri so'zlashni shakllantirish va takomillashtirishdan iboratdir.

Nutq tovushlarining kishilik hayotida tutgan o'rnini, nutq tovushlarining boshqa tovushlardan farqini, nutq tovushlarining paydo bo'lish yo'llarini, nutq tovushlari hosil qiladigan organlarning vazifalarini, tovush va harf munosabatini, bo'g'in va rg'uni o'quvchilarga o'rgatish fonetika bo'limini o'qitishning vazifasi sanaladi.

Fonetika haqidagi dastlabki ma'lumot boshlang'ich sinflarda beriladi. Uni sistemali o'qitish 5-sinfdan boshlanib, o'rta maktab dasturida bu bo'lim uchun 70 soat vaqt ajratilgan. Bu butun 5-sinfdan o'tiladigan materialning o'z qismini tashkil qiladi.

O'zbek tili ko'p dialektli til hisoblanadi. Shuning uchun ham adabiy tildagi unli va undosh fonemalar o'zbek dialektlarida farqli talaffuz qilinadi. Masalan, Jizzax shevasidagi adabiy “o” fonemasi oblastning boshqa shevalaridan farqli qo'llanadi. Jizzaxda bo'ldi (tgadi di'li) – bo'ldi (ikki qismga ajratdi, bo'ldi) so'zlaridagi (bo'lar asli omonimiz) “o” fonemalari bir xil talaffuz qilinadi. G'allaorol, Forish shevalarida ikki fonema (qattiq va yumshoq qisqa) sifatida talaffuz qilinadi. Bu holatni “e”, “a” fonemalarida ham ko'ramiz: kimmi, immaleb(p), bele ... Bunga o'xshash talaffuzida farqi katta bo'lgan misollarni boshqa shevalardan ham ko'plab keltirish mumkin.

Xullas, o'quvchilar nutqida uchraydigan bunday har xilliklar fonetikani o'qitish jarayonida barham topa boridi.

Agar o'quvchilar nutq tovushlarini yaxshi bilsa, so'zlarning talaffuzi va imlosi haqida mustahkam malaka hosil qilishadi. Fonetikani yaxshi o'zlashtirmagan o'quvchi orfografik va morfologiyadan ham yaxshi bilimga ega bo'la olmaydi. Fonetika yuzasidan malakalar ko'proq mashq qilish orqali amalga oshiriladi.

Fonetikaning orfografiyaga aloqador qismida tovushlarning talaffuzi bilan imlosi orasidagi farqqa o'quvchilarning diqqatini ko'proq tortish kerak. Masalan, qirqta – qikta, bo'g'in – bo'g'im, qand – qant va boshqalar. Bu holat yozuvga ham ta'sir qiladi. bunday nuqsonlarni bartaraf qilish uchun talaffuz bilan yozuvchi mashq qildirish kerak bo'ladi. Fonetika o'qitishda, asosan, mashq qilish va fonetik tahlildan foydalaniladi.

Nutqning tovush tomoni bilan bog'liq amaliy ishlar o'rta maktab ta'limining hamma bosqichlarida davom ettiriladi.

2. Nutq tovushlarini o'qitishning metod va usullari. Biz avvalo ishni o'quvchilarga fonetika termini haqida ma'lumot berishdan boshlaymiz.

Fonetika (gramatik phonetikos – tovushga oid phone - tovush) – tilshunoslikning nutq tovushlarini o'rganadigan bo'limi. Fonetika har qanday jismning tebranishidan hosil bo'ladigan tovushni emas, faqat, nutq tovushlarini tekshiradi. Bu bo'lim nutq tovushlari, tovushlarning yozuvdagi ifodasi – harf, alfavit, unlilar imlosi, urg'u, undoshlar imlosi, bo'g'in, nutq tovushlarining so'z ma'nosiga ta'siri kabi materiallarni qamrab oladi.

“Fonetika” bo'limi takrorlashdan boshlanib, bu mashg'ulotni samarali o'tkazish maqsadida biror matn tanlanib, u so'zlarga ajratiladi. So'zlardagi tovushlar va harflar miqdori aniqlanadi. Unlilar va undoshlar belgilanib, so'zlarni bo'g'inlarga, satrdan ko'chiriladigan qismlarga ajratish topshirig'ini bajarish maqsadga muvofiqdir.

Takrorlashning mantiqiy davomi sifatida nutq apparati va nutq tovushlari haqida ma'lumot beriladi. Nutq tovushlarining paydo bo'lishi haqida gapiriladi. So'zlardagi tovushlarning talaffuzi qiyoslanadi, unlilar va undoshlarning xususiyatlari aniqlanadi, unda ishtirok etuvchi nutq a'zolari belgilanadi: “u” fonemasida lablar oldinga cho'zilib chiqadi.

Nutq tovushlari o'pkadan chiqadigan havoning zarbidan paydo bo'ladi. Nutq tovushlarining bir-biridan burro-burro talaffuzi orqali farq qilishidan tashqari ma'no farqlash xususiyatlariga ega. Masalan, birgina tovush orqali farqlanadigan bir necha so'z doskaga yoziladi yoki ko'rgazmali qurolida ko'rsatiladi: bosh-qosh, mosh-tosh, ko'p-ko'l, tol-tom, to'p-top, bel-bo'l so'zlarining ma'nolarini boshqa – boshqa qiladigan vositalar – b, q; m, t; p, l; l, m; o', o; ye, o' tovushlari ekanligi tushuntiriladi. Mana shunday yo'l bilan nutq tovushlarining so'z ma'nosini o'zgartirishi (farqlashi) mumkinligi haqidagi tushuncha o'quvchilarda hosil qilinadi.

Shundan keyin o'qituvchi nutq tovushlarini paydo bo'lishiga ko'ra ikkiga ajralishini aytadi: unli tovushlar va undosh tovushlar.

O'qituvchi, avvalo, unli tovushlarni tushuntirishni boshlaydi. Buning uchun bo'g'iz va o'n paychalari chizilgan rasmdan foydalaniladi. O'pkadan chiqayotgan havoning bo'g'io' bo'shlig'idagi un paychalarini tebratib, og'iz bo'shlig'ida

tovushlarning unli tovush ekanligi tushuntiriladi. Uni tovushlarning asosida un(ovoz) yotadi. Undosh tovushlarning og'iz bo'shlig'ida to'siqlarga uchrab o'tadigan havo yordamida hosil bo'lishi unli tovushlarga qiyos qilib ko'rsatiladi.

Unli tovushlar talaffuz qilinganda og'iz undoshlarga nisbatan kengroq bo'ladi. Shundan keyin unli tovushlardan bir nechta talaffuz qilinib o'quvchilar diqqati jalb qilinadi. Demak, ovozning manbai bo'g'iz bo'shlig'i, shovqinning manbai og'iz bo'shlig'i ekanligi alohida ta'kidlanadi. Shundan so'ng shovqin yo'li bilan hosil bo'ladigan tovushlarning undosh tovushlar ekanligi tushuntiriladi.

O'quvchilarga unli va undosh tovushlar haqida ma'lumot berilgach, faqatgina ovozdan hosil bo'lgan tovushlar (a, i ...)ni, ovoz va shovqindan iborat bo'lgan tovushlar (b, v ...)ni hamda faqat shovqindan iborat bo'lgan tovushlar (p, f, sh ...)ni tushuntiradi.

Bu o'rganilganlar asosida bir nechta topshiriq bajartiriladi. Topshiriq bajarish jarayonida unli va undoshlarning paydo bo'lishdagi farqi izohlanadi.

Fonetikani o'rganishda eng muhim masalalardan biri imlodir. Har bir tovushni imlo bilan birgalikda o'rganish zarur. Unlilar imlosi o'tilayotganda matndan a, i, u, o' harflari ishtirok etgan so'zlarni ajratish, ularning talaffuz xususiyatlarini sharqlash topshiriladi. Shuningdek, u-o', i-u, a-y, a-o va hakozo juftlar bilan farqlanuvchi so'zlar topish va izohlash: ur-o'r, urush-urish, jam-jim, ot-ata, i, u unlilarining o'ta qisqa va aniq talaffuzi ustida ishlash: bir, bilim, tilak; uch, tun, qush, uchun, ulug', usul kabilar o-a harflari bilan farqlanuvchi so'zlar: ota-ata, ona-ana.

I-e: ish-esh, bil-bel, pish-pesh, tish-tesh, il-el.

I-u: bil-bul, tish-tush, qish-qush, tin-tun.

Fonetikaning murakkab tomonlaridan yana biri undosh tovushlar talaffuzi va imlosidir. Ma'lumki, takomillashtirilgan dastur asosida yaratilgan darslikda undosh tovushlar tasnifi berilgan. Undoshlar tasnifini o'rganish o'quvchilarning talaffuz va imlosini yaxshilashga katta yordam beradi. O'quvchilarga qaysi undosh fonemaning qayerda va qanday biror undosh fonemaning talaffuziga ikkilanganda bu undosh qanqa fonema demasdan balki qayerda (yoki qanday?) hosil bo'ladi degan savolni berishiga erishish lozim. Shundagina o'quvchilarning talaffuzi va imlosi kafolatlangan bo'ladi. Demak o'quvchilar undosh fonemalarning paydo bo'lishi o'rnini tshg'ri aniqlay oladigan bo'lishadi: b,p – lab undoshlari, q,-,g'-chuqur til orqa undoshlari, h-bo'g'iz unda.

Undosh fonemalarning paydo bo'lish o'rni aniqlangach, ularning paydo bo'lish va tarkibi usuliga va takrkibi ham diqqat qaratiladi. Undosh tovushlar faqatgina shovqindan iborat bo'lmasdan biroz ovoz ham ishtirok etadi. Lekin bu ishtirok etish hamma undoshlarda ham bir xil emas. Ana shu xususiyatlariga ko'ra ikkiga: jangli va jarangsiz undoshlarga ajratamiz. (Portlovchi, sirg'aluvchi, portlovchi – sirg'auvchilar; shvqinli va sonarlar; jarngli va jarangsiz undoshlar haqida qisqacha to'xtaladi. Jarangli va jangsizlarni farqlash yo'llari haqida eslatiladi).

O'quvchilarning undosh tovushlarning talaffkzi va imlosini puxta o'zlashtirishlari uchun quyidagicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

- so'zlarni b-n, d-t, g-k, g'-q, f-n, ch-j bilan farqlanuvchi juftlarga ajrating: bob-bop, adib-adip, band-pand, barq-parq... tosh-dosh, tor-dor, til-dil, tarz-darz, tam-dam... eg-ek, kal-gal, kul-gul, ko'l-go'l, ko'r-go'r... boq-bog', toq-tog', yoq-yog', oq-og', tiq-tig'... foyda-poyda, fol-pol, tuf-to'p, sof-son... choy-joy, chiz-jiz, chilla-jilla, chala-jala ...

- jarangli va jarangsiz undoshlarni farqlash ularga izoh berish, ularning talaffuzi va imlosi ustida ishlash. O'quvchilarni talaffuz orqali jarangli va jarangsizni ajrata olish darajasiga yetkazish zarur. Chunki oyrim orfografik qoidalar ularning imlosi bilan bog'langan.

O'quvchilarga jarangli undoshlarning jarangsiz juftlari haqida ham ko'nikma hosil qilish kerak. Buning orfografiya va orfoepiya uchun ahamiyati katta. Aksariyat hollarda jarangli undoshlar o'zlarining jarangsiz juftlari bilan yoki aksincha almashadi: maktab – maktap, zavod – zavot, barg-bark; tovush – dovush, qishloq-qishlog'i; tib-tip, bob-bop, bod-bot...

- x va h undoshlarining talaffuzini solishtirish, bu tovushlar bilan farqlanuvchi so'zlarning talaffuzi va imlosini qiyoslash: xol-hol, shox-shoh, mox-moh, xush-hush, xo'p-ho'p...

- f tovushli keng iste'mol so'zlarning imlosi va talaffuzi ustida ishlash hamda lug'atini tuzish: faqat, fido, fig'on, fasl ...

- q, k undoshlarining jaranglilashuvchi va jaranglilashmaydigan holatlarining lug'atini tuzish. K, q bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, bek, yo'q kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda k, q tovushlari jaranglilashib talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: tilak-tilaging, yurak-yuragim, kubok – kubog'i, bek-begi; qoshiq-qoshig'i, yo'q-yo'g'i ...

Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashgan so'zlarga ko'pgina bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda bu undoshlar jaranglilashmaydi: ishtirok(a) – ishtiroki, ocherk (r) – ocherki, erk (a) – erki, huquq (a) – huquqim, ravnaq (a)-ravnaqi, yo'q-yo'qi, haq (a)-haqi, farq (a)-farqi ...

Fonetikani o'rganishda o'quvchilarning so'z boyligini oshirish muhim masalalardan biridir. Nutq tovushlarining ijtimoiy vazifasi haqida gapirganda "tovushdosh so'zlar" tushunchasiga to'xtaladi. Tovushdosh so'zlar bir-biridan bitta tovush bilan farqlanuvchi to'rt xil ma'nolarga ega bo'lgan so'zlardir. O'quvchilar tovushdosh so'zlar tanlab ma'nolarini izohlaydilar.

Ot-ol-osh-oq-og'-ong-on-ov-oz-or-os-och-oy ...

Ot-it-et-o't-ut.

Bir-biz-bich-bit-bil-bij-biq-biy ...

Bir-bur-ber-bor-bo'r-bor.

Bir-pir-sir-dir-tir-zir-chir-shir-g'ir-qir ...

O'quvchilar tomonidan tanlangan tovushdosh so'zlar sirasi o'qituvchi tomonidan to'ldirilishi va tushunilishi qiyin so'zlarning ma'nosi izohlanadi.

3. Tovush bilan harfni farqlash va alfavitdan foydalanish metodlari.

Yuqorida ta'kidlanganidek, 5-sinfidagi fonetika darslarining asosiy vazifalaridan biri tovush bilan harf munosabatini belgilashdir. Tovush va harf haqida beriladigan bilim o'qituvchi bayoni bilan boshlanadi. Bunda o'qituvchi tovush bilan harf

o'rtasidagi munosabatni tovushning og'zaki, harfning yozma nutq uchun vosita ekanligini tushuntirishi zarur. Tovushlarning nutqdagi o'zni talaffuziga diqqatni qaratish kerak.

O'quvchilarda uchraydigan ko'pchilik orfografik xatolar tovush bilan harfni farqlamasligidan kelib chiqadi. Nutq tovushlarining yozuvdagi ifodasi harf sanaladi. Harf bilan tovush fasidagi munosabat turlicha bo'ladi:

- harfning aksariyati ma'lum tovush ifodasidir;
- har xil tovush bir belgi bilan beriladi: jo'ra –jurnal;
- ba'zi tovushlar bir necha harf bilan beriladi; qg, sh, ch;
- harf yoziladi, o'qiladi, lekin talaffuz qilinmaydi, ya'ni ko'z bilan ko'riladi.

Tovush esa talaffuz qilinadi va eshitiladi.

Tovush (fonema) – til birliklarining tovush qobag'i bo'lib ularni o'zaro farqlash xususiyatiga ega bo'lgan birlik: bor, ber, bo'l so'larining tovush qobig'i bo'lib, ularni farqashda o, ye, o' fonemalari xizmat qiladi. fona – fonemalarning so'zforma tarkibida qatnashayotgan ko'rinishi. Allafon – fonemalarni ro'yobcha chiqaruvchi barcha tovushlar. Fonemaning belgilari;

- mustaqil qo'llanish bilan cheklanmaydi;
- f. Ikki xil vazifani bajaradi;
- a) morfemani farqlaydi;
- b) turli ko'rnishlarni umumlashtiradi;
- fonema tilda. U umumlashgan maketni ko'rsatadi;

Allafonning belgilari:

- fonetik ko'rinish;
- mustaqil emas;
- ma'no farqlamaydi, faqat eshitishda farq qiladi.
- allafon nutqdadir.

Demak, til xatolari fonemada, nutq xatolari allafonda: sof-son-tilda, tovush-dovush-nutqda. Tovush va harf o'rtasidagi munosabatning bu sanalgan belgilari o'quvchilarning to'g'ri yozishi, to'g'ri talaffuzi, ifodali o'qishi bilan bog'liq. O'quvchilarning savodli yozishi orfografik qoidalarni o'zlashtirish bilan birga talaffuz qoidalarini bilish bilan bog'liq. Bu o'z-o'zidan tovush va harf munosabatini keltirib chiqaradi. Bu turli mashqlarda mustahkamlaydi.

Yuqorida sanalgan tovush bilan harfning o'zaro munosabati to'g'ri kelmaydigan holatlarga misollar keltiradi: ongli, menga so'zlarida tovush va harf munosabatlari to'g'ri kelmaydi. Bu so'zlardagi – ng birikuvlari birinchi so'zda bir tovushni ifodalasa, ikkinchisida ikkita mustaqil fonemalardir. Shuningdek, tovush va harf munosabatlarining sh, ch harfiy birikmalarida ham to'g'ri kemasligi eslatiladi. Sh birikuvida ular alohida tovushlarni ifodalasa orasiga tutuq (') belgisi quyilishi (Is'hoq, as'hob)aytilib mashq qildiriladi. Bulardan tashqari g'isht, go'sht, daraxt, baland, Samarqand so'zlarining yozilishi bilan talaffuzi o'rtasidagi farq ham tushuntiriladi. Yuqoridagi so'zlarda t, d harflari aytilmasada yoziladi. O'quvchilarga ularning talaffuzini mashq qildirish kerak.

“Alfavit”ni o'rganish lug'at bilan ishlash asosida olib boriladi. Bunda so'zlarni alfavit tartibida joylashtirish, so'zni lug'atdan tez topish mashqlari badjartiriladi. Bunda quyidagi ishlarni bajartirish mumkin:

- sinf o'quvchilarining yoki shaharlarning ro'yxatini alfavit tartibida yozish topshiriladi. Bunda faqat birinchi harflar asosida emas, keyingi harflar ham e'tiborga olinishi ta'kidlanadi;

- "imlo lug'ati"dan so'z topish buyurilishi mumkin. So'z o'qituvchi tomonidan aytiladi yoki doskaga yozib qo'yiladi;

- biror she'riy parchadan bir nechta so'zlarni alfavit tartibida yozish buyurilishi mumkin.

5-mavzu.	Leksikologiya o'qitish metodikasi	
Ta'lim berish texnologiyasi		
Mashg'ulot vaqti 80 daqiqa	Talabalar soni 20-25 gacha	
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot	
Mavzu rejasi	1. Leksikologiya va frazeologiya o'qitishning maqsad va vazifalari. 2. So'z va uning lug'aviy ma'nosi, bir ma'noli so'zlarni o'tish metodikasi. 3. Iboralarni o'tish metodikasi.	
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey kasb-hunar kollejlari ona tili o'qitishning tarkibi va mazmuni bo'yicha umumiy tushuncha berish, dastur va darsliklar mazmuni bilan yaqindan tanishtirish.		
Pedagogik vazifalar: - o'quv dasturlarining maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzular to'g'risida tushuncha berish; - dastur haqida ma'lumot berish; - dastur turlari bilan tanishtirish.		O'quv faoliyati natijalari: - dasturlarning maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularni sharhlab beradi; - stil so'zining ma'nolarini aytib beradi; - dastur turlarini sanab o'tadi.
Ta'lim berish usullari		Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari		Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari		O'quv qo'llanma, proyektor, tarqatmalar.
Ta'lim berish sharoiti		O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash		Og'zaki nazorat: savol-javob

1.2. ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O'quv fanini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqish.	
1. Mavzuga kirish	1.1 O'quv fanining nomini aytadi. Mavzular va adabiyotlar	Tinglaydilar

(15 daqiqa)	ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi. (1 ilova). 1.2. Birinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonini bilan tanishtiriladi (2 ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining o'rganish obyekti. 2.3. Dastur va uning vazifasi. 2.4. Dasturlarning ta'lim bosqichlaridagi ahamiyati. 2.5. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi: 2.6. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili o'qitish kursining tarkibi va mazmunini tushuntirib bering. 2. Akademik litseylarda ona tili o'qitish kursining tarkibi va mazmuni qanday? 3. Kasb-hunar kollejlariida ona tili o'qitish kursining mazmuni haqida gapiring.	Tinglaydilar, yozadilar. Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2 Mustaqil ishlash uchun "Umumta'lim, AL va KHK dasturlari haqida" mavzusini taqdim etadi. Klaster	Savollar beradilar Vazifani yozib oladilar.

Ma'lumki, fikr so'zlar vositasida ifodalanadi. Shuning uchun ham so'z tilning qurilish materialidir, uni bilmay turib tilni bilish mumkin emas. Nutqimizda ishlatiladigan so'zlarning jami tilimizning lug'at boyligini, ya'ni leksikasini tashkil qiladi. Leksika atamasi – grekcha *lexicos* so'zidan olingan bo'lib so'z degan ma'noni bildiradi. Tilning lug'at tarkibini o'rganuvchi soha leksikologiya deyiladi. Tilshunoslikning leksikologiya bo'limini o'rganishda quyidagi prinsiplar qo'llaniladi:

- leksik – gramatik prinsip (so'zning leksik va grammatik ma'nolarini qiyoslash);
- kontekst (matan) li prinsip (so'zni matnda sintagmatik aloqa vositasi sifatida qarash);
- leksik – sintaktik prinsip (so'z va so'z birikmalarini qiyoslash).

O'qitish jarayonida amal qilinadigan bu prinsiplar o'quvchilarning so'z va fazeologik birikmalar mohiyatini tushunishni ta'minlaydi.

So'z ma'nolarni aniqlashda matnning roli katta. Kontekst so'zlarni boshqa ma'nolardan tozalaydi (Gsotebnya). So'zlarni matnda qarash zaruriyati u yoki bu so'z ma'nosini aniqlash imkoniyatini beradi. Leksikologiyani o'qitish jarayonida o'quvchilarning diqqati so'z ma'nolarining ana shu xususiyatlariga ham doimo qaratilishi zarur.

Maktab grammatikasida leksikologiya ko'rsi asosiy o'rinni egallaydi. V sinfda bu kurs uchun 48 soat ajratilgan, u butun materialning qariyb $\frac{1}{4}$ qismini tashkil qiladi.

Maktabda leksikologiya o'qitishning asosiy maqsadi so'z va tushunchalarning o'zaro munosabati, so'zlarning ma'no tiplari, so'z ma'nolarining ifodalanish yo'llarini o'rgatishdir.

So'z ma'nolarining taraqqiyoti, ko'p ma'nolilikning hosil bo'lishi, lug'at tarkibining grammatik qurilish bilan bog'liqligi, so'zning o'zgarish sabablari, iboralar va ularning shakllanishini o'rganish leksikologiya o'qitishning asosiy vazifasi sanaladi. Bu bo'limda o'quvchilar so'z va uning lug'aviy ma'nosi, so'zning o'z va ko'chma ma'nosi, ma'nodosh so'zlar, uyadosh so'zlar, uyadosh so'zlar, qarama-qarshi ma'noli so'zlar, shakldosh so'zlar, paronimlar, tarixiy, eskirgan va yangi so'zlar, kasb-hunarga oid so'zlar, atamalar, olinma so'zlar, ibora va tasviriy ifodalarni, o'zbek tilining so'z boyligi, o'zbek tili(ning) lug'atining boyish minbalari, lug'atlarning turlarini o'rganadilar.

2. So'z va uning lug'aviy ma'nosi, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarni o'tish metodikasi.

O'qituvchi V sinfda leksikologiyaga bag'ishlangan birinchi darsda doskaga leksikologiya terminini urg'u belgisi bilan yozib qo'yadi. Bu yozilgan so'zning imlosi va talaffuziga o'quvchilarning diqqatini tortadi hamda 2-3 o'quvchiga o'qitadi. Shundan so'ng bu kursning yangi bo'lim ekanligi, u yunoncha (grekcha) bo'lib, ikki qismdan so'z va ilm, ta'limotdan iboratligi ta'kidlanadi. Bu uning lug'aviy ma'nosi ekanligi tushuntiriladi.

Har bir mustaqil soʻzning lugʻaviy maʼnosi boʻladi: parta, qalam soʻzlari anglatgan maʼnolari (bajargan vazifalari)ga koʻra oʻquv qurolining nomini bildiradi; oʻqi, kelmoq soʻzlari ish harakatini; oq, zangori soʻzlari belgini anglatadi va boshqalar.

Demak, har bir soʻzning predmet, belgi, harakat maʼnolarini anglatishi uning leksik maʼnosi, yaʼni lugʻaviy maʼnosi hisoblanadi.

Oʻqituvchi oʻquvchilarga soʻzning lugʻaviy maʼnolari haqida tushuncha bergach, soʻzlarning hammasi bir xil, yaʼni bir maʼnoli yoki bir necha maʼnoli emasligini uqtiradi. Soʻzlarni shu xususiyatiga koʻra ikkiga- bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlarga ajratilishini aytadi. Buning uchun biror soʻzning (koʻz, bosh) turli maʼnolari ifodalangan gaplar yozilgan jadvaldan foydalanib, har bir gapdagi maʼnosi tushuntiriladi.

- 1.Koʻzingizni ehtiyot qiling!
- 2.Uzukning koʻzi qimmat baho toshdan edi.
- 3.Derazaning koʻziga oyna qoʻydirdik.
- 4.Eski buloqning koʻzi ochildi.
- 5.Bu taxtaning koʻzi koʻp ekan.
- 6.Ahmad aka – ishning koʻzini biladigan odam.

Bu misollarda koʻz soʻzining 6ta maʼnosi ifodalanganligi aytiladi. Demak, koʻz soʻzini koʻp maʼnoli soʻz deymiz. Ayrim soʻzlarning bir maʼno anglatishi eslatiladi. Soʻzlarning bu xususiyatlari izoxli lugʻatlarda maxsus raqam bilan berilishi taʼkidlanadi. Koʻp maʼnoli soʻzlar nechta maʼno anglatishidan qatʼiy nazar bir soʻz sanaladi.

(Soʻzning maʼnosi tushuntirilayotganda har bir soʻzning bir maʼnoga ega boʻlishi aytiladi. Masalan, odam, bola, farzand, oʻgʻil, qiz soʻzlari umuman insonga xos soʻzlar boʻlsa-da, ular bir-biridan farqli boshqa-boshqa maʼnolarni anglatmoqda. Shuning uchun ham ulaning har birini alohida soʻz deymiz. Koʻp maʼnoli soʻzlar bir necha maʼno anglatga-da, ular bir soʻz sanaladi, chunki, birinchidan, bir shaklga ega, ikkinchidan, bosh - asosiy maʼnodan boshqa maʼnolari yuzaga kelgan). Birgina maʼno anglatadigan soʻzlarni bir maʼnoli soʻzlar deb atalishi aytilib, unga tayyorlangan jadvaldan foydalaniladi: alfavit, urgʻu, fonetika, leksika, doʻkoncha, doʻppidoʻz, juvozxona, zirak, bozorlashmoq, radius...

Oʻqituvchi V sinf oʻquvchilariga leksikologiya boʻlimini oʻta boshlaganidanoq lugʻatlar bilan ishlashni mashq qildira borishi kerak. “Imlo lugʻati”, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” kabi lugʻatlardan foydalanish yoʻllarini tushuntirish bilan birga, bularning oʻquvchilar uchun doimiy yoʻldosh ekanligini oʻqtirish zarur. Masalan, koʻp maʼnoli soʻzlarning lugʻatlarda berilishi tushuntirilsa, oʻquvchi lugʻatdan osongina koʻp maʼnoli soʻzga misol topadi.

Shundan keyin soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnolari haqida maʼlumot berilib, uning koʻp maʼnoli soʻzlarga aloqasi yaʼni koʻchma maʼnolar asosida koʻp maʼnoli soʻzlarning paydo boʻlishi tushuntiriladi va mashq-topshiriqlar bajarib mustahkamlanadi. Bunda asosiy eʼtibor koʻchma maʼnoni aniqlashga qaratiladi. Koʻchma maʼnolar nutqning taʼsirchanligini oshiradi, nutqni bezaydi. Soʻzning koʻchma maʼnosi, qanday maʼnoda qoʻllanilganligi matnda aniqlanadi. Ular (oʻz va koʻchma)ning uyadoshlarini topish - oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirish,

so'z boyligini oshirish, so'z ma'nolarini to'g'ri sharhlash imkoniyatini yaratadi. Masalan, "Hovlimizda bir necha xil gul bor. Ularni otam o'tqazgan" matni bilan "Bu hovlida bir gul bor. Uning ismi Oqila..." matnlari taqqoslanib, ajratilgan gul so'zlarining uyadoshlari topiladi: birinchi matnda daraxt, ko'chat, buta; ikkinchi matnda farzand, qiz so'zlari ekanligi aniqlanadi. Yoki "Har qanday nina po'latdan yasaladi," "Vazifani Po'lat birinchi bo'lib bajardi," "Alisherning irodasi po'latdan" matnlari taqqoslanib, ajratilgan so'zlarning uyadoshlari topiladi: 1. Metall, platina, temir... 2. Inson, odam, farzand, o'g'il ... 3. Qattiq, chidamli kabi. So'zlarning ko'chma ma'nolari ham izohli lug'atda beriladi, izohlanadi.

Shuni ham aytish kerakki, ko'p ma'noli so'zlar bilan omonim so'zlarni muqoyasa qilib o'rganish yaxshi natija beradi. Chunki bu so'zlarni ayrim o'quvchilar ko'pchilik hollarda farqlay olmaydilar yoki farqlashga qiynaladilar. Shuning uchun o'qituvchi 5-sinfdayoq ular (omonimlar bilan ko'p ma'noli so'zlar) orasidagi farqli xususiyatlarni tushuntirib berish kerak.

Ko'p ma'noli so'zlar bilan omonim so'zlarni muqoyasa qilib o'rganish yaxshi natija beradi. Ko'p ma'noli so'zlar nechta ma'no anglatishidan qat'iy nazar bir so'z sanaladi. Uning har bir ma'nosi gap ichida ma'lum bo'ladi. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bosh so'zining 20dan ortiq ma'nosi berilgan. Shunday bo'lsa-da u bir so'z sanaladi. Chunki bu so'zning hamma ma'nolari bosh so'zining asl ma'nosi bilan ozmi-ko'pmi bog'langan, uning ma'no aloqalari uzilmagan bo'ladi.

Omonim so'zlarda esa boshqacha: ular alohida ma'noli mustaqil so'zlardir. Ular faqatgina shaklan o'xshashdir: ot-hayvon, ot – ism, ot-fe'l.

5-sinfda omonimlar, sinonimlar, antonimlar amaliylari yangi materialni bayon qilish tipidagi dars sifatida o'tiladi. Bu amaliylarni o'tishda zaruriy ko'rgazmalar tayyorlanib, shular asosida dars olib boriladi. Bunda asosiy yordamchi vosita bo'lib, darslik xizmat qiladi. Bulardan sinonimlar o'tilayotganda sinonimiya qatorini hosil qiluvchi so'zlarning ma'no nozikliklarini atroflicha tushuntirish zarur: yuz, aft, bashara, chehra, siymo va boshqalarning stilistik va semantik farqini jonli misollarda tushuntirmoq kerak.

Yangi dasturda "Uyadosh so'zlar" amaliysi berilgan. Bu tushuncha alohida diqqat bilan tushuntirishi kerak bo'ladi. bu amaliy deduktiv metod asosida o'tiladi. Syadosh so'zlar bir amaliyga oid so'zlar sirasidir: yilqi – ot – biya – baytal – saman – to'riq – qorabayir – jiyron – qashqa – yo'rg'a va boshqalar. Uyadosh so'zlarni o'rganish so'zlarning ma'no nozikliklarini farqlash, qaysi o'rinda qanday qo'llash malakalarini shakllantiradi. Uyadosh so'zlarni o'rganish jarayonida umumiy ma'noli (yilqi, daraxt, qoramol, idish, gul, uy) va xususiy ma'noli (ot-biya-saman-yo'rg'a-to'riq-qorabayir; tol-terak-qayrag'och-o'rik-gilos; sigir-ho'kiz-buqa-g'unojin-tana-buzoq; rayhon-chinnigul-karnaygul-gultoji-xo'roz-lola-bo'tako'z; kulba-xona-zal-yotoqxona) so'zlar, ularning ishlatilishi o'rinlari ustida mashq qilish zarur. Bu amaliyni uyadosh so'zlardan foydalanib tabiat tasviriga oid matn yaratish bilan yakunlash mumkin.

5-sinfda diqqatni tortadigan amaliylardan yana biri paronimlardir. O'qituvchi, avvalo paronimlarga tayyorlangan ko'rgazmali vositani doskaga osib

qo'yib, til faktlarini kuzatish metodi bilan ish boshlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarga ko'rgazmani o'qib ma'nolariga e'tibor berishni topshiradi.

banka – bank	yoriq – yorug'
sop – sof	jayron – jiyrón
ariq – orif	zirak – ziyrak
beton – bidon	orden – order
yod – yot	paqir – faqir

21. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda sifat mavzusini o'rganish.
22. Sifat darajalarini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni.
23. Sifat yasallishini o'rganish usullari.
24. Sifatni o'rganishda sathlararo aloqa.
25. Asliy va nisbiy sifatlarni o'rganish metodlari.
26. Son so'z turkumini o'rganish usullari.
27. Tartib sonlarni o'rganish usullari.
28. Miqdor sonlarini o'rganish.
29. Chama va taqsim sonlarni o'rganish usullari.
30. Maktabda olmosh so'z turkumini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash.
31. Maktabda olmoshlarning ma'no turlarini o'rganish.
32. Maktabda fe'l so'z turkumini o'rganish usullari.
33. Akademik litsey va kollejlarda fe'lni o'rganishning o'ziga xos jihatlari.
34. Fe'l zamonlarini o'rganish.
35. Fe'l mayllarini o'rganish.
36. Fe'l nisbatlarini o'rganish.
37. Fe'l shakllarini o'rganish usullari.
38. Fe'l mavzusini sintaksis Bilan bog'lab o'rganish usullari.
39. Fe'l mavzusini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni.
40. Maktabda fe'l yasallishini o'rganish usullari.
41. Maktabda fe'lni o'rganishda uzviylik va uzluksizlik.
42. Maktabda ravish so'z turkumini o'rganish.
43. Ravishni o'rganishda fanlararo aloqa.
44. Maktabda ravishning ma'no turlarini o'rganish usullari.
45. Maktabda ravishlarning yasallishini o'rganish.
46. Maktabda sintaksiisni o'rganishning ahamiyati.
47. Maktabda sintaksisni o'rganishda fanlararo aloqa.
48. Maktabda sodda gapni o'rganish usullari.

49. Maktabda qo'shma gapni o'rganishning metod va usullari.
50. So'z birikmasini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash usullari.

O'zbek tilini o'qitish metodikasi fani bo'yicha testlar

Ilmiylik prinsipi deganda nimani tushunasiz?

Ona tili fani maqsad va vazifalarini.

*O'quv predmetlarini hozirgi fan yutuqlari zaminida bayon qilishni talab qiladi.

Darsda o'quvchilarning mustaqil ishlarni tashkil qilishini.

Dars samaradorligini.

Tushunarlik prinsipi bu ...

*O'quv predmetlarini bolalarning yoshi, shaxsiy xususiyatlari, hayotiy tajribalari, tayyorgarlik darajasiga moslashtirishni, ya'ni oddiydan murakkabga, xususiydan umumiyga borishni taqozo qiladi.

Mavzuni tushunishi, qoidalarga mos misollar topa olishi va uni amalda qo'llay olishi.

Tayyorgarlik darajasini amalda qo'llash.

Nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish va boshqalarga tushuntirish.

O'zbek tili o'qitish metodikasi pedagogika bilim yurtlari va oliy o'quv yurtlarida qachondan boshlab fan sifatida o'qitish boshlandi?

1920 yillardan.

1942 yillardan.

*1930 yillardan.

1940 yillardan.

O'quvchilar yozma ishlarida uchraydigan xato nima sababdan yuz berishi mumkin?

gramatika va imloni bilmaslik.

nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi tafovutdan.

punktuasiyani bilmaslik.

*gramatika, imlo, nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi tafovutni bilmaslik.

Tilni sevish va uni qunt bilan o'rganish o'quvchilarni qaysi jihatdan taraqqiy ettiradi?

badiiy, g'oyaviy, ilmiy jihatdan

aqliy, ahloqiy va estetik jihatdan

jismoniy, vatanparvarlik jihatdan

*badiiy, g'oyaviy, ilmiy, aqliy, ahloqiy va estetik jihatdan

O'zbek tili kursining bo'limlarini o'tishda qanday yo'l tutiladi?

Alohida-alohida o'tiladi.

O'zaro ajralmagan holda o'tiladi.

Ayrimlari qiyosiy o'rganiladi.

* Alohida-alohida, o'zaro ajralmagan holda o'tiladi.

Punktuasiya haqida dastlabki ma'umotlar 8-9-sinflarda beriladi. Ungacha o'quvchilar qanday ish tutadi?

*Yoddan yozadi, tinish belgilarining qo'llanishini "mexanik" holatda o'rganadi.

Ko'p o'qiydi, uzoq vaqt mashq qiladi.

Hyech qanday tinish belgilaridan foydalanmaydi.

To'g'ri javob yo'q.

O'quvchilar fikrlash qobiliyatini o'stirish ona tili o'qitishning qaysi bosqichida amalga oshiriladi?

*Hamma bosqichlarda, har bir darsda.

Nutq o'stirish darslarida, yozma ishlarda.

Grammatika darslarida.

Sintaksisga oid darslarda.

Bir mashg'ulotning o'zida ham induksiya, ham deduksiya metodlaridan foydalanish mumkinmi?

Ha. O'timli va o'timsiz fe'llarni o'tganda.

Ha. Fe'l yasovchi qo'shimchalarni o'tganda.

Ha. Uyushiq bo'laklarda belgilarning ishlatilishida.

*Javoblar to'g'ri.

Bilimlarni tekshirish darslarida o'qituvchi o'z ish usuli holatini qanday aniqlaydi?

*O'quvchilarning o'zlashtirishi orqali.

Mustaqil ish va qiziqishlarini tekshirish orqali

Jamoat ishlarida ishtiroki orqali.

Javoblar to'g'ri.

Uyga vazifa berishda o'quvchilarni nimalarga odatlantirish kerak.

Darslikdan shu paragrafni o'qib chiqish.

Mashqni bir ikki marta sinchiklab o'qib chiqish.

Shartiga moslab avval og'zaki bajarish, keyin yozma bajarish.

*Hamma javoblar to'g'ri.

Tematik reja tuzganda qanday ishlar amalga oshirilishi mo'ljallangani maqul?

O'quvchining nutqini oshirishga mo'ljallangan ishlar.

Uzoq o'tilgan darslardan qaysilarini takrorlash.

Ko'rgazmali qurollar va bajarilishi zarur bo'lgan mashqlar.

*Hamma javob to'g'ri.

Ona tili materiallarini rejalashtirish nimalarni o'z ichiga oladi?

*Grammatika va yozuv bo'yicha dastur mazmuni.

Tegishli mavzularni qaytarib, turli yozma ishlar yozish.

Ona tili o'qitish bilan bog'liq stilistik ishlar.

Turli yozma ishlar.

Metodika tarixida eng maqsadga muvofiq metodlar nimalarni o'z ichiga oldi?

O'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga olgan metodlar.

O'quvchi faoliyatiga bog'liq bo'lgan metodlar.

*O'qituvchi, o'quvchi faoliyati va fan xususiyatidan kelib chiqqan metodlar.

Fan xususiyatidan kelib chiqqan metodlar

O'rganiladigan materiallar qisman oldingi sinflardan malum yoki oldingi material bilan bog'liq bo'lsa, qanday metoddan foydalanish mumkin?

Reproduktiv.

Suxbat.

*Qisman izlanuvchanlik

Muammoli bayon.

O'quvchi faoliyati bilan bog'liq usullar necha xil bo'ladi?

Ikki xil: Reproductiv, qisman izlanuvchanlik.

Ikki xil: Qisman izlanuvchanlik, izlashga asoslangan.

*Uch xil: Reproductik, qisman izlanuvchanlik va izlashga asoslangan.

Uch xil: Reproductik, muammoli, izlashga asoslangan.

Fonetikaning orfografiyaga aloqador qismida ko'proq nimalarga e'tibor berish kerak?

Tovushlarning talaffuzi.

Tovushlarning yozilishi, fonetik tahlilga.

*Harflarning talaffuzi bilan yozilishi orasidagi farq.

Hamma javob to'g'ri.

Unli va undosh tovushlar haqida malumot berilgandan keyin bilimlarni mustahkamlash uchun qanday yo'l tutish mumkin?

Faqat ovozdan hosil bo'lgan tovushlar tushuntiriladi.

Ovoz va tovushdan iborat bo'lgan tovushlar tushuntiriladi.

Faqat shovqindan iborat bo'lgan tovushlar tushuntiriladi.

*Javoblar to'g'ri .

So'z va tushunchalarning o'zaro munosabatini, so'zlarning ma'no tiplarini, so'z ma'nolarining ifodalanish yo'llarini o'rganish leksikologiya o'qitish metodikasining nimasi sanaladi?

Maqsadi

*Vazifasi.

O'ziga xos xususiyati.
So'z ma'nolarining taraqqiyoti.

Paronimlar qanday metodda tushuntirilgani maqsadga muvofiqdir?

Ko'rgazmalilik metodi asosida.
Reproduktiv metod asosida.
Qisman izlanuvchanlikka asoslangan metod asosida.
*Hamma javoblar to'g'ri.

O'zbek tili o'qitish metodikasidan birinchi darslik qo'llanma qachon chiqqan va muallifi kim?

1932 yilda A.K.Borovkov.
*1940 yilda S.A.Fessaloniskiy
1950 yilda Murod Shams
1952 yilda Faxri Kamol

O'tiladigan materialning hajmini belgilashda qanday prinsip e'tiborga olinadi?

*Pedagogik-psixologik.
Lingvistik.
Tarixiylik Etimologik.
Psixologik.

Qay vaqtda materialni ongli o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratiladi?

Darsda turli metodlar qo'llanilsa.
Rang-barang ko'rgazmali qurollardan foydalanilsa.
Turli grammatik o'yinlar uyushtirilsa.
*Javoblar to'g'ri.

Grammatikani puxta o'rganish orqali o'quvchi nimalarga erishishi mumkin?

Fikr taraqqiy etadi.
Predmet va hodisalar orasidagi munosabatni ongli tushuna boshlaydi.
O'quvchilarning orfoepik malakasi takomillashadi.
*Hamma javoblar to'g'ri.

O'quvchilarga o'zbek tilidan bilim, malaka va ko'nikma berishning eng samarali shakli?

Fakultativ mashg'ulotlar.
Sinfdan tashqari ishlar.
Individual ishlash.
*Hamma javoblar to'g'ri.

Yangi bilim berish dars tipining tuzilishi?

Uy vazifasini so'rash, yangi mavzu bayoni.
Grammatik ta'rif va qoidalar ustida ishlash, ularni qaytarish.

Materialni mustahkamlash, uyga vazifa berish.

*Javoblar to'g'ri.

I ORALIQ NAZORAT SAVOLLARI

1-savol. Ona tili o'qitish metodikasi fan sifatida.

“O'zbek tili o'qitish metodikasi” pedagogika fanlari sirasiga kirib, pedagogika oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarining etakchi mutaxassislik fanlaridandir. U fan sifatida shu kursning maqsadi, mazmuni, vositalari, metodlari, tashkiliy formalarini o'rganadi. Ona tili ta'limining tarbiyaviy va rivojlantiruvchi xususiyatlarini asoslaydi.

O'rta maktab o'quv dasturlaridagi fanlar orasida ona tili salmoqli o'rinni egallaydi. Bu boradagi dastlabki vazifalar ona tili o'qituvchilarini metodika asoslari bilan tanishtirish va metodik adabiyotlar bilan ta'minlash edi.

Ona tili o'qitish metodikasi fan sifatida pedagogika bilim yurtlari va oliy o'quv yurtlarida 1930 yillardan boshlab o'qitila boshlagan. Bu fanga oid darslik va qo'llanmalar 1940 yillarda yuzaga kela boshladi. (Bungacha ham o'z o'qitish metodikamiz mavjud bo'lgan va ilm fan ravnaqiga munosib hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz yetishib chiqqan). Bulardan zamonaviy metodikaga asoslangan, S.A. Fessaloniskiyning “Ona tili metodikasi”(1940 yil) kitobi o'zbek tili o'qitish metodikasi tarixida nazariy va amliy jihatdan alohida o'rin tutadi.

Qo'llanmada dars rejasi va konspektidan namunalar, turli sxemalar, jadvallar bilan berilgan. Unda grammatika orfografiya bilan bog'langan holda talqin qilingan. Unda asosiy e'tibor nutq o'stirish metodikasiga qaratilib “Lug'at ishidagi priyomlar”, “Obrazli nutqni o'stirish”, “Yozma nutq”, “Insho” haqidagi metodik maslahatlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. 1950 yillardan boshlab qator qo'llanmalar yaratildi. 1960 yillardan keyin metodika sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlarining ko'lami kengaydi. O'qituvchilar uchun maxsus nashrlar: “Sovet maktabi” (hozirgi “Til va adabiyot ta'limi”) jurnali, “O'qituvchilar gazetasi” (hozirgi “Ma'rifat”) chiqa boshladi.

2-savol. Ona tili o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari:

O'zbek tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi o'quvchilarda til imkoniyatlaridan mustaqil holatda to'g'ri hamda o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy istiqlol g'oyasi hamda sharqona tarbiyani berishdan iborat. Shu asnoda ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qartilmog'i lozim.

Ona tili o'qitish metodikasining asosiy vazifasi – o'zbek tili mutaxassisligi bo'yicha talabalarni adabiy til me'yorlaridan to'g'ri foydalanadigan, adabiy nutq me'yorlarini egallagan yetuk ona tili o'qituvchisi qilib yetkazishdan iborat. Shuningdek maktab o'quvchilarini orfografik va punktuatsion to'g'ri yozishga, adabiy til va nutq normalariga rioya qilgan holda talaffuz etish va yozishga, buni amalga oshirish uchun xilma-xil mashqlarni bajarishga o'rgatish zarur.

3-savol. Ona tili o'qitish metodikasining tekshirish metodlari.

1) kuzatish metodi. Bunda o'quvchilar darslarda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda va uyda ona tilidan bajargan ishlari asosida kuzatiladi, ularning faoliyatlari hisobga olinib tahlil qilinadi.

2) tajribani o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish pedagogika fanlarini rivojlantirishning bosh omillaridan biridir. Bunda ilg'or o'quvchilarning faoliyati tahlil qilinadi. Bu, bir tomondan, metodika fani berayotgan nazariy xulosalarning to'g'riligini tekshirishda ishonchli mezon bo'lsa, ikkinchi tomondan, metodika fani yangiliklar bilan boyib boradi.

3) o'quvchilar bilan shaxsiy suhbat metodi. Bunda o'quvchilar bilan maqsadga yo'naltirilgan suhbat o'tkaziladi.

4) anketa metodi. Bir vaqtning o'zida bir necha o'quvchiga savol berib, ularning ayni bir hodisaga turlicha munosabati aniqlanadi.

5) eksperiment metodi. Bu metod yordamida metodist olimlar o'zlari yozgan qo'llanmalaridagi tavsiya va ko'rsatmalarining samaradorligi sinfda tajriba qilib ko'riladi.

6) metodik merosni o'rganish metodi. O'zbek tili o'qitish metodikasi nisbatan yangi fan. Tilning ijtimoiy ahamiyati haqida boy falsafiy va pedagogik meros qolgan bo'lsa-da, uni o'qitish metodikasi bilan bog'liq masalalar keyingi davr bilan aloqador. Shuning uchun ham bu metod ijobiy samara beradi.

Bu sanalganlar ona tili o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun hamma vaqt faoliyat ko'rsatadi. Ana shu jihati bilan o'qitish metodikalaridan farq qiladi.

4-savol. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va ona tili o'qitish metodikasi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi ta'lim tizimida keskin burilish yasadi. An'anaviy ta'limdan tubdan farq qiladiga kommunikativ modelga asoslangan yangi ta'lim mazmuni yaratildi. (Ta'lim mazmuni dasturlarda, darsliklarda, metodik qo'llanmalarda o'z aksini topdi.) O'quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradigan ta'lim tizimi shakllandi. Bu jarayonni tartibga solib va boshqarib turadigan DTS ishlab chiqildi.

Ta'limdan asosiy maqsad bolalarga bilim berish emas, ularni bilim olishga o'rgatishdir. Ularni bilim olish jarayonining aktiv ishtirokchisiga aylantirishdir. Boladagi bunday ko'nikmani takomillashtirish ona tilini o'qitish bilan bevosita bog'liq. Bunda ona tilining rivojlantiruvchi xususiyati namoyon bo'ladi. Ona tili o'qitish o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi faoliyat bo'lib, shu jarayonda shaxs taraqqiyoti hamda tarbiyasi amalga oshadi. Ona tili nutq odobi, o'zligini anglash, o'zgalar fikrini nutq sharoitiga mos og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon, aniq, tushunarli ifodalash malakalarini singdiradi.

5-savol. Ona tili o'qitishning umumdidaktik tamoyillari.

Maktabda o'tiladigan hamma predmetlar uchun umumiy bo'lgan didaktik tamoyillar mavjud. Ular maktablar oldiga qo'yiladigan talablardan kelib chiqadi. Ularni muvafaqqiyatli qo'llash shaxsning har tomonlama kamol topishida ahamiyati katta.

1. Ta'lim-tarbiya mosligi umumta'lim maktablarining asosi hisoblandi. Bu orqali o'quvchilar ma'naviy-g'oyaviy rivojlanishining tamoyillari belgilanadi.

Mavzu uchun tanlangan mashqlar ham ta'limiy xarakterda, ham g'oyaviy xarakterda bo'lishi kerak.

2. Ilmiylik va tushunarliklik tamoyili. Maktabda ona tilidan hozirgi tilshunoslikda qat'iy hal qilingan, ilmiy asoslangan ma'lumotlarga beriladi (-larcha ravish yasovchi qo'shimcha, -lar+cha otlarning nokategorial shakli. Lekin ravish yasovchi deb qaralaveradi). O'qitishning ilmiylik tamoyili o'qituvchining hamisha ziyraklik bilan fan yutuqlarini kuzatib borishini talab qiladi. (bilan, -ga yordamchilarining vazifasini kengayotganligi). O'qitishning tushunarli bo'lishi, asosan, o'qituvchiga bog'liq. Sinfda teng yoshli o'quvchilar o'tirsa-da, ularning materialni qabul qilishi bir xil bo'lmaydi. Shuning uchun o'qituvchi bunday holatni e'tiborga olishi, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini ham hisobga olishi dardkor. Ilmiylik va tushunarliklik bir-birini to'ldiradi.

3. Tizimlilik va izchillik. Ta'limda tizimlilik bilan izchillik uzviy bog'lanadi. Tizimlilik va izchillik o'zbek tili o'qitishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil ona tili bilimlarini tartib bilan o'rganishdan tashqari, o'zlashtirish jarayonini ham tezlashtiradi. Shuning uchun ham dastur va darsliklar tizimida ushbu tamoyilga qat'iy amal qilinadi. Tizimlilik va izchillikka kundalik darsda ham amal qilinadi. Bunda yangi mavzu o'tgan mavzu bilan bog'lab tushuntiriladi.

4. Nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qilish. Tilning ijtimoiy hayotdagi o'rnini beqiyosdir. Chunki til bo'lmasa jamiyat ham, ijtimoiy hayot ham bo'lmaydi. Maktabni bitirgan o'quvchi ijtimoiy hayotdan o'rin oladi. Shuning uchun ona tili ta'limining yangilangan mazmuni ta'lim jarayoni tuzilishining maqsadi, vazifasi, bayon etish usullarini belgilab berishi hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bilimlarning puxtaligi va ongli o'zlashtirganligi amaliy ko'nikmalarni hosil qiladi.

O'quvchilarning nazariy bilimlari bilan amaliy tayyorgarligi orasida farq bo'lishi mumkin. Tilning qonun-qoidalarini bilgan holda unga amal qilmagan, o'z fikrini ona tilida to'g'ri, ravon ifodalay olmagan o'quvchining amaliyotdan tayyorgarligi past hisoblanadi. O'quvchilarda boshqalar bilan muloqotda ona tilining go'zal va rang-barangligini namoyish qilish kabi amaliy ko'nikmalarni hosil qilish lozim.

5. O'qitishda ko'rgazmalilik. Ona tili predmetining tabiati ko'rgazmalilikni ko'proq talab qiladi. Tildagi mavhumlik, umumlashtirish, uning mohiyatini anglash va ongli o'zlashtirish ko'rgazmali vositalar yordamida jonli va qiziqarli bo'ladi. Ko'rgazmali vositalar tabiiy yoki aniq buyumlardan hamda rasm, jadval, sxema, kartina kabi tasvir vositalaridan iborat bo'lishi mumkin. Shuningdek rasmi va grammatik topshiriqli tarqatmalarda barcha shakldagi darslarda, darsning barcha bosqichlarida fydalanish mumkin.

6-savol. Ona tili darslarining tiplari va tuzilishi.

O'quvchilar ona tilidan bilim va ko'nikmalarni, asosan, dars jarayonida oladi. Bundan tashqari, darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham oladi. Demak, maktab, darslik, o'qituvchi tushunchalari bir butunlikni tashkil qiladi.

Dars o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining ko'zgusi sanalib, unda samaradorlikka erishish uchun, birinchidan, material g'oyaviy jihatdan yuqori

saviyada o'tilishi, ikkinchidan, o'quvchilarni uyushtirish uchun puxta tayyorgarlik kerak.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan ichki va tashqi xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. O'quvchilarning doimiy gruppasi, qat'iy rejim, dars jadvali, mashg'ulotlarning ma'lum xonalarda o'tilishi darsning tashqi xususiyatlari bo'lsa; darsning maqsadi, o'quvchilarning bilimga qiziqishlari, ta'lim materialini his qilish, tushunish ichki xususiyati sanaladi.

Zamonaviy darsliklarning uchta tipini ko'rsatish mumkin:

- 1) ona tilidan yangi bilim berish darslari;
- 2) o'tganlarni mustahkamlash darslari;
- 3) bilim va malakalarni tekshirish darslari.

Darsning tarkibiy tuzilishiga yangi bilimlarni izohlash, uy vazifalarini tekshirish, o'tilganlarni mustahkamlash, qaytarish (takrorlash), darsni tashkil etish va xulosalashni kiritish mumkin.

1. Yangi materialni izohlash darsi. Har bir darsning tuzilishi materialning mazmuni, sinfning umuiy saviyasi, pedagogik sistema kabi faktorlar bilan belgilanadi. Yangi bilim berishning kulminatsiyasi o'quvchilarga notanish yangi narsani ochishdir. Bu o'qituvchiga katta mas'uliyat yuklaydi: a) o'quvchiga yangi material tushunarli bo'lsin; b) o'quvchilarda shu mavzuga qiziqish uyg'onsin. Bunda eng muhimi yangi bilimni o'quvchilarga tanish bilimlar bilan bog'lab olib borishdir. Yangi bilim berish darsining tuzilishi:

- 1) Darsning tashkiliy qismi, uy vazifasini so'rash – 5-7 minut.
- 2) Yangi mavzu bayoni – 15 minutgacha.
- 3) Grammatik qoida va xulosalar ustida ishlash, ularni o'quvchilarga takrorlatish – 3-5 minut.
- 4) O'tilgan materialni mustahkamlash – 13-15 minut.
- 5) uyga vazifa berish – 3-5 minut.

2. O'tilganlarni mustahkamlash darslari.

Bilimlarni puxta o'zlashtirish muntazzam mashq qilishni talab etadi. O'quvchilar ma'lum bir xulosaga til faktlarini kuzatish, analiz qilish, qiyoslash mashq qilish orqali keladilar. Ayniqsa, orfografiya va punktuatsiya qoidalari amaliy mashqlar vositasida o'rganiladi. Shuning uchun ham ona tilidan tez-tez mustahkamlash va takrorlash darslari o'tkazib turiladi. Bunda 3-4 soatlik, ba'zan, 1 soatlik darslar ustida ham mashq qilinadi. Mustahkamlash darslari katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'quvchilar o'z oldilariga qo'yilgan maqsad uchun jiddiy ishlaydi, irodasi mustahkamlanadi, qat'iyati o'sadi. Bunday darslar uchun 20-25 minut ajratiladi.

3. Bilim va malakalarni tekshirish darslari. O'quvchilarning mustaqil ishlari va qiziqishlarini tekshirish orqali o'qituvchi o'z metodining holatini aniqlab oladi. O'quvchilarning bilim darajasiga qarab metodini o'zgartiradi. Bunday darslar darsning har qanday holatida, xususan, nazariy yozma ishlarida uyushtiriladi.

7-savol. Uy vazifalari va ularni tekshirish.

Uyga vazifa ona tili darslarining tarkibiy qismi sanaladi. O'quvchilarni ona tilidan bilim va ko'nikmalarini oshirishda, imlo qoidalarini o'zlashtirishda uyga vazifaning ahamiyati bor. Uyga vazifa sinfda o'tkazilgan dars mashg'ulotlarining

davomi sanaladi. Uyga vazifa tariqasida hamma turdagi mashqlar – ko'chirib yozishdan inshogacha – nazorat materiallari beriladi.

Ona tili o'qituvchisi sinf rahbari va ota-onalar bilan kelishib, uy vazifasining hajmi, murakkabligi va boshqa masalalarda yagona rejimga kelishib olishlari lozim.

Uyga vazifalarni to'g'ri bajarish o'quvchilarning nazariy o'zlashtirishlariga bog'liq. Uy vazifalarini bajarishda o'quvchilarni quyidagilarga odatlantirish kerak:

- avvalo, sinfda o'tilgan qoidani eslash;
- keyin darslikdan o'sha paragrafni o'qib chiqish;
- berilgan mashqni bir-ikki marta sinchiklab o'qish;
- mashq shartiga boqg'lab bajarish;
- shundan so'ng topshiriqni yozma bajarish.

Uyga vazifalar tekshirilib daftarlar vaqti-vaqti bilan yig'ishtirib olinadi. Bo'shroq o'quvchilarning daftarlari doimo nazorat qilinadi. Ona tili darslarida o'tgan darsni so'rash ko'proq frontal savollar asosida bajariladi, ya'ni savol butun sinfga beriladi, javobga mo'ljalda o'quvchi chiqariladi.

8-savol. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.

Metod – umumiy ma'noda maqsadga erishish usuli, muayyan tartibga solingan faoliyat demakdir. Didaktik ma'noda hamma fanlar uchun umumiy bo'lgan o'qitish usullari va vositalarini o'z ichiga oladi. Dars jarayonida ko'plab metodlardan foydalaniladi. Metod tanlashda quyidagi faktorlarga asoslanadi:

- o'quvchilar bilimni qaysi manbadan oladi (o'qituvchidan, kitobdan).
- o'quvchilarni mashg'ulotlarga jalb qilish jarayoni (moyillik, qiziqish).
- o'quvchilarning mustaqil ishlash shakllari (yozma, og'zaki) va o'rni (sinfda, uyda).

Metodika tarixidan shu narsa ma'lumki, hamma fanlar uchun umumiy bo'lgan metodlar va alohida fanlar uchun xarakterli bo'lgan metodlar mavjud. Ona tili o'qitish metodikasida ham xilma-xil metodlar qo'llaniladi. Bu metodlarni umumiy lashtirib ikkiga ajratish mumkin:

- 1) O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar;
- 2) O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.

O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlarni uchga ajratamiz:

- bilimlarni tayyor holida bayon qilish;
- bilimlarni suhbat holida bayon qilish;
- bilimlarni muammoli bayon qilish.

a) bilimlarni tayyor holida bayon qilish usuli. Bu metod ona tili darslarida juda ko'p qo'llanadi. Bayon qilish davomida murakkabroq, o'quvchilarga oldindan noma'lum mavzular izohlanadi. Bu usulning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Ijobiy tomoni vaqtni tejaydi. Salbiy tomoni o'quvchilarni fikrlash faoliyati ma'lum darajada chegaralanadi. O'quvchi passiv tinglovchiga aylanib qolishi mumkin. Bu negativ holatning oldini olish uchun o'qituvchi quyidagilarga amal qilgani ma'qul:

1. O'qituvchi nutq madaniyatiga e'tiborini qaratish.
2. Ishontirish va asoslash usulini keng qo'llash.
3. Qat'iy rejaga amal qilish.

b) bilimlarni suhbat yo'li bilan bayon qilish usuli. Bu usuldan darsning hamma bosqichlarida: yangi bilim berishda, bilimlarni takrorlash va mustahkamlashda, bilimlarni tekshirish va baholashda foydalansa bo'ladi. O'rganilayotgan material o'quvchilarga oldingi sinfdan qisman ma'lum bo'lsa, yoki o'quv materiali oldingi mavzu bilan bevosita bog'lansa darsda suhbat metodi qo'llasa bo'ladi. Suhbatda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida berilgan faktlarni kuzatadilar, o'zaro qiyoslaydilar va muhokama qiladilar. Bu usul o'quvchilar nutqini o'stirishda muhim omillardan sanaladi.

Suhbat uch xil bo'ladi: a) axborot xarakteridagi suhbat; b) evristik suhbat; c) o'tilgan mavzuni mustahkamlash xarakteridagi suhbat.

1. Axborot xarakteridagi suhbat. Yangi material o'tilayotganda o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan faktlarni nazarda tutib, ular suhbatga jalb qilinadi. Bunday suhbat qiyosiy usulda o'tiladigan mavzularda qo'l keladi: sifat o'tilayotganda o'quvchilardan sifatdoshning grammatik belgisini so'rash mumkin: o'qigan bola – yaxshi bola misoli vositasida ular o'rtasidagi umumiylik aniqlanadi. Yoki qaysi so'z turkumi zamon anglatadi?

2. Evristik (grek. heurisko–topmoq) suhbatda o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari ancha kengayadi. Bunda o'qituvchi oldindan ma'lum bo'lmagan yangi o'quv materiallari yuzasidan savollar beradi.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash xarakteridagi suhbat. Suhbatning bu turidan o'tilganlarni takrorlash, 5-6 kun oldin o'tilgan qoidalarni eslatish maqsadida foydalaniladi. Bunda savollar qo'shaloq bo'lmasligi kerak. Ba'zi savollar alternativ xarakterda bo'lishi mumkin.

v) bilimlarni muammoli bayon qilish. Bu usulda o'qituvchi til materiallarini tayyor holda bayon etmaydi, balki kuzatish, taqqoslash, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, umumiyashtirish kabi logik-lingvistik vositalardan foydalanib o'quvchilar oldiga ma'lum bir muammo qo'yadi. “Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo'yadi, yaxshi o'qituvchi esa uni topishga o'rgatadi” (V. O. Disternyng). O'quvchilar o'zlarida mavjud bilim va ko'nikmalar asosida muammoni yechadilar. Masalan, “Nutq tovushlari va ularning hosil bo'lishi” mavzusida:

- Har biringiz nutq tovushlarini hosil qilib ko'ring. Uni hosil qilishda qaysi nutq organlari ishtirok etadi?

- Nutq tovushlari talaffuzida qaysi nutq a'zolari aktiv ishtirok etadi?

9-savol. O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.

Ular ham uchta:

- reproduktiv metodlar;
- qisman izlanuvchanlik metodlari;
- izlanuvchanlikka asoslangan metodlar.

a) Reproduktiv metodlar. Bu usulda o'quvchilar tayyor material bilan ishlaydilar. Topshiriqni bajarishda namunaga qarab ish ko'radi: ko'chirib yozish, izohli yozuv, saylanma diktant O'quvchilarning orfografik va punktuatsion savodxonligini oshirish, og'zaki va yozma nutqini o'stirishda reproduktiv topshiriqlarning roli katta. Bu o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatadi va ayni

paytda keyingi metodlar qisman izlanuvchanlik va izlanuvchanlikka zamin yaratadi.

b) Qisman izlanuvchanlik metodlari. Bu usul o'quvchilarning internatsional (sharhlash, tushuntirib berish) faolligini oshirishga qaratilgan. Qisman izlanuvchanlik metodi tarkibida katta xotirlash (reproduktiv) asosiy o'rinni egallaydi. Chunki o'quvchi har qanday fikrini asoslashi kerak.

Bu metodda quyidagi ish usullari qo'llaniladi:

- nuqtalar o'rniga zarur harf, qo'shimcha, so'zlar qo'yish;
- ma'lum bir so'zni boshqasi bilan almashtirish;
- gapga ma'lum bir o'zgartirishlar kiritish orqali ma'no o'zgarishini tushuntirish;
- ma'lum uslubga muvofiq matn tanlash;
- tayanch so'zlar yordamida (ishtirokida) matn tuzish kabilar.

v) Izlanishga asoslangan metodlar. Bu metod asosida bajariladigan ishlar o'quvchi faoliyatining kulminatsiyasi sanaladi. Bu usul izlash, yangilik topish uchun harakat qilish, qidirish, axtarish ma'nolarini anglatadi. Bu metod o'quvchidan ona tilidan o'rganilgan qonun-qoidalarini tamoman yangi vaziyatda qo'llashni talab etadi. O'quvchilarning grammatik qoida talabiga muvofiq so'z, so'z birikmasi, gap va matn tanlashi; erkin diktant, insho; o'qilgan badiiy asarga taqlid yozish; badiiy asar tilini mustaqil o'rganish; gazeta va jurnallarga maqola yozish, referat tayyorlash kabi ish usullarida tadqiqotchilik faoliyati namoyon bo'ladi.

10-savol. Fonetika o'qitish prinsiplari, maqsad va vazifalari.

Til haqidagi fanlarning har bir bo'limi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularni o'rganishda umummetodik prinsiplardan tashqari shu bo'limlarning xususiyatlaridan kelib chiqadigan xususiy metodik prinsiplarni e'tiborga olish kerak. Fonetika o'qitish quyidagi xususiy metodik prinsiplarga ega:

- o'quvchilarni o'z nutq ohangiga tayanish;
- tovushni morfema tarkibida ko'rib chiqish;
- tovush va harfni qiyoslash.

Maktabda "Fonetika" bo'limini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda amaliy malakalar – savodxonlikni, to'g'ri so'zlashni shakllantirish va takomillashtirishdan iborat.

Nutq tovushlarini kishilik hayotida tutgan o'rnini, nutq tovushlarining boshqa tovushlardan farqini, nutq tovushlarining paydo bo'lish yo'llarini, nutq tovushlarini hosil qiladigan organlarning vazifalarini, tovush va harf munosabatini, bo'g'in va urg'uni o'quvchilarga o'rgatish fonetika bo'limini o'qitish vazifalari sanaladi.

O'quvchilarning orfografik savodxonligi ko'proq talaffuz bilan bog'liq bo'lgani uchun fonetika o'qitishga diqqatni ko'proq qaratmoq kerak.

11-savol. Nutq tovushlarining metod va usullari.

Fonetika termini haqida ma'lumot: bu bo'lim nutq tovushlari, tovushlarning yozuvdagi ifodasi – harf, alfavit, unlilar imlosi, urg'u, undoshlar imlosi, bo'g'in, nutq tovushlarining so'z ma'nosiga ta'siri kabi materiallarni qamrab oladi.

O'quvchilarga "Fonetika" bo'limini his qildirish uchun biror matn olinib, u so'zlarga ajratiladi. So'zlardagi tovush va harf miqdori aniqlanib, ulardagi unlilar

va undoshlar belgilanib, so'zlar bo'g'inlarga, satrdan ko'chiriladigan qismlarga ajratish topshiriladi.

Shundan so'ng nutq apparati va nutq tovushlari haqida ma'lumot beriladi. Nutq tovushlarining talaffuzdagi farqlaridan tashqari, ma'no farqlash xususiyatlari haqida ham gapiriladi: bel, bil, bo'l, bol, ... ,tosh – mosh. Shundan so'ng unli tovushlar haqida ma'lumot beriladi. Unli tovushlarning xarakterli tomonlari undoshlarga qiyoslanadi.

Fonetikani o'rganishda eng muhim masalalardan biri imlodir. Har bir tovushni imlo bilan birga o'rganish zarur.

Fonetikaning eng murakkab tomonlaridan biri undosh tovushlar va ularning talaffuz imlosidir. Uzviylashtirilgan davlat dasturida undosh tovushlar tasnifi berilgan. Bu o'quvchilarning talaffuz imlosini o'rganishga katta yordam beradi: o'quvchilar biror fonemaga ikkilanganda bu qanday fonema demasdan, balki qayerda hosil bo'ladi? deb so'rash maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarning undosh tovushlar talaffuzi va imlosini yaxshi o'zlashtirishlari uchun quyidagicha mashq bajarish mumkin:

- so'zlarni b – p, d – t, g – k, g' – q, f – p, ch – j farqlovchi juftlarga ajrating;
- jarangli va jarangsiz undoshlarni izohlang;
- x – h tovushlari bilan farqlanuvchi so'zlarni toping;
- f fonemasi ustida ishlash va boshqalar.

II oraliq nazorat savollari.

1-savol. Leksikologiya o'qitishning prinsiplari, maqsad va vazifalari.

Bu savolga javob berish uchun tilshunoslik bo'limlarini eslab turib, ularni har birining o'ziga xos tomonlarini mujassamlashtirganini hisobga olish zarur.

Nutqimizning aniq, ravon, mantiqiy bo'lishida so'z masalasining o'rni bo'lsin. Uni o'quvchilarga o'rgatishning o'ziga xos prinsiplari mavjud.

-leksik-grammatik prinsip: nomidan ma'lumki so'zlarning leksik ma'nosi bilan gap ma'nosi qiyoslanadi. Bunda leksik ma'no nima, grammatik ma'no nima degan savolga javob tayyor bo'lish kerak. Leksik ma'no so'zlarning lug'aviy ma'nosi, ya'ni biror narsa, predmet, belgi, xususiyat kabilarni anglashi lozim. Grammatik ma'no so'z (leksika)ning grammatika ixtiyoriga o'tgandan keyingi ma'nosi: "o'rik"ning mevaligi predmetni ifodalashi bo'lsa, turdosh ot, bosh kelishikdagi birlik sondagi otligi grammatik ma'nosidir. Bundan leksemalar ham leksik, ham grammatik ma'nolarga ega bo'lgan til birliklaridir.

-kontekstli prinsip. Bu prinsipga ko'ra so'z (leksema)ning ma'nosi kontekst (matn)da qaraladi. Kontekst so'zlarni boshqa ma'nolardan tozalaydi. So'zda bir necha ma'no bo'lishi mumkin. Lekin u matnda bitta ma'nosi bilan qatnashadi. Sintagmatik aloqa vositasida o'tiladi (sintagma –bir yoki bir nechta so'zdan iborat sintagmatik intanatsion mazmuniy nutq birligi). Demak bu o'rinda so'z (leksema)ga nutq birligi sifatida qaraladi.

-leksik–sintaktik prinsip. Bunda ham so'nggi nutq jarayonida bajaradigan vazifasi nazarda tutiladi, ya'ni so'z birikmasini qiyoslash nazarda tutiladi: qalam –

qizil qalam. Qalam so'zi nutq sharoitiga qarab boshqa so'zlar bilan birikib so'z birikmasi hosil qiladi. So'z (leksema)ning ma'nosi yonida konkretlashmoqda.

So'zning bunday prinsplar asosida tushuntirilishi o'quvchilarga so'z mohiyatini, nutqdagi o'rnini yanada chuqurroq anglash imkoniyatini beradi.

Tilshunoslikning bu bo'limini o'rganishdan asosiy maqsadi ham yuqoridagi tahlil asosida yuzaga chiqadi, ya'ni so'z va tushunchalarni o'zaro munosabati, so'zlarning ma'no tiplari, so'z ma'nolarining ifodalanish yo'llarini o'rgatishdir.

Har qanday bo'limni o'qitishdan maqsad qilib uni o'quvchilarga o'rgatishning eng asosiy tomonlari olinsa ana shu maqsadi detallashtirilgan holda ro'yobga chiqadi uning vazifasini belgilaydi ya'ni, bu bo'limning asosiy vazifasi so'z ma'nolarining taraqqiyoti, ko'p ma'nolikning hosil bo'lishi, lug'at tarkibining grammatik ko'rilish bilan bog'liqligi so'zning grammatik ixtiyoriga o'tgandan keyin o'zgarish sabablari iboralar va ularning shakllanishini o'rganishdir.

Vazifa qilib belgilangan har bir tushuncha atroflicha tahlil qilinadi. Masalan, so'zlarning grammatika ixtiyoriga o'tgandan keyin o'zgarish sabablari deyilganida so'zning grammatik jihatdan o'zgarishi nazarda tutiladi: Maydondagi chiroyli gullardan terdik gapidagi maydondagi, gullardan, terdik so'zlari maydon, gul, ter –shakllarida mavjud. Ularning gap tarkibida nima sababdan o'zgargan holda ishtirok etishi tushuntiriladi va h.k.

2 –savol. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarni, iboralarni o'tish metodikasi.

O'quvchilarga, avvalo, so'zning lug'aviy ma'nosi haqida tushuncha berish, so'zlarni bir predmet, belgi, harakat va boshqalarini anglatadi, uning lug'aviy ma'nosi sanaladi. Lekin so'zlarning hammasi bir ma'noli yoki bir necha ma'noli bo'lmasligi takidlanadi. Shu xususiyatlarga ko'ra so'zlar bir ma'noli va ko'p ma'noliga ajratiladi. Agarda so'zlar anglatadigan ma'no birdan ortiq bo'lsa ko'p ma'noli sanaladi. Buni tushuntirish uchun ham har bir so'zni biror lug'aviy ma'noga ega bo'lishi aytiladi: odam, bola, farzand, o'g'il, qiz so'zlari umuman insonga xos so'zlar bo'lsada ular bir biridan farqli, boshqa boshqa ma'nolarni anglatadi. Shuning uchun ham ularning har birini alohida so'z deymiz. Ko'p ma'noli so'zlar bir necha ma'noni anglatmada ular bir so'z sanaladi, chunki, birinchidan, bir shaklga ega, ikkinchidan, bosh –asosiy ma'nodan boshqa ma'nolari yuzaga kelgan. Masalan, ko'z so'zi anglatgan ma'nolar.

Birgina ma'no anglatadigan so'zlarni bir ma'noli so'zlar deb atalishi aytilib unga misollar keltiramiz. Alfavit, urg'u, radius, diametr, zoologiya va boshqalar.

Leksikologiya o'ta boshlagadanoq o'quvchilarni lug'atlar bilan ishlashini mashq qildiradi borish kerak. "Imlo lug'ati" , "O'zbek tili izohli lug'ati"dan foydalanish yo'llarini o'rgatish zarur. Izohli lug'atda so'zlarning, xususan, ko'p ma'noli so'zlarning berilishini alohida tushuntirish lozim. Shundan keyin ko'p ma'noli so'zlarning xosil bo'lishi sabablari tushuntiriladi, ya'ni so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari haqida ma'lumot beriladi: ko'chma ma'no asosida ko'p ma'nolilik yuzaga keladi. Ular bo'yicha mashqlar ishlanadi. Bunda asosiy e'tibor so'zlarning ko'chma ma'nolarini aniqlashga qaratilishi zarur. So'z va uning ma'nosi bilan bevosita aloqador bo'lgan omonim, sinonimlar, antonimlar, poronimlar, uyadosh so'zlar kabi hodisalarga ham o'quvchilar diqqati qaratilishi lozim. Bular orasida uyadosh so'zlar va ularni o'qitishga diqqatni qaratish lozim.

Chunki uyadosh soʻzlar nisbatan eng yangi tushuncha, shu bilan birga bir uyga mansub soʻzlarni aniqlash ancha murakkablik qiladi. Bunda soʻzlarning juftlashishi umumiydan xususiya qarab yoʻnaltirilgan boʻladi, masalan darxat soʻzining uyadoshlari umuman butun boshqa soʻzlarni qamrab oladi. Ular uchun umumiy boʻlgan daraxt uya boshi sanaladi. Ulardan keyin avvalo mevali soʻng manzarali daraxtlar keltirilishi lozim. Xuddi shuningdek, “mevali daraxtlar” ham, manzarali daraxtlar ham alohida –alohida uyani hosil qiladi. Leksikologiyaga oid materiallar iboralarni oʻtish bilan yakunlanadi. Ibora haqida tushuncha berilar ekan uning butunicha koʻchma maʼnoda qoʻllanilishi aytiladi. Bu qiyinchilik tugʻdirmaydi chunki koʻchma maʼnoda qoʻllanilishi nima ekanligi oʻquvchilarga maʼlum. Maktab darsligida gap boʻlaklariga teng iboralarni oʻtish maqsadga muvofiqdir: oq koʻngil, suv quyganday, kapalagi uchdi.

Iboralar oʻqitilganda unga tavsif berib iboraning maʼnosi bilan mustaqil soʻzga teng kelishi: uning tarkibida birdan ortiq mustaqil soʻzning boʻlishi. Iboralardan oʻrganish, foydalanish nutqning taʼsirchanligini oshirish haqida maʼlumot berish kerak. Shuni ham aytish kerakki iboralarni tushuntirishda koʻchma maʼnosini osongina tushunadigan ularning yoʻllariga mos misollar tanlanishi zarur:

-Oyi nega qovogʻingizni solayapsiz?

-Koʻzim uchdi.

-Iya, turibdi-ku. Oʻquvchilarga leksik –frazologik mashqlar bajartirish mavzuni mustahkamlaydi.

3–savol. Morfologiya oʻqitishning maqsad va vazifalar hamda mustaqil soʻzlarni oʻtish metodikasi.

Bu savolga javob berish uchun avvalo maktab ona tili kursining qanday qismlardan iboratligini, shulardan biri grammatikaligi hamda grammatikaning ikkiga ajratilishi haqida toʻxtaladi. Shulardan biri morfologiya ekanligi aytilib, uning nimalarni oʻrganilishi haqida toʻxtaladi. Shundan soʻzning, uning maqsadi – nutqimizda qoʻllaniladigan soʻzlarning anglatadigan maʼnolari, morfologik belgilari, sintaktik funksiyalariga koʻra turkumlarga ajratish prinsiplarini oʻrgatishdir.

Oʻquvchilarga har bir soʻz turkumiga xos boʻlgan grammatik kategoriyalarini (masalan, otga xos: egalik, kelishik, son; sifatga xos: daraja, intensiv shakl va boshqalar), soʻz turkumlarining yasalişini (qoʻshimchalar qoʻshish, soʻzga soʻz qoʻshish yoʻli bilan), soʻz shakllarini (asosga qoʻshimchalar qoʻshishni: kitobga, mening, qizilroq), soʻz turkumlarining funksional qoʻllanilishi, soʻz shakllarining soʻz birikmasi va gap qurilishidagi rolini, morfologiyaning orfografiya bilan bevosita aloqadorligini, morfologik shakllangan soʻzlarning stilistik vazifalarini tushuntirish asosiy vazifalari sanaladi.

Mustaqil soʻz turkumlarini oʻtishda, avvalo soʻzlarning qanday prinsiplariga koʻra guruhlanishi haqida toʻxtalib, nima uchun mustaqil soʻzlar deb nomlanishi aniqlanadi. Nutqimizda qoʻllaniladigan soʻzlar anglatgan maʼnoga koʻra, bajargan funksiyasiga koʻra bir xil emas. Ularning ayrimlari lugʻaviy maʼno anglatga, ayrimlari bu xususiyatga ega emas. Bunday soʻzlar grammatika ixtiyoriga oʻtgandan keyin ularning grammatik maʼnolariga, vazifalariga diqqat qaratiladi.

Ham lug'aviy, ham grammatik ma'noga ega bo'lgan so'zlarni mustaqil so'zlar deb yuritamiz. Mustaqil so'zlar obyektiv borliqdagi narsa, predmet, belgi, xususiyat, miqdor kabi tushunchalarni anglatishiga ko'ra yana guruhlariga ajratiladi. Mustaqil so'zlar 3 ta prinsipga ko'ra guruhlariga: semantik, morfologik, sintaktik prinsiplardir. Shunday hollar bo'ladiki biror so'zning qaysi turga mansubligini aniqlash qiyinlashadi: *katta* –sifat; bir kattaning gapini ol, bir kichikning; katta gapirdi, yoki oy –ot, oy yuzli, oy borib omon qayt. Shunday hollarda yuqoridagi prinsiplar ish beradi. Mustaqil so'zlar 6 ta bo'lib shulardan biri ot so'z turkumidir.

Otlarning predmet ma'nosini anglatishiga ko'ra kengroq to'xtalishimiz kerak; ularga misollar keltiriladi: qalam, havo, koinot, xayol kabi. Ot mavzusi o'tilayotganda fonetika va so'z turkumlariga oid ba'zi mavzular esa tushiriladi. Chunki otlarga qo'shimchalar qo'shilganda ayrim o'zgarishlar yuz beradi: Bek – begi, tayoq –tayog'i kabi.

Ot haqida umumiy ma'lumot berilgach, uni grammatik kategoriyalari atoqli va turdosh otlar, turdosh otlarning semantik guruhlar alohida –alohida mavzu sifatida o'tiladi. Atoqli otlarning imlosiga alohida diqqat qaratiladi. Turdosh otlar o'tilganda uning semantik guruhlariga o'quvchilar e'tibori qaratilib, o'qituvchi nima sababdan turdosh otlar bunday semantik guruhlariga ajratiladi degan savolni o'ziga berib uning javobini o'quvchilarga turshuntirish kerak.

4–savol. Yordamchi so'z turkumlari va alohida ajratilgan so'zlarni o'tish.
Yordamchi so'z turkumlarini o'tishda quyidagi maqsadlar qo'yiladi.

–o'quvchilarning grammatikadan olayotgan bilimlarini yanada boyitib, har bir yordamchi so'z turkumini o'ziga xos xususiyatini o'rgatish;

–yordamchi so'zlarning mustaqil so'zlardan va o'zaro bir-biridan farqlarini o'rgatish;

–o'quvchilarning yordamchi so'zlarni o'z nutqida to'g'ri qo'llay olishlarini o'rgatish;

–yordamchi so'zlarning, ayniqsa, yuklamalarning yozilishini o'rgatish.

Buning uchun o'qituvchi yordamchi so'zlarni mustaqil so'zlar bilan qiyoslab ular o'rtasidagi farqni tushuntiradi: mustaqil so'zlar biror so'roqqa javob bo'lib, biror gap bo'lagi vazifasida keladi, yordamchi so'zlar bu xususiyatga ega emas. Bunda mustaqil va yordamchi so'zlar ishtirok etgan gap olinib, ular bir – biriga taqqoslanadi.

Shundan keyin yordamchi so'zlarning 3ga: ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalarga ajratilishi haqida to'xtaladi. Shulardan biri ko'makchilar bo'lib ularning sof va vazifadosh ko'makchi so'zlarga ajratilishi aytiladi. Ularning o'ziga xos tomonlari atroflicha muhokama qilinadi.

“Ko'makchi” mavzusi o'tilayotganda o'quvchilar diqqati ko'makchi bilan otlarning kelishik qo'shimchalari o'rtasidagi munosabatga qaratilishi kerak. Ko'makchilarning gap ma'nosiga ta'siriga alohida e'tibor berishi zarur: Akam bilan birga ketdi –Akam birga ketdi. Birinchi gapda akam ustun, ikkinchi gapda tobe bo'lib kelmoqda.

Ko'makchi vazifasidagi so'zlarni sof ko'makchilarga qiyoslansa, tushunish oson kechadi: Adxam keyin boradi. Tushdan keyin yomg'ir yog'di. Keyin –ravish,

ikkinchi gapda ko'makchi bo'lib kelmoqda. Bunga o'xshash misollarni o'quvchilarning o'zlariga ham toptiriladi.

Nutqimizdagi shunday so'zlar ishlatiladiki, ularda mustaqil so'zlarga xos xususiyat ham, yordamchi so'zlarga xos xususiyatlar ham yo'q. Xuddi yordamchi so'zlar kabi gap bo'lagi bo'lib kela olmaydi, lekin yordamchi so'zlar doirasiga ham kirmaydi. Ularning o'ziga xos xususiyatlariga va gapdagi vazifasiga ko'ra uchga ajratamiz: modal so'zlar, undov so'zlar, taqlid so'zlar.

Modal so'zlarni o'tishda, avval, nazariy ma'lumot beriladi. Modal so'zlar so'zlovchining anglatilayotgan fikrga munosabatini bildiradi. Ular gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirmaydi, biror gap bo'lagi bo'lib kelmaydi. So'zlovchining anglatgan fikriga munosabati aniq (albatta, haqiqatdan) yoki noaniq (ehtimol, chamasi) bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra ularni ikkiga ajratamiz: 1) fikrning aniqlanishini ifodalovchi; 2) fikrning noaniqligini ifodalovchi modal so'zlar. Xuddi shuningdek, undov so'zlar o'tilayotganda ham, taqlid so'zlar o'tilayotganda ham ular haqida qisqacha nazariy ma'lumot beriladi, turlari aytiladi hamda matndagi undov yoki taqlid so'zlar topilib o'quvchilarning bilimlari mustahkamlanadi.

5-savol. Sintaksis o'qitishning maqsad va vazifalari hamda so'z birikmasini o'tish metodikasi.

Ona tili darslarning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqini o'stirishdir. Bu maqsadning amalga oshishida sintaksis o'qitishining ahamiyati katta. Sintaksis o'qitishning asosiy maqsadi uni morfologiya bilan qiyoslab o'rganish, shuningdek, so'z turkumlari bilan gap bo'laklari orasidagi farqli va bog'lanishli tomonlarini tushuntirishdan iborat.

O'quvchilar nutqining intanatsion tomonini o'rgatish; o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini, tafakkurni o'stirish, takomillashtirish bu kursning asosiy vazifasi sanaladi.

O'quvchilar sintaksisni o'rganish orqali o'z nutqlarida uchraydigan xatolarni biladilar va ularni bartaraf qilishga harakat qiladilar. Sodda qo'shma gaplarni tahlil qilish jarayonida tinish belgilarning ahamiyatini anglab yetadilar. Tinish belgilarni qo'yilishiga qarab gapni intonatsiya bilan o'qishni o'rganadilar.

Kishilar o'z fikrlarini obyektiv dunyoda ko'rgan bilganlari asosida tartibga soladilar. Obyektiv olamda alohida olingan narsa yo'q. Ular bir-biri bilan aloqada bo'ladilar. Nutq ham xuddi obyektiv olamdagidek o'zaro aloqador, bo'lgan narsalarni ifodalash vositasidir. Gap bo'laklaridagi sintaktik, logik bog'lanishlar ham qonuniy grammatik hodisalardir.

O'quvchilar sodda va qo'shma gaplarni o'rgana borib, real borliq va taraqqiyotning dialektik qonunlarini ham o'rganadilar. Bu o'quvchilar fikrining mantiqan izchil, to'g'ri va asosli bo'lishini ham uqtiradi.

Yuqorida aytilganidek nutqimizdagi so'zlar o'zaro bir –biri bilan aloqador. Ana shu aloqadorlik so'z birikmasini hosil qiladi. So'z birikmasi haqidagi dastlabki ma'lumot boshlang'ich sinflarda amaliy ish sifatida beriladi. V sinfdan maxsus mavzu sifatida quyidagicha ma'lumot beriladi:

-so'z birikmasi hokim va tobe so'lardan tuziladi;

-so'z birikmasida so'roq hokim so'zdan tobe so'zga beriladi;

-so'z birikmasi o'zaro predmet, belgi, ish-xarakatni aniqlaydi, ifodalaydi;
-so'z birikmasining turi hokim so'zga nisbatan belgilanadi: otli birikma, fe'lli birikma.

VIII sinfda sintaksisni o'rganish "so'z birikmasi"dan boshlanadi. Unda V sinfda o'tilganlar takrorlanib yangi material ham beriladi. Demak o'qituvchi biror sinfda ona tilining bo'limlarini o'tayotganda quyi sinflarda shu mavzu yuzasida o'tilganlarni hisobga olishi kerak.

VIII sinfda mustaqil so'zlarning o'zaro tenglashish va tobelashish asosida birikishi haqida ma'lumot berib, bu birikishlarning qaysi biri so'z birikmasi sanalib, qaysi biri so'z birikmasi sanalmasligi asoslanadi. O'quvchilarda so'z birikmasi haqida bilim, malaka va ko'nikma hosil qilish uchun ko'proq mustaqil mashq bajarish kerak. Chunki hokim va tobe so'zni to'g'ri topa olmagan o'quvchi so'zlarni o'zaro bog'lanishini ham aniqlay olmaydi.

Hokim so'z bilan tobe so'z haqida malaka hosil qilgach, so'z birikmalarning ta'rifi beriladi.

Keyingi darslarda hokim so'z bilan tobe so'zlarning bog'lanish usullari haqida ma'lumot beriladi: moslashuv, boshqaruv, bitishuv.

6 –savol. Sodda va qo'shma gaplarni o'tish.

Gap haqida ma'lumot o'quvchilarga boshlang'ich sinflarda berilgan bo'ladi. VIII sinfda nisbatan kengroq ma'lumot beriladi. Bunda gapning aloqa va aralashuv quroli ekani, ularni nisbatan tugal fikr ifodalanishi grammatik shakllanganligi, tugallanmagan ohang bilan aytilishi o'quvchilar ongiga singdiriladi. Buning uchun o'quvchi tomonidan gap aloqa aralashuvining eng kichik birligi ekanligi aniq misollarda tushuntiriladi. Gapning nisbiy tugallangan fikr ifodalashini gap bilan so'z birikmasi taqqoslagan ko'rgazmali qurol asosida tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Yozgi kanikulni ko'ngilli o'tkazdik. Yozgi kanikul, ko'ngilli o'tkazdik. Mana shunday qiyosiy tahlildan keyin o'quvchilarga gapning ma'no va grammatik jihatdan turlangan nutq parchasi ekanligi tushuntiriladi.

Gapning biror narsa, predmet va hodisalarni ifodalashidan tashqari so'zlovchining fikriga munosabatini ham uqtirish kerak. Bu o'rinda intonatsiyaning o'rni ham aytilishi ham zarur. Shu jihatdan gaplarning darak, so'roq, buyruq gaplarga ajratilishi ularni mazmun va ohangiga ko'ra farqlanishini tushuntiradi. Chunki so'zda ma'no bor, gapda fikr bor, fikrda emotsionallik bor. Paxta terimi boshlandi. Paxta terimi boshlandi! Bunday tushunchani mustaxkamlash maxsus tanlangan gaplarni mashq qildirish kerak. Shundan so'ng gapning mazmuniga ko'ra turlari sodda va qo'shma gaplar haqida ma'lumot beriladi. Bu o'rinda ham xuddi so'z birikmalari bilan gapni qiyoslab tushuntirilganidek, sodda gaplar bilan qo'shma gaplar qiyoslanadi.

Sodda gaplarni o'tishda, avvalo, egali va egasiz gaplar haqida ma'lumot beriladi. Bunda dastlab gap bo'lagiga to'xtaladi. Gap bo'laklarini yaxshi o'zlashtirish uchun so'z birikmalarini yaxshi o'zlashtirish kerak bo'ladi. Gapning grammatik asosini ega bilan kesim tashkil qiladi, shuning uchun ham ular gapning bosh bo'laklari sanaladi. Shundan so'ng eganing ifodalanishiga kengroq to'xtaladi. Eganing ot va otlashish bilan ifodalanishi o'quvchilarga qiyinchilik

tug'dirmaydi. Lekin boshqa so'z turkumlari, xususan, bitikmali ega biroz qiyinchilik tug'diradi: Kattalarga tik gaprish bizning axloqimizda yo'q.

Kesim mavzusi o'tilayotganda uning gapning markazi ekanligi alohida misollar vositasida tushuntiriladi. Bu o'rinda murakkab kesim haqida ham ma'lumot beriladi. Gapning uyushiq bo'laklari mavzusi bilimlarni mustahkamlash darsi tipida o'tiladi. Bu o'rinda uyushiq kesimlarga kengroq to'xtaladi, sodda gaplar talqinida "gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishayotgan so'zlar"ni batafsil tushuntirish kerak.

Qo'shma gap haqida ma'lumot suhbat metodi asosida olib boriladi. Chunki qo'shma gap termini o'quvchilarga quyi sinflardan ma'lum. IX sinfda bu mavzu chuqurroq o'rganiladi.

Bunda ham qo'shma gaplar sodda gaplar bilan muqoyasa qilinadi. Sodda gaplardan qo'shma gaplar tuzish mumkinligi aytiladi. Shundan so'ng o'quvchilarning o'zlariga shunday misollar topish buyuriladi. Lekin o'quvchilar zerikib qolmasligi kerak. Yuqorida tahlil qilingan va o'quvchilarning o'zlari tuzgan qo'shma gaplarning turli xilda ekanligi tushuntirilib qo'shma gaplarning turlari aytiladi.

1. Teng bog'lovchili qo'shma gap.
2. Ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gap.
3. Yuklamali qo'shma gaplar.
4. Nisbiy so'zli qo'shma gaplar.
5. Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar.

Qo'shma gaplarning har qaysi turiga alohida –alohida to'xtalib, komponentlar orasidagi munosabatlarning ularni biriktiruvchi vositalarga mos kelishiga diqqat qaratiladi. Qo'shma gaplarni o'tishda o'quvchilarning bog'lovchilar hamda yuklamalar haqida bilganlarini eslatish kerak.

7–savol. Orfografiya o'qitishning maqsad va vazifalari, orfografik mashqlarning turlarini o'tish.

Orfografiya o'qitish metodikasi o'zbek tili o'qitish metodikasining bir qismi bo'lib, uning *asosiy maqsadi* –orfografik savodxonlikni shakllantirishdir. Ya'ni harfiy va harfiy bo'lmagan vositalar yordamida mavjud orfografik qoidalar asosida so'zlarni yozishdir.

Orfografik savodxonlikning ikki darajasi mavjud:

- a) mutloq orfografik savodxonlik;
- b) nisbiy orfografik savodxonlik.

Mutloq orfografik savodxonlik deyilganda amaldagi orfografik qoidalarining hammasini biladigan, o'zbek tilda bor bo'lgan hamma so'zlarni bexato yoza oladigan kishi nazarda tutiladi. Nisbiy orfografik savodxonlik –maktabda o'rganilgan orfografik qoidalarga mos xolda so'zlarni yoza olish malakasi. Maktabda mutloq savodxonlik talab qilinmaydi. Chunki, birinchidan, hamma orfografik qoidalarining bir qismi o'rganiladi, ikkinchidan, tilimizdagi ko'pgina so'zlarni amaldagi orfografik qoidalar boshqarmaydi. Ularning imlosini lug'atlardan o'rganish kerak: xalqaro, qaro ko'zum, tatbiq, tadqiqot kabi. Shuning uchun ham maktabda nisbiy savodxonlikni egallash talab qilinadi.

O'quvchilarni to'g'ri yozishga o'rgatishda lug'at bilan ishlashning ahamiyati katta.

Yozuv bilan o'qishning tafovutini anglash, o'qishda so'zlarning imlosiga ahamiyat berish malaksini shakllantirish, o'quvchilarni to'g'ri yozishga o'rgatish orfografiya darslarining asosiy vazifasidir. Buning uchun orfografik mashg'ulotlardan unumli foydalanish, har bir sinfda imlo uchun beriladigan bilimlarni belgilab olish zarur. Har bir sinfda orfografik minimumni aniqlash lozim.

Imlosini orfografik qoida bilan tushuntirib bo'lmaydigan, faqatgina imlo lug'atidan foydalanib yod olinadigan so'zlar orfografik minimumga kiritiladi. Ular taxminan V sinfda 180 ta, VI sinfda 170ta, VII sinfda 150ta, VIII –IX sinflarda 140ta atrofida so'z bo'lishi mumkin. Orfografik qoidalar o'zbek tilining fonetik qurilishi bilan bog'liq bo'lib, I –VII sinflarda grammatika o'qitilishi bilan bog'lab olib borilsa, VIII –IX sinflarda yozma ishlarga bog'lab ayrim imlo qoidalar takrorlanib boriladi.

O'quvchilar ta'limning dastlabki paytlaridanoq to'g'ri yozishga odatlanib boradi. Bunga erishish uchun har bir so'zning imlosini bee'tibor qoldirmasdan tahlil orqali doim xatolarini tuzatib borish kerak.

O'quvchilarda orfografik malakalarni shakllantirish uchun o'tkaziladigan mashqlarni ikki guruhga ajratamiz:

- 1)maxsus orfografik mashqlar;
- 2)maxsus bo'lmagan orfografik mashqlar.

Maxsus orfografik mashqlarga ko'chirib yozish va diktant (ijodiy va erkin diktantdan boshqa) kiradi.

8 –savol. Orfografik xatolarni tuzatish va tahlil qilish.

O'quvchilar savodxonlik darajasini o'rganish ularning orfografik va punktuatsion xatolarini orfografiya o'qitishda asosiy o'rinda turadi. O'quvchilar savodxonlik darajasini oshirishda "Imlo lug'ati"ning ahamiyati katta. Undan foydalanish tartibini o'quvchilarga o'rgatish zarur. Lug'at daftar yuritish ham foydali.

Maktabda o'tkaziladigan barcha yozma ishlar o'quvchilar savodxonligini aniqlash vositasidir. O'quvchilardan olingan har bir yozma ishning, albatta, xatolari tuzatilishi kerak aks holda o'quvchi xatolarga befarq qaraydigan bo'lib qoladi. Xatolarni tuzatishda o'quvchilarning o'zlarini ham jalb qilish kerak. Nazorat xarakteridagi yozma ishlar o'qituvchi tomonidan tekshiriladi.

Uyga berilgan topshiriqlar quyidagicha tekshirilishi mumkin:

- parta ustiga qo'yilgan daftarlarni tekshirib chiqish;
- biror o'quvchini doskaga chiqarib uning yozganini tekshirish;
- har bir gapni navbat bilan o'qitish, yozilishini so'zlatish.

O'qituvchilar o'quvchilarning xatolarini tuzatishda ko'proq mustaqil ishlashga majbur qiladigan ishlar ham mavjud:

- xato yozilgan harfning tagiga chizish;
- xato yozilgan bo'g'ining yoki so'zning tagiga chizish;
- xato yozilgan so'z qatoridagi xoshyoga belgi qo'yish.

Ba'zan diktantdagi xatolar ro'yxati yozib olinib, faqat ularning miqdori aytilib, ularni tuzatish o'quvchilarning o'zlariga topshiriladi. Bunda o'quvchining mustaqil ishi ko'proq bo'ladi. Xato tuzatishning bu usulida ko'proq darslik, qo'llanmalardan foydalaniladi.

Xatolarning bir necha turlari mavjud: qo'pol xatolar, qo'pol bo'lmagan xatolar, o'tilgan qoidaga oid xatolar, o'tilmagan qoidaga oid xatolar.

Qo'pol xatolar. O'tilgan qoidalarga yoki o'zlashish darajasi tekshirilayotgan qoidalarga, o'quvchilar uchun tanish bo'lgan so'zlardagi xatolar.

Qo'pol bo'lmagan xatolar. O'quvchilarga tanish bo'lmagan so'zlarda qilingan xatolar, ko'chirishdagi xatolar, bir so'zni ikki xil yozish, ba'zan tasodifan yo'l qo'yilgan xatolardir. Bir so'zni bir necha o'rinda bir xil xato bilan yozilishi bir xato sanaladi.

Uyga berilgan mashqlar ham nazorat ishi darajasida baholanadi. Agarda ko'chirib yozib kelish buyurilgan bo'lsa, unda o'quvchi xatoga yo'l qo'ysa bir xatoga ham qoniqarsiz baho qo'yish mumkin. Matnni o'zgartirib yozish topshirig'ida 2 -3 orfografik xatoga ham ikki qo'yish mumkin. Agar vazifa to'g'ri bajarilsa-yu, boshqa yo'nalishda bajarilsa, ya'ni mavzudan tashqariga chiqqan bo'lsa, o'quvchi topshiriqni tushunmagan hisoblanib ish baholanmaydi.

Orfografik xatolar bir necha sabab bilan vujudga keladi:

Umumiy xarakterdagi sabablar:

- yagona orfografik rejimning joriy qilinmaganligi;
- sinf o'quvchilarining savodxonlik darajasining har xilligi;
- o'quvchilarning turli fanlar bo'yicha topshiriqlar bilan mashg'ulligi;
- orfografik sistemalar bilan bog'liq sabablar.

Xatoga o'qituvchi va o'quvchining o'zlari sabab bo'lishlari mumkin:

- orfografiya o'qitishning yagona sistema bilan izchillikning bo'lmasligi;
 - orfografiya o'qitish metodlarini to'g'ri tanlay olmaslik;
 - o'qituvchining ba'zi imlo xatolariga yo'l qo'yishi;
 - tanlangan mashqlarning o'quvchilar saviyasiga to'g'ri kelmasligi, bunda o'qituvchining ikkilanishi;
 - xatolar bilan ishlashda muayyan sistemaning yo'qligi;
 - o'qituvchining darsga puxta tayyorlanmasligi.
- Xatolarning yuzaga kelishida o'quvchilarning sabab bo'lishi:
- o'quvchilar ba'zi so'zlarning ma'nosini tushunmaydi;
 - biror orfografik qoidani bilmaslik yoki to'liq tadbiq qila olmaslik;
 - adabiy til bilan sheva o'rtasidagi o'xshashlik va noo'xshashlik tomonlarni ajarata olmaslik;
 - yozilayotgan matnga diqqatni to'la qaratmaslik.

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan orfografik xatolarning oldini olish uchun, xato yozilishi mumkin bo'lgan so'zlarni to'g'rilab doskaga yozib qo'yiladi.

Orfografiya o'qitish metodikasida diktant tahlili muhim o'rin tutadi. Diktant tekshirilgach xatolar tasniflanib, tipik xatolar, tipik bo'lmagan xatolar, ayrim o'quvchilarga xos xatolarga ajratiladi. Bunda yaxshi, o'rtacha, ko'p xatoga yo'l qo'yilgan diktantlar ajratilib, alohida –alohida taxlil qilinadi.

Orfografiya o'qitishda xatolar ustida ishlashning ahamiyati katta. Ayrim o'qituvchilar xato yozilgan so'zlarni bir necha marta yozish usulini qo'llaydilar. Buni imlosi orfografik qoidalar bilan izohlanmaydigan so'zlarga qo'llash mumkin. Ko'p xato qiladigan o'quvchilar bilan ishlash individual xarakterga ega.

9-savol. Punktuatsiya o'qitishning maqsad va vazifalari, o'zbek punktuatsiyasining prinsiplari.

Punktuatsiya sistema bo'lib, har bir til tabiatiga, yozuv tizimiga mos qilib belgilanadi. Harflar sifati tizimini, to'g'ri yozish orfografiyasini, to'g'ri talaffuz qilish orfografiyasini tashkil qilganidek, tinish belgilari ham punktuatsiyani tashkil qiladi. Punktuatsiyaning asosiy maqsadi o'quvchilarga punktuatsiyaning sistemaliligini, ijtimoiy xodisa ekanligini, fikrni yozma ifodalashdagi ahamiyati o'rgatish sanaladi.

Punktuatsion belgilarning ahamiyatini tushuntirish uchun o'quvchi tomonidan tinish belgilar tushirib qoldirilgan biror matn tanlanib o'quvchilarga o'qitiladi. Bu bilan o'quvchilar matnni tinish belgilarisiz tushunish qiyinligini anglab yetadilar.

Punktuatsiya o'rgatish ona tili o'qitishdagi eng murakkab soha sanaladi. Maktablarda punktuatsiya boshlang'ich sinflardan boshlab o'tilsa ham, 8—9 sinflarga kelib muntazam ravishda o'rgatiladi.

Punktuatsiya kursi quyidagi vazifalarni barjaradi:

-yozuvchi va o'quvchi o'rtasidagi yozuv orqali bo'ladigan ijtimoiy aloqa – bog'lanishlarni to'g'ri taminlaydi: Yoz? Yoz! nominativ gaplarini o'quvchilar tinish belgilari orqali biri so'roq, ikkinchisi undov gapligini tushunadilar;

-yozma nutqdagi maqsad, mazmun, ma'nolarni aniqlaydi: gap oxiriga nima maqsadda . , ? , ! qo'yilganini anglatadi;

-gap tarkibining o'zaro munosabatini ko'rsatadi;

-yozma nutqda stilistik qulaylik tug'diradi: Jizzax shaxridan Toshkentga qatnaydigan poyezd – “Jizzax –Toshkent” poyezdi;

-ba'zan yozma nutqdagi murakkab fikriy munosabatlarni ifodalashga yordam beradi: “Tavba!... Bu la'nati, asti, nima qiladi?!” Bu gapda “taajub+his –hayajon”, “so'roq+taajub” ifodalanmoqda.

Xozirgi o'zbek tilida tinish belgilarining qo'llanilishiga doir quyidagi prinsiplar mavjud:

1. Logik –grammatik prinsip. Bu prinsip nutqning semantik –grammatik tomonini aks ettiradi. Bunda tinish belgilari nutqning mazmuni, tuzilishi va intonasiyasiga bog'liq holda qo'yiladi:

a)nutq mazmuniga ko'ra gapning tinish belgisini qo'yish: . , ? , !.

b)nutq mazmuniga ko'ra gapga tinish belgilar qo'yish. Masalan, kiritma konstruksiyalarining ayrimlari asosiy gap bilan zich bog'lansa qavs, kuchsizroq bo'lsa tire qo'yiladi;

c)nutq intonasiyasiga tinish belgilarining qo'yilishi.

2. Stilistik prinsip. Bunda tinish belgilari nutq stillariga binoan ishlatiladi. Masalan, ilmiy fikr davomlilikini anglatuvchi gaplar oxiriga doim ikki nuqta qo'yiladi. Badiiy asarlarda bunday holat ko'pincha nuqta bilan cheklanadi.

3. Differensiasiya prinsipi. Bu prinsipga ko'ra tinish belgilari yozuv texnikasini farqlash, tinish belgilarining qo'sha qo'llanilishidagi tartibini

belgilash, gapdagi murakkab mazmunni konkretlashtirish uchun qo'llaniladi. Masalan, gapning boshi yoki oxirida qo'shtirnoq ishlatilishiga to'g'ri kelib qolsa, ularning shakli o'zgartirilgan holda qo'llaniladi: " "Navoiy" romani Oybekning birinchi yirik tarixiy asaridir", -dedi o'qituvchi.

Tinish belgilarining ishlatilishi nutqning fikriy tomoniga qarab belgilanadi. Har qanday pauza va intonasiya belgi orqali ajratilmasdan fikriy tomoniga ta'sir ko'rsata oladiganlariga qo'yiladi. Ayrim tinish belgilari hyech qanday pauza va intonasiyasiz ishlatiladi; qo'shtirnoq.

Tinish belgilarini qo'llashda ko'pincha logik –grammatik prinsip nazarda tutiladi. Bu prinsip punktuasiyaning mohiyatini ochib beradi. Punktuation savodxonlik faqatgina tinish belgilarini o'z o'rnida qo'llay bilishdan iborat bo'lmasdan, matnni ifodali o'qiy bilish ham demakdir.

10 –savol. Punktuation xatolarning tiplari, punktuasiya o'qitish metodlari.

O'quvchilarning yozma ishlarida orfografik xatolarga nisbatan punktuation xatolar ko'proq uchraydi. Bu, bir tomondan o'zbek punktuasiyasining ilmiy asoslari va prinsiplari aniq belgilanmaganligi bilan, ikkinchidan, bu sohada o'quvchilar uchun maxsus qo'llanmalarning yo'qligi bilan izohlash mumkin. Bundan tashqari ayrim o'qituvchilar punktuasiyaga yetarli e'tibor bermaydilar.

O'quvchilarning punktuation savodxonligi nazorat ishlari orqali, uyda, sinfda bajariladigan mashqlar orqali tekshiriladi. O'quvchilar yozma ishlarida uchraydigan punktuation xatolarning tiplari:

- kerakli tinish belgisini qo'ymaslik;
- tinish belgisini ortiqcha qo'yish;
- tinish belgilarini qorishtirish, birining o'rniga boshqasini qo'yish;
- belgilarning birini tushurib qoldirish;
- tinish belgilarini ishlatishda izchillikning yo'qligi.

Masalan, bir xil holatda ikki xil tinish belgisining ishlatilishi: Unga ayting: biz do'stlikni qadrlaymiz (to'g'ri). Xalqqa ayting, men also o'lganim yo'q, Yov qo'lga taslim ham bo'lganim ham yo'q.

Punktuation xatolar tahliliga bag'ishlangan darslar foydalidir. Xatolarni tahlil qilish orqali qoidani qay darajada o'zlashtirganliklari aniqlanadi.

Puntuasiya o'qitish metodlari uchga bo'linadi:

- 1.Qoida bilan ishlash.
2. Punktuation malaka hosil qilish.
- 3.Mashq qilish.

Alohida olingan matn hamda gapda tinish belgilarning qo'yilishi yoki qo'yilmaslik shartlarini o'zida birlashtirgan maxsus ko'rsatma punktuation qoida deyiladi. Punktuation qoida o'quvchi amal qilishi shart bo'lgan punktuation normani boshqarib boradi. Punktuation qoidalar ikkiga ajratiladi: a) ijobiy qoidalar; b) salbiy qoidalar.

Ijobiy qoidalar maktab punktuasiyasining asosi hisoblanib, ular qaysi belgi qachon qo'yiladigan bo'lsa, shu konstruksiyadagi punktuasiyani boshqaradi.

Salbiy qoidalar uning aksi bo'lib, u yoki va bu belgining qo'yilishini ta'qiqlaydi. Masalan, gapning uyushiq bo'laklari vergul bilan ajratiladi. Lekin ular

takrorolanmaydigan bog'lovchilar bilan bog'lansa, vergul qo'yilmaydi. Bu salbiy qoidalarining asosini tashkil qiladi.

Punktuation qoidalar bilan ishlash ikki etapga ajratiladi: a) nutq bo'lagida tinish belgilarning ishlatilishi yoki ishlatilmasligini o'zlashtirish; b) o'quvchilarga o'rgangan punktuation qoidalarini qo'llashni o'rgatish.

2. Punktuation malaka hosil qilish matn va gapda tinish belgilarini qo'yish yoki qo'ymaslik haqidagi fikrlash xarakatidir. U yozuvchining fikrlash faoliyatini o'zida aks ettiradi. O'quvchining punktuation malakasi nutq faoliyati bilan uzviy aloqador. Punktuation malakaning quyidagi turlari mavjud:

- mavjud kommunikativ birliklarda ma'no birliklarini ko'ra bilish;
- matn va gaplarda o'rganilgan punktuation qoidalarini qo'llay olish;
- tinish belgilarining turi va o'rnini belgilay olish;
- punktuation xatolarni toppish va to'g'irlash.

3. Mashq qilish. O'quvchilarga punktuation qoidalarini to'la singdirish, ularni tinish belgilarini o'z o'rnida ongli ishlatishiga o'rgatish maqsadida turli tipdagi punktuation mashqlar o'tkaziladi:

1) sintaktik – punktuation tahlil. Bunda o'qituvchi tinish belgilarining qo'yilish sababini og'zaki izoxlaydi;

2) misollar topish. O'quvchilar biror punktuation qoidaga mos keladigan misollar topadi;

3) tinish belgilari tushirilgan matnning tinish belgilarini qo'yib chiqish. Mashqning bu turi keng tarqalgan;

4) diktantlar;

5) punktuasiya bilan bog'liq bo'lgan stilistik mashq. Bunda bir sintaktik konstruksiyani boshqasi bilan almashtiradi: umumlashtiruvchi so'zning o'rnini; sodda yoyiq gapni qo'shma gapga almashtirish va boshqalar.

ГЛОССАРИЙ

наҳв	- грамматика.
аруз	- шеър ўлчови.
мантиқ	- (логика)
рафъда	- (бош келишиқда),
насбда	- (тушум келишиғида)
субстанция	- нарсалар
акциденция	- ҳодисалар
«Мафотиҳ-ул-улум»	- «Илмлар калитлари»
«Қутадғу билиғ»	- «Бахт келтирувчи билим»
«Муҳокаматул луғатайн»	- “Икки тил муҳокамаси”
“Маҳбубул-қулуб”	- “Қўнгилларнинг севгани”
Тилнинг маданияти бу	- унинг сўз бойлиғи, синтаксисининг тараққиёти ва бойиш даражаси, сўз маъноларининг ўткирлиғи, нутқий оҳангнинг ранг-баранглиғи тушунилади.
Стилистика	– услубшунослик
Монолог	- монолог сўзловчининг ўзига ёки тингловчиларга қаратилган нутқидир.
Ички монолог	- бадий адабиётда қўлланувчи услубий усуллардан биридир. Бу усул юз берган аниқ воқеаларни уларнинг таъсирида қаҳрамон ички кечинмаларида пайдо бўлган фикрлар сифатида баён этиш имконини беради. Ички монолог сўзловчининг ички нутқидир. Бу усул юз берган аниқ воқеаларни уларнинг таъсирида қаҳрамон ички кечинмаларида

	пайдо бўлган фикрлар сифатида баён этиш имконини беради. Ички монолог сўзловчининг ички нуткидир.
Лирик монолог	- сўзловчининг ички ҳис-туйғуларини, рухий кечинмаларини ифодаловчи ташқи монологик нутқ.
Хабар монологи	- сўзловчининг юз берган воқеа-ҳодисалар ҳақида ҳикоя қилиб бериши.
Диалог	- нутқ шаклларида бири бўлиб, унда ҳар бир фикр тўғридан-тўғри суҳбатдошга қаратилган бўлади.
Полилог	- иккидан ортиқ иштирокчиларнинг нутқидан тузилган суҳбат.
Публицистик	— оммабоп.
Тил системаси	- маълум бир тил тарихида амал қилган, ҳозир мавжуд бўлган ва пайдо бўлиши кўзда тутилган ҳодисаларнинг жами ўша тил тизимини (системасини) ташкил этади.
Система	- ўзаро ички зиддият (оппозиция)га эга бўлган ҳодисаларнинг гуруҳланиши.
Узус	- бирор тил жамоасида тил системасида мавжуд бўлган имкониятларнинг фойдаланиб келинаётган қисми.
Умумий норма	- тил жамоаси афзал деб ҳисоблаган бу кўникмалар йиғиндиси тилнинг умумий нормасини ташкил этади.
Хусусий норма	- муайян нутқ шаклларида амал қиладиган нормалардир.

Адабий норма	- маълум бир ҳудудда тарқалган узус имкониятлари ўша ҳудудда яшовчи аҳоли учун беистисно тушунарли бўлади, яъни алоқанинг енгил амалга ошувига имкон беради.
Варваризмлар	- ўринсиз ишлатилган бошқа тилларга оид сўзлардир.
Вульгаризмлар	- ахлоқ нормаларига тўғри келмайдиган: кишини сўкишда, ҳақоратлашда ишлатиладиган сўзлар.
Жаргон	- айрим касб эгалари, гуруҳларнинг ўз «тили» бўлиб, улар бу «тил» орқали сўзлашда бошқалардан ажралишга, ифодалаётган фикрларини кишилардан бекитишга интилиб, бу мақсад учун фойдаланадиган она тили ёки бошқа бирор тилдаги сўзлар.
Паразит сўзлар	- нутқда айрим сўзларнинг ўринли-ўринсиз кўп такрорланиши. <i>хўш, хўп, демак, яъни, олайлик, масалан, ҳапиги</i> каби сўзлар.
Канцеляризм»лар	- иш қоғозлари учун зарур бўлган, маълум бир шаклда сақланадиган сўз бирикмалари, гаплардир.
Калькаш	- нусха олиш.
Этимология	- келиб чиқиши.
Метафора	- нарса ва ҳодисаларнинг ташқи ўхшашлиги жиҳатидан маъно кўчиши.
Метанимия	- нарса ва ҳодисаларнинг макон ва замон жиҳатидан маъно кўчиши.

Синекдоха	- нарса ва ҳодисаларнинг қисми орқали бутунни, бутун орқали қисмини тушуниш ҳодисаси.
«Таҳзибул-ахлоқ»	- “Хулқий тарбия ҳақида”.
«Китобул-ахлоқ»	- «Ахлоқ китоби».
«Мифтоҳул-адл»	- «Адолат калити».
Жарангдорлик	- товушнинг тозалиги ва тембрнинг ёрқинлиги.
Кенг диапазонлик	- овознинг энг пастликдан энг юқоригача бўлган даражаси.
Ҳаводорлик	- эркин сўзлаганда яхши эшитилувчанликка эга бўлиши.
Чидамлилик	- узоқ ишлаш қобилиятига эга бўлиш.
Мослашувчанлик	- динамика, тембр, мелодиканинг эшитилиш шароитига мослаша олиши.
Қарши шовқинларга нисбатан барқарорлик	- ҳалақит берувчи шовқинга қарши тембр ва тесситуранинг ўзгариб туриши.
Суггестивлик	- овознинг ҳаяжон ифодалаш ва бу орқали, қандай сўз айтилаётганидан қатъи назар, тингловчининг хулқига таъсир қилиш хусусияти.
Артикуляция	- нутқ товушларини талаффуз этганда нутқ аъзоларининг ҳаракати.
Рекурсия	- товуш тугагач, нутқ органларининг асл ҳолига қайтиши.
Руҳий тўхтам	- сўзловчининг кучли ҳаяжонини, борлиқ воқеа-ҳодисаларидан олган таассуротларини ифодаловчи тўхтам.

Носинтактик тўхтам

- физиологик ва руҳий сабабларга (ёки мантикий ажратиш талабига) кўра тўхталиб, гап бўлаклари орасидаги синтактик алоқани кўрсатмайдиган тўхтам.

Матн

- у ёки бу ҳолда тугалланган мазмун (маъно) ва нутцнинг бирлигини ўзида шакллантирган ҳамда ифодалаган оғзаки ёки ёзма асар.

Тасвир

- нутқда ифодаланган нарса ёки ҳодисани махсус тил воситалари орқали характерлаш, унинг хусусиятларини, сифатларини кўрсатиш усули.

Мулоҳаза

- кузатилган, эшитилган ёки ўқилган нарсалар устида фикрлаш, унинг турли томонларини кўз олдига келтириш.

Ҳикоя қилиш

- бўлиб ўтган ва юз берадиган воқеа-ҳодисаларни батафсил сўзлаш ҳикоя қилиш.

Сухбат

- маълум бир мавзу юзасидан диалог (ёки полилог) тарзида икки ёки бир неча киши ўртасида бўлиб ўтган нутқий мулоқот.

Муҳокама

- маълум бир масала юзасидан кўпчиликнинг фикрини тўплашни, маълум тўхтамларга келиш.

Мунозара

- бирор масала юзасидан тарафларнинг баҳси, тортишуви.

Нотиқона сўзлаш

- айтилаётган фикрнинг тингловчига етиб бориши ва унинг хулқига таъсир этиши нотиқнинг сўзлаш маҳорати.

Ташвиқий нутқ	- муаллиф кўзда тутган бирон воқеа-ҳодисани бажаришга тингловчиларни даъват этувчи, ундовчи нутқ.
Танқидий нутқ	- юз берган ҳодисалар, шахслар ҳатти-ҳаракатларига эътирозли муносабатда бўлувчи нутқ.
Табрик нутқи	- тўйларда, тантаналарда, юбилейларда, туғилган кунларда сўзланадиган нутқ.
Баён	- берилган матн мазмунини ўз сўзлари билан қайта ёзишдир. Баёнда берилган матн асосида янги матн яратилади.
Сайланма баён	- берилган матндан маълум мавзуга мос сайлаб фойдаланиб ёзилган баён.
Резюми	- сиқик хулоса.
Отзив (фикр)	- сайланма баённинг яна бир тури отзивдир. У бадий, илмий, методик ва бошқа асарларга берилган баҳодир. Отзив, одатда, асарнинг яхши томонларини кўрсатишга қаратилган, унга «Оқ йўл» тилаган тарзда ёзилади.
Такриз (рецензия)	- рецензияда асар танқидий таҳлил этилади, шу нуқтаи назардан баҳоланади. Асапнинг ютуқлари ҳам, нуқсонлари ҳам кўрсатилади. Такризчи ўзининг даъволарини турли далиллар асосида исботлай боради, асарга илмий изоҳлар беради.
Реферат	- бирор илмий, методик, педагогик мавзудаги асарнинг қисқача мазмуни ҳақидаги баён (ёзма маъруза).

Шарх (обзор)

- илмий ва бошқа асарларга шарх бериш, яъни унинг умумий хусусиятларини қисқача баён қилиб бериш.

Тавсифнома

- кишиларнинг ижтимоий фаолияти жамиятда тутган ўрни ҳақидаги муҳокама тарзида айтилган ёки ёзилган баён.

Интервью

- матбуотда эълон қилиш, радиоэшиттириш ёки телевидениеда фойдаланиш учун мухбирнинг бирор киши билан ўтказган суҳбати, шу суҳбатнинг матбуотда эълон қилинган матни.

Мактуб

- бир кишининг бошқа бир (ёки бир гуруҳ) кишига маълум қилган ўз аҳволи, ички кечинмалари ёки юз берган воқеа-ҳодисалар ҳақидаги хабари.

Кундалик (хотира, эсдалик)

- кишилар шу кунги ҳаётини, юз берган воқеа-ҳодисаларни кейин эслаш мақсадида ёзиб бориладиган хотира.

FOYDALI MASLAHATLAR

(METODIK TAVSIYANOMA)

DIDAKTIK MATERIALLAR

Didaktik materiallarga talabalarning mustaqil va ijodiy ishlash hamda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo`naltirilgan muammoli, qiziqarli savollar, ijodiy topshiriqlar, loyihalar o`yinlar, krassovordlar kabi materiallar kiradi. SHuningdek o`qitish jarayonida o`qituvchi tomonidan qo`llaniladigan tarkatma materiallar, kartochkalar, savolnomalar, yuriknomalar, amaliy ishni tashkil etish buyicha texnologik xaritalar va h.k. kiradi.

Didaktik topshiriqlar va materiallarni ishlab chiqishda quyidagilarga e`tibor berishlari kerak:

- Muammolarni hal qilishga yunaltirish;
- Tadqiqotlar olib borishga yunaltirish;
- Turli vaziyatlar va holatlar tahliliga qaratish;
- Tajribalar va mashqlar o`tkazishga muljallash;
- Yangiliklarni izlash va topishga yo`naltirish.

Mustaqil o`rganishni ta`minlovchi va amaliyotlarni o`tkazishga yo`naltirilgan o`quv materiallarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bularga yo`naltiruvchi matnlar, loyihalar va modullarni misol qilish mumkin. Bu o`quv materiallari talabalarni mustaqil bilim olish va mehnat faoliyatiga yo`naltirilgan bo`ladi. O`quv materiallari talabalarning fanga tegishli faoliyat usuli bo`yicha nazariy ma`lumotlar bilan bir qatorda etarli bilim va ko`nikmalarga ega bo`lishlari uchun turli xildagi, hajmdagi va murakkablikdagi savol va topshiriqlar tizimini qamrab olishi kerak.

Ijodiy topshiriqlar tarkibiga ijodiy mashq, ijodiy mustaqil ish, turli didaktik o`yinlar kiradi. Agar ijodiy mashq vositasida o`rganilgan bilimlar yangi o`quv holatlariga tatbiq qilinsa, ijodiy mustaqil ish dilillardan yangi xulosalar chiqarish hamda yangicha faoliyat usullarini faoliyatda qo`llash bilan ajralib turadi

Muommali vaziyatli va ijodiy o`quv topshiriqlarini ishlab chiqishda quyidagi qoidalariga rioya etilishi tavsiya etiladi:

-topshiriqlar haqiqiy vaziyatlar bilan bog`liq muammolarga qaratilishi kerak;

-o`quv topshirig`idagi muammoni hal etishda talabalar aqliy faoliyatini turli usullar yordamida rivojlantirishni ko`zda tutadi;

-topshiriqlar mazmunida aks ettirilgan hodisalar va jarayonlar o`rtasidagi muhim bog`liqlik ko`rsatilishi kerak;

-topshiriqlar echimini aniqlash va talabalar ongida hodisalar yoki jarayonlar o`rtasida bog`liqlikni mustahkamlash imkoniyatlarini nazarda tutilishi lozim;

-topshiriqlarni bajarish jarayonida talaba oddiy tushunchalardan, u hali o`zlashtirilmagan yanada murakkabroq tushunchani keltirib chiqarish imkonini berishi lozim;

- topshiriqni bajarish jarayonida oddiy tushunchalar talabaga ma'lum bo'lmagan tushunchalar bilan o'zaro tahlil qilinadi;
- topshiriqni bajarishda talaba tushunchalarning shakli va mazmunini o'zgartirmasdan va o'zgartirib, ularni qayta ishlab chiqadi;
- ijodiy fikrlash asosida yangi bilimlar shakllanadi.

DARSNI INTERFAOL METODLARNI TASHKIL ETISHDA VA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KULLANILADIGAN USUL VA ENERDJAYZERLAR.

MAQSAD:

- Ukitish mazmunini yaxshi uzlashtirishga olib keladi.
- Uz vaktida ukuvchi- ukituvchi –ukuvchilar urtasida ta'limiyalokalar urnatadi.
- Ukitish usullari ta'lim jarayonida turli xil kurinishlarda kechadi.(yakka,juft,kata guruxlar)
- Ukuv jarayoni ukuv extiyojini kondirish bilan yukori motivatsiyaga ega buladi.
- Uzaro axborot berish, olish, kayta ishlash orkali ukuv materialiy yaxshi esda koladi.
- Ukuvchida uzaro mulokatga kirishish, fikr bildirish, fikr almashinish kunikmalari shakllanadi.
- Ukuv jarayonida – ukuvchining uz-uziga baxo berishi,tankidiy karashi rivojlanadi.
- Ukuvchi uchun dars kizikarli ukutilayotgan predmet mazmuniga aylanadi, ukish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon buladi.
- Xaar bir ukuvchini uzi mustakil fikr yurita olishga, izlanishga , mushoxada kilishga olib keladi.

- Interfaol usulda utilgan darslarda ukuvchi fakat ta'lim mazmunini uzlashtiribgina kolmay, balki uzining xam tankidiy va mantikiy fikrlashini xam rivojlantiradi.

HAMMA –HAMMAGA O'RGATADI.(interfaol usul)

Maksad:Bu usulni ukuvchilarga biror bir koidalarni, moddalarni, mavzuga oid konuniyat larni urgatishda foydalanilsa buladi. Xar- bir ishtirokchiga moddalar yozilgan kogoslar tarkatiladi va uyin koidasi tushuntiriladi . Xurmatli ishtirokchilar xozir siz kulinggizdagi kogosdagi yozuvni ukib chikasiz , men signal bergandan keyin ukigan narsangizni 10 sekund ichida YAna 10 ta odamga aytib berishingiz kerak.Vakt buldi deyilganda xama joy- joyini egallashi lozim. Muxokama yakka tartibda yoki jamoa bilan olib boriladi .

Masalan: kani kimni esida nechta modda koldi? - ukuvchi javob beradi va usha esda kolgan modda kim tomonidan aytib berilgani, bu nechanchi moddaligi unig mazmun moxiyati kiskacha muxokama kilinadi va shu tarzda uyin davom etirilib boshlovchi yakuni bilan tugallanadi.

1. REFLEKTSIYA. Aktivator 3 -2 -1

(darsni takrorlashga,kayta esga tushirishga yordam beruvchi uyin).

- 3 ta kizikarli ma'lumot;
- 2 ta sizga yokkan ma'lumot;
- 1 ta amalda kullash mumkin bulgan ma'lumot;

Bu usul orkali utilgan darsni mustaxkamlab olish, ukuvchilar bilmini kiskacha tekshirib olish mumkin. Ukituvchi xozir men 15 gacha sanayman, siz shu vakt mobaynida 3 ta kizikarli ma'lumot, 2ta sizga yokkan ma'lumot va 1ta kullash mumkin bulgan ma'lumotni yozishingiz kerak. SHu tarzda boshladik deb signal beriladi.

3.CHARXPALAK (interfaol usul).

Maksad: Bu usulda guruxlardagi bolalar soniga karab 5-6 tadan guruxchalar bulinib oladi(guruxlarda bolalar 5-6 ta bulsa yaxshi samara beradi). Bu usul orkali bolalar jamoa bulib ishlashni, tez fikrlash, bir-birini kullab kuvvatlashni urganadi.

Uyin koidasi: 5 ta vatman kogozga besh xil savol berilgan bulib (iloji bulsa savollar bir-birini tuldiruvchi bulsa yanada yaxshi),xozir siz uz guruxingiz bilan men chapak chalguncha javoblar yozasiz, chapak chalsam guruxlar soat strelkasi yunalishida kogozlarni almashtiradi va yana savollarga javob yoziladi, toki kulingizga uz kagozingiz etib kelmaguncha. Uyin sungida javoblar kurib chikiladi va gurux tomonidan tugri deb kabul kilinsa belgi kuyib chikiladi.

4.QASRDAGI PREZIDENTLAR(uyin)

Maksad: Bolalarni anik xarakatga urgatish, kuvvatni oshirish, diqqatini bir joyga tuplashga urgatish.

Uyin koidasi: guruxdagi bolalar 1,2,3 sanash orkali bulinishib oladi. Ulardan ikkitasi kasr bittasi prezident kilib ajratiladi, ikki odam kullarini ushlab turadi,ular urtasida prezidentlari turadi.

Agar prezidentlar deganda , ular boshka kasrga almashinib oladilar,kasrlar joy- joyida turadi

Kasrlar deyilganda, kasrlar birgalikla boshka prezidentlani egallashi lozim,bunda prezidentlar joy- joyida koladi.

Zilzila deyilganda kasrlar xam prezidentlar xam buziladi va xama erkin aylanib yurishadi.

YAna kasrlar yoki prezidentlar signali bulganda oldingi komandalar uzgarib boshkalar ular vazifasini bajarishi mumkin.

5. DARYO MASHQI.

Maksad: Uyin orkali bolaga xayotiy kunikmalar urgatiladi.Bolalarga etiborli bulish,ularni Kim bilan mulokatda bulishi va ichki dunyosiga etibor kilishni urgatadi.

Ok kogozdan ikkita yulak kilinadi, uyin ishtirokchilari yashirin tarzda ota,ona,kizi, dugonalar(yaxshi va yomon) ukituvchi, maxala posboni belgilab kuyilgan buladi.

Kizga ism kuyib uning Kuzi boglanadi va xar bir ishtirokchiga vazifalari tushuntiriladi.Yulakchalarga 1ta yomon ishlar bilan boglik yozuvli kogoz va 1ta bush kogoz kuyib chikamiz. Kuzi boglik xolda bolani tugriga yurishni taklif etamiz, yon chizikda turganlar uni ushlashi mumkin emas,fakat Suz bilan ta'sir kilishi mumkin.

Uyin tugagandan keyin fikr muloxazalar bildiriladi, siz nimani xis kildingiz? Kabi turli xil savollar bilan uyinga xulosa kilinadi.

- giyoxvandlik;
- ichkilikbozlik;
- chekish;
- ochik kiyinishlar;
- foxishabozlik;
- kattalarga kulok solmaslik; va bularni YAna boshka suzlar bilan almashtirish mumkin.

6. URGIMCHAK UYASI (pautina).

Maksad: bu mashk orkali bolalarni turli xil yomon illatlarni bir- biriga boglikligini kursatib berish, muammoni kay usulda echishni urgatish.

Guruxdagilar 1 dan 7gacha sanab guruxlarga bulinib olishadi . xar bir guruxda 4tadan odam bulib ular uziga 1ta rais saylashadi, kolganlari 1,2,3 deb bulinib Rais orkasida turib olishadi. Raislar stullarga utirib olishadi va kullariga giyoxvandlik, savodsizlik, ishsizlik, bezorilik, SPID, iktisodiy tanglik, terrorizm kabi suzlar xar bir Rais kuliga beriladi. 1rakamli ishtirokchi xar-bir yomon illatni ketma-ketlikda 2,3 rakamli ishtirokchilar birgalikda belgilab olishadi. Sungra xar bir ishtirokchiga 7xil rangdagi iplar berilib raislar beliga boglanadi, ketma ketlikni 1chi rakamli ishtirokchi aytib turadi va 2,3chi rakamlilar esa yomon illatlarni birin ketin bir-biriga boglab chikadi, natijada urgimchak uyasi xosil buladi. Muammo xakida fikr muloxazalar kurib chikiladi va bir ishtirokchiga uzmasdan echish taklif kilinadi, natija yaxshi bulmasa kani keling uni birgalikda echamiz- deb kanday boglangan bulsa shunday echiladi.

7. SOAT MASHKI.(refleksiya, uyin)

Gurux 1-2, deb sanok tartibida ikkiga bulinib olinadi.

Birinchi rakamlilar aylana bulib turib olishadi, ikkinchi rakamlilar ular ruparasiga turib olishadi. Ukituvchi urtada turib ularga savol beradi, ular bir biriga javoblarini aytishadi. Keyingi savol signali bulganda birinchilar joyida turaverishadi, ikkinchi rakamlilar soat strelkasi buylab xarakatlanishadi va YAna savol beriladi. SHu tarika bolalar bilmi tekshirib olinadi, oxirida bir-biringizga yaxshi tilaklaringizni bildiring deyiladi va joy joyingizni egallang deyiladi.

8. REFLEKSIYA – guruxlar ishi metodi.

Maksad: bolalarni ijodkorligini oshirishga yordam beradi.

Guruxdagi bolalar soni 5 yoki 6 tadan kilib bulib olinadi. Bolalarga kecha utilgan mavzu yuzasidan esda kolgan vokea xodisalarni she'r yozib ashula kilib aytish taklif kilinadi.

9. UZINGNI ANGLA Mashki.

Maksad: bolalarni fikrlashga, uylashga, muloxaza yuritishga urgatadi.

Bir bola stulga doskaga karatib utkaziladi, kuzuni yumish aytiladi. Unga birin ketin savollar berilib uzini kimligi anglatiladi. Savollar murakkabdan – soddaga yunalishida beriladi. Bu usulda olimlar, shoir yozuvchilar shaxsini aniklasa buladi.

10. HAMKORLIK KVADRATLARI MASHKI(mozaika)

Maksad: bolalarni chiroyli suzlashga, xamkorlikda ishlashga, fikrlashga undaydi.

Bu uyinda guruxlar 5 tadan bulinib olishadi, ularga bittadan konvert beriladi .

1- etapda Konvert ichida shakllar buladi, ularni yigish aytiladi.

2- Etapda sexrli suzlardan foydalanib bir- biridan yordam suraydilar(iltimos, mumkinmi,ijozatingiz bilan)

3- Etapda xamkorlik kvadratlari xosil buladi.

11. ROLLI UYIN METODI.Reklama.

Maksad: Vaziyatdan chika olish,suzni uz urnida ishlata bilish,moxirlik,san'atkorlik xususiyatlarini kursata olish.

5 tadan guruxlarga bolalar bulinib olishadi.Bolalar, kariyalar, kar-sokovlar, Kuzi ojizlar,talabalar, lokaydlar guruxi. Guruxlar uziga tegishli rolni bajarib turadi, reklama kiluvchilar uz maxorati bilan reklama kilayotgan maxsulini ularga utkazishi kerak buladi.(masalan konfet)

12. PANTOMIMO-uyin.

Maksad: imo-ishoralar orkali bola ichki dunyosini yuzaga chikarish,kayfiyatni kutaruvchi uyin.

Bolalar bir-biriga imo- ishora orkali tilak tilaydi va sovga berishadi, tilak kabul kilgan odam uning xarakatlarini Suz bilan ifodalab berishi kerak buladi.

13. MOZAIKA – xutikchalar.

Bu uyinda guruxlar 5-6 tadan guruxchalarga bulingan buladi va ularga konvert tarkatiladi.Konvert ichida xutikchalarning turli xarakatdagi rasmlar ifodasi bulib gurux a'zolari rasmlar ketma- ketligini birgalikda topadilar, izoxlab beradilar.

14. ENERDJAYZER- kaychi.

Boshlovchi kulidagi 2 ta kalam yoki tayokchani yonidagi sherigiga uzatadi, sherigi oyoklarini tugri kuyib utirsa = shu shaklda, agrda oyogi chalkashtirgan xolatda bulsa + shaklida uzatiladi.Xolat tugri va notugri uzatdingiz shaklida aytib turiladi.Oxirida sababi tushuntiriladi.

15. KORBURON- uyin.

Bu uyinda ikkita komandaga bulinib ularga gazetalar tarkatiladi. Ulardan korlar yasaladi, urtaga chizik chizilib, signaldan sung kor otish buyuriladi. Tuxtang signali bulganda komandalar kay xolda bulsa shu xolatda kotib turishlari kerak, kaysi zonada kor kup bulsa ular yutkazgan bulishadi.

16. SHAKLLAR – uyin.

Bu uyinda guruxlar 1,2,3 deb bulinib olishadi va kul ushlab uchburchak xosil kilishadi. Sungra ularga erkin yurish taklif kilinadi, xonada aylanib yurganda turtburchak, uchburchak yoki beshburchak signali bulishi mumkin. SHunda ular darrof uzlariga sherik topib shakl xosil kilishadi.

17. DIQQAT AKULA – uyin.

Bu uyinda bolalarga sizlar gurux bilan dam olishga daryo buyiga borgansiz, maza kilib dam oliyapsiz,suvda suziyapsiz lekin u daryoda akula bor extiyot bulishingiz kerak.Atrofda bir kancha orolchalar mavjud «Akula»signali bulganda sizlar orolchalarga chikib olishingiz kerak.(orolchalar kogozlardan kilinadi). Uyindan maksad bir- birini kutkarib kolish, agarda urtotingiz suvda kolib ketsa u akulaga em bulishi mumkin.

18. TA'LIMNING 3 TURI.

Bu uyinda 1 yakka tartibda, 2- ikki kishi bulib 3- xamkorlikda gurux bulib ishlash taklif kilinadi.

1. 1 dakika ichida Sarik yumshok narsaga 10 ta Suz yozing.(bir kishi)Kim birinchi bajarsa ukitiladi.

2. ikki kishi musobaka tarzida skrepka suziga 1 dakika ichida 10 ta Suz yozish.(ikki kishi musobaka tarzida) Kim kup yozgan bulsa ushanga ukitiladi.

3. guruxchalar xamkorlikda S VET UCHGANDA kungirok urnini bosuvchi narsani misol keltiring 1dakika ichida.(xamkorlikda ishlanadi) kaysi gurux 1 bulsa ushalar 1 chi ukib beradi.

19. MUSHOIRA.

Bunda dikkatni bir joyga tuplash uchun ketma ketlikda turt kator she'r aytish, she'rni ifodali ukish talab kilinadi.

20 MENGA AYTINGCHI?

(ichki komponentni ochishga yunaltirilgan)

Rakam tanlab 5 tadan guruxlarga bulinib olishadi. 1 – yonidagi ishtirokchiga savol beradi, 2- ruparasidagiga savol bilan murojat kiladi, keyingisida xoxlagan gurux a'zosiga savol berishi mumkin.4 – xolatda boshkaruvchi menga kaysi savolni bersaydi, javob berardim deb uyladingiz.

21 GUL – O`YINI

Bolalarga 3 xil gul nomini aytish taklif qilinadi. Lola, atirgul, rayhon. Xar bir bola o`zi yoqtirgan gulni tanlaydi. Lola deyilganda lolalar o`rin almashishadi. Atirgul deganda ular almashishadi. Rayhon deganda ular almashishadi

M U N D A R I J A

1. Titul varag'i.	1
2. Yig'ilish bayonnomasidan ko'chirma	3
3. Davlat ta'lim standarti.	4
4. Fan dasturi.	39
5. Fan ishchi dasturi.	61
6. Ta'lim texnologiyasi.	70
7. Ilovalar.	179
8. Testlar.	188
9. Oraliq nazorat savollari.	192
10. Glossariy	211
11. Foydali maslahatlar.	218